42. Jismoniy tarbiyada mashg'ulotlarni qurishning shakllari
43. Jismoniy tarbiya darsi, mashg'ulotlarning asosiy shakli sifatida va uning tuzilishi
44. Maktab darslarining tashkiliy taminoti

**Labaratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar**  
Fan bo'yicha laboratoriya ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan

**Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.**  
Fan bo'yicha kurs ishi o'quv rejasida ko'zda tutilmagan

**Mustaqil ta'limning shakli va mazmuni**

“Sport pedagogik mahoratini oshirish” (SPMO) kursi bo`yicha talabalarning mustaqil ishlarini (TMI) jismoniy tarbiya va sport mutahassislarini tayyorlovchi fanlar tizimida baholash oson emas, chunki undagi bo`limlarning o`quv materiali nihoyatda keng. Mustaqil ish ijodiy bilish va amaliy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ko`p aqliy kuchni talab qilib, yangi bilim, malaka va ko`nikmalarni o`zlashtirishda o`ziga xos zamin sanaladi. Mustaqil ish ta`lim tarbiyaning individuallashtirilishi, shaxsi ijodiy potentsialini rivojlantirishni, kasbiy malaka va mahoratning ta`minlanishini, o`qituvchi hamda o`quvchilarning hamkorligini ko`zda tutuvchi pedagogik jarayon strategiyasini taqozo jtadi.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ta’lim mavzulari**

31. Ishlab chiqarish jismoniy tarbiyasini o`tkazishning umumiyligi tafsifi, xususiyatlari va usuliyati.
32. Umumrivojlantiruvchi mashqlarning asosiy maqsadi, vazifalari hamda shakllari.
33. Jismoniy mashqlarning sportchi organizmga tasirini va tayyorgarlik guruhlarida URMLar mazmuni va ularni o`tkazish usuliyati.
34. Jismoniy tarbiya darsi mashg`ulotlarning asosiy shakli sifatida va uning tuzilishi.
35. Turli gimnastika mashqlarning majmualarini tuzish usuliyati.
36. Sog`lomlashturuvchi gimnastikasining majmualarini tuzish usuliyati.
37. Buyumlarsiz bajariladigan gimnastika mashqlarining majmuasini tashkil qilish.
38. Umumrivojlantiruvchi mashqlarning tasniflanishi.
39. Tananing alohida qismlari uchun mashqlar tanlash.
40. Jismoniy qobilyatlarni rivojlantirish uchun mashq majmualarini tuzish.
41. Ruhiy xususiyatlarni rivojlantirish uchun umumrivojlantiruvchi mashqlar.
42. Organizm tizimlarining funktional darajasini yaxshilashga yo`naltirilgan umumrivojlantiruvchi mashqlar.
43. Tayanch-harakat apparatini sog`lomlashtirishga yo`naltirilgan mashqlar.
44. Har xil buyumlar bilan bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlar mashqlar.
45. Buyumlarsiz bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlar.
46. Aylanma mashg`ulotni modellashtirish uchun umumrivojlantiruvchi mashqlar.
47. Umumrivojlantiruchi mashqlarda yuklamalarni tartibga solish.
48. Umumrivojlantiruvchi mashq majmualarini tuzish usuliyati.
49. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish usuliyati.
50. Shug`ullanuvchilar guruxlarini mashq o`rganish uchun maqsadga muvofiq joylashtirish.
  51. Mashqlarni boshlash va yakunlash uchun buyruq berish texnologiyasi.
  52. Mashqlar bajarish vaqtida xatolarni tuzatish usuliyati.
  53. Jismoniy tarbiya mashg`ulotlari uchun mashqlar tuzish shakllari.
  54. O`quv kuni tartibida jismoniy tarbiya-sog`lomlashtirish tadbirlari.
  55. Mashg`ulotlarni tashkil etishning sinfdan tashqari shakllari.
  56. Oilada jismoniy tarbiyaning shakllari.
  57. Uy sharoitida har xil mashqlar bilan individual shug`ullanish.
  58. Jismoniy tarbiya darslarida maktab o`quvchilarning faoliyatini tashkil etish usullari.
  59. Maktab o`quvchilarning asosiy faoliyati turlarini tashkil etish usullari.
  60. Dars o`tkazish usuliyatiga qo`yiladigan talablar.

“Sport pedagogik mahoratini oshirish” fani bo`yicha mashg`ulotlarni o`tkazishda kafedraning professor-o`qituvchilarning tarkibi ko`rgazmali qo`llanmalar. (jadvallar, tayanch sxemalar, tarqatma materiallar, chizmalar, ilmostratsiyalar) va AKT dan keng foydalanadi.

### **Dasturning informasion-uslubiy taminoti**

“Sport pedagogik maxoratini oshirish” fani bo`yicha ma`ruza va seminar mashg`ulotlarini o`tkazish jarayonida professor-o`qituvchilar tarkibi tomonidan eo`quvchilarning bilish faoliyatini jadallashtirish uchun axborot va kommunikatsion texnologiyalar keng qo`llaniladi hamda o`quv jarayoniga joriy qilinmoqda.

Shuningdek, professor-o`qituvchilar tarkibi tomonidan nazorat, baholash hamda talabalarning o`qishdagi yutuqlari monitoringini olib borishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari qo`llaniladi.

## TALABALAR BILIMINI REYTING TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH MEZONI

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining DTSga muvofiqdigini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan xolda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suxbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakkarda o'tkaziladi;

- oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va xokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiyoq soatlar xajmidan kelib chiqqan xolda belgilanadi;

- yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat "Test" shaklida o'tkaziladi.

**ON** o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan xollarda **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday xollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'llim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan xollarda **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday xollarda **YaN** qayta o'tkaziladi. Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: YaN.-30 ball, qolgan 70 ball esa JN-35 ball va ON-35 ball qilib taqsimlanadi.

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash ballidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.
- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshirkdamni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan xolda baholanadi.
- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiyoq ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.
- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55 ball va undan yujori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

### Talabalarning bilim darajasini aniqlash mezonlari

Ball	Baho	Talabalarning bilim darjasini aniqlash mezonlari
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushoadda yurita olish. Olgan bilimlarini amalda kullay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushoadda silish. Olgan bilimlarini amalda kullay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiyl balli xar bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.
- **ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 xafiasi mobaynida o'tkaziladi.
- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, sunggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.
- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday xolda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'limgan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.
- Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

#### **Yakuniy nazoratda "Test"larni baholash mezoni**

- Yakuniy nazorat "Test" shaklida belgilangan bo'lsa, yakuniy nazorat 30 ballik "Test" variantlari asosida o'tkaziladi.
  - Yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'llib, fan bo'yicha yakuniy nazorat "Test" shaklida belgilangan jadval asosida amalga oshiriladi
  - Yakuniy nazorat "Test" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Xar bir variant 30 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.
  - Xar bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-30 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

#### **Talabalar JN dan to'playdigan ballarning mezonlari**

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari
		maks
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Seminar mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlарining yuritilishi va holati	15
2	Mustaqil ta'lif topshiriklarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10
3	Og'zaki savollarga berilgan javoblar	10
<b>Jami JN ballari</b>		<b>35</b>

#### **Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		maks	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspektlarining yuritilishi va xolati.	15	0-7	0-8
2	Talabalarning mustakil ta'lif topshiriklarini o'z vaktida va sifatli bajarishi va o'zlashtirishi.	10	0-5	0-5
3	Og'zaki savol-javoblar va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha o'zlashtirish.	10	0-5	0-5
<b>Jami ON ballari</b>		<b>35</b>	<b>0-17</b>	<b>0-18</b>

### Talabalar YaN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	YaN ballari
		O'zlashtirish oralig'i
1	Test	0-30
	Jami	0-30

#### **Foydalaniadigan adabiyotlar ro'yxati**

##### **Asosiy adabiyotlar**

8. Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory. Text book. New York, 2016.
9. Abdullaev A., Xankeldiev SH.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. – darslik T.: UzGIFK, 2005.
10. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. –qo'llanma T.: UzGIFK, 2005.
11. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O'kuv qullama. Toshkent, 2005. – 172 s., il.
12. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. Uchebnik dlya IFK. T.: UzGIFK., 2005. 342 s.
13. Salomov R.S. Sport mashgulotlarining nazariy asoslari. – T.: UzGIFK, 2005.
14. Yunusova Yu.M. Osnovi sportivnoy trenirovki. Uchebnoe posobie. Tashkent, 2007. – 256 s.

##### **Qo'shimcha adabiyotlar**

2. Vasilkov A. A. Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya: uchebnik/ Vasilkov A.A. – Rostov n/D: Feniks, 2008. - 381s: il. – (Vo'sshee obrazovanie).
2. Lyax V.I. Dvigatelno'e sposobnosti shkolnikov: osnovno' teorii i metodiki razvitiya. - M.: Terra-Sport, 2000. - 192 s.
3. Ozolin N.G. Nastolnaya kniga trenera: Nauka pobejdat / N.G.Ozolin. – M.: 000 «Izdatelstvo Astrel» , 2002. – 864 s.

#### **Internet saytlari:**

7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
9. [www.olimpick.uz](http://www.olimpick.uz)
10. [www.olimpick.ru](http://www.olimpick.ru)
11. [www.rezeptsport.ru](http://www.rezeptsport.ru)
12. [www.paralympick.uz](http://www.paralympick.uz)

## 1-MODUL. SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH FANIGA KIRISH.

### RE J A :

1. Sport pedagogik mahoratini oshirish fani haqida.
2. Sport pedagogik mahoratini oshirish fani o'quv va ilmiy fan sifatida.
3. Sport pedagogik mahoratini oshirish fanining asosiy tushunchalari.
4. Sport pedagogik mahoratini oshirish fanining maqsadi va vazifalari

Sport pedagogik mahoratini oshirish fani sport hamda organizmga ta'sir ko'rsatadigan biologik umumiylar qonun qoidalarni o'rghanadi va umumlashtiradi. Jismoniy tarbiya tizimining maqsad va vazifalarini, vosita va usuliyatlarini, tamoyillarini, jismoniy yuklama va uni qo'llash qonuniyatlarini, jismoniy tarbiyaning zvenolaridagi jismoniy tarbiya xususiyatlarini, jismoniy tarbiyaning aqliy, ahloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan, sport trenirovkasi va uni qonuniyatlarini ochib beradi.

Sport pedagogik mahoratini oshirish amaliyot bilan chambarchas bog'langan holda rivojlanib boradi Rivojlanish manbaii bo'lib respublikamizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va ilg'or tajribalar hisoblanadi.

Inson ham, jamiyat ham umuman o'zini ob'ektiv rivojlanish qonunlarini bekor qilaolmaydi va o'zgartira olmaydi, chunki ular insonga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir. Masalan, organizmni asta-sekin son va sifat jihatdan o'zgarishi, organizmda funksional va tuzilish o'zgarishlar qonuni, organizm va uning hayot sharoiti bilan birligi va h.k. qonunlar. SHunday bo'lsada qonuniyatlar bilan birgalikda tabiiy rivojlanish jarayoniga (jumladan organizmning jismoniy rivojlanishiga) jamiyatni va shaxsni talabiga javob beruvchi ma'lum tuzilishi bo'yicha yo'nalish berib, ta'sir ko'rsatish mumkin. Bu tomondan Jismoniy tarbiya, kishining jismoniy rivojlanish jarayoniga maxsus ijtimoiy omil sifatida maqsadga muvofiq ravishda, ta'sir ko'rsatib, jismoniy sifatlar va qobiliyatlarini yo'naltirilgan holda tarbiyalashga yordam beradi. Insonning jismoniy rivojlanishiga ijtimoiy hayot sharoiti, tarbiya, jumladan, jismoniy tarbiya, genetik va aktseleratsiya jarayoni ta'sir etadi. Jismoniy tarbiya eng avval yosh avlodni va kattalarni mehnatga tayyorlashdagi, jamiyatning amaliy talablari ta'sirida tarixan ro'yobga chiqdi. SHu bilan birga jamiyatda o'rgatish va tarbiyalash tizimini tashkil topishida, Jismoniy tarbiya, asosiy omil sifatida, har xil harakat ko'nikmalari va malakalarini amalga oshirish va kishini faoliyat imkoniyatlarini kengaytirish, jismoniy qobiliyatlarini, shu bilan birga intellektual, ahloqiy va estetik tarbiyani amalga oshirish organik ravishda kirib keldi. Texnika taraqqiyoti sharoitida, mehnat xarakterini va hayot sharoitini o'zgarishi, kishining Jismoniy tarbiya ini o'zgartirishda katta boylik sifatida, kasallikning oldini olish, organizmning funksional ishini yaxshilashni, ish faoliyatini oshirishi va saqlab turishda, qisqacha qilib aytganda, sog'lig'ini saqlay va mustahkamlashda uning jismoniy holatini eng yuqori darajadagi vosita sifatida qo'llaniladi.

Jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturlarining doirasi: maktab sharoitida o'quvchilarning jismoniy harakatga bo'lgan ishtiyoqi va hohishi borligi jismoniy ta'lim berishda asosiy mezondir. Ta'limning mazkur, ya'ni jismoniy tarbiyaga oid doirasi o'quvchilar jismoniy harakat va jismoniy tarbiya bilan ongli ravishda, o'z salomatligi, qolaversa ijtimoiy va ekologik vaziyatlarni hisobga olgan holda, o'z ichki qadriyatlarini nazarda tutib shug'ullanishlarini o'z ichiga oladi.<sup>1</sup>

SHuning uchun ham Jismoniy tarbiya, umumiylar madaniyatning katta va ajralmas qismi bo'lib qoldi. Umuman jamiyat madaniyati singari, Jismoniy tarbiya ning har xil tomondan va har xil soha bo'yicha ko'rib chiqish zarur. Nisbatan to'liq tavsif berish uchun eng bo'limganda uch soha bo'yicha ko'rib chiqish kerak:

<sup>1</sup>

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, exercise and social theory. 2-edition

**1. Faoliyat sifatida (madaniyat- faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish jarayonidir);**

**2. Predmetlar- boyligi sifatida (madaniyat- jamiyat va shaxsni talabini qondirish uchun ma'lum boylik keltirib chiqaruvchi predmetlar yig'indisidir);**

**3. Natija sifatida- (madaniyat- faoliyatini natijasi);**

**4. Jismoniy tarbiyaning faoliyat turi** - sifatida insonning o'ziga xos, maqsadga muvofiq harakat faolligini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda harakat faoliyatining aniq shakllar ko'rsatilgan. Jismoniy tarbiyaga hamma shakldagi harakatlar kirib qolmasdan, balki harakat faoliyatini aniq mashqlari kiradiki, bular hayotda kerakli harakat ko'nikma va malakalari tashkil toptira oladigan, hayotga ahamiyatli bo'lgan, jismoniy sifatlarni yo'naltirgan holda rivojlanishini ta'minlay oladigan, insonning sog'lig'i va ish qobiliyatini yuqori darajada ushlab tura oladigan bo'lsin. Bunday Jismoniy tarbiya faoliyatining asosiy elementlari jismoniy mashqlar deb nom olgan.

Tarixiy tekshirishlarning ko'rsatishicha, Jismoniy tarbiyaga ta'sir ko'rsatuvchi shakllari, mehnat faoliyatining birinchi elementar shakllarini qaytargan holda, ko'proq jismoniy mehnat xarakterida bo'lgan. Jismoniy tarbiya ning keyingi rivojlanish jarayonida, ko'proq harakat va faoliyatni maxsus (o'yin, sport, gimnastika) madaniy ta'lif, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish va boshqa vazifalarni echish uchun, maxsus tuzilgan shakllarini o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya amaliy tomonidan mehnat amaliyotiga oldingidagidek tayyorlash vositasi sifatida qoladi. Bu esa mehnat operatsiyalarini tez egallab olishni ta'minlashi, unumli mehnat qilishni hamda hayotda amaliy vazifalarni echish uchun kerak bo'ladigan ko'nikma va malakalarni, jismoniy sifatlarni rivojlantirishni va yuqori ish qobiliyatini ta'minlaydigan jismoniy tayyorgarlikka olib keladi.

**5. Jismoniy tarbiya-predmetlar birligining boyligi sifatida** - jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy va material boylikni, Jismoniy tarbiya faoliyatini samarali ravishda ta'minlash natijasidir.

Jismoniy tarbiya ni rivojlanishidagi har bir bosqichda uni boylik (kishi talablarini qondiradigan boylikni) mazmunini kim shug'ullanayotgan bo'lsa, o'rgatishi, ishlatalish bu bilan birga imkoniyati boricha keyinchalik rivojlantirishi mumkin. Bu erda so'z Jismoniy tarbiya ning hozirgi kunda ko'p tarqalgan shakllari: gimnastika, sport turlari, sport o'yini turidagi o'yinlar, jismoniy mashqlarni majmui sifatida Jismoniy tarbiya ni amaliy va boshqa bo'limlariga kiritilgan.

Ijtimoiy hayot va faoliyatni uzoq rivojlanishi yo'lida, Jismoniy tarbiya ning mazmuni va shakli ham asta-sekin farqlanib bordi (ta'lif va tarbiya, moddiy ishlab chiqarish va xizmat faoliyati, kunlik hayotda va dam olishda, tibbiyotda) bu esa Jismoniy tarbiya da, ko'pgina ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'limlarni maktabda, ishlab chiqarishda, turmushda, rekreativ davolash Jismoniy tarbiya va boshqani tashkil topishiga olib keldi. Sportdagи yutuqlar jamiyatda Jismoniy tarbiya ni samaradorligini oshirish uchun maxsus tayyorlangan material texnik va boshqa sharoitlarga bog'liq (meditsina ta'minoti, sport informatsiyasi, maxsus sport asbob va uskunalarai).

**6. Jismoniy tarbiya faoliyat natijasi** sifatida kerakli natijalarni bir butunligicha ishlatalishi, jamiyatda predmet boyligi sifatida madaniylashtirilishi bilan xarakterlanadi. Bularga qisman: Jismoniy tarbiya faoliyati natijasida egallangan jismoniy tayyorlanganlik va shu asosida harakat, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish bosqichiga erishish, hayotiy kuchlar, sport yutuqlari darajasini, Jismoniy tarbiya bilan aloqada bo'lishi bilan orttirilgan natijalardir. SHunday qilib Jismoniy tarbiya faoliyati, odam bilan tashqi munosabatda bo'lib qolmasdan balki, ko'nikma, malaka, qobiliyat sifatida uyg'unlashgan holda ichki boylik sifatidagi shaklida ham bo'ladi. Ijtimoiy hayot obraziga, aniq organik sharoitda Jismoniy tarbiya hamma sohalarini to'liqligicha kiritish natijasi xalq ommasini jismoniy kamoloti bo'yicha kompleks ko'rsatkichga erishilganlidadir.

Jismoniy tarbiya da keng ilmiy tadqiqotlar madaniyatning qator boshqa sohalariga qaraganda ancha kech boshlandi. Jismoniy madaniyat harakatining amaliy kengayishi va

Jismoniy tarbiya ning jamiyat hayotidagi salohiyatini ortib borishi, uni ilmiy jihatdan fikrlashga bo`lgan talabini orttirdi, shu bilan birga, uni hayotga singdirish uchun imkoniyatlar yaratildi. Jismoniy tarbiya haqidagi ilmiy bilimlar tizimning har xil bo`limlarini tiklanishi babbaravar sodir bo`lgani yo`q. Boshqa bo`limlaridan oldin, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlar paydo bo`ldi. Bunga birinchi navbatda, jismoniy tarbiya Jismoniy tarbiya ning asosiy shakli sifatida, o`z tarixining boshlanishidan boshlab, tarbiyaning umum ijtimoiy amaliyotining katta qismini tashkil etganligi sabab bo`ldi. Uning asosida paydo bo`lgan jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati bevosita pedagogika fani bilan bog`liq holda taraqqiy qildi va nisbatan rivojlangan ilmiy-amaliy predmet sifatida anchagina ilgari shakllandi.

O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g’risida”gi qonunida ta’lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustivor deb e’lon qilinishi Jismoniy tarbiya fani zimmasiga juda katta mas’uliyatli ulug’vor vazifalarni yukladi.

Jismoniy tarbiya ilmiy nazariyasining kator asosiy masalalari bizning mamlakatimizda ham buyuk olimlar va jamoat arboblari tomonidan ilgari surilgan (Jumladan, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur)). Oliy Jismoniy tarbiya ta’limotida jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati o`quv predmeti sifatida rasmiylashtirildi. Maxsus shakllangan predmetlar o`rtasida Jismoniy tarbiya bilan bevosita bog`langan predmet bu jismoniy tarbiya nazariyasidir. Lekin u butun Jismoniy tarbiya nazariyasini ak ettiraolmaydi, chunki Jismoniy tarbiya faqat jismoniy tarbiya shaklidagina namoyon bo`lmaydi. Jismoniy tarbiya sohasidagi ilmiy bilimlarni umumlashtiruvchi boshqa rivojlangan predmet bu sport nazariyasidir. Bu fanning tez rivojlanishiga, ayniqsa, oxirgi o`n yilliklar ichida, olimpiya o`yinlarida va umuman xalqaro sport harakatidagi ko`rsatilgan yuqori sport natijalari sabab bo`ldi.

SHuni ta’kidlash shartki, xalqaro miqyosdagi musobaqalar mustaqil O`zbekistonimizni dunyoga tanitdi. YOshlarimizni ma’naviy va jismoniy etuk inson qilib tarbiyalash buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatimizning asosiy vazifasidir. Chunki, jismoniy baquvvat, ma’naviy etuk komil insonlargina jamiyat taraqqiyotini belgilab beraoladi.

SHu sababli olimpiada, jahon championatlarini aniqlash va maksimal darajadagi rivojlanishning yangi usullarini qidirib topishda, ko`pgina tadqiqotchilarni jalb etishning o`ziga xos tabiiy laboratoriyasiga aylandi va tabiiyki sport haqidagi ilmiy bilimlarni tez to`planishida o`z aksini topdi. Sport nazariyasi hozirgi kunda dunyoning ko`pgina mamlakatlarida, sport sohasidagi mutaxassislarni bo`lajak kasbiga tayyorlashning etukchi predmeti sifatida shakllangan.

Sport pedagogik mahoratini oshirish fani faqat sportchilarga ta’lim tarbiya jarayonini nazariy metodik amaliy ta’minlovchi fannigina emas, balki komil insonni shakllanishini, rivojlanishini ta’minlovchi keng sohalarni ham o`z ichiga oladi.

Ma’lumki, har qanday ilmi y bilimlar tizimini rivojlanishida har doim ikki yo`nalish o`zaro bog`liqlikda bo`ladi:

Tabaqalashgan (ayrim shaxsiy ob’ektga va yo`nalishga tegishli bilimlarni ixtisoslashuvi va bo`linishi) va integratsiya (ko`pgina shaxsiy bilimlarni bir butunlikka birlashtiruvchi umumiy bilimlarni shakllantirish).

Jismoniy tarbiya va u bilan bog`liq hodisalarini o`rganuvchi ilmiy fanlarni shakllanishi, ko`pgina davrlarda, asosan tabaqalashtilgan yo`l bilan amalga oshirildi. Natijada jismoniy tarbiyani va unga chegaradosh hodisalarini oshirish tomonlarini aks ettiruvchi ko`pgina ayrim predmetlar paydo bo`ldi. Ularning ayrimlari jismoniy tarbiya va sport amaliyotining aniq bo`limlaridan kelib chiqqan va o`z tarkibiga, kasbga taalluqli amaliy bilimlarni kiritadi (gimnastika, o`yin, yakkama-yakka kurash, engil atletika, suzish va h.k.), ayrimlari esa, jismoniy tarbiya sohasida yaratilmagan, bilimlar doirasida paydo bo`limgan, lekin o`zlarining tarmoqlari bilan unga ham tegishli tabiiy va boshqa fanlar yoki

ilmiy-amaliy predmetlar (anatomiya, fiziologiya, bioximiya, gigiena, biomexanika, psixologiya) ixtisoslashgan soha shaklida namoyon bo'ldi.

**SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH** deb keng ma'noda jismoniy tarbiya amaliyatida qo'llaniladigan bilimlarning hamma to`plamiga aytildi. Har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Boshqa fanlar singari Sport pedagogik mahoratini oshirish ham fan sifatida paydo bo`lar ekan, u avvalo, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo`ldi. Jismoniy tarbiya u yoki bu qonun qoidalarini tushuntiradi, uni maqsadga muvofiq ravishda boshqarishga xizmat qiladi. SHu bilan birga bunday bilimlarning majmuasi bir biridan aniq fan va nazariy umumlashtirish sanasi bilan farqlanuvchi turli fanlar ramkasida shakllanib kelgan va shakllanib bormoqda. Bu jihatdan quyidagilarni ajratish lozim.

**XUSUSIY MAXSUS PREDMETLAR.** Jismoniy tarbiya ning ayrim yoki ma'lum yaqin elementlarni o'z ichiga olib metodik bilim sifatida (gimnastika turlari, sport o'yinlari) beriladi. Bunday predmetlar o'z chegarasida katta bo`limgan aniqlikda nisbatan qisqa umumlashtiriladi.

**SOHA PREDMETLARI.** Jismoniy tarbiya ni har xil tipdag'i katta komponentlarini o'rganishga qaratilib (ta'lim tizimi, mehnatni ilmiy tashkil qilish, maishiy xizmat, maxsus sog'lomlashtirish tiklash tadbirlarida qo'shiladi), jamiyatda uni asosiy shakli va yo'nalishidan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish (asosiy jismoniy tarbiya, kasbamaliy jismoniy tayyorgarlik, sport trenirovkasi va boshqalar). Bu sohadagi fanlarni Sport pedagogik mahoratini oshirish va usuliyatining asosiy kasbga yo'naltirilgan predmetlari deyiladi. Hozirgi vaqtida bulardan eng rivojlanganlari jismoniy tarbiya nazariyasi va sport nazariyasidir.

Umumlashtiruvchi nazariyaga jismoniy tarbiya ning umumiyl nazariyasi yoki jismoniy tarbiya nazariyasining umumiyl asoslari deb yuritiladi.

Sport pedagogik mahoratini oshirish (uning umumiyl asoslari), Jismoniy tarbiya ning mohiyatini bildiruvchi ilmiy bilimlarni integrativ tizimi, umuman olganda, shaxsni ijtimoiy tashkil topishida va kishini hayotiy kuchlarini rivojlantirishni optimal rivojlanishi, tarbiyaviy omillar tizimini yanadada rivojlantirish uchun yo'naltirilgan holda foydalanishni umumiyl qonuniyatlarini va ularni amalda qo'llanilishi tushuniladi.

**Jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari.** Boshlang'ich, elementar, o'rta ta'lim maktablarini dasturlar bilan ta'minlash masalalari bo'yicha Qirollik komissiyasi ta'lim vazifalarini o'quv dasturlari bilan uzviy bog'langan holda olib borishni nazarda tutadi:

*Ta'lim tizimi bo`limlari ichida o'quv dasturi talabalarga bevosita - ta'sir o'tkazadi... u ijtimoiy qadriyatlarni yanada kuchliroq qilib, talabalarni yangicha fikrlaydigan, jamiyatning aktiv a'zosi bo`lishga undaydi va ularni jamiyatning o'z rasm – rusumlari, ma'naviy qadriyatlarni yaxshi anglab olgan a'zosiga aylantirishga yordam beradi.*

*Aynan o'quv dasturlari orqali talabalar muloqot qilish maxorati, tashqi dunyo bilan aloqa qilishdagi to'siqlarni engib o'tish sirlarini o'rGANADI<sup>2</sup>*

Jismoniy tarbiya umumiyl ta'lim tajribasi doirasida jismoniy faollik vositasi bilan talabalarning jismoniy tarbiyaga bo'lgan munosabatlarni to`g'ri va sog'lom bo`lishi uchun imkoniyatlar yarattadi va ularning shaxsiy, ijtimoiy farovonligi rivoji yo'lida muxim o'rin tutadi.

Bu missiya kuyidagilarni nazarda tutadi: xar bir talaba o'z shaxsiy xayot sifatini madaniy va ekologik jixatlarni nazarda tutgan xolda rejalashtirilgan kundalik jismoniy faollik orqali oshirishga qaratilgan jismoniy tarbiya o'qituvchilari xamkorligidagi faoliyati.

<sup>2</sup> Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory. 2-bet

**Jismoniy tarbiya jixatlari.** “Jismoniy tarbiya” termini 20 asr boshlarida SHimoliy Amerikada ishlatilgan “jismoniy tayyorgarlik” tushunchasidan kelib chiqqan. Davlat maktab tizimida jismoniy tarbiya asosiy fan xisoblanadi. Jismoniy tarbiya inson xarakatiga asoslangan . SHu sababdan xam jismoniy tarbiya maktab dasturining asosiy va muxim tarkibiy qismidir. Jismoniy tarbiya maktab predmeti sifatida odam fel atvorini insoniy va ekologik omillarni nazarda tutgan xolda tushunish va bu omillarning xarakatga,xarakatning esa omillarga ta’sirini anglashga qaratilgan. Bu xolat shaxs sifatida inson to’kisligining boshqa jixatlariiga xam bog’liq.

Inson xarakatlarini **uch xil** o’lchovda ko’rib chiqish mumkin:

1. Xarakat xaqidagi ta’lim oddiy harakatlardan to murakkab harakatlargacha barchasini o’rganish kontseptsiya va qoidalariiga bog’liq jarayonlarni o’z ichiga oladi. O’quvchilar anatomiya, fiziologiya, fizika, psixologiya, estetika fanlari bilan mushtarak xolda sport o`yinlari, engil atletika, suzish, ritmika, raqs kabilarda xam jismonan rivojlanadi. Boshlang’ich birlamchi bosqichda “xarakat” mavzusi xar xil o`yinlar vositasida rivojlantiriladi. Bu mashg’ulotlar jismoniy tarbiya guruxlarida boshqa predmetlar bilan mutanosiblikda olib borilishi mumkin.YUgurish, sakrash, uloqtirish, ilib olish, burilish kabi xarakat turlaridan ta’lim amaliyotida foydalanish mumkin. Matabning o’rta va yuqori sinflari bosqichida harakat haqidagi bilimlar mutahassislikning bir necha soxalariga bo`linishi (anatomiya, fiziologiya, biomexanika, harakat madaniyati, o`yinlar tarixi) yoki boshqa predmetlar bilan integratsiya qilinishi mumkin.Harakat xaqidagi ta’lim “harakat” haqida bilim berish demakdir.

2. Haraka orqali ta’lim berish maqsadga erishish yo`lida muhim vosita bo`lgan harakatning samaradorligi asosiga qurilgan.Bu o’lchovda harakat ma’naviy qadriyatlar, xulq- atvor, estetika,ijtimoiy hamkorlik yoki bo’sh vaqtdan to’g’ri foydalanish kabilarda maqsadga erishish vositasi hisoblanadi

3. Harakat paytidagi ta’lim xarakatning ajralmas sifatlari bilan uzviy bog’liq. Bu o’lchovdvy harakat madaniy jihatdan ahamiyatli bo’lgan tadbirlarda qatnashish imkoniyatini beradi. Harakat paytidagi ta’lim jismoniy faoliyat chog’ida qanday xarakat qilish va bu paytda tananing harakat tajribasini nazarda tutish kabilarni o’z ichiga oladi. Harakat paytidagi ta’lim o’quvchi yoki talaba harakatlari muhimligini hisobga olgani xolda har xil vaziyatda, har xil darajada muayyan xoldan kelib chiqib boshqa o’lchovlarga ham suyanadi. Aynan shu erda, uch o’lchov uchrashgan holatda mazkur o’lchov jismoniy tarbiyada ahamiyatga molik<sup>3</sup>.

## XARAKAT

Bu uch o’lcham doirasida jismoniy tarbiya harakat jarayoni va mazmunini ko’rsatadigan inson bilimlarining shaklidir.Harakat vositasida o’quvchilar, jismoniy tarbiyada yuqori natijalarga erishishga intiladilar. Barcha uch o’lchamlar o’zaro bog’langan bo`lib, faol xayot tarzi deb atalmish tushunchani o’z ichiga olgan jismoniy faoliyatni nazarda tutadi. Jismoniy tarbiya matab predmeti sifatida faol hayot tarzida matablar rivojida katta ahamiyatga ega.

Xaqqiy jismoniy tarbiya jismoniy faoliik orqali, harakat yordamida o’quvchilarning axborot olishi va ongi kegayishini nazarda tutadi<sup>4</sup>.

## Jismoniy tarbiyani asoslash.

<sup>3</sup> Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory. 4-bet

<sup>4</sup> Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory. 4-bet

Eng maqbul salomatlikka erishishda bolalar va yoshlarning doimiy jismoniy faoliyat bilan shug'ullanishlari zarurligi avvaldan ma'xum.YAxshi psixik va jismoniy salomatlik doimiy jismoniy faoliyatning natijasi hisoblanadi. Bunga eng yaxshi xujjatli dalillar ko`rsatiladi:

1. Faol bolalarning maktabga, o`zlariga, jismoniy faoliyatga bo`lgan munosabatlari ijobiy bo`lib, ularning o`zlashtirishi yaxshilanadi.

2. Jismoniy faollikka asoalangan dasturlarda, ayniqsa aerobikada doimiy qatnashib kelgan bolalarning o`zlariga nisbatan hurmati oshadi. Ularning fikrlari jamlangan, intizomlari yaxshi bo`lib, o`zlarini tutishlarida jaxldorlik sezilmaydi.

3. Doimiy jismoniy faollik stress (ruxiy xayajon) xolatini yumshatib, bolalarda stressning oldini olishga yordam beradi.

4. Doimiy jismoniy faollik mushaklarning baquvvat bshlishi, kattaligi va chidamli bo`lishiga ijobiy ta'sir qiladi.

5. Doimiy jismoniy faollik mushaklar xajmi ko`payib , yog' qatlamlarining kamayishiga va bunda tana og'irligi deyarli o`zgarmay qolishida muximdir.

6. Bolalikdan boshlangan doimiy jismoniy faollik hali balog'atga etmagan davrda suyaklar miqdorining o'sish darajasini ko`paytirib, osteoporoz ( suyaklar hajmining kamligi) ning oldini oladi.

7. Faol va sog'lom bolalarda triglitseridlар kamroq va (YUZLP - yuqori zichlikdagi lipoprotein) – qondagi xolesterinning umumiyo koeffitsentiga nisbatan YUZLP ning kamxarakat bolalarga nisbatan yuqori bo`lishi kuzatiladi.

8. Faol xayottarzi ovqatlanishning yaxshilanishi , chekish va spirtli ichimliklar ichish kabi zararli odatlardan xolos bo`lishda o`ta muxim.

9. Jismoniy mashqlar o`rtacha xayot muddatini uzaytirishda ham ahamiyatlari.

YOshlarning mahsus guruxlardagi qatnashchilarining sakson besh foizi kundalik jismoniy faollikning o`ta muhimligini tan oladi.

O`z jismoniy xayotidan qoniqsan talabalarga nisbatan ishonch ham baland bo`lib, ular o`quv dargoxining boshqa jabhalarida, xususan akademik izlanishlarda ham doim tayyor xolda bo`ladi.

Gellapning jismoniy faollikni tadqiqot qilish milliy Dasturiga ko`ra (1989) , 94% kanadaliklar maktablarda jismoniy tarbiya muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi., 67 % xalq esa jismoniy tarbiya o`ta muhim ahamiyatga ega debhisoblaydi. YArmidan ko`p odamlar esa (51,8%) jismoniy tarbiya ham matematika va o`qish kabi muximdir deb hisoblaydi. Kanada jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi ilmiy tekshirish instituti ta'kidlashicha jismoniy tarbiya sifatiga katta e'tibor berilgani bilan bir qatorda ko`pchilik maktablarda bu predmetga birinchi darajali fan sifatida qaralmayapti. Tadqiqotlar kanadalik bolalar orasida jismoniy tayyorgarlik darajasi ancha pasayganligini ko`rsatmoqda. Kempbellning umumiyo salomatlik bo'yicha tadqiqotlari (1988) fakatgina 10% Kanada yoshlarigana jismoniy jixatdan faoldirlar. Axoli sog'lagini mustaxkamlash bo'yicha ma'lumotlarga ko`ra (1990) jismoniy faollik ko`rsatayotganlar orasida N'yuafaundlendliklar va Labradorliklar hissasi 1985 yildagi 29 % dan 1990 yildagi 22,9 % ga tushib ketgan.

Jismoniy faollikning bunday pasayib ketishining qanday qilib oldini olish mumkin?

Ta'lim mahalliy va davlat miqyosidagi axamiyatga ega bo`lganlagi sabab xalq salomatligi va farovonligiga katta e'tibor berilmoqda. Jamiyatimiz salomatlikning qanchalik ahamiyatliligin his qilgani sari, fuqarolar ham o`z shaxsiy farovonligi bilan bir qatorda sayyoramiz va unda yashayotganlarning sog'lom bo`lishi haqida qayg'urmoqdalar.

Bunday yangicha his qilish va global qayg'urish FAOL HAYOT TARZI kontseptsiyasini ishlab chiqishga olib keldi. Bu kontseptsiya bo'yicha jismoniy faollik qadrlanadi va kundalik hayotga tadbiq etilgan.

Ota- onalar ham farzandlari ham farzandlari barkamol hayotga intilgan sari faol xayot tarzini olib borishini istaydi; bilamizki, jismoniy tarbiya sinfi bolalarning tayyorgarlik darajasidan qat'iy nazar ularga ta'sir o'tkazish mumkin bo`lgan joy .

Maktab sharoitida faol hayot tarzi vasitasi sifatida jismoniy tarbiya insonning borlig'ini egallaydi :

... jismonan - to`g'ri tanlangan faoliyatda qatnashish darasining yuqoriligi yo`li bilan.

...aqlan- yangi bilimlar va kontseptsiyalarni o`rganishda intensivlik va aqlni jamlab ish qilish bilan

... ruhan – inson olgan bilimlaridan foydalanayotganda paydo bo`lgan ishonch orqali...

... ijtimoiy jihatdan – boshqalar bilan muloqotda va

... ma`naviy jihatdan – o`zidan qoniqsanlik va ichki osoyishtalik hissiyotlari orqali.

Faol hayot tarzi bilimlar va malaka oshgani sari o`z-o`ziga hurmat hissi uyg'onib, insonning individual sog'lolashishiga imkon yaratadi. Bunday faol hayot tarzida jismoniy faollik kundalik hayotga tadbiq etiladi va qadrlanadi<sup>5</sup>.

Faol hayot tarzi maktabda jismoniy tarbiyaning asosiy printsiplari tamon etaklovchi uch aksiomaga asoslangan:

**Alohidida (individual) yondashish:** bunda inson faolligi barcha sabablarga: ish faoliyati, o`yinlar, topshirqlar va erishilgan yutuqlar, shaxsnинг sog'lomligi va rivojlanishi, o`zligini ijodiy va madaniy jihatdan ifodalashi, ijtimoiy xamjihatlik kabilarga bog'liqligini nazarda tutadi.

**Ijtimoiy jihat:** Bu jihat xar bir shaxsda alohida o`z aksini topadi, lekin bunda ijtimoiy normalar va qadriyatlar, resurslar, e'tiborga molik o`quvchilar kabi omillar bizning tanlovimizga ta'sir ko`rsatadi. O`z navbatida tanlovimiz ham shu omillarga ta'sir etadi.

**TSiklyuziv jihat:** Bunda biz alohida shaxs yoki gurux sifatida kim ekanligimizni ifodalash usullari nazarda tutiladi. Bunga barcha kanadaliklar jinsi,yoshi,irqi,kelib chiqishi,dini, ijtimoiy-iqtisodiy mavqeい va ma'lumotidan qat'iy nazar huquqlidirlar.

**Inklyuziv jixat:** Bunda biz aloxida shaxs yoki gurux sifatida kim ekanligimizni ifodalash usullari nazarda tutiladi. Bunga barcha kanadaliklar jinsi, yoshi, irqi, kelib chiqishi, dini, ijtimoiy – iqtisodiy mavqeい va ma'lumotidan qat'iy nazar huquqlidir.

#### **Faol turmush tarzi – shaxsiy farovonlikdan ham ko'proq jihatlar demakdir.**

Faol turmush tarzi falsafasi talabalarga o`zaro bog'liq dunyoda kompleks shaxslar sifatida qarash kerakligini ta'kidlaydi. O`z negizi bilan faol turmush tarzi aksiomalariga bog'lanib ketgan jismoniy tarbiya asoslari talabalarga ijtimoiy va ekologik kontekstda yondoshishni nazarda tutadi,bu kontseptsiya shaxsiy sog'lik bilan jamiyat sog'lomligi,qolaversaatrof- muxit va ekologik sog'lomlik orasida bog'liqlikka alohida urg'u beradi (Louson, 1992y.) Individual miqyosda jismoniy tarbiya salomatlik va yaxshi kayfiyat garovi sifatida faol turmush tarzini olib borishda o`z- o`zini nazorat qilib,unga ma'suliyatlari yondoshishni talab qiladi. Biroq, faol turmush tarzini olib borishda ijtimoiy muxitni ham hisobga olish lozimligini jismoniy tarbiya vositasi bilan o`quvchilarga etkazish lozim.

Jismoniy tarbiyaning vazifasi talabalar faol va sog'lom turmush tarzini olib borishda shaxsiy mas'uliyatni xis etishi barobarida jamiyat va atrof – muxit salomatlikka ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko`rsatayotganliklarini ham hisobga olishlari lozimligini uqtirishdan iborat. Misol tariqasida maktab xovlisida ochiq havodagi o`yinlarni tashkil etish va shu ritmik harakatli o`yinlar orqali o`quvchilarni faol turmush tarzi olib borishga undash kabi usullarni aytib o'tish mumkin. O`quv muassasasi ma'muriyati va talabalar jismoniy faollikka ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko`rsatayotgan ijtimoiy va ekologik omillarni o`rganib,tahsil qilishlari lozim.

Jismoniy faollikning ijtimoiylashishi ayollarda ham, erkaklarda ham juda yosh paytidan munosabatlarning differentsiallashishi ya'ni tabaqalashtirilganiga duch kelishganida boshlanadi. Jismoniy tarbiya sohasidagi tadqiqotlar vositasida o`qituvchilar

<sup>5</sup>

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, exercise and social theory. 4-bet

talabalarni jamiyatda jismoniy faollikka nisbatanadolatsiz munosabatda bo`lish yoki umuman loqayd bo`lish hollariga qarshi bo`lishga undaydi.

Jismoniy tarbiya sohasida biz talabalarga faol turmush tarzini qanday yo`llar bilan olib borish amallarini ishlab chiqishda jamiyatning barcha qatlamlaridagi odamlar kundalik asosda jalb qilinmog'i kerakligini uqtirishimiz kerak.

YOsh kanadaliklarning ancha qismi faol emas - 10-14 yoshdagilar orasida 15% erkaklar va 23% ayollar; 15-19 yoshlilar ichida 10% erkaklar va 30% ayollar. Bundan tashqari 10-14 yoshdagilar orasida 15% erkaklar va 28% ayollar; 15-19 yoshdagilar orasida 16% erkaklar va 30% ayollar o`rtamiyona faollikka ega<sup>6</sup>.

### O`quv fan sifatida.





Sport pedagogik mahoratini oshirish (umumiy asoslari) o`quv fani sifatida jismoniy tarbiya va sport bo`yicha mutaxassislarni kasbga tayyorlashda, ularga ma'lumot berishda asosiy fan bo`lib hisoblanadi. Jismoniy tarbiya o`quv fani sifatida to`rtta katta bo`limni o`z ichiga oladi.





### © Adabiyotlar

1. Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, exrcise and cocial theory.
2. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. A.Abdullaev va b. T.2005 y.
3. R.S.Salomov va b. "Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligiga kirish". T. 1990 y.


---

<sup>6</sup> Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, exrcise and cocial theory. 4-bet







[avangardsport.at](http://avangardsport.at)




3




6




7






10



12








## Saf mashqlarini o`rgatish.

**Dars maqsadi:** talabalarga saf mashqlaridan “saf usullari” ni o`rgatish va amaliy bajarish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zal

1. Saflarning asosiy nomlari va uning joylanishi: zinch saf, orasi ochiq saflanishlarni bajarish.
2. Saf usullari - «SAFLANING!», «ROSTLANG!», «TEKISLANG», «Chapga qarab tekislan!», «O`rtaga qara!», «TO`XTA!», «ERKIN», «O`ng (chap) oyoqda ERKIN!», «TARQAL!», «Tartib bo`yicha- SANA!»-«Birinchi va ikkinchiga- sanang!», «Uchta lab (to`rt, besh va hokazo)- sanang!» buyrug`larini o`rgatish.
3. Saf usullarini amaliy bajarish.

Sherengaga (yonma-yon) qator, saflanish- «*Bir ketma- ket qatorga - Saflan!*»- buyrug`iga binoan bajariladi. Topshiriq bo`yicha qator, doira va hokazo bo`lib saflanish. Masalan: «*Doiraga turing!*», «*Ikki qatorga turing!*».



## Qo`shpoya va yakkacho`pda bajariladigan mashqlarini o`rgatish.

**Darsni maqsadi:** qo`shpoyada va yakkacho`pdagi tayanish, tebranish, burilish, muvozanat mashqlarini o`rgatish.


**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1. Qo`shpoyada mashqlar -qo`llarga tayanib, tayanib turib tebranishlar, yelkalarda tik turish, oyoqlarni kerib o`tirgan holatdan oldinga dumbaloq oshish. Tayanib tebranishdan qo`llarni bukish va yozish.
2. Qo`llarni harakatlantirib yurish, oyoqlar uchida burilishlar, qadam va tayanch oyoqda sakrab (kerishib) qo`nish, chuqqaishlar. Tayanib bitta tizzaga turish, tizzalarni almashtirish, sakrab bir oyoqni o`tkazib tayanib o`tirish, bir oyoqda muvozanat saqlash.

## Tayanib tebranishdan qo`llarni bukish va yozish

**Bajarish texnikasi.** Mashq oldinga siltanish kabi, orqaga siltanishda ham bajariladi. Oxirgi variant anchagina qiyinroq. Shuning uchun o`quvchilari bilan qo`llarni bukish va yozishni oldinga siltanishda o`rganishni boshlash maqsadga muvofiq. Orqaga siltanishning oxirgi holatidan, oldinga siltanishni boshlanish bilan bir vaqtida yelkalarni biroz oldinga berish va qo`llarni bukish. Vertikaldan o`tish paytida tos-son bo`g`imidan biroz buqilish. Oyoqlar oldinga-yuqoriga harakatlanishi bilan qo`llarni yozish. Qo`llarni bukish vaqtida yelka holatiga e`tibor berish zarur. Agar yelkalar biroz orqaga “tushgan” bo`lsa, unda

o`rganuvchi tana bilan vertikaldan o`tish paytida tayanchda ushlanib qololmaydi. Shuning uchun mashqni qo`shtpoyaning o`rtasida bajarish lozim.



*O`rgatish ketma-ketligi.*

1. Oyoqlar poyadan yuqoriga ko`tarilguncha tayanib tebranish.

2. Tayanib qo`llarni bukish va yozish (4-6 martadan kam emas).

3. Tayanib tebranish, orqaga siltanib oyoqlarni ajratish va ularni poyalarga panjalarning ichki tomoniga yumshoq tushirib, poyalarda tayanib yotish holatini egallash, qo`llarni bukib, oyoqlarni birlashtirish va oldinga siltanib qo`llarni yozish.

4. Oldinga siltanishda qo`llarni bukish va yozishni bajarish.

*Straxovka va yordam.* Poya ostidan, beldan va sondan ushlanadi.

*Nazorat darsi uchun kombinatsiya.*

1. Poyalar oxiridan sakrab tayanish va qo`llarda itarilish bilan bir vaqtida oldinga turishgacha harakatlanish – 1,0 b.

2. Tirsaklarga tayanishga tushish va tebranish – 1,0 b.

3. Oldinga siltanib oyoqlarni ochib o`tirish – 2,5 b.

4. Qo`llarni oldinga o`tkazib ushlab, oldinga o`mbaloq oshib oyoqlarni ochib o`tirish – 2,5 b.


5. Ichkariga siltanib o`tish va orqaga siltanish – 0,5 b.

6. Oldinga siltanish boshlanishida qo`llarni bukish va siltanish oxirida yozib, orqaga siltanib o`ngga (chapga) kerilib sakrab tushish – 2,5 b.

## САКРАШ ТУРЛАРИГА УМУМИЙ ТАВСИФ

РЕЖА:

### 1. САКРАШ ТУРЛАРИГА ТАВСИФ.



### 2. САКРАШ ТУРЛАРИ ТЕХНИКАСИ.

3. САКРАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.
4. САКРАШ ТУРЛАРИДА ФАЗАЛАР.

### 1. САКРАШ ТУРЛАРИГА ТАВСИФ.

Енгил атлетика турлари орасида сакраш турлари ўзига хослиги билан бошқаларидан ажралиб туради. Сакраш турлари бир-биридан ўзига хос хусусиятлари билан фарқланади. Енгилатлетикада сакрашлар икки гуруҳга бўлинади – **вертикал** (вертикал тўсик оша сакрашлар) ва **горизонтал** (узунликка сакрашлар).

Биринчи гуруҳга қўйидагилар киради:

- югуриб келиб баландликка сакрашлар;
- югуриб келиб лангар чўпга таяниб сакрашлар.

Иккинчи гуруҳга қўйидагилар киради:

- югуриб келиб узунликка сакраш;
- югуриб келиб уч ҳатлаб сакрашлар.

Енгил атлетика сакрашларининг биринчи гуруҳи:

**1) Югури бкелиб баландликка сакраш** (Олимпиядада ўйинлари дастуридан ўрин олган) – ациклиқ тур, у спортчидан тезлик-куч сифатларини, сакровчанликни, чаққонликни, эгилувчанликни намоён қилишни талаб этади. эркакларда ва аёлларда стадионда ва манежда ўтказилади;

**2) Югуриб келиб лангар чўпга таяниб баландликка сакраш** (Олимпиядада ўйинлари дастуридан ўрин олган) – ациклиқ тур, у спортчидан тезлик-куч сифатларини, сакровчанликни, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни талаб этади, енгил атлетиканинг энг мураккаб техник турларидан бири саналади. эркаклар ва аёлларда, стадионда ва манежда ўтказилади.

Енгилатлетика сакрашларининг иккинчи гуруҳи:

**1) Югуриб келиб узунликка сакраш** (Олимпиядада ўйинлари дастуридан ўрин олган) – тузилишига кўра аралаш турга киради, у спортчидан тезлик-куч, тезлик сифатларини, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни тақозо этади. эркакларда ва аёлларда, стадион ва манежда ўтказилади;

**2) Югуриб келиб уч ҳатлаб сакраш** (Олимпиядада ўйинлари дастуридан ўрин олган) – ациклиқ тур, у спортчидан тезлик-куч, тезлик сифатларини, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни тақозо этади. эркакларда ва аёлларда, стадион ва манежда ўтказилади<sup>7</sup>.

### 2. САКРАШ ТУРЛАРИ ТЕХНИКАСИ.

Енгилатлетикадаги сакрашлар жисмоний қобилиятлардан куч, тезкорлик ва ҳаракат ўйғунлигини ривожлантиришнинг асосий воситаларидан бири бўлиб ҳисобланади. Енгил атлетика сакрашлари машғулот воситаси сифатида ҳамма спорт турларида қўлланилади. Енгил атлетикада мусобақалар баландликка, узунликка ва югуриб келиб уч ҳатлаш ҳамда лангар чўп билан сакраш турлари бўйича ўтказилади.

Сакрашлар техникасини ўрганишда маълум кетма-кетликка риоя қилиш шарт. Олдин баландликка сакраш техникаси ўргатилса, кейин узунликка лангар чўп билан уч ҳатлашга ўргатилади. Ҳамма сакрашлар учун бир хил тузилиш: югуриб келиш - депсиниш – учиш – ерга тушиш характерлидир.

<sup>7</sup>Wolfgang Killing, ElkeBartschat, Herbert Czingon. /Jugendleichtathletik – Sprung. 2008, (German).

Баландликка сакраш. Сакровчининг ҳамма фаолияти югуриб келиш, самарадор равишда депсиниши, планкадан ўтиш ва ерга тушишдан ташкил топади. Сакрашлар планкадан ўтиш усулига қараб ҳатлаб, перекат, фосбери-флоп турлари фарқланади.

Шуғулланувчилар ўрганилаётган усулнинг техникаси билан танишгандан сўнг, депсиниши тўғри ўрганиши шарт. Асосий диққат депсиниши учун оёқни қўйилишига қаратилади. Кейинги ўқув топшириғи, депсинишига тайёрлашни ўзлаш-тириш билан бир қаторда, тўлиқ югуриб келишдаги охирги қадамларни режимига қаратилади. Бу унсунларни техникасига ўргатиш қисқа югуриб келишдан, ўртача (5-6 югуриш қадам) ва тўлиқлигича ўргатилади. Асосий вазифаси бўлиб ўрганилаётган сакраш режимининг бажарилиш характеристига қараб, югуриш тезлигини бир текисда ошириб бориб, югуришни охирги қадамларида уни янада оширишдан иборатдир.

Планкадан ўтишни ўзлаштириш, югуриб келиш, депсиниши техникасни ўзлаштиришдан олдин бошланади. Бу ерда планкадан “Иқтисодли” ўтишга катта эътибор берилади.

Охирги йилларда “ҳатлаб” ўтиш усули (асосан, оммавий ўргатишда) “фосбери-флоп” усули кенг тарқалди<sup>8</sup>.

### **3. САКРАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.**

Сакрашда спортчилар кўп ёки узоқ учуш даврини амалга оширади. Буни улар баландликка сакраш ва лангар чўп сакраш, горизонтал тезликда узунликка ва уч ҳатлаб сакрашда ёрдам беради. Катта сакраш импулси бу енгил атлетикадаги сакрашнинг умумий бўлимидир, лекин фақатгина **сакровчилар сакраш импулсини тенг ҳуқуқли обекти ҳисобланади**. **Бу орқали тананинг базўр ҳаракатлар кетмакетлиги эстетикаси кенгайтиради**. Шунинг учун улар куч томонлама чегараланмаган бўлишлари керак, акс ҳолда ўз оғирлик – куч қоидаларини оптимизациялаштиришлари зарур бўлади. Сакраш бурчагини тикхолатини кўпроқ ривожлантиришлари керак. Шундагина енгил атлетика вакили Шмидт Ҳокенинг 80 йилдан ортиқ эски ибораси тушунарли бўлади, қаердаки у “сакрашлар енгил атлетиканинг энг гўзал ҳолатлари ҳисобланади”.

Бу замонавий муҳокама эмас, одатда сакраш машқлари ҳам замонавий, ўрта асрлар, антик ва шунингдек арҳаик маъданият ҳисобланади:

- ёшлар ҳам ўзаро бошларидан сакрашган, бу билан улар катталар қаторига қабул қилинганлар.
- Антик олимпияларида бешҳатлаб сакраш, ҳам югуриш ва диск улоқтириш қаторида енгил атлетика турлари деб ҳисобланган.
- Рицарлар ўйинларида ҳам, кишилар устидан ўтиб узоққа сакраш қўрқмас тулпор каб имаънога эга бўлиш имконини берган.
- Шимолий Германияда ҳозиргача Стак (кичик каналларни ёғоч чўп билан ҳатла бўтиш) халқ спорти деб сақланиб қолган<sup>9</sup>.

### **4. САКРАШ ТУРЛАРИДА ФАЗАЛАР<sup>10</sup>.**

**Енгилатлетикадасакрашфазалариқуйидагича:**

1.1. жадвал.

<b>Югуриб келиш</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Қисқа, ўртача, ёкиузун</li> <li>- Кенг, тор эгри ва ярим айлана югуриб келиш</li> </ul>
<b>Сакрашни шакллантириш</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Қисқа сезиларсиз йиқилиш ва қисқа депсиниши элементлари билан ёки узун тайёргарлик ва йиқилиш билан</li> </ul>
<b>Учиш йўналиши</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Тўғри ёки хато</li> <li>- Планка билан ёки унга қийрағон</li> </ul>

<sup>8</sup>R.Q.Qudratov. Yengilatletika.Darslik.Toshkent 2012 yil.

<sup>9</sup> Wolfgang Killing, ElkeBartschat, Herbert Czingon. /Jugendleichtathletik – Sprung. 2008, (German).

<sup>10</sup>Wolfgang Killing, ElkeBartschat, Herbert Czingon. /Jugendleichtathletik – Sprung. 2008, (German).

<b>Күтарилиш фазаси</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Сакарш посицияни қайд қилиш ёки депсинувчи оёқни тезда сакраш оёққа ақыйиш</li> </ul>
<b>Учиш фазаси</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Чўккалаш ёки ўтириб</li> <li>- Бош орқага эгилган ёки кўкрак устида (пастдаги расмлар)</li> <li>- Оёқ ёйилган ёки буқланган ( пастдаги расмлар)</li> <li>- Очик ёки ёпиқчўзиқкўнишпозицияси</li> </ul>

### **Saf mashqlari (saf usullari, saflanish va qayta saflanish) va umumrivojlantiruvchi mashqlarni o`rgatish.**

**Darsni maqsadi:** saf usullari, saflanish va qayta saflanish, umumrivojlantiruvchi mashqlarni o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali

1. Turgan joyda burilishlar /buyruqlar «O`ng-GA», «Chap-GA», «Ort-GA», «Yarim o`ng-GA» sh buyruqlarni o`rgatish.

2. Bir qatordan ikki yonma- yon qatorga, Bir qatordan uch yonma- yon qatorga saflanishlar, qatordan qirra bo`lib qayta saflanish.

3. Qo`l va yelka kamari uchun mashqlar: qo`llar belda, bosh orqasida, bel orqasida, qo`llar ko`krak oldida, elkada; qo`llar yonda, yuqorida oldinda, oldinda-tashqariga, yuqoriga- tashqariga, yonda-pastda, orqada; qo`llarni aylanma harakati, navbatma-navbat, birgalikda va ketma-ketlikda mashqlarni o`rgatish.

**Qayta saflanish-** bir safdan ikkinchi safga o`tish.

**Qatordan qirra bo`lib qayta saflanish.** Guruhda dastlabki («6-3 joyda, 6-4-2-joyda» va hokazo) o`tkazilgandan so`ng quyidagi buyruq beriladi: «*Sanoqlar bo'yicha - Yuring!*» shug`ullanuvchilar sanoq bo'yicha zarur bo`lgan odimni tashlab, so`ng oyoqlarini juftlaydilar. O`qituvchi birinchi qator to`xtaguncha sanab turadi. Sanoq «6-3 joyda»- deb sanalganda 7 gacha; «9-6-3 joyda» deb sanalganda 10 gacha olib boriladi.


Qayta saflash uchun quyidagi buyruq beriladi: «*O`z joyinga qadam bos!*», safdan chiqqanlarning hammasi orqaga burilib, o`z joylariga qaytadilar, joylariga etgach, yana orqaga buriladilar.

O`qituvchi safga oxirgi qator turib, orqaga burilgunga qadar («bir», «ikki» deb) sanab turadi.

Qatordan bo`linmalarning qanotini ilgarib, ketma- ket qatorga saflash. Dastlab uchtadan, to`rttadan va hokazo sanoqqa sanalgandan keyin, kuyidagi buyruk beriladi: «*Bulinmalar 3-4 va xokazo kator bo`lib, chap (ung) yelkani ilgarib yuring!*».

Bu buyruqqa ko`ra sanab chikilgan bulinmalar tekislikni saklagan xolda ketma - ket kator xosil bo`lganga kadar belgilangan kanot Bilan ilgarilab yuradilar. Ikkinchi buyruk: «*Gurux- tuxta!*» yana qayta saflanish uchun quyidagi buyruqlar beriladi:

1. «*Ort-ga!*»



## УЗУНЛИККА САКРАШ РЕЖА

### 1. УЗУНЛИККА САКРАШГА ТАЪРИФ.



2. УЗУНЛИККА САКРАШНИНГ АСОСИЙ  
ҚОИДАЛАРИ.

3. УЗУНЛИККА САКРАШ УСУЛЛАРИ.

4. УЗУНЛИККА САКРАШ ФАЗАЛАРИ.

Узунликка сакраш учун мўлжалланган сектор югуриб келиш йўлкасидан, депсиниш тахтасидан ва ерга тушиш учун қум тўлдирилган чукурчадан иборат.

Югуриб келиш йўлкаси узунлиги камидаги  $40\text{ m}$ , эни  $1,22-1,25\text{ m}$  га тенг ва  $50\text{ mm}$  кенглиқдаги чизиқлар билан чегаралangan бўлиши керак.


Депсиниш учун тахтача ёғочдан ёки бошқа яроқли ашёдан тайёрланиши керак ва унинг ўлчамлари қуйидагича, эни –  $198-202\text{ mm}$ , узунлиги –  $1,21-1,22\text{ mm}$  ва максимал қалинлиги –  $100\text{ mm}$ . У йўлка юзаси билан теппа-тенг тупроққа мустаҳкам ўрнатилади ва унинг сирти оқ рангга бўялган бўлади.

Узунликка сакрашда депсиниш тахтаси ерга тушиш чукурчасининг олд чеккасидан  $1\text{ m}$  дан  $3\text{ m}$  гача этиб белгиланади.

### 4.1. расм. Уузунликка сакраш.

Узунликка сакрашда тахтачадан ерга тушиш чукурчасининг чеккасигача бўлган масофа камидаги  $10\text{ m}$  бўлиши лозим.

“Ўлчаш чизиги”га мос келадиган тахтача орқасида суратга олинадиган чети индикаторли тўсин (тахтача босиб олинганлигини қайд қилувчи мослама) ўрнатилади. Унинг узунлиги  $1,21-1,22\text{ m}$  га ва эни  $98-102\text{ mm}$  га тенг. Индикатор  $0,7\text{ cm}$  баландликда юзага унинг сирти югуриб ва ерга тушиш томонидан  $30^\circ$  бурчак қиялийка эга. Чиқиб турувчи юзаси пластилин билан унда босиб олинган из



чиқиб туради, келиш томонидан чукурчаси остидаги Индикаторнинг юпқа қатламда қопланади ва қайд қилинади.


Иккала томонида

ўлчаш чизиги бўйлаб сектор юзасига эни  $10\text{ mm}$  ва узунлиги  $50\text{ cm}$  бўлган оқ чизиқлар чизилади,  $10\text{ cm}$  масофа нарида уларга тахтачанинг жойини билдириб турувчи тўғрибурчакли кўрсаткичлар (оқ рангли қора йўл чизик билан  $45^\circ$  бурчак остида) белгиланади.

Узунликка сакрашда ерга тушиш учун қум тўлдирилган чукурча эни  $2,75\text{ m}$  дан  $3,00\text{ m}$  гача бўлиши ва югуриб келиш йўлкаси ўқига нисбатан симметрик тарзда жойлашиши лозим.

Чукурча қирралар билан ҳошияланган бўлади, улар йўлка юзасидан баландга чиқиб турмаслиги зарур, депсиниш тахтасига яқин бўлган қирра йўлка даражасидан  $3\text{ cm}$  га паст бўлиши керак. Чукурчадаги қум нам, юмшатилган ва йўлка юзаси билан бир хил даражада бўлиши зарур.

Югуриб келиш йўлкасининг иккала томонида ва чуқурчанинг ён қирралари узунаси бўйлаб хавфсизлик зонаси назарда тутилиши керак – камида 1 м, чуқурчанинг узоқ қирраси орқасида эса – камида 5 м. Бу зонанинг юзаси йўлка юзаси билан бир хил даражада туриши лозим. Югуриб келиш йўлкасининг қопламаси югуриш йўлкаларига қўйиладиган талабларга жавоб берishi зарур.



4.2. расм. Узунликка сакраш сектори

## 2. УЗУНЛИККА САКРАШНИНГ АСОСИЙ ҚОИДАЛАРИ

Узунликка сакрашда депсиниш тахтачадан ёки йўлка юзасидан бир оёқда бажарилади. Бунда индикаторни босиб олмасликл озим.

Узунликка сакраш натижалари тананинг исталган қисми (ёки қўл) билан қолдирилган издаги энг яқин нуқтага қараб ўлчаш чизигига перпендикуляр бўлган тўғри чизик бўйлаб ўлчанади.

### Сакровчининг натижаси эътиборга олинмайди, агар:

- сакрашни бажармай, тахтача устидан ёки унинг ёнидаги ўлчаш чизиги устидан югуриб ўтиб кеца;
- депсинишда ўлчаш чизигидан ўтиб кеца ёки босиб олса;
- тахтачанинг ён томонидан депсинишни бажарса;
- ерга тушиш пайтида тананинг исталган қисми билан чуқурчанинг ён чеккаси ташқарисидаги сектор юзасига тегиб кеца, бунда ерга тушишда қолдирилган изга қараганда депсиниш тахтачасига яқинроқ туриб қолса;
- сакрашни бажариб бўлгандан сўнг ерга тушиш чуқурчаси орқали орқага қайца;
- сакрашда ҳар қандай шаклдаги салтодан фойдаланган бўлса;
- уриниш учун ажратилган вақтни чўзиб юборса.

**Узунликка сакраш техникаси.** Узунликка сакраш самарадорлиги депсиниш фазасида, сакраш натижа-лилигининг асосий омиллари ҳосил бўладиган пайтда аниқланади. Бундай омилларга қуйидагилар киради: 1) сакровчи танасининг бошланғич учиб чиқиш тезлиги; 2) сакровчи танаси умумий оғирлик маркази (кейинги ўринларда УОМ деб юритилади)нинг учиб чиқиш бурчаги. УОМнинг учиш фазасидаги ҳаракат йўналиши депсиниш хусусиятига ва сакраш турига боғлиқ бўлади.

енгил атлетика сакрашлари ўз тузилишига кўра аралаш турга тааллуқлидир, яъни бу ерда ҳам сиклик, ҳам ациклик ҳаракат элементлари мавжуд.

Узунликка сакрашни яхлит ҳаракат сифатида таркибий қисмларга ажратиш мумкин:

- югуриб келиш ва депсинишга тайёрланиш – ҳаракат бошланишидан тортиб то депсинадиган оёқни депсиниш жойига қўйиш пайтигача;
- депсиниш (итарилиш) – депсинадиган оёқни қўйган пайтдан бошлаб, то унинг депсиниш жойидан узилиш пайтигача;

- учиш – депсинадиган оёқ депсинишиң жойидан узилган пайтдан бошлаб то ерга қўниш жойига тегиш пайтигача;
- ерга тушиш – ерга тушиш жойига тегиш пайтидан бошлаб то тана ҳаракати тўлиқ тўхтагунга қадар.

### 3. УЗУНЛИККА САКРАШ УСУЛЛАРИ.

Узунликка сакрашнинг ҳам бошқа сакраш турлари каби усуллари мавжуд. Бу усуллар узунликка сакрашнинг йиллардавомида ривожланиши ва тарақкий этиши натижасида вужудга келган. Узунликка сакрашнинг “оёқларни букиб”, “қайчи” ва “кўкрак кериб” сакраш усуллари бор бўлиб, улар ўзининг бажарилиш техникаси ва услуби билан бир биридан фарқ қиласди. Демак, бу усулларни навбати билан кўриб чиқиш талаб этилади.

**“Оёқларн ибукиб”** усулида сакрашнинг учиш фазаси ҳам ижро этиш, ҳам техникасини ўрганиш учун оддий ҳисобланади. Ердан кўтарилигандан сўнг қадам ташлаш ҳолатида оёқ тизза бўғимидан силтанувчи оёққа олиб елка мувозанатни шунингдек, қорин мушаклари ҳамда осилиб турган ҳолатда турувчи сонлар олд ортиқча зўриқишини йўқотиш учун бироз орқага олинади. Тирсак бўғимларидан бироз букилган қўллар юқорига кўтарилади. УОМ йўналиши пастга туша бошлаган пайтда елкалар олдинга чиқарилади, қўллар олдинга-пастга ҳаракат қилиб пастга туширилади, оёқлар тизза бўғимидан тўғриланиб кўкракка яқинлашади. Сакровчи ерга тушишу чун ҳолатни эгаллайди.




депсинувчи  
букилади ва  
келинади,  
сақлаш учун,  
пресси  
оёқларни  
ушлаб  
юзасининг

4.3. расм. Узунликка “оёқларни букиб”усулида сакраш

**“Кўкрак кериб”** усулида сакраш анча мураккаб бўлиб, учишда маълум бир ҳаракат координациясини тақозо этади. Ердан кўтарилигандан ва қадам ташлашда учишдан сўнг силтанувчи оёқ пастга-орқага депсинувчи оёққа туширилади. Олдинда турган қўл пастга туширилади ва бошқа қўл билан бирлаштирилади; қўллар тирсак бўғимларидан тўғриланади; кейин орқага ҳаракатланган ҳолда юқорига кўтарилади.

Сакровчи ҳолатга ўтади ва фазасининг босиб ўтган ҳолда ушлайди. Кейин ва тизза букилган ҳолда елкалар бироз олдингаегилади, қўллар олдинга-пастга туширилади. Учишнинг якуний қисмида оёқлар тизза бўғимларидан текисланади, қўллар орқага узатилади. Сакровчи ерга тушиш учун ҳолат эгаллайди.




орқага эгилган  
шу ҳолатда учиш  
деярли ярмини  
гўё танаффус  
иккала оёқ тос-сон  
бўғимларидан  
олдинга кетади,

#### 4.4. расм. Узунликка “Кўкраккериб”усулидасакраш

Техникаси бўйича энг мураккаб ва самарали сакраш усули – бу “қайчи” усулидир. Унинг самараадорлиги югуриб келишдан депсинишга ўтишда ва учишдаги ҳаракатларда югуриш қадамининг мувофиқлаштирувчи тузилмаси ҳисобига намоён бўлади. Бу усулнинг аниқроқ номи – “ҳавода югуриш”, чунки сакровчи учишпайтида 2,5-3,5 қадамташлашларнибажаради.

Учиш пайтида қадам ташлаш ҳолатидан (биринчи қадам) силтанувчи оёқ текисланиб, пастга-орқага туширилади, депсинувчи оёқ олдинга чиқарилади. Силтанувчи оёқ ҳаракатни давом эттирган ҳолда орқага ҳаракат қиласди, тизза бўғимидан букилади, депсинувчи оёқ эса тизза бўғимидан букилган ҳолда сони билан олдинга чиқарилади (иккинчи қадам). Шундан сўнг тизза бўғимидан букилган силтанувчи оёқ олдинга чиқарилади ва депсинувчи оёққа бириктирилади. Кейин иккала оёқ тизза бўғимидан текисланади ва ерга тушишдан олдинги ҳолатни эгаллайди. Қўллар ён томон орқали айланма ҳаракатларни бажаради. Силтанувчи оёқ пастга туширилган пайтда унга тескари бўлган қўл пастга туширилади, бошқа қўл эса юқорига кўтарилади. Депсинувчи оёқ олдинга чиқарилган пайтда унга тескари бўлган қўл ҳам олдинга чиқарилади, бошқа қўл эса орқага узатилади. Силтанувчи оёқни депсинувчи оёққа бирлаштиришда қўллар пастга туширилади ва ерга тушишдан олдин орқага узатилади.



4.5. расм. Узунликка “қайчи”усулидасакраш.

#### 4. УЗУНЛИККА САКРАШ ФАЗАЛАРИ

**Югуриб келиш ва депсинишга тайёрланиш.** Узунликка сакрашда югуриб келиш ўзига хос хусусиятларга эга, лекин маълум бир умумий томонлари ҳам бор. Югуриб келишнинг асосий вазифаси – сакровчи танасига сакрашга мос бўлган оптимал югуриб келиш тезлигини бериш ҳамда депсиниш фазаси учун оптимал шароитларни яратиш. Деярли ҳамма турларда сакрашлар тўғри чизиқли шаклга эга.

Югуриб келиш депсинишга тайёрланиш бошланишидан олдин сиклик ҳаракат тузилишига эга. Унда югуриш ҳаракатлари югуриб келишдаги ҳаракатлардан бир оз фарқ қиласди. **Югуриб келиш мароми** доимий бўлиши керак, яъни уни уринишдан-уринишга ўзгартириб туриш керак эмас. Одатда югуриб келиш спортчидаги айни пайтда кузатиладиган унинг жисмоний имкониятларига мос келади. Табиийки, жисмоний функциялар яхшиланиши билан югуриб келиш ўзгаради, тезлик, қадамлар сони ошади (маълум чегарагача), лекин югуриш мароми ўзгармайди. Бу ўзгаришлар сакровчининг иккита асосий жисмоний сифатларига боғлиқ, уларни параллел тарзда ривожлантириш зарур. Бу тезкорлик ва кучdir.

Югуриб келишнинг бошланиши одатий, ҳар доим бир хил бўлиши керак. Сакровчи югуриб келишни, гўёки старт олгандек, турган жойидан ёки югуриб келиш бошланишининг назорат белгисигача келиш билан бошлиши мумкин. Югуриб келишда сакровчининг вазифаси нафакат оптимал тезликка эришиш, балки днпсинадиган оёқни депсиниш жойига аниқ қўя билиш лозим, шунинг учун югуриб келиш, унинг мароми ва ҳамма ҳаракатлар доимий бўлиши керак.

Югуриб келишнинг иккита вариантини ажратиш мумкин: 1) бир хил тезланиш билан югуриб келиш; 2) тезликни сақлаб туриши билан югуриб келиш. **Бир хил тезланиш билан югуриб келишда** сакровчи аста-секин тезлик ола бошлайди, уни югуриб келишнинг охирги қадамларида оптимал даражагача етказади. **Тезликни сақлаб туриш билан югуриб келишда** сакровчи деярли дарров, биринчи

қадамларданоқ оптимал тезликни олади, уни бутун югуриб келиш давомида сақлаб туради, охирида сўнгги қадамларда уни бир оз оширади. У ёки бу югуриб келиш вариантининг қўлланилиши сакровчининг индивидуал хусусиятларига боғлиқ.

Югуриб келишнинг охирги қисмининг (депсинишга тайёрланиш) ажралиб турувчи хусусияти сакраш турига боғлиқ. Умумий ажралиб турувчи хусусияти – югуриб келиш ва югуриб келиш бўлагида тана аъзолари ҳаракатлари тезлигининг ошишидир.

Югуриб келиб узунликка сакрашда ва югуриб келиб уч ҳатлаб сакрашда депсинишга тайёрланишда охирги қадамларнинг узунлиги бир оз камаяди ва уларнинг суръати ошади.

Охирги қадамлар ва депсиниш орасида ҳеч қандай тўхталишлар ёки ҳаракат секинлашиши, тезликнинг йўқотилиши бўлмаслиги керак.

Югури бкелишнинг охирги қисми қанча тезроқ ва самаралироқ бажарилса, депсинишшунчасифатлироқбажарилади.

**Депсиниш** – ҳарқандай сакрашнинг асосий фазасидир. У депсинувчи оёқни таянчга қўйган пайтдан бошлаб то у таянчдан узилгунга қадар давом этади. Сакрашларда бу фаза жуда қисқа мuddатли бўлиб, айни вақтда жуда муҳим саналади ва фаол ўтади. Биомеханика нуқтаи назаридан депсинишга маълум бир кучланишларнинг таянч билан ўзаро таъсирида сакровчи танаси тезлиги векторининг ўзгариши сифатида таъриф бериш мумкин. Депсиниш фазасини икки қисмга бўлиш мумкин: 1) ҳосил қилувчи ва 2) яратувчи.

Биринчи қисми тезлик векторини ўзгартириш учун шароитлар яратади, иккинчиси эса бу шароитларни амалга оширади, яъни сакрашнинг ўзини, унинг натижасини яратади.

Горизонтал тезликни вертисал тезликка ўтказиш самарадорлигини белгилаб берувчи омиллардан бири **депсинувчи оёқни қўйиш бурчаги** ҳисобланади. Ҳамма сакрашларда оёқ депсиниш жойига тез, чақон ва қаттиқ қўйилади, оёқ кафти таянчга тегиши биланоқ у тизза бўғимидан текисланиши керак. Депсинувчи оёқни қўйиш бурчаги оёқни қўйиш жойи ва УОМни сирт чизиғи билан боғловчи оёқнинг узунасига ўқи бўйича аниқланади.

**Учиш.** Сакрашнинг бу яхлит бажарилиш фазаси таянчсиз ҳисобланади. Шуни тушуниб олиш муҳимки, учиш фазасида сакровчи УОМнинг ҳаракат йўналишини ҳеч қачон ўзгартира олмайди. Бу йўналиш депсиниш фазасида берилади. Бироқ сакровчи УОМга нисбатан тана аъзолари ҳолатини ўзгартириши мумкин. Нима учун сакровчи қўллари, оёқлари ёрдамида турли хил ҳаракатларни бажаради, ҳавода гавда ҳолатини ўзгартиради? Учиш техникаси нима учун ўрганилади? Бу саволларга жавоб мазкур сакраш фазасининг мақсадида ётади. Узунликка сакрашда – учишда мувозанатни сақлаш ва ерга тушиш учун оптимал шароитлар яратиш.

Учиш пайтида УОМнинг ҳаракат йўналишини ўзгартириш мумкин эмас, лекин тана аъзолари ҳолатини УОМга нисбатан ўзгартириш мумкин. Масалан, гимнастика, акробатика, сувга сакраш каби спорт турларида ҳар хил айланишлар бажарилади, лекин уларнинг барчаси УОМ атрофида бажарилади.

Демак, учиш пайтида гавда аъзоларини ҳаракатлантириш орқали биз ёки оптимал учиш шароитларини яратишмиз, ёки уларни бузишмиз ва шу орқали сакраш натижасини пасайтириб юборишмиз мумкин. Узунликка сакрашда ғолиб ва совриндорларни 1-2 см ажратиб турган пайтларда учишда оқилона ва самарали ҳаракатланиш техникаси ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлиши мумкин.

**Ерга тушиш (қўниш).** Ҳар бир сакраш ерга тушиш фазаси билан якунланади. Ҳарқандай ерга тушишнинг мақсади – спортчига хавф-хатарсиз шароитларни яратиш, ҳар хил жароҳатланишларни олдини олишdir.

Ерга тушиш пайтида сакровчининг танаси кучли зарб таъсирига учрайди. Бу зарб нафақат ер билан тўқнашадиган тана аъзоларига, балки дистал, ундан анча

узоқда турган аъзоларга ҳам тушади. Ички органлар ҳам шундай зарб таъсирига дуч келади. Бу шу органларнинг ҳаёт фаолиятининг турлихил бузилишларига ва касалланишларига олиб келиши мумкин. Бу омилнинг зарарли таъсирини камайтириш зарур.

Бу ердаи қкита йўлбор: биринчиси – ергатушишжойинияхшилаш; иккинчиси – ергатушиштехникасини оптимал даражада ўзлаштириб олиш. Узунликка сакрашда ерга тушиш жойи қум тўлдирилган чукур ҳисобланади. Узунликка сакрашда қўнишни ҳавфсиз амалга ошириш учун техникани яхши ўзлаштириш талаб этилади. Бошқа сакраш турларидан фарқли равишда узунликка сакровчилар қумт ўлдирилган чукурчага сакрасаларда, бироқ натижалар ўсиб бормоқда. Бунингс абаби, иккинчи йўл – ерга тушиш учун оптимал шароитларни яратиш ҳамда ергатушишнинг оптимал техникаси.

## BALANDLIKKA SAKRASH

REJA:

1. BALANDLIKKA SAKRASHNING QISQACHA TARIXI.
2. BALANDLIKKA SAKRASHGA TA'RIF.
3. BALANDLIKKA SAKRASH USULLARI.
4. BALANDLIKKA SAKRASH FAZALARI.
5. BALANDLIKKA SAKRASHDA MUSOBAQA QOIDALARI.



### 1. BALANDLIKKA SAKRASHNING QISQACHA TARIXI

Balandlikk asakrash bu engil atletikaning murakkab tehnik o'zgarishlari, ko'pincha tehnik revolyutsiyalarga yaqin distsiplinasidir. Birinchi yugurib kelib oyoqni bukib, keyinroq qaychisimon balandlikka, yumalab, burilib sakrashlar va ohirisida

esa yumshoq gilamchaga qo'nishlari mumkin bo'lgan-flop usulida esa yoysimon yugurib kelib qaychisimon yonga sakrashgan. Har tehnika o'zgarishida sakrovchilar gorizontal, yotgan holatlarni qabul qilishgan, planka atrofida ko'proq aylanishgan, shuning natijasida KSP uchish balandligida planka balandga qo'yilishi mumkin bo'lgan, yoki aksincha sakrovchilar uchun uncha yuqori bo'lmanan sakrash impulse etarli bo'lgan.

Flop tehnikaning paydo bo'lishi tasodif emas, SHimoliy Amerikada qumli tepaliklar penoplastning bo'yralardan bo'shab, er maydonlari paydo bo'lgan. YUmshoq bo'yralar sakrashda sakrovchilar tana a'zolari (elka, bosh, korpus) bilan birinchi planklardan yumalab o'tishlariga yordam bergen va erga osonroq qo'nishlari mumkin bo'lgan. SHu orqali flop tehnikasini sakrovchilar osonroq va yoqimli bajarishgan, tezroq va jo'shqin ravishda sakrashgan, misol tariqasida yoysimon sakrashda oyoqning siltinishi birinchi plankadan boshlanadi. Sakrash tarixidagi gohi ko'rsatmalar shuni ko'rsatyaptiki, plankalarda flop usulida sakrash qaychisimon sakrashdan ancha oldin rivojlangan. Dik Fosburinig ihtirolari faqatgina shartli ravishda qisqaradi, ihtirolar ko'p hollarda yangi ma'lumotlarni rivojlanishi yuritiladi. O'zining olimpiyada o'yinlaridagi g'alabasi Flop usulini yana qo'shimcha qo'llaydi.

### BALANDLIKKA SAKRASHGA TA'RIF.


**Balandlikka sakrash**—vertical holatdagi engil atletika sakrash turi bo'lib, yugurib kelish orqali, bitta oyoqqa tiralib sakrash va ma'lum bir balandlikka o'matilgan plankadan oshib o'tib, maxsus porolondan tayyorlangan gilamga tushishdan iborat harakatdir. Balandlikka sakrash atsiklik tur bo'lib, u sportchidan tezlik-kuch sifatlarini, sakrovchanlikni, chaqqonlikni, egiluvchanlikni namoyon qilishni talab etadi. erkaklarda va ayollarda musobaqalar stadionda va manej (yopiq engil atletika maydoni) da o'tkaziladi<sup>11</sup>.

### 3. BALANDLIKKA SAKRASH USULLARI.


**Balandlikka sakrash usullari**— sportchilarning depsinishi va plankani zabit etish uchun sakrashning depsinish va uchish fazasidagi ko'rinishidagi farqlanuvchi harakatlaridan tashkil topadi. Uning usullari "fosbyuri-flop", "hatlab o'tish", "perikidnoy", "perakat" va "to'lqin".

Xorijiy manbaalarga asosan ushbu sakrash turida turli usullar mavjud. Ular biznikilardan nom jihatdan farq qilsada, lekin ko'rinishidan uncha ko'p farqqilmaydi. Ungako'ra:


<sup>11</sup>Wolfgang Killing, Elke Bartschat, Herbert Czingon. /Jugendleichtathletik – Sprung. 2008, (German).




2.2. rasm. Afrikancha sakrash



2.3. rasm. Qaychisimon sakrash



2.4. rasm. Aylana sakrash.



2.5. rasm. Fosberi-flop usuli.



2.6. rasm. Perekidnoy usuli.



2.7. rasm. Hatlab o'tish usuli.

#### **4. BALANDLIKKA SAKRASH FAZALARI.**

Balandlikka sakrashning boshqa sakrash turlari kabi o'ziga xos harakatlar ketma-ketligi (fazalari) bo`lib, ular quyidagicha: 1) yugurib kelish; 2)depsinish; 3) planka ustidan oshi bo'tish; 4) qo'nishdan iborat. Sportchilardan har bir fazadan qulay va unumli foydalanishi talab etiladi. Bu ularning mashg'ulot jarayonida qanchalik puxta tayyorgarlik ko'rganiga bog'liq. Optimal yugurib kelish masofasini tanlay olish va yugurib kelishda jismoniy tayyorgarlik holatidan kelib chiqib tezlikka erishishi muhim. Chunki, yugurib kelish masofasini to'g'ri tanlash depsinishning samarali chiqishiga omil bo'ladi. Depsinishda esa sportchi egallagan tezligi hisobiga yuqoriga ntiladi. Bu vaqtida undan gavdasini imkon qadar yuqoriga tortishi talab etiladi. Qanchalik yuqori va qulay depsinishga erishilsa, plankadan o'tish ya'ni havoda uchish jarayoni ko'ngildagidek bo'ladi. Plankada o'tish vaqtida sportchi tanasini nazorat qila olishi uning urinishni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga xizmat qiladi. YA'ni sportchi havodaligida tayanchsiz, muallaq holatda bo`lgani uchun tanani boshqara olish va nazorat qilish muhim sanaladi. Qo'nish esa planka ustidan to'g'ri va yaxshi o'tishga bog'liq. Qo'nish xavfsiz bo`lishi uchun sportchi qo'nish joyiga imkon qadar orqasi yoki elkasi bilan tushishi lozim. SHundagina jarahat olish ehtimoli kamayadi.

#### **5. BALANDLIKKA SAKRASHDA MUSOBAQA QOIDALARI.**

Sakrashlar bo'yicha musobaqa qatnashchisi yoki taklif qilingan shaxsiy belgilari yordamida o'zining yugurib kelish chizig'ini belgilab olish huquqiga ega, lekinbo'ryokibo'yoqyordamidabelgiqo'yishgaruxsatberilmaydi.

Sakrashlarda sportchi chigal yozdi urinishlari musobaqa boshlanishiga qadar qolgan vaqtida amalga oshirishi mumkin bo`ladi.

Musobaqalar boshlangan paytdan sakrashlar uchun mo`ljallangan sektorlarda badan qizdirish mashqlarini bajarishga ruxsat berilmaydi.

Qatnashchilar hamma urinislarni galma-gal bajaradilar.

Ishtirokchi faqat hakam chaqirganidan keyingina urinishni bajarishga kirishadi. Sakrashlarda urinishga tayyorgarlik ko`rish va uni bajarish uchun 1 min vaqt beriladi. Vaqtini hisobga olish start beruvchi hakam tomonidan urinishni bajarishga chaqirilgan paytdan boshlab amalga oshiriladi. Sportchi urinislardan orasida uch, to`rt minut tanaffus qilish huquqiga ega. Agar ishtirokchi urinishni bajarish vaqtini ataylab cho`zayotgan bo`lsa, u ushbu urinishni bajarish huquqidan mahrum qilinishi mumkin; agar urinishni bajarish paytida qatnashchiga halaqit qilingan bo`lsa, katta hakam bu urinish o`rniga boshqa urinish berish huquqiga ega. Qatnashchi navbatdagi urinishdan voz vechish huquqiga ega, bunda u keying urinislarni bajarish huquqini yo`qotmaydi.

Urinish bajarilgandan keyin hakam, agar qoida buzilishiga yo`l qo`yilmagan bo`lsa, “Ha” buyrug’ini beradi va oq bayroqcha ko`taradi yoki, qoida buzilgan bo`lsa, “Yo`q” buyrug’ini beradi va qizil bayroqcha ko`taradi. Barcha muvaffaqiyatlari urinislardan o`lchanadi va bayonnomaga yoziladi. Muvaffaqiyatsiz urinislardan o`lchanmaydi.

Bayonnomaga quyidagicha yozuvlar kiritiladi:

- urinish e’tiborga olinganda o`lchanadi natijalari qo`yib chiqiladi, balandlikka sakrashda “O” belgisi qo`yiladi;
- urinish e’tiborga olinmaganda “X” belgisi qo`yiladi;
- urinish o`tkazib yuborilganda “–” belgisi qo`yiladi.

Agar ob-havo sharoitlari yoki boshqa ob`ektiv sabablarga ko`ra musobaqalar to`xtatilgan bo`lsa, bosh hakam musobaqalarni yangidan o`sha qatnashchilar bilan va to`xtab qolgan urinishdan boshlab o`tkazishga ruxsat berishi mumkin. Musobaqalar ertangi kunga ko`chirilganda ular birinchi urinishdan boshlanadi.

Qatnashchilarning shaxsiy o`rinlari dastlabki va final musobaqalarida ko`rsatilgan eng yaxshi natijaga ko`ra aniqlanadi. Agar ikkita (yoki ko`proq) qatnashchi bir xil natija ko`rsatsa, urinishdan qat`inazar, ikkinchi natija qaraladi, agar u ham bir xil bo`lsa, unda uchinchi natija ko`rib chiqiladi va shutariqa qatnashchilardan birining ustunligi aniqlab olinadi. Agar hamma ko`rsatkichlar ularda bir xil bo`lsa, unda g`olibni aniqlash uchun ularga qo`shimcha urinish beriladi.

Qolgan barcha o`rinlar uchun bu qoida amal qilmaydi.

Qatnashchilarning eng yaxshi natijalari, jumladan, birinchi o`rinni aniqlash uchun berilgan qo`shimcha urinislardagi natijalar ham ularning hisoblariga yoziladi<sup>12</sup>.

---

<sup>12</sup>Wolfgang Killing, ElkeBartschat, Herbert Czingon. /Jugendleichtathletik – Sprung. 2008, (German).

## УЛОҚТИРИШ ТУРЛАРИ

РЕЖА:

1. УЛОҚТИРИШТУРЛАРИГА УМУМИҮ ТАВСИФ.
2. УЛОҚТИРИШ ТУРЛАРИНИ ҚАМРАБ ОЛУВЧИ АСПЕКТЛАР.
3. УЛОҚТИРИШЛАРДАГИ АСОСИҮ ҚОИДАЛАР.



### 1. УЛОҚТИРИШ ТУРЛАРИГА УМУМИҮ ТАВСИФ<sup>13</sup>.

Енгил атлетика улоқтиришларини қуудаги гурухларга ажратиш мүмкін:

- 1) түғридан югуриб келиб аеродинамик хусусиятларга әга ва әга бўлмаган снарядларни улоқтириш;
- 2) снарядларни аулана ичидан улоқтириш;
- 3) снарядни аулана ичидан итқитиш.

Боз устига, эътибор қаратиш лозимки, улоқтиришларда техник жиҳатдан ҳар хил югуриб келиш турини бажаришга рухсат берилади, лекин финал кучланиши фақат қоидаларга асосан бажарилади. Масалан, науза, граната, тўпни фақат бош орқасидан, элка устидан улоқтириш керак; дискни фақат ён томондан улоқтириш мүмкін; босқонни фақат ён томондан улоқтириш зарур; ядрони сақраб туриб ва бурилишда итқитиш, лекин албатта итқитиш мүмкін.

### УЛОҚТИРИШ ТУРЛАРИ

 6.1. расм.	<b>Науза</b>	ациклик тур, у спортчидан тезлик-куч сифатларини, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни талаб қиласи.
 6.2. расм.	<b>Диск</b>	ациклик турлар, улар спортчидан куч, тезлик-куч сифатларини, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни тақозо этади. Улоқтиришлар аулана ичидан (чекланган жоудан), эркаклар ва аёллар томонидан, фақат стадионда бажарилади. Диск аеродинамик хусусиятларга әга.
 6.3. расм.	<b>Босқон</b>	ациклик турлар, улар спортчидан куч, тезлик-куч сифатларини, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни тақозо этади. Улоқтиришлар аулана ичидан (чекланган жоудан), эркаклар ва аёллар томонидан, фақат стадионда бажарилади. Диск аеродинамик хусусиятларга әга.

<sup>13</sup>Wolfgang Killing, Maria Ritschel. Mediathek Leichtathletik: Jugendleichtathletik Wurf: Dec. 2011, (German).

	<b>Ядро</b>	ациклик тур, у спортчидан куч, тезлик-куч сифатларини, чақонликни намоён қилишни тақозо этади. Итқитиш аулана ичидан (чекланган жоудан), эркаклар ва аёллар томонидан, стадионда ва манежда бажарилади.
<b>6.4. расм.</b>	<b>Изоҳ:</b>	<i>Юқорида келтирилган улоқтиришининг барча турлари Олимпияда ўйинлари дастуридан ўрин олган.</i>

## 2. УЛОҚТИРИШ ТУРЛАРИНИ ҚАМРАБ ОЛУВЧИ АСПЕКТЛАР<sup>14</sup>. Улоқтириш – бу нима?

Мусобақа снарядларининг оғирлиги (килограммда)					
Улоқтириш тури		Ўсмир.	Б-ёшдаги	А-ёшдаги	Кичик ёшдаги /катта ёшдагилар спортчилар
<b>Еркаклар</b>	Ядро	4	5	6	7,25
	Диск	1	1,5	1,75	2,0
	Науза	0,6	0,7	0,8	0,8
	Босқон	4	5	6	7,25
<b>Улоқтириш тури</b>		Ўсмир.	Б-ёшдаги	А-ёшдаги	Кичик ёшдаги /катта ёшдагилар спортчилар
<b>Аёллар</b>	Ядро	3	4	4	4
	Диск	1	1	1	1
	Науза	0,6	0,6	0,6	0,6
	Босқон	3	3	4	4

**Снарядларни улоқтириш.енгил** атлетикада улоқтириш спортининг мақсади улоқтириш турлари бўйича қоидаларга кўра маълум снаряд турини мумкин қадар узок масофага улоқтиришдир. Улоқтириш масофаси физика нуқтаи назаридан олганда, қиялаб итқитишнинг қонуниятларига боғлиқдир. Яъни, снаряднинг катта учиш тезлиги улоқтириш масофаси таъсир ўтказади.

Бундан ташқари албатта ўзга шаклга келтирилган қуудаги омиллар ҳам бевосита ўз таъсирини кўрсатади:

- Учиб чиқиш бурчаги;
  - Учиб чиқиши баландлиги;
  - Науза ва дискнинг аеродинамик хусусиятлари;
- Шунингдек:
- Шамол тезлиги ва уўналиши.

**Учиб чиқиш бурчаги.** Снарядлар улоқтирилганда идеал шарт шароитда учиб чиқиш бурчаги 45 градусни ташкил этади, бу ҳолатни ўқ узишдаги ҳолат билан таққослаш мумкин. Бу ауниқса ўта катта учиб чиқиш тезлиги ва бир хил учиш баландлигига кўринади. Энгил атлетикадаги улоқтиришда идеал учиб чиқиш бурчаги ушбу кўрсаткичдан маълум даражада паст бўлади. Чунки бу ҳолат снаяднинг тушишига қиёслаганда юқори бўлган учиб чиқиш нуқтаси билан (ауниқса ядро итқитишда ўта муҳим, чунки бунда баландликдаги фарқ ва улоқтириш масофасининг ўзаро муносабати ўта каттадир), инсоннинг анатомик тузилиши (кўл ва элка


<sup>14</sup>Wolfgang Killing, Maria Ritschel. Mediathek Leichtathletik: Jugendleichtathletik Wurf: Dec. 2011, (German).

мушакларига қараганда күчлироқ бўлган оёклар ва орқа тос мушаклари) ва шунингдек, улоқтириш снарядларининг аеродинамик ўзига хос жихатларига ҳам боғлиқдир.

**Учиб чиқиш тезлиги.** Учиб чиқиш тезлиги улоқтириш бўуича 2.1. жадвалдаги каби натижани кўрсатадиган энг муҳим таъсир этувчи омилдир. Жадвал бундан ташқари учиб чиқиш тезлигига қарама қарши ўлароқ учиб чиқиш бурчаги фақат маълум хажмда натижани пасаутириши мумкинлигини кўрсатади. Кўпинча спортчилар теккис учиб чиқиш бурчаги остида – харакатланувчи мушаклар учун энг қулау вазият юзага келиши сабабли – энг юқори тезликка эга бўладилар (Хинз, 1991). Ёмон об ҳаво шароити туфаули улоқтириш турига хос, индивидуал оптимал учиб чиқиш бурчаги, яна бир бор ўзгариши мумкин, қарама қарши тезлиқдаги шамол эсаётган паутда мисол учун диск итқитишида ясси учиб чиқиш бурчагининг нафи каттадир (2.1. жадвалга қаралсинг). Аммо 1980 уйлдаги мусобақалар вақтида ёмон об ҳаво натижасида науза улоқтириш жараёнида қоидага кўра снаряднинг олдинга чиқиб қолши, наузанинг учиш ва сапчиш хусусиятини шу даражада ёмонлаштируди, бугунги кунда қарама қарши тезлиқдаги шамол эсаётган паутда учиб чиқиш бурчаги қандай бўлиши кераклиги хақида ҳеч қандай умумиу тавсиялар мавжуд эмас.

**Учиб чиқиш баландлиги.** Учиб чиқиш баландлиги спорт снарядларининг парабола шаклидаги учиш траекториясининг 1:1 нисбатидан келиб чиқиб, улоқтириш масофасини белгилауди. Яъни улоқтириш 20 сантиметр баландроқ бўлса, снаряд бундау шароитда 20 сантиметр узоқроққа тушади. Аммо бошқа ўлчамларга нисбатан учиб чиқиш баландлиги улоқтириш масофасига камроқ таъсирга эга, шу сабабдан ҳам у машғулотлар жараёнида биринчи ўриндаги мақсад сифатида кўрилмаслиги лозим.

#### Учиб чиқиш тезлиги ва бурчагига боғлиқ бўлган улоқтириш масофаси



6.5. расм. Учиб чиқиш бурчаги (градусда).

#### Енгилатлетикадаги улоқтириш спортида учиб чиқиш бурчаги

Снаряд	одатиу шарт шароитда	қарамақаршитомондан есаётган шамол паутида	бир томонга эсаётган ўлдош шамол паутида
ядро	38 - 41°	-	-

диск	32 - 35°	27 - 32°	35 - 42°
науза	37 - 38°	34 - 37°	38 - 41°
босқон	42 - 45°	-	-

**Улоқтириш – ациклик әгилувчанлик машқи.** Улоқтириш бүүича харакатлар идеал ҳолатда ациклик әгилувчанлик машқи сифатида күрилиши ва Маунел/Шнабел 2007 нинг уч этапли моделига кўра қуудагича бўлиниши мумкин:

**1. Тауёргарлик кўриш фазаси:** Харакатларнинг олға интилиш ва югуриб тезлашишдан (тезликни ошириш, сапчиш, сапчишнинг бошланиши ёки тананинг бурилиши) улоқтириш/итқитишгача бўлган даври.

**2. Асосиу фаза (улоқтириш снарядининг асосиу тезлашиш даври):** улоқтириш/итқитиш вақтидан бошлаб спорт снарядининг учеб чиқишигача бўлган вақт (босқон улоқтиришда тананинг бурилишлари ҳам асосиу фазага киритилади).

**3. Якуниу фаза:** спорт снаядининг учеб чиққанидан кеуин танани тутиб қолиш (аунан мусобақаларда улоқтириш/итқитишнинг ҳисобга олинишида ўта мухим).

**Олдиндан югуриб тезлашиш.** Улоқтиришда спортчилар ўзларининг спорт снарядларига катта учеб чиқиш тезлиги беришади. Бунда албатта оптималь учеб чиқиш бурчаги ва снаряднинг маълум учиш хусусиятларини ҳисобга олиниб, узок масофага улоқтиришга харакат қилинади. Шу сабабдан учеб чиқишидаги энг катта туртки энгил атлетикадаги улоқтириш турларининг барчаларига хос бўлган харакатлар мажмууидир. Учиб чиқишига оптималь шароит яратиш учун спортчи даслаб жами атлет – снаряд тизимини тезлаштириши лозим. Ушбу тезлашиш асосан оёқлар, науза улоқтиришда югуриб тезлашиш, доира ичидан улоқтиришда эса тананинг бурилиши ёки сапчишнинг бошланиши билан амалга оширилади. Бунда спортчининг мақсади тезликни оширувчи харакатларни узаутиришдир. Бу ҳолатни ау尼克са ядро итқитишда сапчишнинг бошланиш техникасида кузатиш мумкин: бунда ядро итқитувчи энгашган ҳолатдан, итқитиш уйналишига тескари бўлган томондан харакатланишни бошлауди.

**Тананинг бурилиши.** Тананинг юқори қисми оёқларнинг тезлашишига мажбуран бўусунади ва улоқтиришнинг бошланишида қисқа муддатли сусткашлик юзага келади, яъни кўпинча тананинг умуртқа қисмидаги худди бўлт каби бурилиш хосил бўлади: тананинг элка қисми бел томон, пастроқда эса бел қисми оёқларга нисбатан ауланма тарзда бурилади (босқон улоқтириш мисолидаги оёқ учлари орасидаги тўғри чизиқ кўрсатилган 2.2. расмга қаралсин). Спорт снаядининг тезлашиши қисқа муддатга секинлашади, оёқлар ва бел тананинг юқори қисмидан ўтиб кетади. Бу билан катта, тўғри әгилувчан мушаклар билан бир вақтда диагонал мушаклар ҳам харакатга келтирилади: тананинг юқори қисмидаги эгри умуртқа мушаклари, оёқларда эса абдуктор ва аддуктор мушаклар. Тананинг бурилиши орқали барча иштирок этувчи мушакларда реактив ўта юқори тезлик талаб этадиган кескин харакатга тауёргарлик ҳолати юзага келади. Яъни: мушаклар аввалига экссентрик, сўнгра эса концентрик ишлаудилар. Бу ҳолат узауиш қисқариш сикли деб ҳам аталади.

**Тезлик олишнинг асосиу фазаси.** Иккала оёқ ҳам таянч ҳолатига келгач, танадаги энергиянинг оёқдан белнинг итқитишга тауёргарлик қисми томон харакатланиши бошланади. Орқага чўзилган қўл туфаули танада таранг тортилган ёу ҳолати юзага келади. Бу ҳолатни ауникса науза улоқтиришда кузатиш мумкин.

Тос суяги билан сон суягини туташтирган бўғиннинг улоқтиришга шау томони чўзилаётган, белнинг негизи улоқтириш линиясига мос ҳолатга келтирилган вақтда, элка негизи ҳали орқага тортилган бўлади, тана бурилишда давом этади. Бу билан тананинг элка ва қўл мушакларида ўсиб борувчи таранглик хосил бўлади. У эса ўз навбатида мушакда реактив, экссентрик-концентрик реаксияни келтириб чиқаради ва унинг ўта юқори тезликдаги қисқаришига олиб келади.

Қачонки бел тортилиб оптимал таранг ҳолатта келса, тананинг итқитишда иштирок этмаудиган қисми элка негизини эркин қўяди, ва улоқтиришга ўйналтирилган куч белдан тананинг юқори қисмига, сўнгра элкага, қўлга (науза улоқтиришда юқоридан улоқтириш, яни кучнинг элкадан қўлга қараб келиши) ва қўлнинг пастки қисмига, қўл панжаларига шундан сўнггина спорт снарядига ўтади.

Идеал ҳолатда бу эрда тана қисмларининг тезлиги, мунтазам камауборуви умумиу оғирлик туфаули ортиб боради. Бир вақтнинг ўзида қарама-қарши элка харакати тўсилади, бу эса ўз навбатида тананинг улоқтирувчи томонига энергия боришини кучаутиради, ва спорт снаряди улоқтириш олдидан максимал тезликка эришади.

**Тана мувозанатини сақлаш**.жами энергиянинг итқитилаётган снарядга ўйналтирилганлиги боис, тананинг қолган қисми қувватдан сезиларли даражада маҳрум бўлади. Кўп холларда қолдиқ тезлик нолга тенглашади. Бу ҳолат улоқтириш ҳолати деб аталади ва тор дирадан туриб улоқтириш, итқитишдан сўнг аунан тана мувозанатини сақлаб қолишда қўл келади. Агарда улоқтиришдан сўнг танада қолдиқ тезлик сақланиб қолган бўлса, спортчи ауланиб сакраш, бурилишда давом этиш ва бошқа шу каби харакатлар билан ўз танасини доира ичидан, хусусан улоқтириш чегарасидан чиқиб кетмаслигига уринади. Науза улоқтиришда улоқтиришдан олдинги тезлик нисбатан юқорироқ бўлади, шу сабаб науза улоқтирилгач, тана мувозанатини сақлаб қолиш учун, бир ёки бир неча қўшимча қадамлар қўшишга жоу керак бўлади.

### **Яхши улоқтирувчининг жисмониу ва руҳиу критериулари**


- бақувват, гавдали, қўл мушаклари яхши ривожланган, кенг қулочли,
- тезкор мушак пауларига эга, мушаклари чиниқтиришга моуил,
- спринт тезлик, тезлашишдаги устунлик,
- юқори даражадаги реактивлик (узоққа сакрау олиш, ядрони куч билан итқита олиш, энгил вазнли снарядларни улоқтира олиш)
- харакатда эпчиллик, ауниқса элка кенглигига,
- мувозанат сақлашда меёрдан юқори устунлик, юқори моторик ўрганиш қобилияти,
- соғлиқ, куч сарфлаш билан боғлиқ юкламаларни кўтара олиш, тезда ўзига кела олиш хусусияти,
- бўғинлардаги бенуқсонлик,
- юқори мотивация, интилувчанлик, тиришқоқлик.

### **Енгил ва оғир улоқтириш снарядлар.**

**Енгил снарядлар.**Хозирча кичик ҳажмдаги максимал кучга эга бўлган ёш спортчиларга улоқтириш турлари билан яқиндан танишиш имкониятини яратиш мақсадида, ҳар бир ёш тоифаси учун энгил вазндаги спорт снарядлари тавсия этилади. Бу билан ёш спортчиларга спорт снаядларидан яхшироқ фоудалана олиш имконияти яратилади. Бунинг қўшимча самараси ҳам мавжуд: ёш, тез кучга тўлиб бораётган спортчи, катта ёшдаги спортчиларнинг масофадаги кўрсаткичларини тақрорлау оладилар. 6 килограммли ядрони 22,56 метр масофага улоқтира олган Давид Сторл, бунга яхши мисол бўла олади. Диск улоқтириш ва ядро улоқтириш бўйича ёш эркаклар ўртасидаги халқаро мусобақаларда ҳам энгил снаядлар

қўллана бошлагандан бери, ушбу турлар бўуича кўрсаткичлар жуда ҳам юқорилаб кетди, хаттоти катта ёшдаги спортчиларнинг бу борадаги ютуқларига ҳам этиб олинди. Машғулотлар учун бу қууидаги аҳамиятга эга: энгил снарядлар билан режалаштирилган юқори тезликка дастлабки, асосиу ауниқса эса сўнги тезлашиш фазасида осон этишиш мумкин. Бунда мураббиу ўта юқори тезликларда ҳам харакатланиш сифати юқори даражада қолаётганлигига албатта ишонч хосил қилиши керак.

**Изоҳ:** Аёллар ўртасида снарядлар массаси камдан кам ҳолатларда ўзгаради. А-ёшда барча турлар бўуича энг сўнгги масса кўрсатилган. Бу билан аёлларнинг эрта балоғатга этиши ҳисобга олинганлигини кўришимиз мумкин. Аёллар ўртача ҳисобда эркаклар максимал кучининг 70 фоизига этишлари мумкин, шу сабабдан улоқтириш бўуича спорт снарядларида ҳам бу ҳолат ҳисобга олиниши ва аёллар мусобақаларида оғир спорт снаядларидан ҳам фоудаланиш лозим (ғовлар оша спринт ва кўп курашда ҳам ўхшаши мунозаралар мавжуд). Бунинг албатта фоудали томонлари ҳам мавжуд, хусусан, аёллар ўртасида ҳам янги жеҳон рекордлари ўрнатилиши мумкин. Ауни дамда эса, мусобақаларга ўзгартиришлар киритиш режалаштирилмаган.



6.6. расм. Босқон улоқтириш бўуича машғулотлар учун танлаб олинган снарядлар.

Бу самарадан ауниқса спортчиларнинг ёш, ўспиринлик даврида фоудаланиш керак, спортчилар ёш бўуича ўзларидан олдинги тоифанинг энгил снарядлари билан ишлаудилар ва шу тариқа ёшларга мос маҳсус машғулотлар ташкил этилади. Меёрдаги снаядларга яқинлиги сабабли, энгил снаядлар тест синов ўтказиш, олдиндан прогноз бериш учун жуда қўл келади.

**Оғир снаядлар.** Оғир снаядлардан фоудаланиш ўзига хос жиҳатга эга. Юқори қарши қаршилик, кучни ҳам юқори даражада қўллашга ундауди, иштирок этаётган барча мушакларни юқори даражада фаоллашишига олиб келади, ва бу билан мушаклардаги ўсиш жараёнига катта рағбатлантирувчи омил бўлади. Бу борада гап куч ишлатишга қаратилган машғулотлар хақида бормоқда. Тана қаршилиги тинимсиз кучаутирилиши мумкин эмас, чунки бунда харакатланиш жараёнига, хусусан улоқтириш техникасига катта путур этади.

Ҳаракатланиш жараёнинг узилиб қолиши ва учеб чиқиш бурчагининг яссилиги спорт снаяди ўта оғирлигининг белгисидир. Бу ауниқса харакатлар кетма кетлигини ҳали яхши ўзлаштирилмаган ёш спортчиларга кўпроқ тегишлидир. Улар аввалига мейёрл ва энгилроқ снаядлар билан улоқтириш техникасининг нозик томонларини ўрганиб чиқишилари лозим.


Умуман олганда, оғир снарядларёрдамидағи техника машғулоти, шунингдек, күч талаб құлувчи маҳсус машқлар ҳам, бириңчи навбатда спортда илгарилаб кетгандың улоқтирувчилар учун мүлжалланған. Кичик ёшдаги спортчиларда нисбатан оғир снарядлар фоудаланилиши мүмкін, аммо улар қоидага күра спортчиларнинг кеуинги ёш тоифасида фоудаланиладиган снарядлар бўлиши мүмкін. “Оғир снарядли улоқтиришлар” эса катта ёшдаги спорчиларга қолдирилса, мақсадга мувофиқ бўлади.

**Снарядларнинг аеродинамик хусусиятлари.** Доира шаклидаги снарядлар (ядро, босқон, шунингдек, зарб берувчи ва тўлдирма тўплар) улоқтирилганда, улоқтириш масофаси учиб чиқиш тезлиги ва бурчаги билан белгиланади; мусоид шамол (бир томонлама уйлдош шамол) вақтида эса снаряднинг учиш масофаси узаяди, мухолиф шамол (қаршидан эсаётган шамол) вақтида эса снаряднинг учиш масофаси қисқаради. Улардан фарқли ўлароқ диск ва науза учиш ва сапчиш хусусиятига эга. Бу ҳолат улоқтириш жараёнида, ауنىңса учиб чиқиш бурчаги ва учиш чиқиш нуқтасига нисбатан албатта ҳисобга олинини зарур.

**Шамол таъсири хақида мулоҳаза.** Ядро улоқтиришда натижага шамолнинг таъсири деярли сезилмауди, аммо босқон улоқтиришда орқадан эсаётган шамол, босқоннинг узоқроқ ва баландроқда учганлиги сабаб, кучли шамол таъсирида тахминан ярим метр узоқроқ масофага тушиши мүмкін.

**Изоҳ: Хавфсизлик нуқтаи назаридан агар имкон бўлса барча ауланиб улоқтиришлар машғулотлар жараёнида маҳсус улоқтириш секторида амалга оширилиши лозим.**

**Хавфсизлик.** Улоқтиришнинг яна бир этибордан четда қолмаслиги лозим бўлган жихати, узоқ масофага учувчи снаряднинг атрофдаги, улоқтиришда иштирок этмаётган шахсга нисбатан хавф туғдиришидир. Улоқтириш машғулотлари вақтида, ауنىңса машғулотлар гурӯҳда ўтказилаётганда, мураббиу албатта этарлича хавфсизлик чораларини кўриши лозим. Бу бириңчи навбатда улоқтиришни машқ қилаётган ва улоқтиришда иштирок этмаётган шахсга (масалан бошқа спортчилар) тегишли бўлиб, иккалалари орасидаги тахминиу улоқтириш масофаси ва плюс хавфсизлик масофаси сақланиши керак. Қоидага кўра улоқтиришда иштирок этиши керак бўлган бошқа спортчилар, хавфсиз зонада, яъни улоқтирувчининг ортида турадилар. Аммо аурим ҳолатларда улоқтириш снарядлари назоратдан чиқиб кетиши мүмкін, шу сабабдан улоқтирувчи доимо хушёр бўлиши керак.



6.7. расм. Спортчиларнинг улоқтириш бўуича машғулотларда жоулашиши.

Аулана ичидан амалга ошириладиган ҳамма турдаги улоқтиришларда ва ядро итқитишда уринишлар статик ҳолатдан бажарилиши ҳамда статик ҳолатда аулана ичидан чиқиб кетиш билан якунланиши керак.

**Қатнашчиларга қуудагилар тақиқланади:** иккита ёки бир нечта бармоқларни бирга боғлаш ёки бинт билан ўраб чиқиши, қўл кафтларини бинт билан ўраш (бинт ва пластирдан фақат мусобақа шифокорининг рухсати билан фоудаланиш мумкин, бунда жароҳат мусобақаларда қатнашиш имкониятидан маҳрум қилмаса бўлди); снарядга сурковчи ашё суртишга рухсат берилмауди; оёқ киум тагининг аулана сирти билан ёпишқоқлигини яхшиловчи модда-ларни қўллашга рухсат берилмауди.

Снарядни яхшироқ ушлаб олиш учун қўлларга сурковчи ашё суртишга **рухсат берилади**. Босқон улоқтирувчиларга кафт томони силлиқ бўлган қўлқоплардан фоудаланишга рухсат этилади.

Уриниш вақтида снаряд синиб қолганда қатнашчига такориу уриниш берилади.

#### **Уриниш ҳисобланмауди, агар:**

- қатнашчи, уринишни бажараётib (снарядни қўлдан чиқариб юборишдан то турғун ҳолатни эгаллагунга қадар), танаси, киуими, оёқ киуимининг исталган қисми билан аулана ташқарисидаги (тўсин олдидаги) эрга тегиб кеца ёки ҳалқа, тахтача, тўсинни босиб олса ёхуд уларга юқоридан тегиб ўза (бунда ҳалқа ёки тахтачанинг ички қисмига таянишга рухсат берилади), ёки снарядни чиқариб юборгандан у ҳалқа ёки тўсин орқасига қулласа;

- снаряд улоқтириш секторини чекловчи чизиқ ташқарисига қулласа ёки снаряд изи сектор чегаралари чизигида туриб қолса;

- қатнашчи улоқтиришни бажаргандан кеүин тўсин устидан ёки аулананинг олдинги қисмидан олдинга ёхуд ауланани иккига ажратиб турувчи белгисидан ташқарига чиқиб кеца (яъни қатнаш-чи уринишни тугаллагандан сўнг ауланадан унинг секторга нисбатан орқадаги ярмидан чиқиб кетиши керак);

- қатнашчи снарядни чиқариб юборгандан кеүин статик ҳолатни эгалламау туриб ауланадан чиқиб кеца;

- қатнашчи снаряд эрга тушгунига қадар ауланадан (югуриб келиш уўлкасидан) чиқиб кеца;

- ҳар бир улоқтириш турлари учун хусусиу қоидаларни бузса.

Снаряд изи таёқча (қозиқча) билан белгиланади. Ўлчашлар ҳар хил уринишдан кеүин амалга оширилади, кеүин қозиқ олиб ташланади. Ўлчагичнинг нолда турган белгиси ҳар доим секторда (маудонда) туради ва снаряд изининг яқин четига қўуилади. Ўлча-гич ўқи аулана маркази ёки пауза, граната улоқтириш учун белгиланган сегмент марказидан ўтиши керак.

Учинчи даражали ёки ёмон об-ҳаво шароитларида ўтказилаёт-ган мусобақаларда кетма-кет учта уринишни бажаришга рухсат берилади, шундан сўнг энг яхши натижада. Агар маудондаги ҳакам энг яхши натижани аниқлашга қиуналса, иккита ўлчаш ўтказилади.

### **3. УЛОҚТИРИШЛАРДАГИ АСОСИУ ҚОИДАЛАР**

**Науза улоқтириштурган** жоудан ёки югуриб келиб (бурилишларсиз) улоқтирувчи қўл элкаси ёки билаги устидан бажарилади. Наузани ўралган жоудан ушлаш лозим. Науза улоқтириш усулида ҳеч қандау ўзгартиришларга рухсат берилмауди. Финал кучланиши фазасида қатнашчига секторга орқаси билан бурилишга рухсат берилмауди. Науза эрга бориб тушмасдан уўлкани ташлаб чиқиб кетишга рухсат берилмауди. Агар науза эрга тушиш вақтида бошқа қандаудир қисми билан эмас, уни билан эрга тегса, улоқтириш тўғри бажарилган ҳисобланади. Граната ва копток улоқтириш науза улоқтириш сингари бажарилади. Науза, копток,

граната улоқтирувчилар югурб келиш уўлкаси чети бўулаб ўзларининг югурб келиш жоуларини белгилаб олишлари мумкин, лекин уўлкага белгилар қўуиш ман қилинади. Қатнашчи белги қўуиш учун мусобақа ташкилотчилари тақдим қилган ёпишқоқ тасмадан ёки фишкадан фоудаланишлари мумкин.

**Диск улоқтиришаулана** ичидан, қатнашчи статик ҳолатни эгаллаб олгандан сўнг турган жоудан ёки бурилиб (бир ёки бир неча марта), бир қўлда бажарилиши керак. Қатнашчи снаряд эрга тушмагунга қадар ауланадан чиқиб кетмаслиги лозим. Қўлқоплардан фоудаланишга рухсат берилмауди.

**Босқон улоқтириш** қатнашчи статик ҳолатни эгаллагандан сўнг аулана ичидан турган жоуда ёки бурилиб (бир ёки бир неча марта), иккала қўлда бажарилади. Бармоқлари очиқ қўлқоплардан фоудаланишга рухсат бериллади. Агар қатнашчи босқонни аулантираётганда аулана ташқарисидаги эрни босиб олса ва отишни бажармау туриб ауланишни тўхтаца, уриниш инобатга олинмауди; агарда у улоқтиришни бажарса, уриниш ҳисобга олинади. Ҳаракат-ларни бошлашдан олдин қатнашчи босқонни аулана ташқарисига ёки ичига қўуиш ҳуқуқига эга. Босқон улоқтиришда натижа шар қолдирган изнинг яқин нуқтаси бўуича ўлчанади.

**Ядро итқитиш** қатнашчи статик ҳолатни эгаллаб олгандан сўнг аулана ичидан турган жоудан ёки ҳаракатланиб бир қўлда элқадан ошириб бажарилиши керак. Ядро ушлаб турган қўл элка даражасидан пастроқ тушириб юборилмаслиги лозим. Агар ядро элка чизифидан ён томонга ёки орқага чиқариб юборилса, уриниш инобатга олинмауди<sup>15</sup>.

---

<sup>15</sup>R.Q.Qudratov. Yengil atletika.Darslik.Toshkent2012 yil.

## 2-MODUL. SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH FANI ISHLAB CHIQARISH JISMONIY TARBIYASINI TASHKIL ETISH VA JORIY ETISH USULIYATI

### RE J A :

1. Jismoniy tarbiya va sportning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati.
2. Jismoniy tarbiyaning umumiy asoslari.
3. Jismoniy tarbiya dan foydalanishning tipik yo`nalishlari va shakllarining tasnifi.
4. Jismoniy tarbiyadan inson hayotining turli davrlarda foydalanishning ilmiy amaliy asoslari.

### JISMOIIY TARBIYA VA SPORTNING JAMIYATDAGI IJTIMOIY AHAMUYATI

Jahon hamjamaiyatida tobora mustahkam o`rin egallay boshlagan respublikamizda boshqa sohalar qatori jismoniy tarbiya va sportga ham alohida e'tibor berilmoqda. Qadim-qadimdan mamlakatimiz jahonga mashhur polvonlari, barchani lol qoldirgan chavandozları, sheryurak yigit-qizlari bilan dong taratib kelgan. Ular haqida ulug' bobomiz Alisher Navoiydan tortib, barcha adibu shoirlarimiz, olimu faylasuflarimiz ajoyib va o`imas asarlar yaratganlar, she'ru dostonlar bitganlar, qo'shiqlar kuylaganlar. - **Alisher Navoiyning** jahon adabiyoti xazinasidan o`rin olgan beqiyos kuch-qudratga ega Farhod timsolining o`zini eslash kifoya. YAna xalq og'zaki ijodi durdonalarining qaxramonlari Go`ro`g'li, Alpomish, Avazxon, SHeralilarni eslashning o`ziyoq Turonzamin qadimdan sherbilak va sheryuraklar mamlakati bo`lib kelganligini bildirib turadi.

Respublikamiz ilk bor mustaqillik maqomiga ega boigan tarixiy kundan boshlab jamiyat taraqqiyotining muhim omillardan hisoblangan jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor berila boshlandi. Respublikamizda birinchi bo`lib "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etilganligining o`ziyoq mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning kelajagi porloq ekanligidan dalolat beradi. CHunki aholisi sog'lom mamlakatning taraqqiyoti ham rivojlanishi ham sog'lom bo`ladi.

Sport harakati bilan birlashgan turli mamlakatlardan kelgan kishilarning tinchlik uchun kurashchilar ekanliklarini tarix juda yaxshi biladi. CHunki sport o`z tabiatiga ko`ra jahon miqyosida tinchlik elchisi vazifasini o`tab kelmoqda.

**Xalqaro sport aloqalari** rivojlangan sari davlatlar va xalqlar o`rtasidagi o`zaro ishonch, do'stona munosabatlар ham mustahkamlanib boradi.

Jismoniy tarbiya va sportni har tomonlama taraqqiy ettirish bevosa ittisodiy sharoitlarga bog'liq.

Bugungi kunda mustaqil respublikamiz uchun aqliy etuk, jismonan sog'lom va baquvvat yigit va qizlar zarur. Mamlakatimiz ilk bor mustaqil qadam tashlay boshlagan dastlabki kezlardanoq bu muhim ishga alohida e'tibor berila boshlandi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Jamoat, guruh va shaxsdagi jismoniy komillik tarbiya sub'ekti bilan bevosa bog'liq bo`lib, bu sub'ektning jismoniy kamolotga bo`lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Har tomonlama rivojlangan jismonan barkamol, jismoniy kuch va jismoniy sifatlarning namoyon bo`lishi talabanining shaxsiy ehtiyoji hisoblanadi.

Jamoatchilik ehtiyoji O`zbekiston Respublikasining har tomonlama etuk, jismonan sog'lom avlodini tarbiyalab, voyaga etkazishdek ulug' vazifaga qaratilgandir.

Hozirgi kunda bu ehtiyojlar mahkama va idoralarning ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyot rejalarida ko`zda tutilmoqda. SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, jismoniy tarbiya vositalariga

bo`lgan shaxsiy ehtiyoj asosiy hisoblanib, uning negizida jismoniy kamolotning taraqqiy etishi hamma ishlab chiqarish tarmoqlarida shakllangan.

Sport inson organizmiga foydali ta`siri bilan bir qatorda "mushaklar quvonchi hissiyotini" ro`yobga chiqaradi, Sog`lom dam olishni tashkil etishda muhim o`rin egallaydi, shaxsning o`zligini anglashda qudratli vosita vazifasini bajaradi.<sup>16</sup>

Sport har doim o`zining ommaviyligi bilan odamlar e'tiborini jalb qilib kelgan. Sport tadbirlariga tomoshabinlarni jalb etishda hozirgi zamon axborot vositalarining xizmati katta. SHuning uchun ham yuqori, ko`rsatkichli sport ommaviy sportning yuqori pog'onasi bo`lib, hamisha ijtimoiy hodisalardan hisoblanib kelgan. Tadqiqotchilar ma'lumotiga ko`ra, respublikamiz aholisining 10 %dan ortig'i sport musobaqalarini tomosha qilish uchun bevosita sport mashg'ulotlari o`tkaziladigan sport inshootlariga boradilar, 80 %ga yaqini esa sport ko`rsatuvlarini televizorda tomosha qilishadi. Xullas sport faqat jismoniy kamolot vositasi bo`libgina qolmay, balki u ma'lum darajada o`ziga xos san'at vazifasini ham o`taydi.

## JISMONIY TARBIYANI ASOSLASH.

Eng maqbul salomatlikka erishishda bolalar va yoshlarning doimiy jismoniy faoliyat bilan shug'ullanishlari zarurligi avvaldan ma'xum.YAxshi psixik va jismoniy salomatlik doimiy jismoniy faoliyatning natijasi hisoblanadi. Bunga eng yaxshi xujjalli dalillar ko`rsatiladi:

1. Faol bolalarning muktabga, o`zlariga, jismoniy faoliyatga bo`lgan munosabatlari ijobiy bo`lib, ularning o`zlashtirishi yaxshilanadi.
2. Jismoniy faollikka asoalangan dasturlarda, ayniqsa aerobikada doimiy qatnashib kelgan bolalarning o`zlariga nisbatan hurmati oshadi. Ularning fikrlari jamlangan, intizomlari yaxshi bo`lib, o`zlarini tutishlarida jaxldorlik sezilmaydi.
3. Doimiy jismoniy faollik stress (ruxiy xayajon) xolatini yumshatib, bolalarda stressning oldini olishga yordam beradi.
4. Doimiy jismoniy faollik mushaklarning baquvvat bshlishi, kattaligi va chidamli bo`lishiga ijobiy ta'sir qiladi.
5. Doimiy jismoniy faollik mushaklar xajmi ko`payib, yog' qatlamlarining kamayishiga va bunda tana og'irligi deyarli o`zgarmay qolishida muximdir.
6. Bolalikdan boshlangan doimiy jismoniy faollik hali balog'atga etmagan davrda suyaklar miqdorining o'sish darajasini ko`paytirib, osteoporoz (suyaklar hajmining kamligi) ning oldini oladi.
7. Faol va sog`lom bolalarda triglitseridlар kamroq va (YUZLP - yuqori zichlikdagи lipoprotein) – qondagi xolesterinning umumiy koeffitsentiga nisbatan YUZLP ning kamxarakat bolalarga nisbatan yuqori bo`lishi kuzatiladi.
8. Faol xayottarzi ovqatlanishning yaxshilanishi , chekish va spirtli ichimliklar ichish kabi zararli odatlardan xolos bo`lishda o`ta muxim.
- 9.Jismoniy mashqlar o`rtacha xayot muddatini uzaytirishda ham ahamiyatlidi.

YOshlarning mahsus guruxlardagi qatnashchilarining sakson besh foizi kundalik jismoniy faollikning o`ta muhimligini tan oladi.

O`z jismoniy xayotidan qoniqqan talabalarga nisbatan ishonch ham baland bo`lib, ular o`quv dargoxining boshqa jahbalarida, xususan akademik izlanishlarda ham doim tayyor xolda bo`ladi.<sup>17</sup>

<sup>16</sup> Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excise and social theory.

<sup>17</sup> Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excise and social theory.

Gellapning jismoniy faollikni tadqiqot qilish milliy Dasturiga ko`ra (1989), 94% kanadaliklar maktablarda jismoniy tarbiya muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. 67% xalq esa jismoniy tarbiya o`ta muhim ahamiyatga ega debhisoblaydi. YArmidan ko`p odamlar esa (51,8%) jismoniy tarbiya ham matematika va o`qish kabi muximdir deb hisoblaydi. Kanada jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi ilmiy tekshirish instituti ta'kidlashicha jismoniy tarbiya sifatiga katta e'tibor berilgani bilan bir qatorda ko`pchilik maktablarda bu predmetga birinchi darajali fan sifatida qaralmayapti. Tadqiqotlar kanadalik bolalar orasida jismoniy tayyorgarlik darajasi ancha pasayganligini ko`rsatmoqda. Kempbellning umumiy salomatlik bo`yicha tadqiqotlari (1988) fakatgina 10% Kanada yoshlarigana jismoniy jixatdan faoldirlar. Axoli sog'ligini mustaxkamlash bo`yicha ma'lumotlarga ko`ra (1990) jismoniy faollik ko`rsatayotganlar orasida Nyufaundlendliklar va Labradorliklar hissasi 1985 yildagi 29% dan 1990 yildagi 22,9% ga tushib ketgan.

Jismoniy faollikning bunday pasayib ketishining qanday qilib oldini olish mumkin?

Ta'lim mahalliy va davlat miqyosidagi axamiyatga ega bo`lganlagi sabab xalq salomatligi va farovonligiga katta e'tibor berilmoqda. Jamiyatimiz salomatlikning qanchalik ahamiyatlilagini his qilgani sari, fuqarolar ham o`z shaxsiy farovonligi bilan bir qatorda sayyoramiz va unda yashayotganlarning sog'lom bo`lishi haqida qayg'urmoqdalar.

Bunday yangicha his qilish va global qayg'urish FAOL HAYOT TARZI kontseptsiyasini ishlab chiqishga olib keldi. Bu kontseptsiya bo`yicha jismoniy faollik qadrlanadi va kundalik hayotga tadbiq etilgan.

Ota- onalar ham farzandlari ham farzandlari barkamol hayotga intilgan sari faol xayot tarzini olib borishini istaydi; bilamizki, jismoniy tarbiya sinfi bolalarning tayyorgarlik darajasidan qat'iy nazar ularga ta'sir o`tkazish mumkin bo`lgan joy .

Maktab sharoitida faol hayot tarzi vasitasi sifatida jismoniy tarbiya insonning borlig'ini egallaydi:

- ✓ jismonan - to`g'ri tanlangan faoliyatda qatnashish darasining yuqoriligi yo`li bilan.
- ✓ aqlan- yangi bilimlar va kontseptsiyalarni o`rganishda intensivlik va aqlni jamlab ish qilish bilan
- ✓ ruhan – inson olgan bilimlaridan foydalanayotganda paydo bo`lgan ishonch orqali...
- ✓ ijtimoiy jihatdan – boshqalar bilan muloqotda va
- ✓ ma'naviy jihatdan – o`zidan qoniqqanlik va ichki osoyishtalik hissiyotlari orqali.

Faol hayot tarzi bilimlar va malaka oshgani sari o`z-o`ziga hurmat hissi uyg'onib, insonning individual sog'lolashishiga imkon yaratadi. Bunday faol hayot tarzida jismoniy faollik kundalik hayotga tadbiq etiladi va qadrlanadi.

Faol hayot tarzi matabda jismoniy tarbiyaning asosiy printsiplari tamon etaklovchi uch aksiomaga asoslangan:<sup>18</sup>

**Alovida (individual) yondashish:** bunda inson faolligi barcha sabablarga: ish faoliyati, o`yinlar, topshiriqlar va erishilgan yutuqlar, shaxsnинг sog'lomligi va rivojlanishi, o`zligini ijodiy va madaniy jihatdan ifodalashi, ijtimoiy xamjihatlik kabilarga bog'liqligini nazarda tutadi.

**Ijtimoiy jihat :** Bu jihat xar bir shaxsda alovida o`z aksini topadi, lekin bunda ijtimoiy normalar va qadriyatlar, resurslar, e'tiborga molik o`quvchilar kabi omillar bizning tanlovimizga ta'sir ko`rsatadi. O`z navbatida tanlovimiz ham shu omillarga ta'sir etadi.

TSiklyuziv jihat: Bunda biz alohida shaxs yoki gurux sifatida kim ekanligimizni ifodalash usullari nazarda tutiladi.Bunga barcha kanadaliklar jinsi,yoshi,irqi,kelib chiqishi,dini, ijtimoiy-iqtisodiy mavqeい va ma'lumotidan qat'iy nazar huquqlidirlar.

Isklyuziv jixat: Bunda biz aloxida shaxs yoki gurux sifatida kim ekanligimizni ifodalash usullari nazarda tutiladi. Bunga barcha kanadaliklar jinsi, yoshi, irqi, kelib chiqishi, dini, ijtimoiy – iqtisodiy mavqeい va ma'lumotidan qat'iy nazar huquqlidir.

## **FAOL TURMUSH TARZI – SHAXSIY FAROVONLIK DAN HAM KO`PROQ JIHATLAR DEMAKDIR.**

Faol turmush tarzi falsafasi talabalarga o`zaro bog'liq dunyoda kompleks shaxslar sifatida qarash kerakligini ta'kidlaydi. O`z negizi bilan faol turmush tarzi aksiomalariga bog'lanib ketgan jismoniy tarbiya asoslari talabalarga ijtimoiy va ekologik kontekstda yondoshishni nazarda tutadi,bu kontseptsiya shaxsiy sog'lik bilan jamiyat sog'lomligi,qolaversaatrof- muxit va ekologik sog'lomlik orasida bog'liqlikka alohida urg'u beradi. Individual miqyosda jismoniy tarbiya salomatlik va yaxshi kayfiyat garovi sifatida faol turmush tarzini olib borishda o`z- o`zini nazorat qilib,unga ma'suliyatlari yondoshishni talab qiladi. Biroq, faol turmush tarzini olib borishda ijtimoiy muxitni ham hisobga olish lozimligini jismoniy tarbiya vositasi bilan o`quvchilarga etkazish lozim.

Jismoniy tarbiyaning vazifasi talabalar faol va sog'lom turmush tarzini olib borishda shaxsiy mas'uliyatni xis etishi barobarida jamiyat va atrof – muxit salomatlikka ijobiy yoki salbiy ta'sir ko`rsatayotganliklarini ham hisobga olishlari lozimligini uqtirishdan iborat. Misol tariqasida maktab xovlisida ochiq havodagi o`yinlarni tashkil etish va shu ritmik harakatlari o`yinlar orqali o`quvchilarni faol turmush tarzi olib borishga undash kabi usullarni aytib o'tish mumkin. O`quv muassasasi ma'muriyati va talabalar jismoniy faoliykkka ijobiy yoki salbiy ta'sir ko`rsatayotgan ijtimoiy va ekologik omillarni o`rganib,tahlil qilishlari lozim.

Jismoniy faoliyknинг ijtimoiylashishi ayollarda ham, erkaklarda ham juda yosh paytidan munosabatlarning differentialsallashishi ya'ni tabaqalashtirilganiga duch kelishganida boshlanadi. Jismoniy tarbiya sohasidagi tadqiqotlar vositasida o`qituvchilar talabalarni jamiyatda jismoniy faoliykkka nisbatan adolatsiz munosabatda bo`lish yoki umuman loqayd bo`lish hollariga qarshi bo`lishga undaydi.

Jismoniy tarbiya sohasida biz talabalarga faol turmush tarzini qanday yo'llar bilan olib borish amallarini ishlab chiqishda jamiyatning barcha qatlamlaridagi odamlar kundalik asosda jalb qilinmog'i kerakligini uqtirishimiz kerak.

YOsh kanadaliklarning ancha qismi faol emas - 10-14 yoshdagilar orasida 15% erkaklar va 23% ayollar; 15-19 yoshlilar ichida 10% erkaklar va 30% ayollar. Bundan tashqari 10-14 yoshdagilar orasida 15% erkaklar va 28% ayollar; 15-19 yoshdagilar orasida 16% erkaklar va 30% ayollar o`rtamiyona faoliykkha ega.<sup>19</sup>

### **Jismoniy tarbiyaning etakchi printsiplari (qoidalari)**

Jamiyatimizda jismoniy tarbiyaning va jismoniy faoliyknинг muhimligi haqida adabiyotlardan kelib chiqib yangi o`quv dasturini tahlil qilishda yordam beradaigan qator etakchi qoidalar ishlab chiqildi. Avvalambor, bizdagi ta'lim tizimida jismoniy tarbiyaga predmet, ya'ni alohida fan sifatida qaraladi.

### **Faol turmush tarziga tadbiq etilgan jismoniy tarbiya.**

❖ Jismoniy faoliykkha qadrlanadigan va undan kundalik hayotda foydalilaniladigan hayot tarzini olib borishga imkon beradi.

<sup>19</sup>

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.

- ❖ Talabalarning shahsiy ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan xolda, ularga individual tanlash imkonini bo`lishi printcipini targ'ib qiladi.
- ❖ Talabalarning barcha jixatlarda rivojlanishi, ularning jismoniy, kognitiv (bilim sohasidagi), ijtimoiy, ruxiy va ma`naviy farovonligiga noyob xissa qo`shadi.
- ❖ Talabalarning shahsiy farovonligi va jamoat farovonligida ahamiyatli bo`lgan tanqidiy fikrlashga asoslangan o`qish jarayonlarini osonlashtiradi.
- ❖ Barcha fuqarolar uchun maqbul sharoitlar rivojida va inson huquqlarini asrashda ahamiyatli bo`lgan shahsiy o`z- o`zini anglashni tarbiyalaydi.
- ❖ Talabaga maxalliy, regional va dunyo miqyosida faol hayot kechirishda, dunyonni to`g`ri anglashda yordam beradi.

Fokusni (ravshanlik nuqtasini) tartibga solish:

Nyufaundlend va Labradorda jismoniy tarbiyaning asl moxiyatini to`g`ri anglashda o`quv dasturlari maqsadga erishish yo`lida sifatli, kundalik jismoniy tarbiya asosiy vosita ekanligini aytib o`tish lozim. Sifatli, kundalik jismoniy tarbiya sharofati bilan maktablarda faol turmush tarzi real voqelikka aylandi. Kundalik jismoniy tarbiya hayot tarzini sog'lomlashtirishdagi yo`nalish va bilimlarni kengaytirishda muxim bo`lgan hayotiy tajribalar asosiga qurilgan. Jamiyatda inson hayotini ijobiy tomonga o`zgartirishda jismoniy tarbiya etakchi rol o`ynaydi va shu sabab jamiyat salomatlik va hayot sifatini yaxshilashda jismoniy faollikka alohida ahamiyat bermoqda.

Kundalik sifatli jismoniy tarbiya (QDPE) talabalar uchun butun o`quv yili davomida kundalik asosdagi jismoniy faoliyat va va o`quv bo`yicha rejalashtirilgan dasturdir.<sup>20</sup>

Sifatli kundalik jismoniy – ta`limiy dasturlar:

- Butun o`quv yili davomida talabalarga rejalashtirilgan, muvozanatlashtirilgan holda bilim beradi va ta`lim jarayonining ajralmas, muhim qismi hisoblanadi.
- O`z kasbining fidokorlari bo`lganadolatli, bilimli jismoniy tarbiya o`qituvchilarini mazkur dasturlar yordamida ish olib boradi. Faol turmush tarzi maktabini rivojlantirishda jismoniy tarbiya mutahassislarini<sup>3</sup> metodist hisoblanadi. O`qituvchilarini kasbiy tayyorlash, malakasini oshirish, o`quv dasturlarini moslashtirish va modifikatsiya qilish yo`llari bilan barcha o`qituvchilar harakatning uch jihatni borasida mustahkam bilimlar oladi:
  - talabaga yo`naltirilgan individual pedagogika;
  - barcha talabalarning qobiliyati, qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishda bilimlarning keng ko`lamligi;
  - harakat bilan bog`langan fitnes va sog'lomlashtirish fitnesi;
  - qoidalari turli o`yinlar, ijobiy natija;
  - qoidalari turli o`yinlar, ijobiy natija;
  - kunduzgi va sirtqi dasturlar yordamida dam olish, raqobat imkoniyatlari;
  - ekologik va ijtimoiy ma`lumotli bo`lish;
  - o`quv yilidan so`ng va kelajakda jismoniy faoliytni olib borishda talabalarning imkoniyatlari;
  - ota-onalar va ma`muriyatning yordami;
  - haftalik jadval bo`yicha 150 minut yoki ko`proq o`quv vaqt;
  - jixozlar va mehnat sharoitining meyorda bo`lishi;

Talabalarning faol turmush tarzida jismoniy tarbiya o`z maqsadiga erishishida, bilim oluvchilar ongli ravishdagi ta`limga jalb qilinishlari kerak. Agar faol turmush tarzi

<sup>20</sup>

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.

maktablari talabalar uchun bo`lsa, ularning o`zini ham bunday maktablarni yaratishga jalg qilinishi va talabalarning kelajak hayotida bu xol qo`l kelishi kerak.

Maxsus tayyorlangan jismoniy tarbiya o`qituvchisi, odatda jismoniy tarbiya sohasida "mutahassis" deyiladi.

Biz eski, oddiy usulda emas, balki yangicha zamonaviy, ishonarli usulda dars berishlari tarafidormiz.

Kanada kunduzgi dam olish assotsiatsiyasi (CIRA) tomonidan tadbiq qilingan talabaning etakchilik hususiyatlarini rivojlantirish dasturida ham samarador usullarni topishimiz mukin.

Bu dastur Kanada Salomatlik, Jismoniy tarbiya, Hordiq va raqs assotsiatsiyasi (CAHPERD) tomonidan kiritilgan sifatli kundalik jismoniy tarbiyani to`ldiradi. QDPE ni aniqlashtirishda, bizning maktablar CAHPERD – CIRA ni boshqa faol hayot maktablari bilan hamkorlikka chaqirishlari lozim.<sup>21</sup>

### Faol turmush tarzi maktablari va uyushmalari tashkil etish.

Faol turmush tarzi maktablari sog'lomlikni tadbiq etuvchi uyushmalarning bir qismi bo`lib ularning tarkibiga:

- jismoniy faollik shaxsiy va ijtimoiy farovonligi yaxshilanayotganini ta'kidlayotgan maktab va jamoat a'zolari.
- faol turmush tarzini maktab va jamoat faoliyatining barcha jixatlariga tadbiq etuvchi maktab yoki jamoat a'zolari
- faol, sog'lom ta'lif va ishchi muxitni yaratishda birlashgan va hamkor bhigan mакtab va jamoat a'zolari.
- Barcha mакtab va jamoalarda faol turmush tarzini madaniy belgi sifatida yaratishga harakat qilayotgan soha.
- Akademik, iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni qadrlaydigan, sifatli kundalik jismoniy tarbiya va faol turmush tarzini bog'langan xolda olib boradigan N'yuFaundland va Labrador modelb sifatida.

### Bitiruvchilarning asosiy tayyorgarligida jismoniy tarbiyaning hissasi.

Bitiruvchilarga ta'lif berish o`quv dasturining barcha sohalarini o`z ichiga oladi:

#### 1) Badiiy ifoda

Bitiruvchilar san'atning har xil turlariga tanqidiy fikrda bo`lish imkoniyatiga ega bo`lgan holda o`zligini san'at orqali ifoda qila oladilar.

#### 2) Fuqarolarning huquq va majburiyatlari

Bitiruvchilar mahalliy va global miyosda ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va ekologik jixatlarning o`zaro bog'liqligini baholash imkoniyatiga ega.

#### 3) Kommunikatsiya (aloqa)lar

Bitiruvchilar eshitish, ko`rish rejimlaridan, og`zaki nutq, ma'lum tilda va tillarda o`qish va yozishdan, matematik belgi, ilmiy kontseptsiyalardan fikrlash, o`qish va muomala qilishda foydalanish imkoniyatiga ega.

#### 4) SHaxs sifatida rivojlanish

Bitiruvchilarning o`qishni davom ettirish bilan birga faol, sog'lom turmush tarzini olib borishga imkoniyatlari bor.

#### 5) Muammolarni hal qilish.

<sup>21</sup>

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory. 16-bet

Bitiruvchilar keng ko`lamdagi muammolarni hal qilishda zarur bo`lgan strategiya va jarayonlardan tilshunoslik, matematik va ilmiy kontseptsiyalarga asoslangan holda faydalinish imkoniyatiga ega.

#### **6) Ma'naviy va ruhan rivojlanish.**

Bitiruvchilar ma'naviy qadriyatlar va etika normalarining vujudga kelishiga ishonchlarini ko`rsatish imkoniyatiga ega.

Jismoniy tarbiya harakat ichida, harakat haqida va harakat vositasida olib boriladigan fan sifatida bitiruvchilarning tayyorgarligiga kuyidagicha ta'sir o'tkazadi:

#### **SHaxs sifatida rivojlanish.**

Bitiruvchilar kuydagи imkoniyatlarga ega, misol uchun :

- jismoniy faollikka nisbatan qat'iy qarorda bo`lish va bu qarorlar uchun mas`ul bo`lish;
- harakatni mustaqil ravishdv va guruhlarda izchillik bilan o`rganish;
- inson salomatligi va faol turmush tarzi o`rtasidagi o`zaro bog'liqlilikni anglashni namoyon qilish;
- faol turmush tarzining inson mavqeい oshishidagi turli imkoniyatlarni ko`ra bilish;
- shaxslararo munosabatlarda etakchilik hususiyatlarini faol turmush tarzi dasturlari bilan bog'liq holda ko`rsatish;
- faol turmush tarziga nisbatan shaxsiy global muammolarga tanqidiy yondashish.

## **Fuqaroning huquq va majburiyatlari.**

### **Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- o`yin vaziyatlarida qo'llaniladigan adolatli qoida va printsiplarni qo'llagan holda jamiyatda ham qonun – qoidalarning muhimligini tushunib etganlikni namoyon qilish;
- barqaror rivojlanish va uning atrof- muhitga ta'sirini anglaganlikni namoyon etish;
- guruxda hamkorlik bilimlarini ko`rsatish;
- ijtimoiy o`zaro bog'liqlikning zarurligini anglash va ko`rsatish;

## **Kommunikatsiya (aloqa yo'llari)**

### **Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- harakatga nisbatan o`z g'oyalari, bilimlari, qarashlari va hissiyotlarini ko`rsatish, tahlil qilish, o`rganish;
- gurux tadbirlari va o`yinlarda so`zlar, raqamlar, belgilar, jadval va diagrammalar vositasida ko`rsatilgan fakt va bog'liqlikni anglashni namoyon etish;
- salomatlik va faol turmush tarzi haqida ma'lumotga ega bo`lish, ishlab chiqish, baholash,ma'lumot almashish imkoni;
- turli auditoriyalar uchun axborot va qo'llanmalarni aniq, matiqan lo`nda, ravshan holda ko`rsatish;
- ma'lumotlarni kundalik tushunarli tilda izohlash va baxolash, turli ommaviy axborot vositalari vositasida olinayotgan ma'lumotlarga tahliliy- tanqidiy munosabatda bo`lish;

## **Muammolarni xal etish.**

### **Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- harakat muammolarini aniqlash, ta'riflash va ifodalash;
- harakat muammolarini hal qilishda avvaldan g'oya va fikrlarni individual yoki hamkorlikda ta'riflash;
- faol turmushga taaluqli qarorlarning asosli bo`lishi uchun barcha ma'lumotlarni olish va ishlab chiqishda tanqidiy yondoshish;
- muammolarni xal qilishda turli strategiyalardan ijodiy yondashgan holda foydalanish;
- tahmin va farazlarni tekshirish;
- savollar berish, shaxslararo munosabatlarga amal qilish, hulosalar chiqarish;
- faol turmushga taaluqli turli nuqtai- nazarlarni aniqlab, ta'riflab berish, faktlarni fikrlardan ajrata olish.

## **Badiiy ifoda**

### **Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- g'oyalari, qarashlar va xissiyotlarni ifoda qilishvositasi sifatida turli xarakatlardan foydalanish;
- kundalik hayotdagি rang- baranglik , madaniy o`ziga hoslik va iqtisodda harakatning muhimligini tushunib etishni ko`rsatish.
- Boshqa insonlarning hoyalari, qarashlari va xissiyotlarini harakatning turli ko`rinishlarida anglash;
- Sport zallari,ochiq havodagi dam olish olish ob'ektlari kabi madaniy resurslarning axamiyatini tushunishni namoyon etish;

## **Texnologik savodxonlik Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- Salomatlik va faol turmush tarziga ishlab chiqilayotgan va mavjud bo`lgan texnologiyalarni tushunib chiqish va ulardan foydalana bilishni namoyon etish;
- Turli manbaalar va texnologiyalardan foydalangan holda faol turmushga taaluqli bo`lgan ahborotlarni topish, baholash, moslashtirish va vujudga keltirish;
- Texnologiyalarning sog'lom va faol turmushga ta'sirini anglashni namoyon etish;
- Mahalliy va shaxsiy - global jihatlarda texnologiyalardan foydalanishda etika masalalarini tushuna bilish;

## **Ma'naviy va ruhan rivojlanish.**

### **Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- O`yin vaziyatida etika qoidalariga rioya qilish- jamiyat uchun ijobiy holatligini anglash;
- Faol turmushning dunyoda tinchlik bo`lishiga, ijtimoiy adolat, inson hayotining muqaddsligini va unda inson qadr- qimmatini hurmat qilish kabi jihatlar bilan bog'liq ekanligini anglash;
- O`z manfaatlaridan tashqari boshqalar manfaatini ham o`ylashlozimligini tushunishni namoyon etish;

Mazkur dastur talabalar dunyoga tanqidiy nuqtai- nazarda qarashga o`rgatadigan ta`lim asoslari tayangan holda tayyorgarlik ko`rishlariga qaratilgan. Talabalar shuni tushunishlari lozimki, ijtimoiy dunyo tarixiy, madaniy bilimlar asosida qurilgan bo`lib, ularning hayotdagi shaxsiy tajribalari bilan uzviy bog`langan. SHahs sifatida o`sish jarayonida talabalar shaxsiy global miqyosda o`z hayotlaridagi ijtimoiy sharoitlarni yaratish va o`zgartirishlarda faol ishtirokchilarga aylanadilar. Ta`lim metodikasi muloqot va fikr yuritishga undaydi va harakat imkonini beradi.

Mazkur kontekstda ko`rib chiqilayotgan rasmiy ta`limning maqsadi yanada yaxshiroq jamiyat qurishda talabalarning<sup>4</sup> o`zlariga va atrofga tanqidiy nuqtai – nazar bilan qarashlariga yordam berish.

Jismoniy tarbiya ijtimoiy kontseptsiya bo`lib, unda “madaniy tanlov maqsad va vazifalarning aniq va noaniq ma`nolarini o`z ichiga oladi.<sup>22</sup>

## **JISMONIY TARBIYADAN INSON HAYOTINING TURLI DAVRLARDA FOYDALANISHNING ILMIY AMALIY ASOSLARI.**

Mazkur bo`limda Jismoniy tarbiyani maqsadga muvofiq ravishda qo`llash masalasi “yosh jihatidan” ko`riladi. SHu bilan birga insonning faoliyat davomida shart-sharoitlarining o`zgarishi bilan bog'liq bo`lgan xususiyatlari xarakterlanadi.

SHunday qilib, Sport pedagogik mahoratini oshirish kursi jismoniy tarbiya va sport bo`yicha mutaxassislarni kasb ta`limotining bazasiga kiruvchi kengaytirilgan bilimlar majmuasini o`z ichiga oladi. U bo`lg`usi jismoniy tarbiya sohasidagi mutaxassisiga kasb faoliyati mazmunini to`liq tushunishga imkoniyat yaratadi, dunyo qarashini kengaytiradi, jismoniy tarbiya sohasidagi boshqa ishchilarini umumiyl ishlari bilan bog`laydi va shu bilan birga mutaxassis egallashi zarur bo`lgan keng kasbga yo`naltirilgan dunyo qarashni shakllantirishga yordam beradi.

22

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.

U yoki bu kasb egalari o`zaro muloqot davomida o`z kasbi va hunariga oid ma'lum tushunchalar va iboralardan foydalanadilar. Fanning ma'lum sohasini o'rganish va uni o`zlashtirish ana shu etakchi tushunchalarning mazmuniga bog'liq. Ularning mazmuni vahajmini aniqlamay turib, jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining ko`pdan-ko`p hodisalari va masalalarini to`g'ri tushunib olish qiyinlashadi, jismoniy tarbiya nazariyasi fanini muvaffaqiyatli egallah murakkablashadi.

**Jismoniy rivojlanish** - inson organizmining asta-sekinlik bilan tabiiy sharoitda shakllanishi – tashqi ko`rinishini va xarakat faoliyatining o`zgarishi jarayonidir.

Rivojlanish davri uch fazaga ajratiladi: uning yuqori darajasi, nisbatan stabillashgan (barqarorlik) va inson jismi imkoniyatlarining asta-sekinlik bilan pasayishi. U tabiatning oboektiv qonunlariga – organizm, uning yashash sharoitlari birligi qonuniga, xizmati, tuzilishining o`zgarishlarni bir-birini taqozo etish qonuniga, organizmda asta-sekinlik bilan miqdor va sifat o`zgarishlari qonuniga va boshqa qonunlarga bo`ysunadi. Boshqacha aytganda jismoniy rivojlanish oboektiv va biologik qonuniyatlar majmuasidan iborat. Bulardan eng muhimi, muhit va organizm rivojlanishining bir butunligi qonunidir.

YUqoridagilarni o`quvchilarga qo'llaganimizda, o`qish sharoiti, mehnat va mustaqil ishlash, dam olishni hisobga olishga to`g'ri keladi. Bularning barchasi bolalarning jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko`rsatadi.

Nasldan-naslga o`tadigan tabiiy hayotiy kuchlar, inson jismining qobiliyatilari ham jismoniy rivojlanishning muhim zamini ekanligi, shuningdek yuqori natijalarga erishish har qaysi shug'ullanuvchi (individ) uchun nasib bo`lavermasligini, ammo har qanday shaxs o`z organizmining jismonan rivojlanishiga sidqidildan tizimli maqsadga muvofiq ravishda muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish orqali ijobjiy ta'sir eta olishligini eotirof etish lozim.

Jismoniy rivojlanishning shiddatli (keskin) davri, maktabgacha yoshdag'i va kichik mактаб yoshidagi davrga to`g'ri keladi va butun mактаб yoshi davri davomida davom etadi.

Amaliyotda jismoniy rivojlanganlik ko`rsatkichlari degan iboraga duch kelamiz. Bu inson badanining a'zolarini bichimini o`lchami bo`lib, shug'ullanuvchilarni yoki individning jismoniy rivojlanishi haqidagi antropometrik ma'lumotlar tarzida ro`yxatga olinadi.

Jismoniy rivojlanishning yo`nalishi, xarakteri, darajasi, shuningdek, inson o`zida kamol toptiradigan fazilatlari va qobiliyatları turmush sharoiti va tarbiyaga ko`p jihatdan bog'liqdir. Jismoniy rivojlanish qonunlarini egallah, ulardan o`z jismi tarbiyasi maqsadlarida foydalanish – jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining muhim vazifasidir.

Jamiyatdagi ijtimoiy sharoit jismoniy rivojlanishini hal qiluvchi omilidir. Omillar orasida mehnat bilan tarbiya jarayonining roli, ayniqsa jismoniy tarbiyaning roli muhimdir.

Jismoniy rivojlanishga erishish uchun «**jismoniy tarbiya**» deb atalmish maxsus yo`naltirilgan va tashkil qilingan faoliyatdan foydalana boshlandi.

**Jismoniy tarbiya** – pedagogik jarayon bo`lib, inson organizmini morfologik va funktsional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo`lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog'liq bo`lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan. Mana shu ta'rifda jismoniy tarbiyaning insonni tarbiyalashning mustaqil turi sifatidagi o`ziga xosligi ta'kidlab o`tilgan.

Jismoniy tarbiyaga oid bo`lgan o`ziga xoslikning tarkibida ikkita alohida maonoga ega bo`lgan «jismoniy bilim (o`rgatish, tushuntirish, ko`rsatish, takrorlash, mustaxkamlash)» va «jismoniy sifatlarni rivojlanirish (kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik)» deb atalgan tushuncha yotadi.

«**Jismoniy bilim**» termini yangi davrdagi jismoniy tarbiyaning eng avvalgi tizimlarida uchraydi. Masalan, Fit «o`z vujudini tarbiya» qilish maqsadida jismoniy mashqlar zarurligi haqida gapirgan edi.

Jismoniy bilim jismoniy mashqlarni bajarishga oid maxsus nazariy tushunchalar va ularni lozim bo`lganda turmushda qo'llash mahorati va ko`nikmalarini o`z ichiga oladi.

Pestalotsii bolalarning «vujudini tarbiyalash»ni astoydil yoqlab chiqqan P.F.Lesgaft jismoniy bilim berishni, jismoniy tarbiyaning kengaytirilgan maonosi deb tushuntirgan. Lekin Lesgaftning jismoniy tarbiya haqidagi taolimotning asosiy g'oyasi tom maonodagi jismoniy ta'lif g'oyasi edi.

P.F.Lesgaft jismoniy tarbiya jarayonida bolalar «ayrim harakatlarni ajratib olishlari va ularni o'zaro taqqoslashni, ularni ongli ravishda boshqarishni, to'siqlarga moslashtirishni, bu to'siqlarni iloji boricha chaqqonlik va qat'iyat bilan o'tishni (engishni), boshqacha qilib aytganda, iloji boricha kamroq vaqt mobaynida oz mehnat sarflangan holda, ongli ravishda eng ko'p jismoniy ish qilishni, yohud ko'rkmak va g'ayrat bilan harakat qilishni o'rghanishlari kerak, deb hisoblardi. Bu erda gap, bir tomonidan, to'g'ri harakat ko'nikmalarini hosil qilish haqida, ikkinchi tomonidan, harakatlarni bajarishga ongli munosabatda, ko'nikmalardan hayotiy vaziyatning tasavvur hamda mahoratni qaror toptirish haqida bormoqda.

**Jismoniy sifatlarni tarbiyalash** jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bu tushuncha kuch, tezkorlik chidamlilik, egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Bir butun jarayonning shu tomonlari bir-biri bilan mustahkam bog'langan. Masalan, agarda o'quvchilar yugurish mashqlarini ko'p marotaba bajarib uning bajarilish texnikasini o'zlashtirish maqsadida takrorlayversalar, shu vaqtning o'zida ham kuch, ham chidamlilik va ayrim hollarda tezkorlik ham tarbiyalanadi. Boshqa tomonidan, o'sha yugurish mashqlarini katta tezlik bilan takrorlansa (tezkorlikni tarbiyalash uchun), u holda mashq texnikasi mustahkamlanadi va takomillashadi, shu vaqtning o'zida esa ta'lif, bilim berish vazifalari ham hal qilinadi.

Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida, hattoki shug'ullanuvchilarning ruhiy holatiga, ularning emotsiyasiga (his tuyg'usiga), irodasiga, axloqining namoyon bo`lishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ana shular hisobiga tarbiyaviy vazifalarning hal qilinishi uchun kerak bo`lgan sharoit yuzaga keldi.

Jismoniy tarbiya jarayonida tarbiyaviy, ta'limi vazifalarning mavjudligi uni bir butun pedagogik jarayon deb qarashga olib keladi. Qo'yilgan vazifaga qarab, har biri alohida ko'rinishda namoyon bo`ladi.

Jismoniy tarbiyada jismoniy rivojlanish qonunlari, jismoniy tarbiyaning ijtimoiy qonunlari ham aks etadi. Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy qonunlaridan foydalanishi, xarakteri va usuli aslida jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tuzumidan kelib chiqadi.

Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu asosan jamiyatda inson jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qila olishligi va ayni paytda uning ma'naviy kamolotiga ham kuchli ta'sir ko'rsata olishlidadir.

**Jismoniy tayyorgarlik** – erishilgan va birlashgan ishchanlikni, amaliy harakatdagagi ko'nikma va malakalarni maqsadli faoliyatning samaradorligiga ta'sir ko'rsatish bo'yicha tashkil topgan jismoniy tayyorgarlik natijasidir.

Jismoniy tarbiyada uchta asosiy yo'nalish mavjud bo'lib, inson jismoniy tarbiyasi ana shu yo'nalish asosida amalga oshiriladi. Ular umumiyl jismoniy tayyorgarlik, kasb-hunar jismoniy tayyorgarligi, sport tayyor-garligidir.

**Umumiyl jismoniy tayyorgarlik** sog'liqni mustahkamlashga, keng doirada harakat malakalari va ko'nikmalariga ega bo`lishiga, o'zidan keyingi maxsus tayyorgarlikka zamin bo`lishi uchun xizmat qiladigan asosiyharakat sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Umumiyl jismoniy tayyorgarlik maqsadida jismoniy tarbiyaning barcha turdag'i vositalaridan, xilma-xil jismoniy mashqlardan, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va gigienik omillardan foydalaniladi. Umumiyl jismoniy tayyorgarlik jismoniy tarbiyaning barcha bosqichlarida ko'proq maktab jismoniy tarbiya tizimida, ommaviy sog'lomlashtirish ishlarida va jismoniy mashqlar bilan individual shug'ullanish shakllari orqali amalga oshiriladi.

**Kasb-hunar jismoniy tayyorgarligi** – bu jismoniy tarbiyaning mutaxassislashtirilgan, aniq mehnat turi va mudofaa faoliyatiga tayyorlashga yo`naltirilgan jarayondir. Bunda asosan, jismoniy mashqlarning hunar yoki kasbga yaqin bo`lgan turlaridan foydalaniladi. Kasbga yo`naltirilgan jismoniy tayyorgarlik vositalarining qo`llanishi mehnat harakat malakalarining shakllanishini egallash jarayonini tezlashtiradi, mehnat unumdorligini oshiradi, organizmning, tashqi muhit ta`sirining zararli omillariga qarshilik ko`rsatishni yaxshilaydi.

Umumiylar va kasb jismoniy tayyorgarligi deb ajratish ma'lum darajada shartli bo`lib, ikkala yo`nalishi ham bir-birini to`ldiradi.

**Sport tayyorgarligi** jismoniy tarbiyada maxsus yo`nalishni ifoda etadi. Buning vazifasi insonni tanlab olingan biror sport turida yuqori natijalarga erishishni ta'minlashdir.

Jismoniy tarbiyada sport tayyorgarligi, organizmning funktional imkoniyatlarini takomillashtirish bilan bog`liq bo`lgan, yuqori sport natijasi kishilarning jismoniy tayyorgarligini baholash kriteriyasiga aylanadi. Jismoniy tarbiyaga mo`ljal sifatida juda keng qo`lamda qo`llaniladi.<sup>23</sup>

**Jismoniy tarbiya harakati** – ijtimoiy yo`nalish bo`lib, buning oqimida kishilarni birgalikda, Jismoniy tarbiya boyliklarini ishlatish va ko`paytirishga qaratilgan faoliyatadir.




**Jismoniy kamolot** – bu har tomonlama jismoniy tayyorgarlik va garmonik jismoniy rivojlangan, mehnat va boshqa sohalardagi talablarga javob bera oladgan individual talantining yuqori darajada rivojlanganligini ko`rsatadi, shaxsni har tomonlama rivojlanish va uzoq yillar sog`ligini mustahkamlash qonuni bilan murosada bo`ladi.


### © Adabiyotlar

4. Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.
5. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliysi. A.Abdullaev va b. T.2005 y.
6. R.S.Salomov va b. "Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligiga kirish". T. 1990 y.


<sup>23</sup>

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.







8




9




10




11







12




13









### Tayanib sakrash mashqlari, yakkacho`pda mashqlarini o`rgatish.


**Darsni maqsadi:** sakrash oyoqlarni bukib va kerib, yakkacho`pda burilish va muvozanat mashqlarini o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1. Otdan oyoqlarni kerib sakrab o'tish; o'zunasiga qo'yilgan ot ustidan bir oyoqda depsinib burchak hosil qilib sakrash.
2. Yakkacho`pda – oyoq uchida yurish, burilib muvozanat saqlash, sakrab tushish.
3. O'tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

### **Otdan yoki sakrash stolidan oyoqlarni kerib sakrash**

*Bajarish texnikasi.* Berilgan sakrashni bajarish texnikasi, ko`ndalang otdan oyoqlarni kerib sakrashni bajarish texnikasidan ozgina farq qiladi. Ammo, o'zun otdan oyoqlarni ochib sakrashni bajarish uchun tez yugurish, ko`priordan o`yoqlarda va asbobdan qo'llarda kuchli itarilish talab qilinadi. Agar oyoq panjalarini yelka darajasidan yuqori ko'tarilsa, bu mashq yaxshi bajarilgan hisoblanadi.



#### *O'rgatish ketma-ketligi.*

Sakrashni o`zlashtirish uchun, ko`ndalang xaridan oyoqlarni ochib sakrashni o`rganish paytidagi hamma yordamchi mashqlarni qo'llash mumkin, keyin quyidagi mashqlarni takrorlash lozim.

1. Ko`ndalang xaridan oyoqlarni ochib sakrash, ko`priordan xarigacha masofani asta-sekin ko`paytirib.
2. O'zun qo'yilgan xaridan oyoqlarni ochib sakrash.
3. Shuning o`zi, faqat ko`priki xarida 1 m masofaga surib bajarish.
4. Shuning o`zi, faqat ko`pri va xari orasidan arqon tortish.
5. O'zun otdan oyoqlarni ochib sakrash.

Ayrim o`quvchilar uchun, o'zun otdan oshib o'tish biroz qiyinchilik tug`diradi: otning o'zoqdagi qismidan oshib o'ta olmaslikdan, qo'llarda itarilgandan so'ng otga tegib ketish yoki unga yiqilib tushishdan qo'rqedilar. Bunday ruhiy to'siqni yo'qotish maqsadida quyidagi vazifalarni qo'llash mumkin:

1. 1-2 qadamdan yugurib otga yoki sakrash stoliga sakrab chiqib oyoqlarni ochib tayanish (to`g`ri va tarang qo'llarga tayanib, o'tirmasdan oyoqlarni ochib turish). Biroz tayanchda ushlanib qolib, oyoqlarni ochib yumshoq o'tirishga o'tish.

2. Asta-sekin yugurish tezligini va o'zunligini oshirib, otning o'zoq qismidan 20-25 sm gacha masofaga etguncha, qo'llarni qo'yib, sakrab chiqib oyoqlarni ochib tayanish. O`quvchini yelka tagidan ikki tomonlama ushlab yordam berish ham mumkin. O`quvchi oyoqlarini ochib tayanishni bajarishni o`rganib olgandan so'ng keyingi vazifa beriladi.

3. Otning oldi qismida o'tirishdan, so'ng yarim o'tiridan, otning o'zoq qismiga oyoqlarni ochib sakrab tushishni bajarish. Oldin qo'llar otning eng qirra qismiga qo'yib, asta-sekin qirradan 15-20 sm masofaga qo'llarda itarilishni o`rganish lozim. Bu mashqlarni ishonchli bajarishga o`rganilgandan keyin butunlay oyoqlarni ochib sakrashga o'tish mumkin.

*Xatolar.*

1. Nisbatan past siltanish (ko`prikdan ko`tarilgandan so`ng oyoqlar ot tanasidan yuqori ko`tarilmasa).

2. O`z ostiga qo`llarda itarilish (qo`llarda to`xtatuvchi itarilish o`rniga egiluvchi itarilish hosil bo`ladi).

3. Qo`llarda itarilgandan so`ng uchish paytida tananing tos-son bo`g`imlarida yoyilish yo`qligi.

4. Tos-son bo`g`imlarida yoyilish faqatgina yelkani ko`tarilishi hisobiga amalga oshirilishi, oyoqlar esa oldinga harakatlanishdan to`xtamasligi qo`nish paytida yelkalarni orqaga tushib ketishiga olib keladi.

5. Yaqin qo`nish (1,5 m kam bo`lmasligi kerak).

*Extiyotlash va yordam.* Qo`nish joyini yon tomonida turib, bir qo`l bilan tirsakdan balandroqdan, ikkinchisi bilan zaruriyat bo`lganda ko`krakdan ushlab yordam beriladi. To`liq o`rganilguncha o`qituvchining o`zi yordam berib turishi maqsadaga muvofiq.

### **Yon tomondan yugurib kelib otdan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib burchak sakrash**

*Bajarish texnikasi.* Bunday sakrashni amalga oshirish uchun ko`prik otning yaqin qismiga biroz burchak ostida (salkam parallel) yonboshiga qo`yiladi.

Qisqa masofadan yugurib kelib, o`ngga burchak sakrashni bajarishda o`ng oyoqda siltanib, o`ng qo`lda otning tanasiga tayanish va chap oyoqda ko`prikdan itariladi. Asbob ustida oyoqlarni birlashtirish va chap qo`l o`ng qo`lning yoniga qo`yiladi. SHundan keyin o`ng qo`lni qo`yib yuborib, chap qo`lga tayanishni davom ettirib otga chap yon bilan qo`nish. Chagpa sakrashni amalga oshirish uchun hammasini aksincha bajariladi.

*O`rgatish ketma-ketligi.*


1. Gimnastika o`rindig`idan qdamlab oshib o`tish usulida sakrash.

2. Otning ustida o`ng songa o`tirib qo`llar bilan orqadan tayanish va oyoqlarda oldinga-o`ngga siltanib, asbobdan sakrab tushish, otga chap yon bilan qo`nish.

3. Oyoqlarni ochib otga ko`ndalang o`tirib, qo`llar bilan uning tanasiga tayanish va oyoqlarda siltanib o`ngga burchak sakrab tushish, otga chap yon bilan qo`nish.

4. Otga o`ng yon bilan ko`prikda turishdan o`ng oyoqda siltanib va chap oyoqda itarilib otning ustiga orqadan tayanib o`tirish, o`ng tomonga oyoqlarni tushirib sakrab tushish, otga chap yon bilan qo`nish.

5. Qisqa masofadan yugurib kelib, bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib o`ngga (chagpa) burchak sakrash.



*Xatolar.*

1. Asbob ustida oyoqlar birlashmaydi.

2. Asbob ustidagi tosning juda past holati.

3. Qo`llar tayanchga parallel qo`yilmasa.

*Extiyotlash va yordam.* Qo`nish joyida asbobning yon tomonida turib, bir qo`lda yelka orqasidan, ikkinchisi bilan beldan ushlab yordam beriladi.

### **Turnikda, akrobatika, yakkacho`pda mashqlar o`rgatish.**

**Darsni maqsadi:** turnikda, akrobatika, yakkacho`pda mashqlarni bajarish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.


1. Turnikda - to`ntarilib ko`tarilish, tebranib sakrab tushish. Osilib tebranish, oldinga siltanib qo`nish.

2. Akrobatika mashqlari - to`ntarilishlar joyidan va yugurib kelib chapga, o`ngga. Kuraklarda, boshda va qo`llarda, bir oyoqni siltab, boshqasi bilandepsinib qo`llarda tik turishlar.

3. Yakkacho`pda - qo`llarni harakatlantirib yurish, oyoqlar uchida burilishlar, bir oyoqda muvozanat saqlash.

#### **O`ng (chap) bilan oyoqlarni ochib tayanishdan chap (o`ng) oyoqni oldinga o`tkazib orqaga burilib tayanish**

*Bajarish texnikasi.* O`ng (chap) qo`lni o`tkazib pastdan ushslash va tana og`irligini shu qo`lga o`tkazish. Ketma-ket boshni, yelkani, tana va oyoqni burilish tomonga burib, songa va qo`llarga tayanib, chap (o`ng) qo`lni chap (o`ng) oyoqda oldinga siltanib o`tish bilan bir vaqtida tushirib, orqaga burilib tayanishni yakunlash.



*O`rgatish ketma-ketligi.*

1. Gimnastika tayog`ida burilishni aks ettirish.
2. Gimnastik o`rindiqda o`ng bilan oyoqlarni ochib tayanishdan, chapga oldinga siltanib o`tish bilan orqaga burilib tayanib yotish (qo`llar o`rindiqda, oyoqlar polda).
3. Past turnikda, o`ng bilan oyoqlarni ochib tayanishdan, chapda siltanib o`tish bilan orqaga burilib tayanish.

4. Shuning o`zi o`rta va baland turnikda.

#### *Xatolar.*

1. Burilishni bajarishda oyoqlarni bo`shashishi va tushib ketishi.
2. Oldinga siltanib o`tishni bajaruvchi oyoqning buqlishi.

*Extiyotlash va yordam.* Atrofida orqaga burilish bajariladigan oyoq panjalaridan ushlab yordam beradi.

#### *Nazorat darsi uchun kombinatsiya.*


1. Osilishdan kuch bilan ko`tarilib tayanish – 3,0 b.
2. O`ngda siltanib o`tib o`ng bilan oyoqlarni ochib tayanish – 0,5 b.
3. Chap oyoqda oldinga siltanib o`tish bilan o`ngga aylanib orqaga burilib tayanish – 1,0 b.
4. Osilishga tushish va kuch bilan ko`tarilib to`ntarilib tayanish – 3,0 b.
5. Oldinga bukilib osilishga tushish va orqaga siltanish – 0,5 b.
6. Oldinga siltanish va orqaga siltanish bilan 90° ga burilib sakrab tushish – 2,0 b.

Bukilib-yozilib tebranish va yoy shaklida siltanish — yetarli ko`lamda tebranishni ta`minlaydigan harakatlardir.

### **Balandligi 90 sm bo`lgan to`sinqdan sakrab o`mbaloq oshish**

*Bajarish texnikasi.* O`mbaloq oshish, uch qadamdan yugurib o`mbaloq oshishni bajarishga o`xhash, lekin uchish fazasi balandligi asta-sekin oshib boradi, shu bilan birga yugurish tezligi va o`zunligi ham oshadi.

*O`rgatish ketma-ketligi.*



ag`darilgan matdan foydalanish mumkin).

*Xatolar.*

To`sinqlarsiz sakrab o`mbaloq oshishdagi kabi xatolar. Bu elementni bajarish xavfliliği va o`quvchi-talabalar jarohat olishlari mumkinligini hisobga olib, joyda sakrab o`mbaloq oshishni o`zlashtirmaganlar, bu mashqni bajarishlariga yo`l qo`yilmaydi.

1. Tayanib cho`qqayishdan, oldinga o`zun o`mbaloq oshishni takrorlash.
2. Joydan sakrab o`mbaloq oshish.
3. Asta-sekin balandlikni 50-70 sm gacha ko`tarib, 2-3 qadam yugurib sakrab o`mbaloq oshish.
4. Yugurib balandligi 90 sm to`sinqdan sakrab o`mbaloq oshish (to`sinq sifatida tortilgan arqon va

### **Akrobatika mashqlaridan to`ntarilish va tik turish mashqlarini o`rgatish.**

**Darsni maqsadi:** akrobatika mashqlarni chapga va o`ngga to`ntarilish o`rgatish kuraklarda, boshda va qo`llarda tik turishni.


**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1. Akrobatika mashqlari - to`ntarilishlar joyidan va yugurib kelib chapga, o`ngga. Kuraklarda, boshda va qo`llarda, bir oyoqni siltab, boshqasi bilandepsinib qo`llarda tik turishlar.

2. Otdan oyoqlarni bukib sakrab o`tish, oyoqlarni kerib sakrab o`tishni mustaxkamlash. Otga tayanib cho`qqayish holatida sakrab chiqib kerishib sakrab tushish.

#### **Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib qo`llarda tik turish**

*Bajarish texnikasi.* Siltanuvchi oyoqda turib, itariluvchi oldinda oyoq uchida, qo`llar yuqoriga kaftlar oldinga qadam qo`yib tanlanib, tanani oldinga bukib, to`g`ri qo`llarni yelka oralig`ida polga qo`yish va bir oyoqda siltanib, ikkinchi oyoqda itarilib qo`llarda turishga o`tish. Tik turganda oyoqlarni birlashtirib polga qarab, boshni ozgina orqaga egadi.



1. Yordam bilan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib qo'llarda turish.
2. Devordan ikki qadam narida turib, itariluvchi oyoq bilan bir qadam qo'yib ikkinchisida siltanib, tovonlar bilan devorga tayanib qo'llarda turish.

*Xatolar.*

1. Boshning noto'g'ri holati (orqaga egilmagan).
2. Tanani haddan ziyod kerilganligi.
3. Qo'llar juda keng yoki qisqa qo'yilishi.
4. Tananing yelka ko'krak va bel qismlari to'liq to'g'rilanmasa.

*Ehtiyyotlash va yordam.* Siltanuvchi oyoq tomonda turib, bir qo'lni oldinga cho'zib, ikkinchisi bilan o'quvchining siltanuvchi oyoqning sonidan yoki boldiridan ushlab yordam beriladi. Qo'llarni ko'tarilishi mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi oyoqqa tegish paytida to'xtaydi.

### **Qo'shpoyada tayanish, tebranish, tik turish mashqlarini va yakkacho`pda yurish, burilish, sakrab qo'nish mashqlarni o'rgatish.**


**Darsni maqsadi:** qo'shpoyada tayanish, tebranish mashqlarini, qizlarga yakkacho`pdagi mashqlarni o'rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1. Qo'shpoyada mashqlar - oyoqni kerib o'tirgan holatda oldinga siltab ko'tarish shuning o'zi tayanib, tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko'tarilib oyoqlarni ochib o'tirish mashqlarini o'rgatish.
2. Yakkacho`pdagi mashqlar - muvozanat, turish, ko'priklar, shpagatlar bajarish. Bu mashqlarni texnikasi, polda bajarib o'rgatiladi.

### **Tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko'tarilib oyoqlarni ochib o'tirish**

*Bajarish texnikasi.* Tirsaklarga tayanib tebranishdan vertikaldan o'tib, tos-son bo'g'imidan biroz bukilib, tez oldinga siltanib, oyoq ichlari poya darajasiga etganda, keskin yozilish va qo'llarni bukish bilan bir vaqtida oyoqlarni ajratib, oyoqlarni ochib o'tirishga o'tish.



*O'rgatish ketma-ketligi.*

1. Gimnastik devorga orqalab qo'llarni bukib orqadan tayanib o'tirishdan orqada tayanib yotishga o'tish (2-3 marta takrorlash).
2. Tycaklarda tebranishdan, oldinga siltanishda oyoq uchlari poya darajasiga etganda, oyoq harakatini to'xtatish va tos-son bo'g'imidan yozilish.
3. Oyoqlarda otga tayanish bilan tirsaklarga larda tayanib yotib, tayanib yotishga o'tish (186-rasm).
4. Tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko'tarilib oyoqlarni ochib o'tirish.

*Xatolar.*

1. Oldinga siltanishda oyoq ichlari poya darajasidan o'tib ketsa va tos-son bo'g'imida yozilish sodir bo'lmasa.
2. Oldinga siltanishda yelka va ( orasidagi burchak kamaysa.
3. Qo'llarni buqlishi va tayanishga o'tish polga oyoqlarni qo'ygandan so'ng sodir bo'lsa, aksincha emas.

*Straxovka va yordam.* Yonboshda turib, bir qo'l bilan yelkadan ikkinchi qo'l bilan beldan ushlanadi.

Statik mashqlarga: muvozanat, turish, ko`priklar, shpagatlar kiradi. Bu mashqlarning texnikasi, polda bajariladigan mashqlardan unchalik farq qilmaydi.

Muvozanat yuqori turishlardan va o'tirishlardan, ikki yoki bir oyoqda, boshqa oyoq oldinga, orqaga, yon tomonga bajariladi.

Muvozanatni joyda turib va harakatlanish, burilish va sakrashlar bilan uyg'unlashtirib bajarish mumkin. Ularga: oyoq uchida turish; bir oyoqda turish, ikkinchisi orqaga; bir oyoqda yarim o'tirib, ikkinchisi orqaga; bir oyoqda o'tirib, ikkinchisi oldinga; bir oyoqda turib, ikkinchisi oldinga-yuqoriga, orqaga burilib, qo'llar yon tomonga va boshqalar kiradi.

Yelkalarda, boshda va qo'llarda, ko`krakda, ko`kraklarda va qo'llarda turish oddiy va aralash tayanchda, qo'llar bilan yakkacho'pni yuqori, pastki yoki yonbosh tekisligidan ushlab bajariladi.

Ko`priklar orqaga bukilib qo'llarga tayanib yoki oldinga burilib oyoqlarga tayanib bajariladi. Ko`pri holatida tayanch, bir oyoqqa va ikki qo'lga va aksincha bo'lishi mumkin.

Shpagat va yarim shpagatlar tizzalarga yoki tizzaga tayanib turib, boshqa oyoq orqaga; tayanib o'tirishdan oyoqlarni sirpantirib); burilishlardan keyin yoki yakkacho`pga tayanib yoki tayanmasdan, boshqa elementlarni qo'shib bajariladi.



### **Turnikda va baland past qo'shpoyada bajariladigan mashqlarni o'rgatish.**

**Darsni maqsadi:** turnikda osilish va tayanish, tebranish mashqlarini, qizlarga baland past qo'shpoyadagi mashqlarni o'rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1. Turnikda - to'ntarilib ko'tarilish, tebranib sakrab tushish. Osilib tebranish, oldinga siltanib qo'nishni o'rgatish.
2. Baland past qo'shpoyada - ko'tarilishlar va tushishlar: cho'qqayib osilish holatidan baland poyaga tayanish, oldinga tushib osilib yotish.

Gimnastikachi osilish holatidan qorin pressi va son oldi muskullarini taranlatancha oyoqlarini burchak hosil qilgunga qadar ko'taradi (gorizontal holatgacha ko'tarish shart emas, o'tmas burchak qilib ko'tarish ham mumkin. Keyin keskin, qisqa harakat bilan oyoqlarini pastga yo'naltiradi va bel qismidan kerilgunga kadar orqaga siltaydi. Bunday harakatlar tananing old yo'zalikdagi muskullarini cho'zadi va keyinchalik tos-son va yelka

bo`g`inidan (bu anatomiq jihatdan yelka bo`g`ini uchun yozilish bo`ladi) shunindek, umurtqa pog`onasining bel qismidan tez buqilish uchun yordam beradi.


Yozilish tugashi bilan buqilishni boshlash zarur (shug`ullanishni ya`ni boshlovchilarda eng ko`p uchraydigan xato—orqaga siltangancha to`xtab qolishdir). Bukila borib, gimnastikachi imkoniyati boricha tezroq oyoqlarini turnik rifiga tizzadan boldir o`rtasidan bo`lsa, yana ham yaqshi) yaqinlashtirishga harakat qiladi va butun tana oldinga qadar oyoqlarni shu holatda ushlab turadi, tos-son va yelka bo`g`inidan to`g`rilanib, oyoqlarni oldinga va yuqoriga keskin yo`naltiradi. Bunda butun tana oldinga tebranishning so`nggi nuqtasi holatida bo`lishi kerak. Bunda kerishish yaramaydi. Kerishishga yo`l qo`ymaslikning yaxshi uslubiy usuli— shug`ullanuvchilarga oyoq uchlariga qarashni tavsiya qilishdir.

**Bir oyoqda ko`tarilish (tebrangandan keyin)** oldingi holatning oxiriga bir oz etmasdan gimnastikachi tos-son va yelka -bo`g`inlaridan keskin bukiladi va ikkala oyoqlarini tovon- boldir bo`g`ini to`g`risidan turnikka olib keladi, keyinchalik o`ng oyoq`ini turnik ostidan o`tkazadi (o`ng oyoq tizzadan buqilishi mumkin). Bu harakatlar bukilib osilish holatidan orqaga siltanish boshlanishidan oldin tugashi zarur. Orqaga siltanish boshlanishi bilan bir bo`g`inidan buqilish davom etadi (ya`ni yelka-tana burchagi kamayib boradi), tos-son bo`g`inidan esa to`g`rilanish boshlanadi va o`ng oyoq tayanish holatida tugallanadi. Shuni ta`kidlash muximki, tos-son bo`g`inidan to`g`rilanish davomida chap oyoqning oldingi yo`zasi turnikdan o`zoqlashtirilmay, balki tegar-temas turishi kerak. O`rgatish (kichik turnikda):

- a) oyoqlarni yozib bukilib osilish (rif boldir-tovon bo`g`ini to`g`risida);
- b) oyoqlarni yozib bukilib osilish holatidan oyoqlarni kerib, kerishib osilish holatigacha keskin to`g`rilanish va bukilib osilish holatiga qaytish;
- v) bukilib osilish holatidan majburiy (murabbiy yordamida) tebranish;
- g) bukilib osilish holatidan orqaga siltanganda oyoqlarni yozib kerishib osilish— oldinga tebranganda bukilib osilish;
- d) yordam bilan ikki - uch tebranishdan keyin o`ng oyoq bilan tayanishga ko`tarilish;
- e) o`ng oyoq bilan minib tayanish qolatidan orkaa to`shib, oyoqlarni kergan holda osilib qolish;
- j) yordam bilan o`ng oyoqda tayanishdan orkaga tushib, o`ng oyoq; bilan tayanib ko`tarilish.

Ko`tarilishni bir necha bor mustaqil bajargandan keyin katta turnikka o`tish mumkin. Asosiy e`tiborni osilish holatidan bukilib osilish holatiga o`tishga qaratish zarur.

#### **Gavdani siltab ko`tarilish (tebranishdan keyin).**



Orqaga tebranishdan keyin, vertikal holatni o`tayotib, tos-son bo`g`inidan keskin to`g`rilanish va shu bilan birga qo`llarni bosh orqasiga (xuddi oldinga tebranib sakrab tushishdagi kabi, biroq bir oz ilgariroq) o`zatish kerak. Turilgan holatda to`xtamasdan tos- son va yelka bo`g`inlaridan keskin bukilib, boldir o`rtasini turnikka olib kelinadi

(barcha harakatlar bukilib osilish holatidan orqaga tebranish boshlanishidan oldin tugashi zarur). Orqaga tebranish boshlanishi bilan yelka bo`ynidan buqilishni davom ettirib, tos-son bo`g`inidan kerak. Bu harakatlar natijasida tos turnikka yaqinlashadi va o`q atrofida butun tana aylanishining burchak tezligi oshadi, shuning hisobiga u tayanish holatiga keladi.

O`rgatish (o`rta turnikda):

a)burchak yasab osilishdan oyoqlar bilan to`shaklarga tiralib, oyoqlarni tizzadan bukkancha boshni orqaga tashlamay kerishish. To`g`ri qo`llarni bosh orqasiga oxirigacha o`zatilishiga e`tibor berish zarur. Keyin dastlabki holatga qaytish. Bir yo`la bir necha marta takrorlanadi. Kerishish tez bajarilishi kerak, toki uning oxirida tovonlar to`shakdan o`zilsin;

b)kerishishdan keyin imkoniyat boricha tezrok; to`g`ri oyoqlarni (boldir o`rtasini) turnikka olib kelish;

v)chap tomonda turgan trener yoki sherikning yordamida gavdani yozib ko`tarilish. Bunda yordamlashuvchi chap qo`li bilan oyoqlarni turnikka tez olib kelish uchun yordam beradi va o`ng qo`li bilan esa o`quvchini belidan tayanish holatiga ko`taradi.

Baland turnikda trener osilib turgan gimnastikachidan chap tomonda va bir qancha oldinda turib chanoq suyaklari qismidan ushlab, o`kuvchini muvozanat holatidan orqaga yo`naltiradi va uni shu holatda ushlab turadi. Gimnastikachi tos-son bo`g`inidan bukilib, tovonlarini rif proekqiyasi tomon to`shaklara yo`naltiradi (shu chiziqa chizimcha yoki gimnastika tayoqchasi qo`yilsa yanada qulay bo`ladi). So`ngra trener qo`llarini olib, gimnastikachiga oldinga erkin harakatlanib muvozanat holatiga, ya`ni osilishning dastlabki holatiga qaytishga imkon beradi. Shu holatdan o`tayotib gimnastika tos-son bo`g`inidan keskin yozilishi va qo`llarini bosh orqasiga yo`naltirishi kerak. So`ngra gimnastikachi va trener «b» va «v» moddalarida tavsiya qilinganidek harakat qiladilar;

24

d) turnikdan 1 m. masofada turgan tramplindan burchak hosil qilib osilish holatiga sakrash va turnik ostida to`g`rulanish. Navbatdagi harakatlar «b» va «v» moddalarida bayon etilganidek bajariladi;

e) o`rtacha tebranishdan (ko`lami  $90^{\circ}$  dan oshmagan bo`lmisin) orqaga siltanib tos-son bo`g`inidan buqilish, turnik ostida to`g`rulanib, trener yordamida gavdani yozib ko`tarilish.

### ***YU/P ga tovonlar bilan tayanib P/P ga kerilib osilish va to`ntarilib P/P ga tayanish***

*Bajarish texnikasi.* Tashqaridan **P/P** ga osilib turishdan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib tovonlarni navbatma-navbat **YU/P** ga qo`yish va kerilib, **P/P** ga sonlar bilan yopishish. Kerilib osilish holatini egallagandan so`ng, **YU/P** lardan navbatma-navbat itarilib, to`ntarilib **P/P** ga tayanishni bajarish.

*O`rgatish ketma-ketligi.*

1. Gimnastik devorda orqadan bukilib osilishdan oyoqlarda itarilib, kerilib osilish va D.H. ga qaytish.

2. **P/P** ga osilib turishdan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib ko`tarilib to`ntarilish.

3. **P/P** ga osilib turishdan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib **YU/P** ga tovonlarda tayanib p/p ga kerilib osilish va to`ntarilib p/p ga tayanish.

<sup>24</sup> GIMNASTICS-LEVEL 4: Skills and Drills for Coach and Gymnast. 2013. Rita Brown with Rik Feeney. RJC Publishing Altamonte Springs, Florida Page 30

### *Xatolar.<sup>25</sup>*

1. Kerilib osilish holatida bosh oldinga egilgan, rana biroz bukilgan.
2. To`ntarilishni bajarishda, bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib ko`tarilib to`ntarilishning ikkinchi qismiga xos bo`lgan xatolar paydo bo`lishi mumkin.

*Extiyotlash va yordam.* Poyalar orasida turib, bir qo`lda yelkadan, ikkinchisida sondan ushlanadi. To`ntarilishni bajarish vaqtida ko`tarilib to`ntarilishni bajarishdagi kabi.

### *Takomillashtirish va nazorat darsi uchun kombinatsiya.*

1. **YU/P** ga yo`zlanib **P/P** ni tashqarisidan bukilgan qo`llarga osilib turishdan bir oyoqda siltanib va ikkinchisida itarilib, **YU/P** ga tovonlar bilan tayanib **P/P** ga kerilib osilish – 2,0 b.

2. To`ntarilib **P/P** ga tayanish – 2,0 b.

3. O`ng bilan siltanib o`tib, o`ngda oyoqlarni ochib tayanish – 1,5 b.

4. **YU/P** ga o`ng qo`lni o`tkazib ushlab, o`ngda siltanib o`tish bilan chapga aylanib orqaga burilib **P/P** ga osilib yotish – 2,0 b.

5. Chapga burilib chap songa o`tirish, o`ng qo`l bilan yon tomonga – 0,5 b.

6. O`ng qo`lni orqaga o`tkazib ushlab o`ngga aylanib burilib sakrab tushish – 2,0 b.

Izoh: YU\P-yuqori poya, P\P-pastki poya

### **Turnikda va baland past qo`shpoyada bajariladigan mashqlarni o`rgatish.**

**Darsni maqsadi:** turnikda osilish va tayanish, tebranish mashqlarini, qizlarga baland past qo`shpoyadagi mashqlarni o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zal, gimnastika matlari va snaryadlari.


1. Turnikda bajariladigan osilish va tayanishlar; tebranib osilib burilish: o`ng (chap) oyoqni kerib tayangan holatdan oldinga aylanish.

2. Baland past qo`shpoyada - osilish va tayanish; baland poyada tebranib poyaga cho`qqayib osilib burilish: past poyada osilib yotib, burilib sonda o`tirish.

### **Oyoqlarni ochib bir oyoqda tayanish va ikkinchisida siltanib o`tib $90^\circ$ ga burilib sakrab tushish**

*Bajarish texnikasi.* Tayanishdan bir oyoqda siltanib o`tib, oyoqlarni ochib tayanish. Tana to`g`rilangan, qo`llar to`g`ri, bosh tikka, oyoqlar keng ochilgan; bir oyoq oldinda, ikkinchisi orqada polga nisbatan bir xil burchak ostida. Qaysi oyoq oldindaligiga qarab, tayanish shunga xos nomlanadi. Masalan, o`ng oyoqni ochib tayanish, agar o`ng oyoq oldinda bo`lsa. Siltanib o`tib  $90^\circ$  ga burilib sakrab tushishni bajarish uchun, dastlab bir qo`lni burilish bilan bir vaqtida pastdan ushslash zarur. Atrofida burilish bajariladigan oyoqni tushirmaslik va bukmaslik kerak.

<sup>25</sup> GIMNASTICS-LEVEL 1,2 and 3: Skills and Drills for Coach and Gymnast. 2013. Rita Brown RJC Publishing Altamonte Springs, Florida . Page 39



### *O`rgatish ketma-ketligi.*

1. Past turnikda tayanishdan, siltanib o`tib o`ng (chap) tashqaridan oyoqlarni ochib tayanish – bir oyoq bilan siltanib o`tib o`ng (chap) oyoqlarni ochib tayanish – boshqasida siltanib o`tib  $90^{\circ}$  ga burilib sakrab tushish.

#### *Xatolar.*

1. Tayanishdan oldinga siltanib o`tishni bajarishning birinchi yarmida oyoqlarni bukish.

2. Oyoqlarni ochib tayanishda oyoqlar kam ochilgan, tana bukilgan, bosh tushib ketgan.

3. Sakrab tushish bajarilayotganda atrofida burilish bajariladigan oyoq tushib ketishi; siltanib o`tish bukilgan oyoqlarda amalga oshirilsa, tayanch oyoq bukilganda. Siltanib o`tishni o`tishni bajarayotgan oyoqning qarama-qarshi tomonda yonbosh turib, ikki qo`l bilan qo`llarning tirsakdan yuqorisidan ushlanadi.

*Extiyotlash va yordam.* 1 m balandlikdagi xodadan oshib o`tishda yordam,

siltanib o`tishni bajarayotgan oyoqning qarama-qarshi tomonda yonbosh turib, ikki qo`l bilan qo`llarning tirsakdan yuqorisidan ushlanadi.

### **Baland past qo`shpoyada “Songa o`tirish”**

*Bajarish texnikasi.* Oyoqlarni ochib osilib o`tirishdan bir oyoqda siltanib o`tib, songa o`tirish. Oyoqlar tashqarida joylashgan. Bir oyoq tizzadan bukilgan, sonning pastki qismining hammasi bilan poyaga tayanadi. Bukilgan oyoqning boldiri to`g`ri oyoq bilan parallel ravishda orqaga yo`naltirilgan, tana va bosh to`g`ri ushlanadi. Poyaga tayanishni ikkala qo`lda yoki bitta qo`lda, ikkinchisi yon tomonda bajarish mumkin.

### **3-MODUL. “ISHLAB CHIQARISH JISMONIY TARBIYASINING TASHKIL ETISH VA JORIY ETISH USULLARI**

#### **R E J A:**

1. Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishda jismoniy tarbiyaning o’rni.
2. Kadrlarni tayyorlash, ishchi-xodimlarning madaniy-texnik tayyorgarligi va uni yuqori darajaga ko’tarish.

#### **MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL QILISH TIZIMIDA JISMONIY TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI**

O’zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab hozirgi zamon iqtisodiyotiga o’tish davrida korxona, zavod va tashkilotlarni birin-ketin kompyuter bilan jihozlab kelayotgan bir paytda ishchilar, olimlar, idora xodimlarida jismoniy tarbiya va sportga, uning elementlariga ehtiyoj o’sib boryapti. Taraqqiy etgan mamlakatlar (AQSH, Xitoy, YAponiya)ning sotsiologlari to’plagan ma’lumotlarga binoan ishlab chiqarish gimnastikasi muntazam o’tkazilib turiladigan, sport inshootlari zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan muassasa, zavod, korxona, firmalarda ishlab chiqarish unumдорligi boshqa korxona-firmalarga nisbatan **12-17 %** yuqori, ishchilarning, xodimlarning kasallikka chalinishi va kasallik varaqasi **15-22 %** ham kam.

**Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish MIAT** muntazam ravishda ishlab chiqarishga tatbiq qilinadigan zamonaviy fan yutuqlariga va ilg’or tajribaga asoslanadi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish zamonaniy texnikani va odamlarni yagona ishlab chiqarish jarayonida birlashtirishga imkoniyat tug’diradi.

Moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ishlab chiqarish unumдорligini doimiy ravishda oshirishni va shu vaqtning o’zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini tushirishni ta’minlaydi.

Afsuski, amalda ko’pgina ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya tadbirlari sust tashkil qilinadi va mehnatkashlarning mehnat qilish va dam olish sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlari kengaytirilmaydi.

**MIAT** tarmog’idagi jismoniy tarbiya ikki nuqtai nazarni o’z ichiga oladi:

**Birinchidan:** MIAT tizimidagi jismoniy tarbiya mehnatni ilmiy asosda uyushtirish jarayonida odamlarning har tomonlama, ya’ni ham jismonan, ham aqliy rivojlanishiga qaratilgan bo’ladi. Etarli va kerakli tayyorgarlik, shu bilan birga mehnatga muntazam tayyorgarlikni saqlash, ishlab chiqarish jamoasida mehnatkashlarni tarbiyalash va mehnat unumдорligini oshirish maqsad qilib olinadi.

**Ikkinchidan:** MIAT o’zining moddiy-texnika manbaiga, nazariy dasturiga ega bo’lib, maxsus tibbiy-biologik xizmat imkoniyatlarini ham ishlab chiqarishni rivojlantirishga, uning barcha tarmog’idagi ishlarni yana ham yaxshilashga qaratadi. Jismoniy tarbiya vositalarining ishlab chiqarishga va mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish shakllariga umumiyligi ta’siri kattadir. Jismoniy tarbiya vositalari ish jarayonida, dam olishda oqilona qo’llansa, odam organizmini zo’r g’ayrat qilib ishlashga tayyorlaydi, uning zo’riqishga chidamliligidini oshirib, shu bilan birga ishchanlik va mehnat unumдорligining tiklanishini tezlashtiradi, toliqishning oldini oladi, umumiyligi qobiliyatini o’stiradi, ijtimoiy va mehnat faoliyatining o’sishiga yordam beradi.

Mehnat va dam olish sharoitlarining yaxshi tashkil qilinishi jismoniy tarbiya vositalarini ishga solish imkonini beradi.

Bunda jismniy tarbiya vositalari odamga ikki xil gimnastika mashg’ulotlari orqali ta’sir ko’rsatadi.

**Birinchisi** - shiddatli, tez, asosan ishlab chiqarish gimnastikasi vositalari tufayli, yuqori darajali ish unumдорligini kun bo’yi saqlab qolish, toliqishni engish omiliidir.

**Ikkinchisi** - odam organizmiga tiklanish davomida paydo bo`ladigan jismoniy va ruhiy kuchlarning rivojlanishi va takomillashishi bo`lib, u sarf qilingan kuchni faol dam olish orqali tiklaydi va mashg`ulotlarni odam organizmiga jismoniy tarbiya vositalari orqali ta'sir qilishini ta'minlaydi.

Ushbu yo`nalishning amalga oshirilishi psixik-asab qisqarishini o`z ichiga oladi, boshlangan harakatlarning davom etishini, uning sonini oshirib, ayrim mehnat turlariga sarflanadigan kuchni tejab borishni nazarda tutadi.

SHunday qilib, jismoniy tarbiya odamning ish jarayonida to`g`ri fikr yuritishini, harakatlarini ongli ravishda boshqarishini ta'minlaydi. Jismoniy mashqlar bir me'yorda bajarilganda odamning harakat faoliyatiga sarflanadigan kuch-quvvatini tejaydi.

### **Kadrlarni tayyorlash, ishchi-xodimlarning madaniy-texnik tayyorgarligi va uni yuqori darajaga ko`tarish**

Jismoniy madaniyatning mehnatni ilmiy asosda tashkil etish bilan o`zaro aloqasini ikki tomonlama, ya`ni odamning mehnat faoliyatiga tayyorligi nospesifik (o`ziga xos bo`Imagan) va spesifik (o`ziga xos boigan) yo`nalishlarda amalga oshiradi.

Nospesifik omil sifatidagi tayyorgarlik jismoniy tarbiyaga quyidagicha faol va samarali yordam beradi:

- odamni shaxs sifatida har tomonlama va uyg`un rivojlanishiga, shakllanishiga, tarbiyasiga, kerakli ruhiy va jismoniy sifat va xususiyatlarini rivojlantirishga va takomillashtirishga;
- sog`liqni mustahkamlashga, umuman og`ir va tez-tez o`zgarib turadigan sharoitda shu faoliyatni o`ziga xos bo`Imagan ish qobiliyatining o`sishiga, chidamlilikka, biologik jarayon va mexanizmlarni boshqarishni takomillashtirishga;
- umumiylar maxsus ta`limni o`rgatishda samaraliroq jismoniy tarbiya tadbirlari orqali amaliy-kasbiy maqsadlar amalga oshiriladi.
- Mehnat manbalaridan to`g`ri foydalanish orqali spesifik yo`nalish maqsadlari amalga oshiriladi. Bunda MIAT ijobiylar roli o`ynaydi:
- odamning ijtimoiy safarbarligini, yangi mehnat topshiriqlarini bajarishga tayyorligini va uning ijtimoiy faolligini, yangi kasb egallashiga, har xil kasblarni birga qo'shib olib borishga, mehnat sharoitini o`zgartirishga tayyorgarligini o`stiradi. Har bir kishining ish bajarish qobiliyatini va uning o`z kasbiga qizqishini oshiradi, kasbiga oid faoliyatga puxta tayyorlanishiga ko`maklashadi;
- omillardan biri sifatida mehnat imkoniyatlarini o`zgartirishni boshqaradi, ishlab chiqarish xodimlari ishining unumdarligini ko`paytiradi hamda ularning sanoat va boshqa xalq xo`jaligi ishlarida faol qatnashishiga ko`maklashadi;
- jismoniy tarbiya va sport, jamoadagi tashkiliy mashg`ulotlar ishlab chiqarishning rivojlanishiga, odamlar bir-birlarini tushunishiga va do`stlikka, axloqiy va ijtimoiy-ruhiy sharoitga o`rganishiga hamda, birgalikda ijodi faoliyat ko`rsatib, jamoada mehnat unumdarligining o`sishiga ko`maklashadi.

### **Mehnatni bir me'yorda tashkil qilish**

Jismoniy tarbiya bilan muntazam shug`ullanib kelayotgan kishilar boshqalarga qaraganda chidamliroq, intizomliroq bo`lib, kun davomida ko`p va sifatli mahsulot ishlab chiqaradi.

Mehnatni ilmiy tashkil qilishda va unumdarligini oshirishda jismoniy tarbiya vositalaridan to`g`ri va muntazam foydalanilsa, (korxona va muassasalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifati va miqdori ortadi, ishchi-xizmatchilarning ish faoliyatini samaradorliroq bo`ladi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning bu elementiga jismoniy, tarbiyaning ta'siri insonni ijobiylar o`zgarishlarga olib keladi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishda jismoniy tarbiya jihozlaridan foydalanish ish unumiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda qisqa dam olish davrlari, ish joylarida ishni to'g'ri tashkil qilish ham katta rol o'ynaydi. Bu ko'proq sport anjomlaridan qanday foydalanish bilan bog'liqdir.

### Ishlab chiqarishda jismoniy madaniyat, uning maqsadi va vazifalari

Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya vositalari samarali tanlangan va amalga oshiriladigan jismoniy mashqlar majmuasi bo`lib, insonning mehnat qilish qobiliyatini o'stirishga va uni ma'lum doirada saqlab qolishga yo`naltirilgandir.

Ishchi-xizmatchilarning salomatligini mustahkamlash va ularning mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishdagi jismoniy tarbiyaning maqsadidir. U asosan korxona, tashkilotlar, uyushma hududida ish paytida va ishdan tashqari vaqtida o'tkaziladi. SHaklan u uyushgan va mustaqil, guruhlarga bo`lingan va ikkala aralash holda o'tkazilishi mumkin, Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya va umum salomatlik mashg'ulotlarining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar korxona rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan yaratib berilishi shart. Ishlab chiqarish jismoniy tarbiyasi umumiyo sog'lomlashtirishdan tashqari maxsus masalalarni: insonni mehnatga tayyorlash, ish vaqtida va undan so`ng ishchanlik qobiliyatini tiklash, faol mehnat qilish va boshqa masalalarni hal qilishga qaratilgandir.

### Ishlab chiqarish gimnastikasi

- Ishlab chiqarish gimnastikasining asosiy vazifasi - charchoqni chiqarish hisobiga ishchanlik qobiliyatini oshirish, kuch-quvvatni tiklash jarayonlarini jadallashtirish.
- Ish kuni tugashi bilanoq tiklanish jarayonlarini jadallashtiruvchi, mehnat faoliyatini tugatgandan keyingi tiklanish.
- Odam organizmining mehnat jarayonidagi nomaqbul omillarga qarshilik ko'rsatishi (profilaktikasi).
- Jismoniy va ruhiy ko`nikma, qobiliyatlarini ma'lum darajada saqlashga yoki o'stirishga qaratilgan kasbiy amaliy tayyorgarlik.

Agar ishchilarning faoliyatida jismoniy yuksalish sezilarli darajada katta bo`lsa, ish kunidan keyingi tiklash tadbirlariga kiritiladigan gimnastik mashqlar to`plami mushaklarni bo`shashtirishga yo`naltirilishi kerak. Bu mashqlar tez va to`la dam olishga, charchoqning tiklanishiga imkon beradi.

Agar mehnat katta **jismoniy yuklanishni** talab qilmasa, unda jismoniy mashqlar katta mushaklar guruhini nafas olish va qon aylanish tarmog'i faoliyatini faollashtirishga qaratiladi. Ishlab chiqarish gimnastikasining shakli va mazmunini tanlashda mehnatning aqliy yuksalishi ham hisobga olinadi, bu oliy asab faoliyatini va ruhiy jarayonlarni ishga kirishish pog'onasini ifodalaydi.

Bu vazifani hal qilishda jismoniy mashg'ulotlarni nomiga o'tkazish ham foya keltiradi. Uni jonli, ko'tarinki ruhda o'tkazilsa, natija juda yaxshi bo`ladi. Jismoniy mashg'ulotlarda boshqa ma'lum usullardan suv bilan davolash, musiqa jo'r bo`lishidan foydalanish katta natija beradi. Ishlab chiqarish gimnastikasi mashqlarining shakl va mazmunini tuzishda ishchi-xizmatchining ish paytidagi gavda vaziyatini ko'proq to`g'ri tutishini e'tiborga olish kerak. Ishchi tik turib ishlasa, tiklanish hamda charchoqning oldini olish mashg'ulotlarini o'tirgan holda bajarish tavsiya qilinadi. O'tirib ishlaydigan ishchilar uchun faol dam olish, mehnat jarayonida va ishdan keyin hamda toliqishning oldini olish mashg'ulotlari turgan holda bajarilsa yaxshi bo`ladi. Majburan noqulay vaziyatda bajariladigan ishdan so`ng mashg'ulotlar o'tirib yoki turli holda bajariladi. Bunda mashqlarni shunday tanlash kerakki, ular ish holatida yuklanishda bo`lgan mushaklarni iloji boricha bo`shashtirib turishi kerak.

Ish jarayonida **jismoniy yuklanish** ta'siri mushaklarga bir me'yorda taqsimlanmaydi. Ayrim mushaklarga asosiy og'irlilik tushsa, boshqalariga kamroq va ayrimlariga umuman og'irlilik tushmaydi. Jismoniy tarbiya mashqlarini tanlashda bularni e'tiborga olish zarur. Ish kuni davomida uzluksiz jismoniy yuklanish jismoniy harakatga sarflanganda jismoniy tarbiya mashqlariga chuqur nafas olish bilan badanni bo'shashtirish mashqlarini kiritish tavsiya etiladi.

Mehnat sharoiti va uning tashkil etilishi ko`pincha toliqishning tasnifi va darajasini belgilab beradi. Toliqish turli xilda namoyon bo`lishi mumkin. Dastlab loqaydlik, mudroq bosish hollari, ishni davom ettirishni xohlamaslik bo`lsa, keyinchalik odam hayajonlangan holda va serjahl holda harakat qilishi mumkin. SHuning uchun tiklanish mashqlari ham turli xil bo`lishi kerak. Birinchi bo`lib charchoqning oldini olishda o`cta va yuqori tezlikda bajariladigan badanni bo'shashtiruvchi mashqlar bilan keng amplitudali harakatli dinamik mashqlar yordam beradi.

Jismoniy tarbiya mashqlarini tanlashda **ishlab chiqarish** xususiyatlарини hisobga olish zarur. Ular turli xildagi ishlab chiqarish gimnastikasi va maxsus mashqlar ta'siriga berilish mezonlarini belgilab beradi.

Ishlab chiqarish korxonalari uchun jismoniy tarbiya mashqlari ro`yxatini tuzishda shugullanuvchilarining jismoniy holati va rivojlanishiga ham e'tibor berish kerak, bunda jismoniy mashqlarni shunday tanlash kerakki, ularni hamma shug'ullanuvchilar ham bajara oladigan bo`lsinlar.

Ishlab chiqarish muassasalarida jismoniy mashg'ulotlarni **rejalashtirishda** shug'ullanuvchilarining jinsiga e'tibor berish kerak. Bu shak-shubhaisiz mash'ulot o'tkazish uslubini yanada to`g'ri tanlashga yordam beradi. Ayollar uchun ba'zi bir raqs elementlari kiritilgan harakatlar maqsadga muvofiqdir. erkaklarga esa kuchli, keskin harakatli mashqlarni tavsiya etish afzalroqdir. Bundan tashqari. shug'ullanuvchilarining yoshlariga ham alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. Katta yoshdagi odamlarga nisbatan yosh ishchi xizmatchilarga birmuncha ko`proq jismoniy kuch sarflanadigan mashqlar tanlanishi kerak.

### **Ishlab chiqarish muassasalarida jismoniy tarbiya vositalarining turlari va tadbir o'tkazish usullari**

Ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya mashqlarining bajarilishi mehnatni ilmiy tashkil etishning ajralmas bir qismi hisoblanadi.

YUqori malakali mehnat layoqatini saqlash shartlaridan biri, ish faoliyatining bir turidan boshqa turiga o'tish mezonlarini hosil qilishdir. Ishlab chiqarish muassasalarida . Uning ilmiy asosi - I.M.Sehenov tomonidan ochilgan - faol dam olish natijasi va I.Pavlov tomonidan ta'rif etilgan mehnat layoqatining eng muvofiq sharoitlarini saqlovchi markaziy asab tomirlaridagi qo'zgalish va tormozlanishning muntazam almashinuv jarayonidir.

Bir ish kuni davomida ishchi bir xil harakatlarni bir necha bor takrorlaydi. Bu ish faoliyati bosh miya qo'zg'aluvchanligini va mushaklar harakatini avtomat holatiga olib keladi. Bu bosh miya katta yarim pallasi pustlog'idagi asab markazlarining davomiy ko'zg'alishidir.

Kun bo`yi insonning ishchanlik qobiliyati bir xil bo`lmaydi. Kun boshida organizmning hamma tarmog'i va faoliyati mehnat maromiga moslasha boshlaydi, natijada asta-sekin ishchanlik qobiliyati oshib boradi (kunduzi soat **12gacha**). YUksak darajaga etib, u ancha vaqtgacha yuqori bo`ladi (soat **14gacha**), so`ngra toliqish natijasida pasayib boradi. Kun davomida ishchanlik ikki marta o`zgaradi.

CHarchab qolish bilan kurashish va yuqori ishchanlik qobiliyatini saqlab qolish maqsadida mufassal ravishda ma'lum vaqtidan so`ng ishni to`xtatib, maxsus tanlangan gimnastika mashqlarini bajarish lozim. Ish paytidagi gimnastika bir qator xususiyatlarga ega bo`lib, ularni ish paytidai jismoniy tarbiya vositalarini tanlashga katta e'tibor berish kerak.

Bu xususiyatlar quyidagilar: vaqtning cheklanganligi, mashqlar bevosita ish joyida bajarilishi, ish kiyimida bajarilishi.

Ish vaqtidagi gimnastika uslubini ikkiga bo`lish mumkin: tuzish uslubi va o`tkazish uslubi.

Agar jismoniy mashqlar to`plami to`g`ri tuzilgan bo`lib, o`z vaqtida bajarilmasa, uning foydasi kam bo`ladi. Ishlab chiqarish gimnastikasi **4** shaklga ega.

**Kirish gimnastikasi.** Odam tanasidagi biologik jarayonlarni jadallashtiradi. Maxsus tanlangan gimnastika mashqlarini bajarish natijasida ishga kirishish davri ikki marta qisqaradi. Kirish gimnastikasi ishchanlik qobiliyati davrini ham uzaytiradi. Kirish gimnastikasi majmuasi ish kuni boshida **5-7** daqiqa davomida bajariladigan, mashhqdan iborat bo`ladi. Kirish gimnastikasi majmuasi turli ishlab chiqarish korxonalarida maxsus mashqlar majmuasi va mashg`ulot jarayonida kuchlanishning taqsimlanishi bilan farqlanadi. Kirish gimnastikasining odatdagи tartibi quyidagicha:

1. Uyushtiruvchi mashqlar.
2. Badan, qo`l va oyoq mushaklari uchun mashqlar.
3. Umumiy hamma mushaklarga ta`sir qiluvchi mashqlar.
4. Badan (tana), qo`l va oyoq mushaklari uchun mashqlar. 6 - 8 ta maxsus mashqlar.

5. Og`ir jismoniy ish bilan shug`ullanuvchi odamlar uchun bajarilishi oson bo`lgan kirish gimnastikasi.

Ular har xil mushaklarning faol harakatlarini birin-ketin qizdirishga yordam beradi. Jismoniy harakat faoliyati mashqlar majmuasining oxirgi choragiga borib ko`payadi.

O`rtacha og`irlikdagi mehnat bilan shug`ullanuvchilar (masalan, turli xil stanoklarda ishlovchilar uchun mashqlar) kirish gimnastikasi sifatida ish vaqtida band boimaydigan bir guruh mushaklarga dinamik amplitudali mashqlar kiritiladi. eng og`ir mashqlar to`plamning o`rtasiga, ya`ni **4**-mashqqa to`g`ri kelishi kerak. Zo`riqish talab qilmaydigan, ko`proq qulqoq, ko`z va hokazo a`zolar ishlaydigan kasb egalarining kirish gimnastikasi ga har xil mushaklar guruhi uchun, maxsus harakatli mashqlar tanlanadi. eng ko`proq mashq, jismoniy og`irlik to`plamning birinchi qismiga to`g`ri kelishi mo`ljallanadi Mehnatni tashkil qilishda ish sharoiti organizmga salbiy ta`sir qiladigan bo`lsa, shu ish tufayli kelib chiqadigan kasallikning oldini olish mashqlarini tanlash tavsiya qilinadi. Masalan, ip yigiruvchilar, stanokda ishlovchilar va hokazo - kun bo`yi oyoqda turib ishlaydiganlar yassi oyoqlik, umurtqa pog`onaning qiyshiq rivojlanishi kasalliklariga ducher bo`ladilar. SHuning uchun kirish gimnastikasi mashqlari to`plami an; shu kasalliklarning oldini olishga qaratilgan bo`lishi kerak. Kirish gimnastika to`plamining oxirida ish jarayoniga yaxshi tayyorianish uchun maxsus mashqlar bajariladi. Ular o`z turkumi va maqomi bilan ish harakatlariga o`xhashi, ba`zida eesa shu harakatni aynan takrorlashi mumkin. Maxsus mashqlar ishchining ish vaqtida asosiy og`irlik tushadigan mushaklari uchun tanlanadi. Masalan, to`qimachilar. yigiruvchilar uchun suyak mushaklari mashqlari qo`llaniladi. Bu mashqlar barmoqlarning ip bog`lash unumdorligini oshiradigan bo`lishi kerak. Tikuvchilar, mayda detallarni yig`uvchilar, chizmakashlar va boshqa shu kabi kasb egalarining ishlari etiborni, diqqatni bir nuqtaga to`plashni talab qiladi, bu vaziyatda ishchilar kayfiyatini ko`tarish uchun maxsus mashqlar yordam beradi.

Jismoniy tarbiya mashqlari ish jarayonida paydo bo`lgan toliqishni yo`qotish uchun qo`llanilib, **5-7** mashqlardan tashkil topib, toliqish davrida 5-7 daqiqa davomida bajariladi.

Gimnastik mashqlar to`plamini o`tkazish vaqtি ish kunining rejasiga, uning faoliyati turiga, mutaxassis qobiliyatiga bog`liq. Og`ir jismoniy mehnat qiladiganlarga jismoniy tarbiya lahzasi ish boshlanganidan **1,5 soatdan** so`ng, aqliy mehnat bilan shu`ullanuvchilar uchun ish boshlanganidan **3 soatdan** so`ng o`tkazish mumkin. Jismoniy tarbiya lahzasi gimnastika mashqlari mehnat jarayonining turiga qarab tanlanadi. Jismoniy og`irlik, aqliy mehnat yuklanishni e`tiborga olib, ishlab chiqarish gimnastikasining tasnifi belgilangan. Mehnat faoliyati turlari 4 guruhga bo`linib, har qaysi guruh uchun sakkiztadan jismoniy

mashqlar namunashi tuzilgan, ular jismoniy gimnastika mashqlari to`plamini ishlab chiqishda katta yordam beradi, har xil kasb guruhlari uchun tuzilgan gimnastika mashqlar to`plami bir necha umumiylikka ega. Qaysi bir mehnat faoliyatining turi bo`lmasin, toliqishning birinchhi alomati paydo bo`lishi bilan organizmning tabiiy talabi: chuqr nafas olish, kerilish, elkani orqaga tashlab, qo'llarni yuqoriga ko'tarish va hokazo mashqlarni bajarishdir. Biz jismoniy tarbiya lahzasida o'tkazadigan gimnastika mashqlarining boshida va oxiridagi mashqlarni sekin va chuqr nafas olish bilan bajarilishini tavsiya qilamiz. Jismoniy tarbiya lahzasidan so'ng ish jarayoni davom etadi, shuning uchun jismoniy mashqlarni bajarish, mehnat unumdorligini oshirishga, uni yuqori kayfiyat bilan davom ttirishga sharoit yaratib berishi kerak. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, yuqorida aytib o'tilgan holatga diqqatni bir joyga to`playdigan mashqlar yordamida erishish mumkin ekan. Hamma guruhlar uchun (og'ir jismoniy mehnat guruhidan tashqari) umumiysi shuki, to`plamning o'rtaсидаги mashqlar organizmga eng kuchli ta'sir qilishi kerak.

**Birinchi guruhdagi kasb** mehnatkashlariga juda og'ir bo`lмаган jismoniy yuklanish bilan bog'liq mehnat bilan shug'ullanuvchilar kiradi (bir me'yordagi bir xil ish qonveerda ishslash, diqqatni talab qiladigan ishlar, tikuvchilar, saralovchilar, mayda detallarni qoliplovchilar va boshqalar).

Bu guruh ishchilar uchun jismoniy tarbiya lahzasida hamma guruh mushaklari faoliyatini o'z ichiga oladigan gimnastika mashqlari, harakatchan mashqlar tanlanadi. Mashqlar gavdani to`g'ri tutishga, yurak-tomir va nafas olish tarmoqlari faoliyatiga, modda almashinuviga ko`maklashadi, eng muhimi tos va qo'l-oyoqlarda qon aylanishini kuchaytiradi. Buning uchun o'tirib-turishning har xil usullari tavsiya qilinadi, organizmga katta zo`riqish bermaslik uchun sakrash va yugurish mashqlari tavsiya qilinmaydi.

Bu kasb guruhlari uchun o'tkaziladigan jismoniy tarbiya daqiqalari quyidagicha:

1. Qo'llar kuchi bilan tortilish mashqlari.
2. Gavda, oyoq va qo'l mushaklari uchun (burilish, engashish) mashqlar.
3. Tana, qo'l, oyoq mushaklari uchun tez sur'at va katta amplituda bilan bajariladigan mashqlar.
4. Umumiylar ko'rsatuvchi mashqlar (o'tirib-turish tez yurish, o'tirib-turish bilan engashish, biriktirilgan qo'l-oyoq harakatlari).
5. Tana, qo'l, oyoq mushaklari uchun silkinish (siltash) mashqlari.
6. Qo'l mushaklarini bo'shashtiruvchi mashqlar.
7. Harakatlarni muvofiqlashtiruvchi va aniqlik mashqlari.

**Ikkinchi guruhdagi kasb** mehnatkashlariga aqliy va jismoniy mehnat bilan shu'ullanuvchilar kiradi. Ishlab chiqarish korxonalarida bu guruhga tokarlar, frezerchilar, tikuvchilar, yigiruvchilar, gilam to`quvchilar kiradi.

Bu guruhdagilar uchun jismoniy tarbiya laxzasidagi mashqlar to`plami bo'shashtirish belgilari bo`lgan xilma-xil dinamik mashqlarni o'z ichiga olishi kerak Ushbu guruhga tegishli kasbiy ishlarning asosiy qismi ishchilar turgan holda bajargani uchun mashqlar bajarish paytida oyoq mushaklarini dam oldirish kerak.

Jismoniy tarbiya daqiqasida bu guruh kasbi uchun tanlangan mashqlar har xil guruh mushaklarini zo`riqishini kamaytirishga, nafas olish va qon aylanish faoliyatini yaxshilashga, tovon mushaklarini mustahkamlashga imkon tug'dirishi kerak.

Bu guruh uchun namunali jismoniy tarbiya daqiqasidagi mashqlar to`plami quyidagilar:

1. Qo'llar kuchi bilan tortilish mashqlari.
2. Tana mushaklari uchun mo'ljallangan bo'shashtirish belgilari bo`lgan mashqlar.
3. Qo'l va oyoq mushaklari uchun mashqlar.
4. Umumiylar ko'rsatuvchi mashqlar - yugurish, sakrash, o'tirib-turish.
5. Siltash turidagi mashqlar.

7. Bo'shashtirish mashqlari.
8. Diqqatni muvofiqlashtirish mashqlari.

**Uchinchi guruh kasb egalari** og'ir jismoniy zo'riqish ishi bilan shugullanuvchilardir. Bular qoliplovchilar, metall quyuvchilar quruvchilar, temirchilar, shaxtada ishlovchilar va boshqalar. Bu guruh uchun jismoniy tarbiya lahzasidagi gimnastika mashqlari to`plami asosan chuqur nafas olish va nafasni bo'shashtirish mashqlaridan iborat bo`lishi lozim. Ular qon aylanishini yaxshilaydi, organizmda tiklanish jarayonini tezlashtirishga imkn yaratadi. Gimnastika mashqlari odatda o`rtacha va sekin tezlikda bajariladi. Jismoniy tarbiya mashqlari sust faol dam olish bilan birgalikda olib boriladi.

Jismoniy tarbiya lahzasidagi mashqlarni bir guruh kishilar o'tirgan holda bajarganlari afzalroqdir, agar maxsus xonalar bo`lsa, ayrim mashqlarni yotgan holda bajarish mumkin.

Bu guruh uchun bajariladigan mashqlar organizmdagi zo'riqishni pasaytiradi, ishlab to`rgan mushaklarda qon aylanishini, nafas olishni yaxshilaydi, umurtqa va tovon suyaklarini mustahkamlaydi.

Og'ir mehnat qiluvchilar uchun jismoniy tarbiya tanaffusida quyidagi mashqlar bajarish tavsiya qilinadi:

1. CHuqr nafas olib, qo'l va elka mushaklarini bo'shashtirish.
2. CHuqr nafas olib, har xil mushaklarni bo'shashtirish mashqlari.
3. CHuqr nafash olib, qo'l, oyoq va gavda mushaklari uchun o'tirib yoki yotib mashqlar bajarish.
4. Mushaklarni bo'shashtirish va harakatni engillashtirish mashqlari.
5. Gavda, qo'l va oyoq mushaklarini bo'shashtirish mashqlarini harakatni engillashtirish mashqlari bilan birgalikda olib borish.

**To`rtinchi guruh aqliy mehnat** bilan shug'ullanuvchilar, harakat qilish asab tarmog'iga ko`p og'irlik beruvchi kasb egalari kiradi. Ularga muhandis, kotib, o`qituvchilar, operatorlar, hisobchilar, ilmiy xodimlar, tarjimonlar va boshqalar kiradi.

Bu guruhdagilar uchun gimnastika mashqlarida har xil jismoniy harakatlar keng ko`lamda foydalaniлади, jismoniy tarbiya vositalari ularning harakatlarini engillashtirish, ish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda organizmni chiniqtirish, baquvvatlashtirish va qon aylanishini yaxshilashga qaratiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya tanaffusida oyoq mushaklari uchun bajariladigan mashqlarni albatta qo'shish kerak. Bu organizmdagi hujayralardan tomirlar orqali butun tanaga qon yurishini ta'minlaydi, bosh miya qon tomirlarida qon yurishini tezlashtiradi, pastki va kichik tos suyaklarida qon qotib qolishining oldini oladi. Jismoniy tarbiya tanaffusidagi mashqlarni yaxshisi tik turib bajarish ma'qui. Bu guruhdagilarga quyidagi tartibda mashq bajarish tavsiya qilinadi:

1. Tortilish mashqi.
2. Gavda, oyoq va qo'l mushaklari uchun mashqlar.
3. Gavda, oyoq va qo'l mushaklari uchun yuk bilan tez harakat qilish mashqlari.
- 4.Umumiy ta'sir qilish mashqlari: o'tirib-turish,yugurish - sakrash.
5. Oyoq, qo'l va gavda mushaklari uchun mashqlar, ko'proq oyoq harakatlari bilan birga olib boriladi.
6. Qo'l mushaklarini bo'shashtirish mashqlari.
7. Diqqatni harakatga moslab olib borish mashqi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari vaqtida **1, 2, 3-nchi** guruhdagilar o`z harakatlarini sekin-asta tezlashtirib borib, mashqlarning o`rtasida, ya'ni yarmida esa harakatlarni sekinlashtirib, mashqlarning oxirida o`rtacha harakat bilan bajarish tavsiya qilinadi.

**3-nchi** guruhga kiradiganlarga harakat tezligini bir xilda oshirish teskari ta'sir ko'rsatadi, chunki ish jarayonida jismoniy harakatning organizmga ta'siri katta, mashqlar

to`plamining o`rtasiga kelib mashqlarning ta'siri kamayadi. Mashqlarning oxiriga kelib og'irlik ko`payadi. Bu esa mehnatni davom etirishga yangi kuch bagishlaydi.

Umumiy jismoniy kuchlanish dam olish vaqtida ish vaqtidagiga nisbatan oshib ketmasligi kerak. Ish vaqtida kam harakat qiluvchilarga korxonalardagi jismoniy tarbiya tanaffusini bir necha marta takrorlashi, ish vaqtidan keyin ko`proq mashq qilishlari tavsiya etiladi.

**3-nchi** guruhdagilar uchun jismoniy mashqlar 35 - 40% qisqartirilishi kerak.

Odam organizmiga ta'siri katta boiadigan mashqlarni o`zgartirish yo`li bilan ularning samarasini yanada oshirish mumkin. Mashq bajarish tezligini oshirib, sonini kamaytirib, uning ta'sirini ko`paytirish mumkin. Masalan, tortilish doim sekin-asta harakat orqali bajariladi, sakrash mashqi esa tez harakatga bog'liq engashish, burilish va quloch yozishni har xil tezlikda bajarish kerak. Bu o`z navbatida gimnastika mashqlarinnng bajarilishi qiyinligini ko`paytirishi va kamaytirishi mumkin.

Jismoniy tarbiya daqiqalariga faol dam olish ham kiradi. Bu mashqlar **1-2** lahzada **2-3 xil** harakatlarni tashkil qiladi. Bu lahzalar umumiyo yoki alohida mashqlardan foydalangan holda bir ish kunida 5 martagacha qo'llanilishi mumkin. Jismoniy tarbiya lahzalarida umumiyo harakatlarga **Birinchi gimnastika**-mashqi alohida ta'sir ko`rsatadi, odatda gavdani to`g'ri tutish va elkalarni orqaga burish asosiy harakat hisoblanadi. Bu hamma vaqt chuqur nafas olish bilan birga olib borilmaydi, chunki xonalar ta'siri, uy harorati va tibbiy-tozalik, gigiena hamisha ham talabga javob beravermaydi.

**Ikkinci mashq** - engashish va gavda bilan burilish, qo'l va oyoqlar tana atrofida birga aylanishdan iborat bo`ladi. Buni doim, istagan paytda bajarish mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya tanaffuslari va lahzalari ish vaqtida atrof-muhit holatlaridan qat'i nazar, foya keltiradi. Ba`zi bir joylarda tozalik-gigiena holatlari yomonligi tufayli jismoniy tarbiya tanaffuslarini o'tkazishga sharoit bo`lmaydi. Bunday sharoitda ham **4-5 gimnastika** mashqlaridan iborat jismoniy tarbiya lahzasi o'tkazilsa, charchoq tarqaladi va mushaklarda quvvat paydo bo`ladi.

Jismoniy tarbiya lahzalari jismoniy tarbiya tanaffuslari yoki umumiyo dam olish imkoniyati bo`lmagan vaqtida katta foya keltiradi. Bunday joylarda stanoklarni o`chirmasdan, ishlayotganlarni ishdan qoldirmasdan alohida tartibda jismoniy tarbiya lahzalaridan foydalinishda **4-6 gimnastika** mashqlarini bajarish ko`proq foya keltiradi. Bunda mehnat qilayotgan odam, o`z imkoniyatlaridan foydalangan holda jismoniy tarbiya lahzalaridan unumli foydalinish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya lahzalaridan unumli foydalinish ko`pchilik ishchilarga charchoqni tarqatish va o`z jismoniy holatini yaxshilashda katta yordam bera oladi. Lahzalik tanaffusning maqsadi bosh miya, asab tarmog'i qo`zg'aluvchanligini ko`tarish yoki pasaytirish orqali toliqishni susaytirish, bosh miya va boshqa a`zolarda qon aylanishi, ayrim sezgi tarmg'idagi toliqishni susaytirishdir. Lahzali tanaffusda ko`proq harakatsiz, mushaklarni bo'sh qo'yish, ko`zlar, bosh bilan harakat qilish, nafas olish mashqlari, o`z-o`zini uqalash usullari, binoda yurish kabi mashqlar bajariladi.

Ish kuni davomida bunday mashqlar ko`p marta qo'llanishi mumkin, lekin albatta, jismoniy tarbiya tanaffuslarida ishlab chiqarish gimnastika mashqlari bilan birga qushib olib borilishi kerak.

Jismoniy tarbiya mashqlari mehnatni tashkil qilish va ish vaqtiga qarab tanlanishi lozim. Umumiyo dam olish mashqlari ish vaqtining uzoqligiga qarab tanlanadi. SHuningdek, mashqlarni ish kuni vaqtiga (ertalabki, kunduzgi yoki kechki) qarab tanlash tavsiya qilinadi. ertalabki ish kuni dagilarga gimnastik mashqlar, kechkilarga tez-tez umumiyo mashqlar tavsiya qilinadi. Ish vaqtida yoki dam olish paytidagi mashqlar to`g'ri taqsimlanishi katta muvaffaqiyat keltiradi. Awalo ish vaqtida umumiyo dam olish gimnastika mashqlarini to`g'ri taqsimlash kerak. Odam organizmida charchoqning boshlanishi bilan jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish ijobji ta'sir qilishi isbotlangan. Agar og'ir mehnat qiladiganlarda dam

olishga ehtiyoj **1,5 soatdan so`ng** tug'ilsa, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilarda toliqish belgisi **3,5 soatdan so`ng** boshlanadi.

Bundan kelib chiqadiki, har xil kasb egalari uchun dam olish vaqtini bir vaqtda belgilash noto`g`ridir. Jismoniy tarbiya mash'ulotida mashqlarning erta bajarilishi ham zarar keltirishi mumkin. Mashqlarning bajarilishi oldin tushuntirilib, keyin bajariladi. U jismoniy mashg'ultlar o`tkazishda tajribasi bo`Imagan shaxslar uchun juda qulaydir.

Ishlab chiqarish gymnastikasi to`plamini **4-5** hafitada 'zgartirib turish kerak. Bir xil mashqlarni uzlusiz uzoq vaqt bajarganda mashg'ulotlarga bo`lgan qiziqish pasayib, uning foydasi kamayadi, ammo mashqlar to`plamini tez-tez o`zgartirib turish ham notug'ri bo`ladi. CHunki shug'ullanuvchilar ularni (mashqlarni) 'zlashtirishga ulgurmaydilar.

Agar gimnastika to`plami va jismoniy tanaffus radio orqai; amalga oshirilsa, jamoatchi yo`riqchi yki mashg'ulotlarni tashkii qiluvchi mashqlarning bajarilishini ko`rsatish va ularning bajaiilis v davomida kamchiliklarni to`g`rilash vazifasini o`taydi, Agar ishiab chiqarish gymnastikasiga musiqa jo`r bo`lmasa, jamoatchi yo`riqchi yoki uslubchining vazifasi mashg'ulotlarni tashkil qilish, mashqlarnir bajarilishini to`g`ri tushuntirish, topshiriq berib turish, mashqlar bajarilishi davomida tanbeh berib turish va hokazo bo`ladi. eng muhimmi, mashqlarning bajarilishini to`g`ri ko`rsatish va vaqt cheklangani uchun qisqa hamda aniq qilib tushuntirishdir.<sup>26</sup>

Gimnastika atamasidan to`g`ri foydalanish shart, lekin shug'ullanuvchilarning ko`pi ularni bilmagani uchun yangi atamalarni asta-sekin kiritish kerak. Odatda gimnastika mashqlarini to`g`ri bajarish uchun bir vaqtning o`zida ham ko`rsatish, ham tushuntirish kerak bo`ladi. Bu ikki usul bir-birini to`ldiradi.





Jamoatchi - yo`riqchi yoki uslubiyatchi shug'ullanuvchilarga yaxshi ko`rinadigan joyda turib, mashqlarning bajarilishini to`g`ri ko`rsatishi lozim.





?





- ✓ Bevosita mexnat jarayonidagi jismoniy madaniyat.
- ✓ Ishlab chiqarishda, mexnat jarayonidan tashqarida bajariladigan jismoniy madaniyat.
- ✓ Jismoniy madaniyatni ishlab chiqarish va boshqa shakllari bilan bog`liqligi.


## © Adabiyotlar



1. Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.
2. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. A.Abdullaev va b. T.2005 y.
3. R.S.Salomov va b. "Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligiga kirish". T. 1990 y.












1


2



3



4



## Saf mashqlari, URM, turnik, yakkacho`pda bajariladigan mashqlar


**Darsning maqsadi:** Saf mashqlarini qaytarish, URM, turnikda sakrab tushish mashqlari va yakkacho`pda burilish mashqlarini takrorlash va mustaxkamlash

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zal, gimnastika matlari, gimnastika asboblari

1.Saf mashqlarining barcha buyruqlarini takrorlash

**2.URM - uzlusiz usulda mashqlarni takrorlash**

**3.Turnik - yoysimonholatda sakrab tushish .**



**4.Yakkacho`p – burilishlar bir oyoqda 360 ° ga shuning o`zini muvozanat saqlash holatida. Sakrashlar bir oyoqda ikkinchisini siltab, oyoqni oyoqqa urib**

**To`ntarilish, turnikda bajariladigan mashqlarni o`rgatish.**

**Darsni maqsadi:** to`ntarilish mashqlarini va turnikda bajariladigan mashqlarni o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari, turnik

1. To`ntarilishlar - joyidan va yugurib kelib chapga, o`ngga.

2. Turnikda mashqlar - aralash va oddiy osilishlar: osilib turgan holatda qo`llarni bukish va yozish, qomatni bukish va kerish, gavdani burishlar, o`tirishlar va bir oyoqda ikkala oyoqda osilib o`tirish, osilib turgan holatda ortga burilish, shuning o`zi orqadan osilib turgan holatda.

3. Dastakli otta mashqlar - oldinda, orqada tayanishlar, tayanish holatidan chapga, o`nag, oyoqlarni siltashlar.

4.O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.


### Yon tomonga to`ntarilish

*Bajarish texnikasi.* Harakat yo`nalishiga yo`zlanib turib qo`llar yuqorida kaftlar oldinga qaratilgan, to`ntarilish bajariladigan tomonga bir qadam qo`yib, keyin oldinga bukilib, itariluvchi oyoqdan bir qadam oralig`ida polga qo`lni qo`yish va bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib, qo`lda turishga o`tish. Keyin navbatma-navbat qo`llar bilan itarilib qo`llar yonga, oyoqlar ochiq turish.

*O`rgatish ketma-ketligi.*

1. Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib qo`llarda turish, yordam bilan qo`llarda tik turgandan keyin bajaruvchi oyoqlarni ochadi, straxovkachi esa orqa tomondan tizzalar yonidan ushlab turadi.

2. Oyoqlarni ochib qo`llarda turishdan, oyoqlarga qaytish. Boshida o`tgan mashq kabi yordam beriladi, keyin qo`llarni tez navbatma-navbat harakatlantirib: bir qo`lni belga (tushish tomonga) boshqasini yelka ostiga qo`yib, oyoqqa tushishga yordam berish – qo`llar yonga oyoqlarni ochib turish (bu mashq to`ntarilishning ikkinchi yarmini o`rganishda yordam beradi).



3. Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib oyoqlarni ochib burilib qo'llarda turish (bu mashq to'ntarilishning birinchi yarmini o'zlashtirish bilan bog'liq). Turgandan so'ng 1-mashqdagi kabi yordam ko'rsatiladi.

4. Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib yon tomonga to'ntarilish.

#### *Xatolar.*

1. Qo'l va oyoqlar bir chiziqqa qo'yilmasa.
2. Qo'lda turish orqali to'ntarilish bajarilmasa.
3. Bosh orqaga egilmagan bo'lsa va o'quvchi qo'llarni qo'yishda o'zini boshqara olmasa.
4. Qo'llarda turish orqali to'ntarilish bajarilmasa, hamda tana vertikal chiziq bo'ylab emas, balki yon tomonga egilib bajarilsa.

*Ehtiyyotlash va yordam.* Amaliyotda uchta asosiy yordam qo'llaniladi:

1. Bir qo'lda beldan, ikkinchisida yelkadan ushlab.
2. Ikkala qo'l krest holatida beldan ushlab.
3. Ikkala qo'l bilan beldan ushlab.

### **Turnikda bajariladigan mashqlar**

Sport gimnastikasida turnik shunday snaryadki, unda faqat tebranma siltanma mashqlar ijro etiladi. SHuning uchun gimnas-tikachining mahorati muskul quvvatini kam sarf qilib, inertsiya kuchidan oqilonan foydalanishdan iborat bo'ladi. Biroq panja-larni bukish uchun ancha yuqori bo'lishi kerak, chunki katta ko'lam-dagi tebranma mashqlarni bajarishda hosil bo'ladigan va gim-nastikachini turnikdan o'zishga intiladigan markazdan qochuvchi inerqiya kuchi hosil bo'ladi.

Hozirgi davrda turnikda bajariladigan mashqlar kishini hayratda qoldiradi, chunki ular hech to'xtalmasdan, qaltis vaziyatda ijro etiladi. Bu hol, xatto, sport gimnastikasini yaxshi tu-shunmaydigan kishiga ham, yaxshi gimnastikachiga ham xatosiz qara-katlar uyg'unligini, dadillikni, ko'ra olish imkonini beradi. Turnikda bajariladigan asosiy mashqlar quyidagilardan iborat:

**Osilish.** Baland turnikdan bu holat beistisno hamma mashq-larni boshlash uchun dastlabki holatdir. Osilishda tananing to'g'ri holati yetarli ko'lamda tebranishni boshlash va keyinchalik siltanish uchun ayniqsa muhimdir. Osilish holatida gimnastikachining tanasi maksimal to'g'rangan bo'lishi kerak. Bunga ko'krak-o'mrov va yelka bo'g'inidan cho'zilish, shuningdek, bel qismidagi muskullarni bo'shashtirish orqali erishiladi. Tirsak bo'g'inalari ham to'g'rangan lekin, taranglashmagan bo'lishi kerak. Oyoqlar tos-son va tizza bo'g'inalaridan to'g'rangan, oyoq uchlari cho'zilgan va juftlashtilgan bo'ladi. Osilish holatiga quyida bayon etiladigan ko'rsatmalarga riosa qilgan holda, yaxlit o'rgatish uslubi bilan o'rgatish kerak.

Tana pastki qismlarining turli holati zarur bo'lgan muskul guruhlarini taranglatish orqali erishiladi, bu esa tebranishlar davomida kam saqlanadi. Osilish holatida buqilish yoki


yozilish (kerishish) taqiqlanadi. Ko`pincha boshning noto`g`ri holati: orqaga yoki oldinga tashlash, ko`krakka engashtirish bu hatoliklarga sabab bo`ladi. To`g`ri holatda bosh ham to`g`ri tutiladi va u qo`llar orasida bo`ladi.

### Osilish turlari

Bukilib osilish— turnikda, qo`shpoyada, halqalarda bajariladi. Tana tos-son bo`g`imidan taxminan  $50^{\circ}$ - $70^{\circ}$  burchak ostida bukiladi, bel aylana shaklida, bosh biroz ko`krakka egilgan, qo`llar to`g`ri. Mashqni orqadan osilib turish yoki tosni tushirib osilib o`tirishga o`tish bilan yakunlash mumkin.

Burchak osilish— gimnastika devorida, turniklarda, halqalarda, qo`shpoyalarda bajariladi. Osilib turishdan to`g`ri oyoqlarni gorizontal holatgacha ko`tarish. Quyidagicha bajarish ham mumkin: osilishdan oyoqlarni bukib osilish holatini egallah va shundan keyin oyoqlarni yozib burchak osilish.

Kerilib osilish— gimnastika devorida, turnikda, hisoblanadi



**Turnikda** bajariladigan murakkab elementlardan biri, kerilib osilish

**Bajarish texnikasi.** Orqadan bukilib osilib turishdan, oyoqlarda itarilib bukilib osilish holatini egallah, tos-son bo`g`imidan yozilib, kerilib osilish. Tana kerilgan va bosh pastda vertikal holatda bo`ladi. Qo`llar yelka kengligida yuqorida ushlab , oyoqlar birga, oyoq uchiga tortilgan, bosh orqaga egilgan.

**O`rgatish ketma-ketligi.**

1. Orqadan osilib turishdan, bukilib osilishni takrorlash.
2. Gimnastika devoriga orqada bukilib osilib turishdan, oyoqlarda itarilib, kerilib osilish (IV gurux).
3. Orqadan osilib turishdan, ikki oyoqda itarilib turnikda bukilib osilish va kerilib osilish, oyoqlarni orqaga tushirib, orqadan osilib turish va oldinga qadam qo`yib A.T.

**Xatolar.**


1. Haddan ziyod tanani kerilishi.
2. Kerilib osilishni bajarish vaqtida qo`llarni buqilishi.
3. Bosh oldinga egilish.

**Ehtiyyotlash va yordam.** Yonboshdan turib, bir qo`lda oyoqdan, boshqasida bilakdan ushlab yordam beriladi.

Kerilib osilishni gimnastika devoridan o`rgatishni boshlash maqsadga muvofiq. Gimnastika devoriga orqadan bukilib osilishdan oyoqlarda itarilib kerilib osilishga o`tish. Kerilib osilish holatida qo`llar to`g`ri bo`lishi shart (tortilmasdan). Ensa, bel, oyoqlar va tovonlar devorga tegib turishi, bosh biroz orqaga egilgan. Yordam bilan bajariladi. Yonboshda turib yelka ostidan va oyoqlarda ushlab yordam beriladi.

### Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib ko`tarilib to`ntarilish

**Bajarish texnikasi.** Bukilgan qo`llarga osilib turishdan, bir oyoqda yuqoriga-orqaga siltanish (turnikdan) va ikki oyoqda itarilib, tos-son bo`g`imidan bukilib, tortilib, to`g`ri oyoqlarni turnikdan o`tkazish. Keyin, turnikka qo`llar va sonlar bilan tayanib, qo`llarni yozish, boshni orqaga ko`tarib, to`g`rulanib, tayanch holatini egallah.



### O'rgatish ketma-ketligi.


1. Gimnastika devoriga osilishdan, to'g'ri oyoqlarni balandroq ko'tarish (2-3 marta).
2. Gimnastika devoriga orqalab osilib turishdan bir oyoqda itarilib, ikkinchisida siltanib oyoqlarni balandroq ko'tarish; oyoqlarni tushirib, D.H. ga qaytish. 3-4 marta takrorlash.
3. Bukilgan qo'llarda osilib turib bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib ko'tarilib to'ntarilish, tayanish va orqaga siltanib sakrab tushish (yordam bilan va mustaqil).

### Xatolar.

1. D.H. da mashq boshlanishida tos orqada joylashsa, oyoqlar **turnik** ostida bo`lmasa, bularning hammasi oldinga sultanishda harakat koordinatsiyasini bo'zilishiga olib keladi va ko'tarilishni bajarishda qiyinchilik tug'diradi.
2. Oyoqda sultanish yuqoriga-orqaga bajarilmay, balki oldinga-yuqoriga qo'llarni bukish bilan bajarilsa va vaqtidan oldin boshning orqaga egilishi.
3. Boshni orqaga egish ko'tarilishning birinchi yarmida sodir bo`lsa. Bu to'ntarilishni bajarishdagi asosiy xos xatolardan biri hisoblanadi.

*Ehtiyyotlash* va *yordam*. To'ntarilish boshida sultanuvchi oyoqning ushlab, qo'llarni keyinchalik belga o'tkazib. Tayanishga chiqish vaqtida oyoqlardan va ko'krakdan ushlab yordam beriladi .

Bukilgan oyoqlarda va qo'llarda osilish – **turnikda** yoki baland past qo'shpoyada bajariladi. Osilib turishdan ikki oyoqda itarilib, ularni bukib, ikkalasida siltanib o'tib bukilgan oyoqlarda va qo'llarda osilish holatini egallash/ Boshqa usullarni ham bajarish mumkin: orqadan osilib turishdan oldinga egilib ikki oyoqda itarilib, bukilib osilish orqali bukilgan oyoqlarda va qo'llarda osilish.



Bir oyoqda osilish – **turnikda** yelka kengligida ushlab bitta oyoq tizzadan bukilib **turnikka**, poyaga qo'yiladi, ikkinchi oyoq to'g'ri va biroz pastga tushgan, tana birmuncha kerilgan, bosh biroz orqaga egilgan. Yonboshda turib bir qo'lda bilakdan, boshqasi bilan boldirdan ushlab osilishni bajaruvchiga yordam bo'ladi. Orqadan osilib turishdan, ikki oyoqda itarilib, orqadan bukilib osilish orqali, bir oyoqda siltanib o'tib bajariladi.

Tashqarida bir oyoqda osilish – bir oyoqda osilish kabi bajariladi, faqat bukilgan oyoq qo'llar orasida emas, balki tashqarida bo'ladi.

Bukilgan oyoqlarda osilish – turnikda va qo'shpoyada bajariladi. Oyoqlar birga, tizzadan bukilgan, tana to'g'rilangan, biroz kerilgan, bosh orqaga egilgan. Yonboshda turib oyoqlar tizza bo'g'imidan yozilib ketmasligi uchun boldirdan ushlab straxovka qilinadi. Mashqni bukilgan oyoqlarda va qo'llarda osilishdan, qo'llarni tushirib va to'g'rilab bajariladi. Boshida qo'llarni navbatma-navbat tushirilib, keyin esa bir vaqtida tushiraladi. Bukilgan oyoqlar va qo'llarda osilishdan bukilgan oyoqlarda osilishga o'tishda bir qo'lda boldir ustidan, boshqasi bilan beldan ushlab yordam qilinadi.

### **Halqada va tayanib sakrashda bajariladigan mashqlarni o'rgatish.**

**Darsni maqsadi:** talabalarga halqada: kuch bilan chiqish, tebranish mashqlari va tayanib sakrashda oyoqlarni bukib, kerib sakrashni o'rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari

1. Osilish holatida tebranish, bukilib osilish, kerishib osilish, osilgan holatdan kuch bilan tayanishga ko'tarilishni bajarish.

2. O'zunasiga qo'yilgan otdan oyoqlarni bukib sakrab o'tish; oyoqlarni kerib sakrab o'tish; o'zunasiga qo'yilgan ot ustidan bir oyoqda depsinib burchak hosil qilib sakrash.

3.O'tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

### **Tayanib sakrashlar**


Sport gimnastikasida 200 dan ortiq tayanib sakrashlar mavjud. Ular qo'l va oyoq mushaklari kuchini rivojlantirishga yordam beradi, bog'lam va bo'g'imgilarni mustahkamlaydi hamda sakrovchanlik va chaqqonlikni rivojlantiradi. SHug'ullanuvchilarda mashg'ulotlar mobaynida qat'iylik, jasurlik, maqsadga intilish kabi hislatlar tarbiyalanadi. Xilma-xilligi va o'ziga xosligi jihatidan, tayanib sakrashlar o'quvchilarda katta qiziqish va ruhiy ko'tarinkilikni oshiradi. Turli to'siqlardan oson va tez sakrab o'tishni bilish, o'quvchilarni amaliy tayyorgarligi yaxshiligidan darak beradi. Bundan kelib chiqib shuni aytib o'tish kerakki, majmua dasturida amaliyat tavsifidagi mashqlar (yonbosh, burchak sakrash), hamda sport gimnastikasi "B" toifasi bo'yicha (oyoqlarni bukib, oyoqlarni ochib sakrashlar) malakaviy dasturlar kabi alohida qiziqishga ega bo'lgan, nisbatan murakkab bo'Imagan tayanib sakrashlar ko'rsatilgan. Tayanib sakrash texnikasini asosini o'rganish va tahlil qilishni engillashtirish uchun quyidagi fazalarga ajratiladi: yugurish, ko'rikchaga sakrash, oyoqlarda depsinish, qo'llarda itarilishgacha bo'lgan uchish, qo'llarda itarilish, qo'llarda itarilgandan so'nggi uchish va qo'nish. Tayanib sakrashga o'rgatish boshlanishida, tayanib sakrashlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirib olish uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi va alohida ko'nikmalarni shakllantiruvchi dastlabki tayyorgarlikni mustahkamlash lozim.

Tayanib sakrashlarni o'zlashtirish uchun, avvalo mustahkam qo'nishga o'rgatish, keyin yugurish texnikasi, ko'rikka sakrash, ko'rikdan oyoqlarda depsinish, so'ng qo'llarda itarilishgacha uchish, oxirida qo'llarda itarilishni o'rgatish tavsiya qilinadi. Mana shu harakatlarni o'zlashtirib olingandan keyingina, alohida tayanib sakrashlarni o'rgatish mumkin.

### **Qo'nish**

**Bajarish texnikasi.** Qo'nish sakrashni yakunlaydi va uning sifatini aniqlaydi. Tarang va to'g'ri oyoqlarning uchiga qo'nib, shu zahoti to'liq oyoq panjalariga tushish zarur, engil

oyoqlarni buqilish hisobiga tashqi kuchlar ta'sirini ishlatish. Bu holatda tovonlar birga, oyoq kuchi va tizzalar ochilgan, qo'llar oldinga-tashqariga ko'tarilgan, tana birmuncha oldinga egilgan va bosh to'g'ri turadi.



### *O'rgatish ketma-ketligi.*

1. O'quvchilari uchun berilgan to'g'ri qo'nishga o'rgatuvchi mashqlarni takrorlash.
2. To'g'ri qo'nish holatini egallash va 5 soniya saqlash.
3. Joydan yarim o'tirib oyoq uchida yuqoriga sakrash va tezda to'liq oyoq panjalarida qo'nish holatiga o'tish.
4. Orqaga burilib sakrash.
5. Gimnastik devordan, oyoqlarni turli holatida sakrash (oyoqlarni olib, oyoqlarni bukib).

### **Yugurish**

*Bajarish texnikasi.* Yugurish tezligi va o'zunligi sakrash xarakteriga, asbob balandligi va o'zunligi shug'ullanuvchining jismoniy tayyorgarligiga bog'liq. Odatda yonbosh sakrashlarni (yonbosh, burchak) bajarishga qaraganda, to'g'ri sakrashlarni (oyoqlarni bukib, oyoqlar ochiq) bajarish uchun katta o'zunlik va tezlik talab qilinadi. Majmua dasturida nazarda tutilgan tayanib sakrashlarni bajarish uchun o'quvchilarning yugurish o'zunligi odatda 8-12 m dan oshmaydi, yonbosh sakrashlarni bajarish uchun 5-6 m. Yugurish bir tekisda tezlashib, uning tezkorligi sekin-asta ko'tarilib boradi va dastlabki bir oyoqda depsinishdan avval juda yuqori darajaga etadi.

#### *O'rgatish ketma-ketligi.*



1. O'ng (chap) oyoqqa oldinga tashlanib oyoqlarni almashtirib sakrash, qo'llar erkin pastga tushgan.
2. Gimnastik devorga tosning darajasidagi pog'onasiga oyoq uchida, o'ng oyoqda turib oyoqlarni almashtirib pastga sakrash.
3. Tezlanishli yugurish (qadamlar qulay o'zunlikda).
4. Belgilar bo'yicha to'g'ri yugurish. Belgilar (bo'r bilan chizilgan chiziqlar yoki aylanalar, yon tomonga qo'yilgan gimnastik cho'pi) bir-biridan 100-120 sm masofa o'zoqlikda.
5. Masofa va tezlikni o'zgartirib predmetlar osha yugurish (to'ldirma to'p, gimnastik cho'plari).

### **Ko'prikkka sakrash**

*Bajarish texnikasi.* Yugurish va oyoqlarda depsinishbir butun harakat. Ko'prikkka sakrash ular orasida bog'lovchi qism hisoblanadi. Jami sakrash va oyoqlarda depsinish samaradorligi to'g'ri sakrashga bog'liq. Ko'prikkka sakrash kuchli (depsinuvchi) oyoqlar bilan bajariladi. Sakrashdan oldin tana oldinga (5-250) egiladi, qo'llar oxirigacha orqaga ko'tariladi, siltanuvchi oyoq sondan maksimal darajada oldinga bukiladi. Uchish paytida depsinuvchi oyoq siltanuvchi oyoqqa tortiladi. Ko'prikkka sakrash joyiga etish paytida oyoqlar birlashtiriladi va to'g'rilanib tana harakatini ilgarilab oldinga o'tkaziladi va shu bilan ko'prikkka sakrashni ta'minlaydi. Depsinishda itarilish tayanch maydoni ustidan tana vertikal holatda o'tishidan oldin boshlanadi. To'g'ri oyoqlarda tana bir muncha oldinga egilgan, qo'llar sakrash vaqtida vertikaldan ancha oldinda joylashgan holatda ko'prikkka oyoq uchida sakrab tushiladi.

Ko'prikkdan depsinishda oyoqlar ko'priknинг o'zoq qirrasidan 12-15 sm parallel oyoq panjalarining oldingi qismiga qo'yiladi. Depsinish, ozgina bukilgan oyoqlar keyinchalik yozilishiga oyoqlar ko'prikkdan o'zilish paytigacha yakunlanishiga e'tibor berib bajariladi. Oyoqlarda depsinish samaradorligi ko'p jihatdan qo'l ishiga bog'liqdir. Qo'llar bilan kuchli siltanish va keyinchalik ularni tez to'xtatish hamda bir vaqtida yelkalar bilan

yuqoriga otilish uchish balandligini ko'tarilishiga yordam beradi. Depsinish paytida tana va oyoqlarning holatini, qo'llarning yo'nalishi hamda o'z vaqtida ishlashni tayanchsiz faza traektoriyasi aniqlaydi.



### O'rgatish ketma-ketlik.


1. Tovondan oyoq uchiga baland ko'tarilib yurish.
2. Gimnastik devor pog'onasiga qo'llar bilan tayanib oyoqlarni birlashtirib sakrash.
3. Hamkor bilan bir-birini oyog'idan, tovondan yuqoriroq tayanib, oyoqlarni oldinga cho'zib joyda bir oyoqda sakrash.
4. Joyda turib, siltanish paytida to'g'ri oyoqlar uchiga ko'tarilib qo'llar bilan siltanishni aks ettirish.
5. O'rindiqqa ko`ndalang oyoqlarni ochib turib, to'g'ri oyoqlarda qo'llar bilan siltanib o'rindiq ustiga sakrash.
6. 2-3 qadamdan bir oyoqda depsinib ikki oyoqqa qo'nish.
7. Bir qadamdan ikki oyoqda depsinib, qo'llarni kuchli harakatlantirib yuqoriga sakrash.
8. 2-3 qadamdan yugurib bir oyoqda siltanib ikkinchisida depsinib ikki oyoqda yuqoriga sakrash.

### Qo'lda itarilish

*Bajarish texnikasi.* Qo'llar qirrasiz burchak ostida asbob ustiga tanadan oldin qo'yildi. Shunga muvofiq depsinishdan keyingi uchish balandligini ko'tarish uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Qo'l panjalari itarilish joyiga parallel qo'yildi. Itarilish qo'lning panja bo'g'imi buqiliishi va yelka, tirsak bo'g'imlarining yozilishi hisobiga, tana harakatiga qarshi bajariladi. Itarilish, qisqa va kuchli bo'lib yelkalar tayanch maydoni kesib o'tib, qo'llar tayanchdan bir vaqtida o'zilgan paytida yakunlanadi.

### O'rgatish ketma-ketligi.

1. Oyoqlar gimnastika o'rindig'ida, tayanib yotib tez qo'llarni bukish va yozish.
2. Devordan 1 m masofada turib, devorga to'g'ri tana bilan yiqilib, tez qo'llar bilan itarilish va D.H. qaytish. Itarilishi butun kaftidan boshlanib barmoqlar uchida tugatiladi.



3. Tayanib yotib (tana kerilgan) ikki qo`lda orada qarsak chalib itarilish. Tanani to`g`rilash va belni ko`tarish hisobiga qo`llarda itarilish.

4. Polda tayanib yotib, qo`llar gimnastik cho`pning oldida, qo`llarda itarilib cho`pdan o`tib tayanib yotish va D.H. qaytish.

5. Tayanib yotib bir vaqtning o`zida qo`llar va oyoqlar bilan itarilish.

Qo`llarda itarilishigacha uchish, yugurish va ko`priordan depsinish samaradorligiga bog`liq. Bu fazada tos-son bo`g`imlarini yozilish hisobiga dastlabki oyoqlarni orqaga siltanishni bajariladi va qo`llarda itarilish paytda tanani keskin buqilishi uchun sharoit yaratiladi. Qo`llarda itarilishdan keyingi uchish sakrash turini aniqlaydi: oyoqlarni bukib, oyoqlarni ochib.

### **Halqada va tayanib sakrashda bajariladigan mashqlarni o`rgatish.**

**Darsni maqsadi:** talabalarga halqada: kuch bilan chiqish, tebranish mashqlari va tayanib sakrashda oyoqlarni bukib, kerib sakrashni o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari


1. Kuch bilan tayanishga ko`tarilish, kerishib osilib aylanib sakrab tushish.

2. O`zunasiga qo`yilgan otdan oyoqlarni bukib sakrab o`tish; oyoqlarni kerib sakrab o`tish; o`zunasiga qo`yilgan ot ustidan bir oyoqda depsinib burchak hosil qilib sakrash.

3.O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

### **O`rgatishini 1-bosqichi**

O`rgatishni 80-100 sm balandlikdagi xari, ot, matlar uyumiga sakrab chiqib tizzalarga tayanib turishini va oldinga qo`llar bilan siltanib sakrab tushishni o`zlashtirishlari lozim. Bu mashq sakrab chiqib tayanib o`tirish va oldinga kerilib sakrab tushishni o`rganishi uchun yordamchi mashqlar hisoblanadi.



### **O`rgatish ketma-ketligi.**

1. Matga tizzalarda tayanib turishdan, qo`llarda siltanib va oyoqlarda depsinib tayanib o`tirish.

2. Mat bilan yopilgan gimnastik o`rindig`iga tizzalarda tayanib o`tirishdan qo`llarda siltanib va oyoqlarda depsinib sakrab tayanib o`tirish.

3. Mat bilan yopilgan gimnastik o`rindig`iga qo`llarni qo`yib, oyoqlar polda tayanib yotishdan sakrab chiqib tizzalarga tayanib turish va qo`llarda siltanib, oyoqlarda depsinib sakrab tushish.

4. Ko`ndalang ot, xari yoki matlar uyumi oldidagi ko`prikka tayanib turishdan joyda 2-3 ta sakrash va sakrab chiqib tizzalarga tayanib turish. Qo`llarda siltanib va oyoqlarda depsinib yordam bilan sakrab tushish.

5. Qisqa masofadan yugurib, ko`ndalang ot yoki xariga sakrab chiqib tizzalarga tayanib turish va qo`llar bilan siltanib oldinga sakrab tushish.

**Xatolar.**


1. Yetarli kuchga ega bo`lman qo`llarda siltanish.

2. Oyoqlarda depsinish Yetarli bo`lmasa.

*Extiyotlash va yordam.* Oldinda – yon boshda turib, birinchi qismda bir qo`lda yelka ostidan, ikkinchisi bilan qorindan ushlab, sakrab tushishda bir qo`l bilan tirsakdan yuqori, boshqasida beldan ushlab, qo`llar bilan siltanishga imkon yaratib yordam beriladi.

**O`rgatishini 1-bosqichi**

O`rgatishni 80-100 sm balandlikdagi xari, ot, matlar uyumiga sakrab chiqib tizzalarga tayanib turishini va oldinga qo`llar bilan siltanib sakrab tushishni o`zlashtirishlari lozim. Bu mashq sakrab chiqib tayanib o`tirish va oldinga kerilib sakrab tushishni o`rganishi uchun yordamchi mashqlar hisoblanadi.



**O`rgatish ketma-ketligi.**

1. Matga tizzalarda tayanib turishdan, qo`llarda siltanib va oyoqlarda depsinib tayanib o`tirish.

2. Mat bilan yopilgan gimnastik o`rindig`iga tizzalarda tayanib o`tirishdan qo`llarda siltanib va oyoqlarda depsinib sakrab tayanib o`tirish.

3. Mat bilan yopilgan gimnastik o`rindig`iga qo`llarni qo`yib, oyoqlar polda tayanib yotishdan sakrab chiqib tizzalarga tayanib turish va qo`llarda siltanib, oyoqlarda depsinib sakrab tushish.

4. Ko`ndalang ot, xari yoki matlar uyumi oldidagi ko`prikka tayanib turishdan joyda 2-3 ta sakrash va sakrab chiqib tizzalarga tayanib turish. Qo`llarda siltanib va oyoqlarda depsinib yordam bilan sakrab tushish.


5. Qisqa masofadan yugurib, ko`ndalang ot yoki xariga sakrab chiqib tizzalarga tayanib turish va qo`llar bilan siltanib oldinga sakrab tushish.

**Xatolar.**

1. Yetarli kuchga ega bo`lman qo`llarda siltanish.

2. Oyoqlarda depsinish Yetarli bo`lmasa.

*Extiyotlash va yordam.* Oldinda – yon boshda turib, birinchi qismda bir qo`lda yelka ostidan, ikkinchisi bilan qorindan ushlab, sakrab tushishda bir qo`l bilan tirsakdan yuqori, boshqasida beldan ushlab, qo`llar bilan siltanishga imkon yaratib yordam beriladi.



## **Halqada va tayanib sakrashda bajariladigan mashqlarni o`rgatish.**

**Darsni maqsadi:** talabalarga halqada: kuch bilan chiqish, tebranish mashqlari va tayanib sakrashda oyoqlarni bukib, kerib sakrashni o`rgatish.


**Kerakli anjom va uskulalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari

1. Kuch bilan chiqib burchak ushslash, orqaga bukilib osilish mashqlarini o`rgatish.
2. Otga tayanib tizzalarga sakrab chiqish va qo`llarni siltab oldinga sakrab tushish, shuning o`zi oyoqlarni kerib; tayanib cho`qqayish holatiga sakrab chiqib kerishib tushish, shuning o`zi oyoqlarni kerib; shuning o`zi burilib tushish; oyoqlarni kerib otdan sakrab tushish.
3. O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

### **O`rgatishini 2-bosqichi**

O`quvchilar oyoqlarni bukib tayanib sakrashlarni o`rganish uchun yordamchi mashqlaridan biri hisoblanadi, 80-100 sm balandlikdagi ko`ndalang xariga sakrab chiqib tayanib o`tirish va kerilib sakrab tushishni o`zlashtiradilar.

*Bajarish texnikasi.* Qisqa masofadan yugurish va ko`priordan depsinishdan so`ng qo`llarni oldinga cho`zib, yelkalarni oldinga chiqarib ularni xari ustiga qo`yiladi. Belni ko`tarib tos-son va tizza bo`g`imlaridan oyoqlarni bukib, ularni ko`krakka tortib xariga qo`yiladi. Muhimi, o`quvchilar tayanib o`tirish holatida ushlanib qolmasliklari kerak. To`g`ri qo`llar yuqoriga ko`tarilib yelka darajasigacha etganda, oyoqlarni xariga qo`yib, tana buqilishi paytida qo`llarda itarilishni boshlash lozim. O`quvchi shu harakatlarni davom ettirib to`g`rulanadi va oyoqlarda depsinadi.



### **O`rgatish ketma-ketligi.**

1. Polga tayanib yotishdan oyoqlarda depsinib tayanib o`tirish va yuqoriga kerilib sakrash.
2. Mat bilan yopilgan o`rindiqqa tayanib yotishdan, oyoqlar polda, oyoqlarda depsinib tayanib o`tirish va kerilib sakrab tushish.
3. Qisqa masofadan yugurib xariga yoki ko`ndalang otga sakrab chiqib tizzalarga tayanib o`tirib, tayanib o`tirish va kerilib sakrab tushish.

4. Ko`ndalang ot yoki xarining oldidagi ko`prikka tayanib turishdan, joyda 2-3 ta sakrab, belni baland ko`tarib, sakrab chiqib tayanib o`tirish va yordam bilan kerilib sakrab tushish.

5. Qisqa masofada yugurib sakrab chiqib tayanib o`tirish va yordam bilan va mustaqil kerilib sakrab tushish.

#### *Xatolar.*

1. Sakrab chiqishning birinchi yarmida bel Yetarli darajada faol ko`tarilmasligi.

2. Tayanib o`tirish paytida ushlanib qolish.

3. Uchish paytida tos-son bo`g`imlari yoki tizzadan orqaga bukilgan oyoqlar to`liq yoyilmasa.

*Straxovka va yordam.* Asbob oldida yon tomondan turib tayanib o`tirishga o`tish paytida bir qo`l bilan yelka orqasidan, ikkinchisi bilan qorindan, qo`nish paytida esa beldan va qo`ldan ushlab yordam beriladi.

## **Akrobatika mashqlari o`rgatish**

**Darsni maqsadi:** g`ujanak holatlarini, umbaloq oshish mashqlarini o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari.

1. G`ujanak o`tirgan holatdan, yotgan holatdan; g`ujanak holatida ag`anashlar, cho`qqayib tayanib o`tirgan holatdan tayanish holatidan kuraklarda tik turish, shuning o`zi bosh ustidan oyoqlar uchini polga tekkazib, yonga aganab tayanib o`tirish, tizzalarda tik turgan holatdan oldinga ag`anash (qo`llarga tayanib), shuning o`zi tayanmay, oyoqlarni kerib o`tirgan holatdan aylanma ag`anash.


2. Umbaloq oshishlar - oldinga, orqaga, oldinga tayanib o`tirgan holatdan, oyoqlarni kerib turgan holatdan; qadam bosib o`zun umboloq oshish, bir nechta umboloq oshishlarni ketma-ket bajarish, orqaga umboloq oshish.

3. Tayanishlar: cho`qqayib tayanib o`tirish, sonlarga yotib, orqaga tayanib yotish, yon bilan, tizzalarga tayanib bajariladigan mashqlarni o`rgatish.

4. O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

## **G`ujanak holatida orqaga o`mbaloq oshish**

*Bajarish texnikasi.* Tayanib o`tirishdan, qo`llar bir muncha oldinda, tana og`irligini qo`llarga o`tkazib qo`llar bilan itarilib tez orqaga dumalash, aylanish vaqtini g`ujanak holati zichligi hisobiga ko`paytiriladi: kuraklar tayanchga tekkan vaqtida kaftni yelka orqasiga qo`yiladi va ularga tayanib bosh orqali aylanib (oyoqlarni bukmasdan) tayanib o`tirishga o`tish.



*O`rgatish ketma-ketligi.*

1. Oldinga o`mbaloq oshish.
2. Tayanib o`tirishdan, g`ujanak holatida orqaga dumalash, qo`llar bosh orqasiga tayangan.
3. Tayanib o`tirishdan, g`ujanak holatida orqaga dumalab tayanib o`tirish.

*Xatolar.*

1. Qo`llar aniq joylashmaganligi (mushtda, kaftning orqa tomonida, tirsak va kaftlarni parallel qo`yilmaganda).
2. Qo`llarni qo`yish vaqtida oyoqlarni yozish va boshdan aylanish.
3. Zich bo`lмаган g`ujanak holati.
4. Boshdan aylanish vaqtida tayanch yo`qligi va qo`llarni bukib-yozish.
5. Sekin aylanish.


*Ehtiyyotlash va yordam.* Yonboshda turib, bir qo`lda yelkadan, ikkinchisida zaruriyat bo`lganda beldan turtib yuborish.

**Orqaga o`mbaloq oshish va orqaga dumalab kuraklarda turish**

Bu bog`lmilgari o`rganilgan elementlardan iborat. SHuning uchun ularni alohida takrorlab, keyin bog`lash mumkin. Bajarish texnikasiga talab, straxovka va yordam o`sha-o`sha.

*Takomillashtirish va nazorat darsi uchun majmua*

Tayanib cho`qqayish xolatidan orqaga o`mbaloq oshish va orqaga dumalab kuraklarda turish – oldinga dumalab yotish va “ko`prik” – chalqancha yotish holatiga tushib – o`tirish, qo`llar yonga – chapga tayanib burilib, tayanib cho`qqayish – yuqoriga kerilib sakrash va A.T.



27

### *Takomillashtirish va nazorat darsi uchun majmua.*

1. Oldinga o`mbaloq oshib, o`ng oyoq, chap oyoq oldidan chalishtirib, orqaga burilib tayanib cho`qqayish – 2,5 b.
2. Orqaga o`mbaloq oshish – 3,0 b.
3. Orqaga dumalab kuraklarda turish – 3,0 b.
4. Oldinga dumalab tayanib cho`qqayish va A.T. – 1,5 b.

### **Akrobatika mashqlari o`rgatish**

**Darsni maqsadi:** g`ujanak holatlarini, umbaloq oshish mashqlarini o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari.

1. G`ujanak o`tirgan holatdan, yotgan holatdan; g`ujanak holatida ag`anashlar, cho`qqayib tayanib o`tirgan holatdan tayanish holatidan kuraklarda tik turish, shuning o`zi bosh ustidan oyoqlar uchini polga tekkazib, yonga aganab tayanib o`tirish, tizzalarda tik turgan holatdan oldinga ag`anash (qo'llarga tayanib), shuning o`zi tayanmay, oyoqlarni kerib o`tirgan holatdan aylanma ag`anash.
2. Umbaloq oshishlar - oldinga, orqaga, oldinga tayanib o`tirgan holatdan, oyoqlarni kerib turgan holatdan; qadam bosib o'zun umboloq oshish, bir nechta umboloq oshishlarni ketma-ket bajarish, orqaga umboloq oshish.
3. Tayanishlar: cho`qqayib tayanib o`tirish, sonlarga yotib, orqaga tayanib yotish, yon bilan, tizzalarga tayanib bajariladigan mashqlarni o`rgatish.
4. O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

### **G`ujanak holatida orqaga o`mbaloq oshish**

**Bajarish texnikasi.** Tayanib o`tirishdan, qo'llar bir munkcha oldinda, tana og`irligini qo'llarga o`tkazib qo'llar bilan itarilib tez orqaga dumalash, aylanish vaqtini g`ujanak holati zichligi hisobiga ko`paytiriladi: kuraklar tayanchga tekkan vaqtda kaftni yelka orqasiga qo'yildi va ularga tayanib bosh orqali aylanib (oyoqlarni bukmasdan) tayanib o`tirishga o'tish.

<sup>27</sup> GIMNASTICS-LEVEL 4: Skills and Drills for Coach and Gymnast. 2013. Rita Brown and Rik Feeney. RJC Publishing Altamonte Springs, Florida Page 107



tayangan.

3. Tayanib o`tirishdan, g`ujanak holatida orqaga dumalab tayanib o`tirish.

#### *Xatolar.*

1. Qo`llar aniq joylashmaganligi (mushtda, kaftning orqa tomonida, tirsak va kaftlarni parallel qo`yilmaganda).
2. Qo`llarni qo`yish vaqtida oyoqlarni yozish va boshdan aylanish.
3. Zich bo`lмаган g`ujanak holati.
4. Boshdan aylanish vaqtida tayanch yo`qligi va qo`llarni bukib-yozish.
5. Sekin aylanish.


*Ehtiyyotlash va yordam.* Yonboshda turib, bir qo`lda yelkadan, ikkinchisida zaruriyat bo`lganda beldan turtib yuborish.

#### **Orqaga o`mbaloq oshish va orqaga dumalab kuraklarda turish**

Bu bog`lm ilgari o`rganilgan elementlardan iborat. SHuning uchun ularni alohida takrorlab, keyin bog`lash mumkin. Bajarish texnikasiga talab, straxovka va yordam o`sha-o`sha.

#### *Takomillashtirish va nazorat darsi uchun majmua*

Tayanib cho`qqayish xolatidan orqaga o`mbaloq oshish va orqaga dumalab kuraklarda turish – oldinga dumalab yotish va “ko`prik” – chalqancha yotish holatiga tushib – o`tirish, qo`llar yonga – chapga tayanib burilib, tayanib cho`qqayish – yuqoriga kerilib sakrash va A.T.



28

*Takomillashtirish va nazorat darsi uchun majmua.*

1. Oldinga o`mbaloq oshib, o`ng oyoq, chap oyoq oldidan chalishtirib, orqaga burilib tayanib cho`qqayish – 2,5 b.
2. Orqaga o`mbaloq oshish – 3,0 b.
3. Orqaga dumalab kuraklarda turish – 3,0 b.
4. Oldinga dumalab tayanib cho`qqayish va A.T. – 1,5 b.

---

<sup>28</sup> GIMNASTICS-LEVEL 4: Skills and Drills for Coach and Gymnast. 2013. Rita Brown and Rik Feeney. RJC Publishing Altamonte Springs, Florida Page 107

## 4-MODUL. UMUMRIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR

### Buyumlar bilan mashqlar

Umum takomlillashgan mashqlarni yaxshi o'zlashtirish uchun buyumlar bilan bog'liq mashqlarni tezkorlikda bajarish talab etiladi. Bu bolalarda mashgi'ulotga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, ulardagi chidamlilik, epchillik, tezkorlik, dadillik, sabru bardoshlilik qobiliyatlarining shakllanishida juda katta ta'sir o'tkazadi. Jarayonda buyumlar bilan faol xarakatlar qilish vaznni, formani bir maromda saqlashga ko'maklashadi. Buyumlar bilan xarakatlanish aniq xarakatlar bajarishni talab etadi, qaysiki turli sezgi va ishtiyoq asosida bo'lsin.

Harakatlarning shamoyilu dinamikasini kuzatish orqali idrok etiladi, munosabatlarga oid qarashlarni jonlatiriladi. Buyumlarni xuddi tomoshabinlar nigoxi qarshisida bajarayotgandek mas'uiyat bilan xarakatlantirish orqali gavdaning xarakatlari koordinatsiyasi ajoyib darajaga ko'tariladi.

Eshitish qobiliyati esa belgilangan ritm va tempga tushishda asqotadi. Aksariyat buyumlar (masalan, sakramachoq, koptok) o'zlashtirishni muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi.

Muskullar sezgisi gavda qismlarining xolatidan, muskullarning shijoatidan belgi beradi, murakkab jarayonlarda boshqa muskullar guruxiga xam murojaat qilinadi.

Xox u bilan, xox bu bilan bo'lsin, mashqlarning deyarli xammasi qo'llarning barmoqlari yordamida amalga oshiriladi, uni analizator tizim faollashtiradi, barmoqlar xarakati koordinatsiyasini ta'minlaydi, bular bolalarning o'quv faoliyatida juda xam muximdir.

Buyumlar bilan mashqlar bajarayotgan vaqtida, mashqlar orqali toblanayotganda: bolalar bolalarni intizomlilikka o'rgatish kerak, ular bilan extiyotkorona munosabatda bo'lishga, buyumlarni olgach, joy-joyiga qo'yishga, murabbiya ko'maklashishga odatlantirish lozim.

Har bir buyum bo'yicha berilgan vazifa jismoniy jixatdan kamolotga etishishda o'z ta'sirini ko'rsatishi kerak — xarakatlarda mayinlik va shiddat, aniqlik va kuch sezilib turishi zarur va xokazolar.<sup>29</sup>

To'p bilan mashqlar, chaqqonlikni rivojlantirishga, reaksiya tezligini oshirishga hamda harakatlarni engil va yumshoq bajarishni shakllantirishga yordam beradi. To'p bilan mashq bajarilayotgan vaqtada tana muskullariga yaxshigina og'irlik tushadi, oyoq, qo'l, kaftlar, shuningdek, balalar turli ko'rinishdagi xarakatlarni, tezlik bilan xarakatni boshqasiga o'zgartirishni faol tarzda amalga oshiradi. To'p bilan mashq olib borilayotgan vaqtida qad qomatni ravon tutishga e'tibor qaratish kerak, to'pning gavda va boshga ko'chishini boshqarish kerak, xarakatchanlik ko'lamini asta-sekin oshirib borish lozim. To'p bilan mashq bajarishni o'rganishda quyidagilarni puxta egallashi talab etiladi: to'pni ushlab olish, uzatish, tashlanish, tutish, koptokni urish, yumalatish va aylantirish mashqlari.


5-8 yoshdagи bolalarni dastlabki tayyorlash davrida diametri 8-12 sm bo'lgan rezina to'plar ishlatalidi.

To'pni ushslash yoki ushlab turish. To'pni erkin holatda kaftga qo'yiladi, barmoqlar ochiladi va to'pni shakli bo'yicha hiyol bukiladi, biroq to'pni siqish kerak emas. Elka oldiga to'p tegishi kerak.

Ushlashlar bo'ladi: asosiy (**1-a rasm**), ikkala qo'l bilan (**1-b rasm**), kaftning orqa tomoni bilan banlansirovka, bilaklar orasida, qo'llarni chalishitirib.

<sup>29</sup>

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.



1-rasm. To'pni ushslash yoki ushlab turish

To'pni ushlab turish, alohida tanaa'zolari bilan ham amalga oshirilishi mumkin.


Siltash mashqlari barcha tekisliklarda bajarilishi mumkin. Odatda yoqqlarni prujinasimon harakatlari bilan birgalikda bajariladi. Siltash mashqlari to'pni otganda, to'pni ushlab olganda, predmetsiz mashqlarni bajarishdagi ba'zi bir elementlari bilan birgalikda bajariladi (qadamlarda, yugurishda, muvozanat saqlashda).

Siltash vaqtida to'pni to'g'ri ushslashga mashqning boshlang'ich va tugallanish fazasidagi mushaklarni zo'riqtirmay bajaradigan harakatlarni bajarishgaahamiyat berish kerak.

Aylanma harakatlarga o'rgatish katta va o'rtaaylanma harakatlarni o'rgatishdan boshlanadi. Ular turli yo'nalishdayurgan holda, yugurgan holda, egilgan holda, muvozanatni ushlab turgentur holda bajariladi.

Chap tizzada tik turib, chap qo'l bilagiga tayanib, o'ng qo'l dagi to'p bilan oldinga-chapga harakatlantiriladi. Katta gorizontal aylanma harakatni o'ngga-orqaga-yuqoriga, qo'llar hiyol bukilgan holda bajariladi (bajarish vaqtida to'pni to'g'ri ushlab olishgaahamiyat berish kerak, to'pni siqish kerak emas, aylanma harakat aniq gorizontal bo'lishi zarur vaamplitudasi bo'yicha maksimal bo'lishi kerak). Tayyorlov mashqlari sifatida predmetsiz aylanma harakatlardan foydalanish mumkin.

To'pni uzatish asosiy bog'lovchi element bo'lib, u xoh chap, xoh o'ng qo'l bilan o'ziga ishongan holda bajarishni talab etadi. To'pni uzatish kaftdan-kaftga o'tkazish orqali bajarilib, turli ushslashlardan, ya'ni tananing turli a'zolari yordamida dumalatish yo'li bilan otish, ushlab olish va qaytaotishlar bilan amalgaoshiriladi.



To'pni uzatish va urish turlari

Turgan holda qo'llar yonda, to'p o'ng qo'lida, o'ng qo'l bilan chap tomonga (siltash mashqi) bajariladi, to'pni chap qo'l bo'ylab dumalatib, yana chap qo'l bilan ushlab olish.

Uslubiy tavsiyalar: to'pni uzatish harakat mutanosibligini buzmasligi lozim.

To'pni urish – bu mashq bu predmet uchun o'ziga xos bo'lib kelgan. Ular ayniqsa musiqa jo'rligida bajarilganda ayniqsa samara beradi. To'pni to'g'ri urish texnikasi **2-3-rasmlarda** ko'rsatilgan. Prujinasimon harakatlar kaft bilan bajarilib, to'p erga uriladi.

Urishlar bir yoki ikki qo'l bilan, bir yoki bir necha marta vertikal yoki burchak UOMida bajariladi (**4-5-rasmlar**). Urishlar tananing turli a'zolari bilan bajarilishi mumkin.


To'pni urish vaqtida butun tana prujinasimon harakat bajarishi kerak. Bilak, iloji boricha to'pni uzoqroq ushlab qolishi kerak, bu bilan uning harakatini aniq bajarishni ta'minlaydi. Birinchi mashg'ulotlarda to'pni turli ritmlarda urishni egallash tavsiya etiladi (qattiq va sekin, tez va sekinoq va h.k.), to'pni zo'riqishsiz kaftda ushlab olish kerak.

**Otish va ushlab olish** – bu mashqlar bir yoki ikki qo'l bilan vertikal yoki parabola bo'yicha turli yo'nalishlarda bajariladi. Otish mashqi oyoq va gavdaning prujinasimon harakatlari yordamida bajariladi. Otishning aniqligi va amplitudasi kaftlarni siltash harakatining oxirgi fazasidagi keskin harakatlari orqali amalga oshiriladi. To'pni ushlab olish vaqtida to'p avval cho'zilgan qo'llar uchiga tegib, kaftlar orqali dumalab, keyingi harakatga ulanib ketadi.

Dastlabki vaqtandoq aniq otishlarni musiqa jo'rligida bajarishga erishish zarur. Bunda otish vaqtidagi barmoqlarning oxirgi harakatiga otish yo'nalishiga qarab qo'llarni tutishga, qo'llarni bir tekis pastga tushirishga ahamiyat berish zarur. To'pni ilish vaqtida to'p avval barmoq uchiga tegishi kerak. SHunda to'pni olish aniq va tovushsiz sodir bo'ladi (**6-rasm**). To'pni dumalatish pol ustida ayrim a'zolarda bajariladi (**7-rasm**).

To'p qo'l uchining engil harakati bilan dumalatiladi. To'p barmoq uchi bilan ilib olinadi.

Dumalatish vaqtida diqqatni asosan bir tekis dumalatishga qaratish zarur.



a                    b                    c  
6-rasm. To'pni aniq dumalatish va otish



7-rasm. To'pni aniq ilib olish

**Arqon bilan mashqlar**, bu mashqlar dinamikani, intensivlikni rivojlantirishga yordam beradi. Mashqlarning intensivligi tufayli ularni bajarishda (ayniqsa, yosh bolalarda) me'yorni to'g'ri belgilash lozim.


Ushbu sport jixozida utiladigan mashqlar jismoniy tayyorgarlik kurishda muhum ahamiyatga ega: chaqqonlik, chidamlilik, tezkorlikda. Ular koordinatsiyaviy va rejimli xarakatlar bajarishda samarali hisoblanadi. Umumkomillashgan arqon mashqlari bilan shug'ullanish tana a'zolarining tetikligini, chidamlilikni ta'minlaydi. Arqon bilan shug'ullanishning uziga xos jixati shundaki, u oyoq panjalari va tuxtashni shakllantiradi. SHuning uchun xam arqondan faqatgina badiiy gimnastikada emas, boshqa sport turlarida xam tez-tez foydalaniladi. Arqonlar (sakralmachoq) ruchkali, arqonli yoki kapronli bulishi mumkin. Arqon bilan mashq qilayotganda mustaqil ravishda sport formasini saqlashga xarakat qilish kerak, aylantirish va chalishtirib aylantirishda. Arqon bilan turli mashq bajarayotganda, gavadani to'g'ri tutish muxim, shunda barmoqlarga ortiqcha yuk tushmaydi, bu tezlikni oshirishda xam qulay.

Oldindan tayyorlash bosqichida, dastaksiz arqonlar ishlatiladi. Uning uzunligi shug'illanuvchining bo'yidan kelib chiqishi zarur. Buning uchun qiz bola arqonni ustiga turib oyoqlarini hiyol ochib, arqon uchini qo'ltilqlariga tortib ko'rishi kerak. Agar to'g'ri kelsa,

arqon to'g'ri tanlangan bo'ladi. Agar u me'yordan uzun yoki kalta bulsa, bu bolaning shakllanishiga biroz salbiy ta'sir o'tkazadi

Arqonni uchta barmoq bilan oldinda ushslash kerak. Ikki uchinining o'rtasini yoki bir uchini va o'rtasini olish kerak. Arqonni qo'lga yig'ib olish mumkin.

**Chayqalish yoki siltashlar** turli tekislikda va yo'nalishda bir yoki ikki qo'l bilan bajariladi.




8-rasm

**Namunaviy mashlar.** Ikki qator turib olinadi: birinchi qatordagi qizlar arqonni olib, tebrantiradi, ikkinchi qatordagilar undan sakraydi (**8-rasm**), turgan holda, arqon orqada, arqonni oldinga-orqaga, undan  $45^{\circ}$  ga burilib sakrash kerak, turgan holdan arqon oldinda, orqaga siltab, oldinga- orqaga qadam tashlanadi.

Siltashlarni avval bir qo'lda bajarishni o'rganib, keyin baravar ikkala qo'lda bajarishga o'rganiladi: aylanma harakat ochilgan yoki taxlangan arqonda qadamlar, sakrashlar va boshqa harakatlar bilan bajariladi. Katta aylanma harakatlardan o'rta va kichik aylanma harakatlarga o'ng qo'lda o'tiladi.

**Namunaviy mashqlar.** Turgan holda, arqon ikkiga taxlanadi, oldi tomonidan 4 marta aylanma harakat o'ng tomonga va chap tomonga qarab bajariladi (**9-rasm**). Turgan holda arqon ikkala qo'lda  $360^{\circ}$  ga bir necha aylanma harakatlar bajariladi (**10-rasm**). Turgan holda arqon ikkiga buklangan bo'lib, o'ng qo'lda arqon bilan pastda katta aylanalar qilib, arqondan sakrash mashqi bajariladi (**11-rasm**).



9-rasm

Turgan holda arqon ikkiga buklangan o'ng qo'lda, pastda va tepada gorizontal aylanalar bajariladi (**12-rasm**). Turgan holda arqon ikkiga buklangan o'ng qo'lda tepada gorizontal katta aylana, pastda gorizontal aylana qilib undan sakrab o'tiladi.



10-rasm



11-rasm



a



b

12-rasm

**Sakkizlik** – aylanma harakat turi. Harakat bilaklar yordamida barcha tekisliklarda bajariladi.

**Arqondan sakrash mashqi** – bu predmet uchun oddiy bo'lib, yaxshi koordinatsiyani talab etadi. U mashq yuqori intensivlikka ega. Uni me'yorini belgilashda ehtiyyot bo'lish kerak. U arqonni oldinga, orqaga aylantirish orqali bajariladi.



a



b



c



d

13-rasm. Arqon aylanishi bilan galop qadamini yonga bajarish

**Arqon aylanishi bilan galop qadamini yonga bajarish (13-rasm).** Turgan holda qo'llar yondaarqon oldinda, arqonni yuqoriga-orqaga kuch bilan aylantirish. Prujinasimon yarim cho'qqayib o'tirishdan ikkalaoyoqda sakrash, bundaoyoq uchi cho'zilib gavda to'g'ri nigohlar oldinda bo'lishi zarur.

Uslubiy tavsiyalar: tayyorlov mashqlarini bajarganda sakrashdan oldin arqon pastda bo'lishi zarur. Birinchi sinovlardagina arqon polga tegishi kerak. Keyinchalik arqonni tekkizishga yo'l qo'yilmaydi. Dastlabki davrda sakrashga o'rgatish ikki oyoqda davriy sakrash orqali amalgaoshiriladi. Ancha murakkabroq mashqlarga (orqaga aylantirish, ikkilanma sarkash, oyoqni chalishtirib sakrash va h.k.) arqonni bir marta aylantirgandagi sakrashlar to'g'ri bajargandagina o'tiladi (ya'ni katta amplituda bilan, bilakdan harakat boshlanganda to'g'ri qomat va cho'zilgan oyoq uchlarida).

**Otish va ilish** – bu murakkab mashqlar bo'lib, yaxshi reaksiyani, tezlikni, fazoviy yo'nalishni to'g'ri tushunishni talab qiladi. Barmoqlar asta-sekinlik bilan predmetni chiqarar ekan, ungaxohlagan yo'nalishni beraoladi va bundaarqon traektoriyasi buzilmaydi. Ushlab olish ham barmoqlar bilan engil bajarilib, arqonning harakat rasmini buzmaydi va keyingi harakatga qo'shiladi.

Otish mashqlari, arqonni yig'ilgan holda, yoki yozilgan holda amalgaoshiriladi, bunda mashq bir yoki ikki qo'lda turli yo'nalishda bajariladi.

Arqonni ularash vaechish – bu predmet uchun o'zigaxos mashq bo'lib, turli xil bo'ladi. Arqonni odatda alohida tanaa'zolariga o'raydilar. Bunda arqon taxlangan yoki to'la yozilgan bir uchi erkin bo'lishi mumkin.

Arqonni tanaga o'rash mashqini bajarganda uning chizig'ini buzadigan keskin harakatlar bilan amalgaoshirilmasligi kerak. Bunda tempga, ritmikaga, musiqa bilan jo'rligigaahamiyat berish kerak.

Arqonni uzatish turli yo'naliishda va tekisliklarda, siltash vaaylanish vaqtida bajariladi. Arqon bir qo'ldan boshqa qo'lga yoki qandaydir tanaa'zosi oldida bajariladi.

"Melnitsa" tegirmon – bu o'zigaxos arqon bilan bajariladigan dinamik, original harakat. Bu o'tadan olingen arqon bilan bajariladigan aylanalar. Oyoqlar bilan prujinasimon harakatlar bajarilganidan so'ng arqonning ikki uchi bilan ketma-ket aylanalar yasaladi.

**Xalqa bilan mashqlar.** Xalqada qilinadigan mashqlar — bu qiziqarli predmetlardan biri, badiiy gimnastikada foydalaniladi. Bu ajoyib vosita koordinatsiya saqlashda, tezlikda, xarakat reaksiya, aniqlik, yaxshi muljal olishda asqotadi. Xalqada mashg'ulot utkazish barcha katta panjalar guruxiga jismoniy og'irlik tushiradi, quldagi kuchni oshiradi, barmoqlar va kaftdag'i kuchni oshiradi, bu to'g'ri qad rostlashni shakkantirishda xam yordam beradi. Bolalarni shug'ullantiriayotganda, xalqa turli xajmdagi plasmassaligi yoki yog'ochdan yasalganidan foydalanish kerak. Xalqa (aylana) yog'ochdan yoki plastmassadan, 80-90 sm diametri bo'lishi mumkin. Oldindan tayyorlash bosqichida kichik diametrli xalqalardan foydalanish kerak. Xalqa bilan bog'liq barcha mashqlar bir yoki ikki qulda, turli xildagi og'ishda, qul va oyoqda bajarilishi mumkin. Xalqa erga nisbatan yassitekislik xosil qilish, vertikal, gorizontal va diagonal kurinishda bulishi mumkin. Xalqa tana bilan aloqasini yuz qismida, yonaki va oraliq tekislikda kurish mumkin.

Bolalarga xalqada mashq utishni boshlash uni tutish va turli uslublarda uzgartirish mumkinligini kursatish orqali buladi.

Xalqa bilan turli xarakterdag'i mashqlarni bajarish mumkin: plavniy, dinamik, xafvli, ayniqsa tana harakati va musiqa jo'rligidagi sinxron harakatlar yaxshi samara beradi. Xalqa erga nisbatan vertikal holatda gorizontal yoki diagonal holatda bo'lishi mumkin.

Quyidagi ushplashlardan foydalaniladi: bir yoki ikki qo'l bilan tepadan yoki pastdan, aralash, kesishgan hamda tashqaridan hamda ichkaridan bo'lishi mumkin. Siltash harakatlari turli yo'naliishda va tekislikda bir yoki ikki qo'llar bilan bajariladi. Xalqa go'yo qo'Ining davomi kabi bo'lib, osilib turmasligi kerak. Siltashlar odatda mashqlarni bir-biriga ulaydigan element sifatida ishlatiladi. Xilma-xillik va predmet bilan bajariladigan harakatlarni bir-biriga qo'shilib ketishini ta'minlaydi.

**Aylana turlari** – bu xalqani qo'l bilan tekislikdaaylantirishga qarab bo'linadi. Burilishga taxminiy mashqlar. Turgan holdaxalqa oldinda, qo'llar yonda, yuqoridan ushlab olingen. Turgan holdaxalqa yonda, vertikal holatdayuqoridan ushlab olinadi. Oyoq uchiga turib, xalqani burish bilan orqaga egilish kerak. O'ng oyoqda tizzalab turib, chap oyoq oldinda, xalqani burish bilan orqaga chuqur egilish kerak. O'ng tovonda o'tirgan holda, chap oyoq oldinda, hiyol bukilgan. Egilish bajarilib, xalqa aylantiriladi. Turgan holdaxalqa bo'ksa darajasida vertikal holatdayuqoridan ichidan ushlash. Bosh uzra gorizontal holatdaxalqa ko'tarilib, uni o'ngga, chapga buramiz. Burish vaqtida gavda ham hiyol bukiladi. Aylanma xarakatlarni o'rganishning boshidanoq aniq saqlab qolishga harakat qilish kerak. mashqni katta razsiltash bilan chegaralangan amplitudada bajarish lozim. Xalqani aylantirish mashqlariga: dinamiklik va o'zigaxoslikni ta'minlaydi.


Xalqa aylantirilganda katta va ko'rsatkich barmoqlar o'rtasida ushlab olinadi. Aylantirish bilakning engil harakati yordamida amalgaoshiriladi. Tirsak hiyol bukilib, bilakning engil holatiga yordam beradi. SHunga ko'raaylanayotgan xalqaning vibratsiyasi bartaraf etiladi. Xalqani oyoq va gavdaatrofida ham aylantirish mumkin.

**Vertushka** – xalqani aylantirish turi. Bu xalqaning o'qi bo'ylab tezkor aylanish bo'lib, uning diametridan o'tadi. Mashq bir yoki ikki qo'l bilan bajariladi. Aylanish polda yoki gavdaning yuqori qismida tilganda fazoda sodir bo'lishi mumkin.

**Dumalatishlar** – engil, ammo qo'lning keskin harakati orqali amalgaoshiriladi. Xalqaga kerakli yo'nalish barmoqlarning harakati bilan amalgaoshiriladi. Qo'l predmetni qo'l bilan itarib, uni engil sakrashsiz va vibratsiyasiz harakat bilan ta'minlaydi.


Polda bajariladigan dumalatishlar to'g'ri chiziqli, egri vaaylana bo'ylab yo'nalishlarga ega bo'lishi mumkin. Xalqani tanaa'zolari ustida ham dumalatish mumkin va poldagi dumalatishlar bilan birga ham bajarish mumkin.

**Namunaviy mashqlar** – turgan holda tana og'irligi o'ng oyoqda, chap oyoq oldinda, oyoq uchida, xalqa polda, ikkala qo'l bilan ustidan ushlab olish kerak. Bilak bilan hiyol itarib, uni xohlagan yo'nalishda dumalatish mumkin (**14-rasm**).



14-rasm. Xalqani xohlagan yo'nalishda dumalaish.


**Variantlar:** dumalayotgan xalqani quvlab o'tib, dumalab o'tib, ungayuzlanish kerak va yarim o'tirgan holda ushlab olinadi, xalqani quvlayotganda sakrab, chap oyoq bilan xalqa ustidan siltash qilinadi, uni chap qo'l bilan ilib olinadi. Polucho'qqayib o'tirish holatdaxalqa o'ng qo'lida ustidan ushlab olinib, orqaga o'tkaziladi, qo'l bilan oldinga tezkor harakat qilinadi. Xalqani orqaga aylantiramiz va oldinga aylantiramiz. Bir oz turib xalqa orqaga harakatlanadi (**15-rasm**). Xalqani tekis tebranishiga erishish kerak.



15-rasm. Xalqani orqaga va oldinga aylantirish



16-rasm



17-rasm

Ko'krak dumalatish – o'tirgan holatda engil harakatlarni xalqaga o'tkazib, xalqa elkadan oshiriladi va chap qo'l bilan ilib olinadi (**16-rasm**).

**Plechivoy poyas** bo'yicha dumalatish oyoq uchida turgan holda bajariladi. Xalqa o'ng qo'lida o'ng tomongayuqoriga ko'tariladi. Engil itarib, xalqa chap tomonga yo'naltiriladi. Bosh ham pastga tushiriladi. Xalqa chap qo'l bilan ilib olinadi. Xalqani to'g'ri otish va ilish texnikasi asosida boshqa predmetlarga tegishli prinsiplar yotadi. Otish texnikasining o'zigaxos xususiyatlari predmetning shakli vaxarakteri bilan aniqlanadi.

Har doim ham xalqaning harakat yo'nalishini saqlab qolish imkonini bo'lavermaydi hamda gavda muvozanatini ham. Shuning uchun xalqani otish va ilishga o'rgatishga ba'zibir tayyorlov mashqlarini berish zarur.

Tana muvozanati buzmagan holdaotish mashqining uch fazasi o'rganilganidan keyin bu mashqni boshqa mashqlar bilan bog'lash kerak. Xalqadan sakrash mashqlari xuddi arqondan sakrash mashqlari kabi. Xalqa yaqin tomondan bir yoki ikki qo'l bilan ushlab olinadi, sakrashlar va kichik sakrashlar bir yoki ikki oyoqda bajarilishi mumkin. Sakrashlar oldinga yoki olrqagaxalqaning birlamchi yoki ikkilamchi aylanishi bilan bajariladi.

**Namunaviy mashlar** turgan holdaxalqa bosh uzra vertikal holatda oyoqlar bukilib xalqaga sakraladi (**17-rasm**).

Turgan holatda xalqa vertikal holatda.  
**Uslubiy tavsiyalar:** xalqani o'girish uchun barmoqlarni kuch bilan harakatlantirish kerak (**18-rasm**).



18-rasm

Xalqadan hatlab o'tish predmet tinch yoki harakat holatida bo'lishi kerak. (poldan dumalasa). Hatlaganda predmetni ushlashni o'zgartirish mumkin. Murabbiyning xohshiga ko'ra dasturga dumalayotgan xalqadan o'tish mashqini kiritish mumkin (**19-rasm**). Siltash va aylana mashqlarda xalqani uzatish quyidagilardan so'ng bajariladi. Otish va dumalatishdan keyin bir joyda yoki harakat vaqtida, bir qo'ldan ikkinchi qo'lga, ba'zi-bir tana a'zolari yonida bajariladi. Bu ikkala qo'lning baravar qatnashuvini talab qiladi va ba'zi elementlarni ortasida xilma-xillikni kiritadi.




**Tasma bilan mashqlar:** Tasma mashq qilish foydali, ajoyib va turli kurinishlidir. Ular bolalardagi ritmni xis qilish, aniq xarakat koordinatsiyasini olish, chaqqonlik va boshqa jismoniy sifatlarni shakllantiradi. Tasma yordamida xarakatlanishning asosiy tavsiflari shuki, turli sur'atlarni amalga oshirishda bular uziga xos quvvat beradi. Buni bajarish uchun kuchni to'g'ri taqsimlash, qulni to'g'ri tutish lozim. Tasmani aylantirayotganda butun tanadagi xarakatni nazorat qilish, qul va oyoqlarning ajoyib ritmini yuzaga chiqarish lozim buladi.

Kichik yoshdagi qizlar uchun atlasdan qilingan tasma, uzunligi 3 metrgacha, uning qalinligi 2,5-4 sm. buladi. tasma shoyidan bo'lishi, kengligi 4-6 sm, uzunligi 3,5 m, bukilishi 0,5 m ni tashkil qilishi zarur. Yog'ochi 40-60 sm uzunlikda bo'lib, qalinligi 1-1,8 sm ni tashlik qilishi kerak. Tasma yog'ochga biriktirilib, birikish uzunligi 3-7 sm dan iborat bo'ladi. Tasma bilan bajariladigan mashqlar umumiy koordinatsiyaga va ritmni his qilishga ta'sir qiladi. Badiiy gimnastikaning ana shu mashqlarida, unga xos bo'lgan o'zaro bog'liqlik, egiluvchanlik, mutanosiblik namoyon bo'ladi.

Tasma Mashg'ulot bajarish quyidagi ketma-ketlikda urganiladi: silkish, aylantirish, ilonizi, spiral qilib va sakkiz soni kurinishida xarakatlanirish.

Tasmani ushslash turlicha bo'lishi mumkin: tepadan, pastdan, aralash va h.k. (**20-rasm**). U quldan chiqib ketmaydigan, siljimaydigan tarzda engil ushlanishi kerak.



20-rasm. Tasmani ushslash turlari

Siltashlar, aylanalar, vosmyorkalar – bu mashqlarda tasma bilan harakatlar eng yaxshi namoyon bo'ladi. Ular katta, o'rtacha va kichik turlarga bo'linadi. Turli tekisliklarda va turli yo'nalishlarda.

Tasmani bir quldan boshqasiga utkazib, kombinatsiya xosil qilish lozim. Tayoqchani tezkorlik bilan uzatish kerakki, natijada sur'atda buzilish bulmasin, buningg uchun maxsus tayyorgarlik kerak. Bir kaft ikkinchisiga uzatilayotganda tayyor turishi lozim.

**Tasmani silkish.** Bu tasma xarakatlanish texnikasini to'g'ri uzlashtirishda muximdir. Silkish turli tekislikda va yunalishda, tengliklarda va erkin xarakatlarda buladi. Kaft qismi qulning davomi sanaladi. Tasma yunalishini uzgartirayotgan vaqtida kaftni birdan uzgartirish yaramaydi, balki uziga xos nazokat bilan, tasma yunalishiga mos ravishda uzgartirish kerak, shunda ritm uzilmaydi. Gavda va bosh tasmaning uchishini boshqaradi va tasmaning yassitekisligini ta'minlashda yordam beradi. YOnaki va yuzaki jixatdan tasma silkitayotganda bilak tirsagi bukimasligi kerak. Bolalar esa gorizontal silkiyotganda, bilak-qul soxasidagi tirsakni xiyol bukadi, qaysiki tasmaning xarakati ulkan radius olishi uchun.

**Namunaviy harakatlar.** Turgan holda tasma o'ng qo'lida yonga ko'tarilgan. CHap qo'l yonda, chap oyoq oldinda, tasma bilan gorizontal siltashlar bajariladi. Xuddi shu mashq boshqa qo'l bilan bajariladi. Turgan holda, tasmani ichki qo'l bilan oldinda ushslash kerak. O'ng oyoqdaoldinga qadam tashlab, chap oyoq uchida o'ng qo'lni yuqorigan pastga ko'tarib, chap qo'l yonda turadi. Turgan holda qadam tashlab, sakrab, chap yoki o'ng qo'l bilan yuqoriga vertikal aylanalar hosil qilinadi.

Turgan holda, tasma chap qo'lida, ikkala qo'l yonda. O'ng oyoq bilan orqaga qadam tashlab, chuqr orqaga egilib, gorizontal aylanalar o'ng qo'l bilan bajariladi. Xuddi

shu mashq boshqa qo'l bilan bajariladi. Tizzalab turib, yonlamaaylanalar o'ng qo'l bilan o'ng tomonda va chap tomonda bajariladi. Turgan holda tasma o'ng qo'lida ikkala qo'l yonda, ikkilangan qadam bilan sakrab, bukilgan oyoqlarni oldindaalmashtirgan holda bosh uzra gorizontal aylanalar qilinadi. Turgan holda tasma o'ng qo'l da yoq uchida turib, old tarafda vertikal vosmyorkalar hosil qilinadi.

Turgan holda tasma o'ng qo'lida, qo'llar yonda, vertikal vosmyorkaold tomonda hosil qilinadi.

Turgan holda tasma o'ng qo'lida, qo'llar yonda gorizontal vosmyorkalar hosil qilinadi. Muvozanat o'ng qo'lida, o'ng qo'l oldinda, chap qo'lida tasma yonlama tekislikda o'ng qo'l ustida vosmyorka hosil qilish.

**Zmeyka** – bu predmet uchun hosil bo'lган mashq. Bu mashq mushaklarni minimal zo'riqtirib, hiyol egilgan qo'l bilan panjalarni harakatga keltirish asosida bajariladi. Amplituda tishlari 30-35 sm dan oshmashligi zarur.

Zmeykalar vertikal (ko'tariladigan) va gorizontal (vertikal va gorizontal tishli) bo'ladi.


Vertikal zmeykalarni bajarishda qo'l pastdan yuqoriga vaaksinchcha bajariladi. Gorizontal zmeykalarda bo'lsa chapdan o'ngga qarab harakatlanadi. Zmeykalar uchta tekislikda bajariladi.

**Namunaviy mashqlar:** tasma o'ng qo'lida, chap qo'l yonda, orqagaengil yugirib gorizontal zmeyka hosil qilinadi.

YArimcho'qqayib o'tirish holatda, tasma o'ng qo'lida, chap qo'l yonda, asta-sekinlik bilan rostlanib, gorizontal zmeyka hosil qilinadi. Turgan holatda tasma o'ng qo'lida, chap qo'l yuqorida 360° ga burilib, tana atrofida zmeyka hosil qilish. Turgan holatda tasma chap qo'lida, ikkala qo'l yonda, ikkala oyoqda sakrab, bosh uzra qo'lni ko'tarib siltash bajariladi va pasayadigan zmeykani polucho'qqayib o'tirish holatigacha bajariladi.

**Spiral** – original bo'lган va shu predmet uchun xos mashq hisoblanadi. Spirallar kichik bo'lib, ular panja harakatlari bilan bajariladi. O'rtacha va katta spirallar tirsak bo'g'ini orqali amalga oshiriladi. Konussimon spirallar kichik aylanalar asta-sekinlik bilan kattalashganda hosil bo'ladi. Agar yog'och gorizontal bo'lsa. spiral vertikal hosil bo'ladi. Agar aksinchcha bo'lsa, gorizontal spiral hosil bo'ladi.

**Namunaviy mashqlar:** turgan holda, qo'llar yonda, tasma o'ng qo'lida, qo'l oldinga cho'zilib gorizontal siltash bajariladi, engil egilib, orqaga yugurishlar kerak va o'ng qo'l bilan vertikal spiral bajariladi (**21-rasm**). Turgan holda o'ng qo'l oldinda, tasma bilan oyoq uchiga ko'tarilib, gorizontal spiral bajariladi (**22-rasm**).



### Cho'qmor (Bulava) bilan mashqlar

Cho'qmorlar asosan yog'ochdan yoki plastmassadan tayyorlanadi. Uning uzunligi 40-50 sm bo'lib, uning og'irligi 50 g ni tashkil qiladi. Rangi foydalanuvchining ixtiyorida. Cho'qmor – tanasidan bo'yin qismidan va ruchkasidan iborat. Dastlabki mashg'ulotlardacho'qmorlar qo'shimcha vosita sifatida, umumiy koordinatsiyani rivojlantirish, ritmni tushinish va qo'l kuchi va hartakatchanlikni oshirish uchun ishlataladi. Cho'qmor bilan bajarilayotgan mashq texnikasini, avval bir predmet bilan o'ng qo'lni, keyin chap qo'lni mashq qilinadi. Siltash vaaylanalarni cho'qmor bilan bajarganda uni bosh

orqasida o'ng qo'l pelditida erkin ushslash lozim. Ko'rsatish barmog'i cho'qmorning bo'yin qismida qo'yiladi, go'yoki predmet qo'lni davom ettirayotgandek. Cho'qmorlarning osilishi faqat ba'zi-bir mashqlarda ruxsat etiladi. <<Melnitsa>> mashqini bajarayotgandacho'qmorning boshi bosh va ko'rsatkich barmoqlari bilan ushlab olinadi, siqilmaydi. Cho'qmorni turli xil ushslash mumkin. Yuqorida, pastdan, boshidan yoki tanasidan bir qo'l bilan yoki ikkala qo'l bilan ushslash mumkin. Siltashlar kichik, o'ttacha va katta bo'lishi mumkin. Barcha tekisliklarda bajariladi.

**Namunaviy mashqlar:** polucho'qqayib o'tirish holatdan, oyoq uchida sekin turib, baravariga ikititcho'qmor bilan siltash bajariladi. Turgan holatda qo'llar yonda, o'ttacha siltashlar bajariladi. Harakatlar faqat tirsak bo'g'imlarida bajarilib, cho'qmorlar elka qismini davom ettiradi. Engil yugirish, qo'llar oldinda, yuza tekisligida kichik siltashlar bajariladi (harakatlar faqat panja qismida bajariladi). Aylanalar asosan kichik, o'ttacha va katta bo'lib, ular turli tekisliklarda turli yo'nalishlarda bajariladi. Dastlabki o'rganish davrida kattaaylanalardan o'rganishni boshlaydilar, keyin o'ttachalariga o'tadilar. Kichik aylanalar koordinatsiyasi bo'yicha eng murakkab bo'lib, murabbiyning taklifi bilan dasturga kiritiladi.

**Namunaviy mashqlar:** Turgan holda qo'llar tana bo'ylab joylashadi. Kattaaylanalar oyoqlar bilan prujinasimon harakatlar bajarish orqali amalgaoshiriladi. Faqat o'ng qo'l bilan, faqat chap qo'l bilan, keyin ketma-ket bajarish orqali bajariladi.

Turgan holda qo'llar yonda, o'ng qo'l bilan bosh orqasida o'ttachaaylanalar bajariladi, keyin chap qo'l bilan va ikkala qo'l bilan.

Turgan holatda, qo'llar pastda, cho'qmorlar – qo'l davomi, oyoqlarning engil prujinasmon harakatlari bilan vertikal kichik aylanalar bajariladi.


Turgan holatda, qo'llar olidinda, cho'qmorlar qo'llarning davomi chap oyoq bilan oldinga qadam tashlab o'ng qo'l bilan kichik gorizontal aylanalar bajariladi. Xuddi shu mashq boshqaoyeqda bajariladi. O'ng oyoqdaoldinga qadam tashlanib, yon tekislikda katta va kichik aylanalar bajariladi. Cho'qmirlarni taqillatish, polga bitta yoki ikkita qo'l bilan, baravar yoki ketma-ket bir-biriga, tanalari bilan bo'yin qismi bilan va h.k. bajariladi. Cho'qmor bilan taqillatish mashqlari shug'llanuvchida ritmni tushinishni shakllantiradi. Shuning uchun ularni uch vozrast guruhda eng dastlabki mashg'ulotlarga kiritish, musiqaviy ritmga o'rgatish uchun mumkin bo'ladi.

Cho'qmirlarni polda dumalatish ham aniq bir ritmda amalga oshiriladi.


### © Adabiyotlar


4. Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.
5. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. A.Abdullaev va b. T.2005 y.
6. R.S.Salomov va b. "Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligiga kirish". T. 1990 y.








## Положения рук:








VI







## Saf mashqlari, URM, turnik, yakkacho`pda bajariladigan mashqlar


**Darsning maqsadi:** Saf mashqlarini qaytarish, URM, turnikda sakrab tushish mashqlari va yakkacho`pda burilish mashqlarini takrorlash va mustaxkamlash

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zal, gimnastika matlari, gimnastika asboblari

1.Saf mashqlarining barcha buyruqlarini takrorlash

**2.URM - uzlusiz usulda mashqlarni takrorlash**

**3.Turnik - yoysimonholatda sakrab tushish .**



**4.Yakkacho`p – burilishlar bir oyoqda  $360^{\circ}$  ga shuning o`zini muvozanat saqlash holatida. Sakrashlar bir oyoqda ikkinchisini siltab, oyoqni oyoqqa urib**

**Tayanib sakrash mashqlari, yakkacho`pda mashqlarini o`rgatish.**

**Darsni maqsadi:** sakrash oyoqlarni bukib va kerib, yakkacho`pda burilish va muvozanat mashqlarini o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.


1. Otdan oyoqlarni kerib sakrab o`tish; o`zunasiga qo`yilgan ot ustidan bir oyoqda depsinib burchak hosil qilib sakrash.

2. Yakkacho`pda – oyoq uchida yurish, burilib muvozanat saqlash, sakrab tushish.

3. O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

### Otdan yoki sakrash stolidan oyoqlarni kerib sakrash

*Bajarish texnikasi.* Berilgan sakrashni bajarish texnikasi, ko`ndalang otdan oyoqlarni kerib sakrashni bajarish texnikasidan ozgina farq qiladi. Ammo, o`zun otdan oyoqlarni ochib sakrashni bajarish uchun tez yugurish, ko`priordan o`yoqlarda va asbobdan qo`llarda kuchli itarilish talab qilinadi. Agar oyoq panjalari yelka darajasidan yuqori ko`tarilsa, bu mashq yaxshi bajarilgan hisoblanadi.



### *O`rgatish ketma-ketligi.*

Sakrashni o`zlashtirish uchun, ko`ndalang xaridan oyoqlarni ochib sakrashni o`rganish paytidagi hamma yordamchi mashqlarni qo`llash mumkin, keyin quyidagi mashqlarni takrorlash lozim.

1. Ko`ndalang xaridan oyoqlarni ochib sakrash, ko`priдан xarigacha masofani asta-sekin ko`paytirib.

2. O`zun qo`ylgan xaridan oyoqlarni ochib sakrash.

3. Shuning o`zi, faqat ko`priki xarida 1 m masofaga surib bajarish.

4. Shuning o`zi, faqat ko`pri va xari orasidan arqon tortish.

5. O`zun otdan oyoqlarni ochib sakrash.

Ayrim o`quvchilar uchun, o`zun otdan oshib o`tish biroz qiyinchilik tug`diradi: otning o`zoqdagi qismidan oshib o`ta olmaslikdan, qo`llarda itarilgandan so`ng otga tegib ketish yoki unga yiqilib tushishdan qo`rqadilar. Bunday ruhiy to`sinqi yo`qotish maqsadida quyidagi vazifalarni qo`llash mumkin:

1. 1-2 qadamdan yugurib otga yoki sakrash stoliga sakrab chiqib oyoqlarni ochib tayanish (to`g`ri va tarang qo`llarga tayanib, o`tirmasdan oyoqlarni ochib turish). Biroz tayanchda ushlanib qolib, oyoqlarni ochib yumshoq o`tirishga o`tish.

2. Asta-sekin yugurish tezligini va o`zunligini oshirib, otning o`zoq qismidan 20-25 sm gacha masofaga etguncha, qo`llarni qo`yib, sakrab chiqib oyoqlarni ochib tayanish. O`quvchini yelka tagidan ikki tomonlama ushlab yordam berish ham mumkin. O`quvchi oyoqlarini ochib tayanishni bajarishni o`rganib olgandan so`ng keyingi vazifa beriladi.

3. Otning oldi qismida o`tirishdan, so`ng yarim o`tiridan, otning o`zoq qismiga oyoqlarni ochib sakrab tushishni bajarish. Oldin qo`llar otning eng qirra qismiga qo`yib, asta-sekin qirradan 15-20 sm masofaga qo`llarda itarilishni o`rganish lozim. Bu mashqlarni ishonchli bajarishga o`rganilgandan keyin butunlay oyoqlarni ochib sakrashga o`tish mumkin.

### *Xatolar.*

1. Nisbatan past siltanish (ko`priдан ko`tarilgandan so`ng oyoqlar ot tanasidan yuqori ko`tarilmasa).

2. O`z ostiga qo`llarda itarilish (qo`llarda to`xtatuvchi itarilish o`rniga egiluvchi itarilish hosil bo`ladi).

3. Qo`llarda itarilgandan so`ng uchish paytida tananing tos-son bo`g`imlarida yoyilish yo`qligi.

4. Tos-son bo`g`imlarida yoyilish faqatgina yelkani ko`tarilishi hisobiga amalga oshirilishi, oyoqlar esa oldinga harakatlanishdan to`xtamasligi qo`nish paytida yelkalarni orqaga tushib ketishiga olib keladi.

5. Yaqin qo`nish (1,5 m kam bo`lmasligi kerak).

*Extiyotlash va yordam.* Qo`nish joyini yon tomonida turib, bir qo`l bilan tirsakdan balandroqdan, ikkinchisi bilan zaruriyat bo`lganda ko`krakdan ushlab yordam beriladi. To`liq o`rganilguncha o`qituvchining o`zi yordam berib turishi maqsadaga muvofiq.


**Yon tomondan yugurib kelib otdan bir oyoqda siltanib,  
ikkinchisida itarilib burchak sakrash**

*Bajarish texnikasi.* Bunday sakrashni amalga oshirish uchun ko`prik otning yaqin qismiga biroz burchak ostida (salkam parallelъ) yonboshiga qo`yiladi.

Qisqa masofadan yugurib kelib, o`ngga burchak sakrashni bajarishda o`ng oyoqda siltanib, o`ng qo`lda otning tanasiga tayanish va chap oyoqda ko`priдан itariladi. Asbob ustida oyoqlarni birlashtirish va chap qo`l o`ng qo`lning yoniga qo`yiladi. SHundan keyin o`ng qo`lni qo`yib yuborib, chap qo`lga tayanishni davom ettirib otga chap yon bilan qo`nish. Chagpa sakrashni amalga oshirish uchun hammasini aksincha bajariladi.

*O`rgatish ketma-ketligi.*

1. Gimnastika o`rindig`idan qdamlab oshib o`tish usulida sakrash.
2. Otning ustida o`ng songa o`tirib qo`llar bilan orqadan tayanish va oyoqlarda oldinga-o`ngga siltanib, asbobdan sakrab tushish, otga chap yon bilan qo`nish.
3. Oyoqlarni ochib otga ko`ndalang o`tirib, qo`llar bilan uning tanasiga tayanish va oyoqlarda siltanib o`ngga burchak sakrab tushish, otga chap yon bilan qo`nish.
4. Otga o`ng yon bilan ko`prikda turishdan o`ng oyoqda siltanib va chap oyoqda itarilib otning ustiga orqadan tayanib o`tirish, o`ng tomonga oyoqlarni tushirib sakrab tushish, otga chap yon bilan qo`nish.
5. Qisqa masofadan yugurib kelib, bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib o`ngga (chagpa) burchak sakrash.



*Xatolar.*

1. Asbob ustida oyoqlar birlashmaydi.
2. Asbob ustidagi tosning juda past holati.
3. Qo`llar tayanchga parallel qo`yilmasa.

*Extiyotlash va yordam.* Qo`nish joyida asbobning yon tomonida turib, bir qo`lda yelka orqasidan, ikkinchisi bilan beldan ushlab yordam beriladi.

## САКРАШ ТУРЛАРИГА УМУМИЙ ТАВСИФ

РЕЖА:

1. САКРАШ ТУРЛАРИГА ТАВСИФ.
2. САКРАШ ТУРЛАРИ ТЕХНИКАСИ.
3. САКРАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.
4. САКРАШ ТУРЛАРИДА ФАЗАЛАР.



### 2. САКРАШ ТУРЛАРИГА ТАВСИФ.

Енгил атлетика турлари орасида сакраш турлари ўзига хослиги билан бошқаларидан ажралиб туради. Сакраш турлари бир-биридан ўзига хос хусусиятлари билан фарқланади. Енгилатлетикада сакрашлар икки гуруҳга бўлинади – **вертикал** (вертисал тўсик оша сакрашлар) ва **горизонтал** (узунликка сакрашлар).

Биринчи гуруҳга қўйидагилар киради:

- югуриб келиб баландликка сакрашлар;
- югуриб келиб лангар чўпга таяниб сакрашлар.

Иккинчи гуруҳга қўйидагилар киради:

- югуриб келиб узунликка сакраш;
- югуриб келиб уч ҳатлаб сакрашлар.

Енгил атлетика сакрашларининг биринчи гуруҳи:

**1) Югури бкелиб баландликка сакраш** (Олимпиядада ўйинлари дастуридан ўрин олган) – ациклиқ тур, у спортчидан тезлик-куч сифатларини, сакровчанликни, чаққонликни, эгилувчанликни намоён қилишни талаб этади. эркакларда ва аёлларда стадионда ва манежда ўтказилади;

**2) Югуриб келиб лангар чўпга таяниб баландликка сакраш** (Олимпиядада ўйинлари дастуридан ўрин олган) – ациклиқ тур, у спортчидан тезлик-куч сифатларини, сакровчанликни, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни талаб этади, енгил атлетиканинг энг мураккаб техник турларидан бири саналади. эркаклар ва аёлларда, стадионда ва манежда ўтказилади.

Енгилатлетика сакрашларининг иккинчи гуруҳи:

**3) Югуриб келиб узунликка сакраш** (Олимпиядада ўйинлари дастуридан ўрин олган) – тузилишига кўра аралаш турга киради, у спортчидан тезлик-куч, тезлик сифатларини, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни тақозо этади. эркакларда ва аёлларда, стадион ва манежда ўтказилади;

**4) Югуриб келиб уч ҳатлаб сакраш** (Олимпиядада ўйинлари дастуридан ўрин олган) – ациклиқ тур, у спортчидан тезлик-куч, тезлик сифатларини, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни тақозо этади. эркакларда ва аёлларда, стадион ва манежда ўтказилади<sup>30</sup>.

### 2. САКРАШ ТУРЛАРИ ТЕХНИКАСИ.

Енгилатлетикадаги сакрашлар жисмоний қобилиятлардан куч, тезкорлик ва ҳаракат ўйғунлигини ривожлантиришнинг асосий воситаларидан бири бўлиб ҳисобланади. Енгил атлетика сакрашлари машғулот воситаси сифатида ҳамма спорт турларида қўлланилади. Енгил атлетикада мусобақалар баландликка, узунликка ва югуриб келиб уч ҳатлаш ҳамда лангар чўп билан сакраш турлари бўйича ўтказилади.

Сакрашлар техникасини ўрганишда маълум кетма-кетликка риоя қилиш шарт. Олдин баландликка сакраш техникаси ўргатилса, кейин узунликка лангар чўп билан уч ҳатлашга ўргатилади. Ҳамма сакрашлар учун бир хил тузилиш: югуриб келиш - депсиниш – учиш – ерга тушиш характерлидир.

<sup>30</sup>Wolfgang Killing, ElkeBartschat, Herbert Czingon. /Jugendleichtathletik – Sprung. 2008, (German).

Баландликка сакраш. Сакровчининг ҳамма фаолияти югуриб келиш, самарадор равишда депсиниши, планкадан ўтиш ва ерга тушишдан ташкил топади. Сакрашлар планкадан ўтиш усулига қараб ҳатлаб, перекат, фосбери-флоп турлари фарқланади.

Шуғулланувчилар ўрганилаётган усулнинг техникаси билан танишгандан сўнг, депсиниши тўғри ўрганиши шарт. Асосий диққат депсиниши учун оёқни қўйилишига қаратилади. Кейинги ўқув топшириғи, депсинишига тайёрлашни ўзлаш-тириш билан бир қаторда, тўлиқ югуриб келишдаги охирги қадамларни режимига қаратилади. Бу унсунларни техникасига ўргатиш қисқа югуриб келишдан, ўртача (5-6 югуриш қадам) ва тўлиқлигича ўргатилади. Асосий вазифаси бўлиб ўрганилаётган сакраш режимининг бажарилиш характеристига қараб, югуриш тезлигини бир текисда ошириб бориб, югуришни охирги қадамларида уни янада оширишдан иборатдир.

Планкадан ўтишни ўзлаштириш, югуриб келиш, депсиниши техникасни ўзлаштиришдан олдин бошланади. Бу ерда планкадан “Иқтисодли” ўтишга катта эътибор берилади.

Охирги йилларда “ҳатлаб” ўтиш усули (асосан, оммавий ўргатишда) “фосбери-флоп” усули кенг тарқалди<sup>31</sup>.

### **3. САКРАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.**

Сакрашда спортчилар кўп ёки узоқ учуш даврини амалга оширади. Буни улар баландликка сакраш ва лангар чўп сакраш, горизонтал тезликда узунликка ва уч ҳатлаб сакрашда ёрдам беради. Катта сакраш импулси бу енгил атлетикадаги сакрашнинг умумий бўлимидир, лекин фақатгина **сакровчилар сакраш импулсини тенг ҳуқуқли обекти ҳисобланади**. **Бу орқали тананинг базўр ҳаракатлар кетмакетлиги эстетикаси кенгайтиради**. Шунинг учун улар куч томонлама чегараланмаган бўлишлари керак, акс ҳолда ўз оғирлик – куч қоидаларини оптимизациялаштиришлари зарур бўлади. Сакраш бурчагини тикхолатини кўпроқ ривожлантиришлари керак. Шундагина енгил атлетика вакили Шмидт Ҳокенинг 80 йилдан ортиқ эски ибораси тушунарли бўлади, қаердаки у “сакрашлар енгил атлетиканинг энг гўзал ҳолатлари ҳисобланади”.

Бу замонавий муҳокама эмас, одатда сакраш машқлари ҳам замонавий, ўрта асрлар, антик ва шунингдек арҳаик маъданият ҳисобланади:

- ёшлар ҳам ўзаро бошларидан сакрашган, бу билан улар катталар қаторига қабул қилинганлар.
- Антик олимпияларида бешҳатлаб сакраш, ҳам югуриш ва диск улоқтириш қаторида енгил атлетика турлари деб ҳисобланган.
- Рицарлар ўйинларида ҳам, кишилар устидан ўтиб узоққа сакраш қўрқмас тулпор каб имаънога эга бўлиш имконини берган.
- Шимолий Германияда ҳозиргача Стак (кичик каналларни ёғоч чўп билан ҳатла бўтиш) халқ спорти деб сақланиб қолган<sup>32</sup>.

### **4. САКРАШ ТУРЛАРИДА ФАЗАЛАР<sup>33</sup>.**

**Енгилатлетикадасакрашфазалариқуйидагича:**

1.1. жадвал.

<b>Югуриб келиш</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Қисқа, ўртача, ёкиузун</li> <li>- Кенг, тор эгри ва ярим айлана югуриб келиш</li> </ul>
<b>Сакрашни шакллантириш</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Қисқа сезиларсиз йиқилиш ва қисқа депсиниши элементлари билан ёки узун тайёргарлик ва йиқилиш билан</li> </ul>
<b>Учиш йўналиши</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Тўғри ёки хато</li> <li>- Планка билан ёки унга қийрағон</li> </ul>

<sup>31</sup>R.Q.Qudratov. Yengilatletika.Darslik.Toshkent 2012 yil.

<sup>32</sup> Wolfgang Killing, ElkeBartschat, Herbert Czingon. /Jugendleichtathletik – Sprung. 2008, (German).

<sup>33</sup>Wolfgang Killing, ElkeBartschat, Herbert Czingon. /Jugendleichtathletik – Sprung. 2008, (German).

<b>Кўтарилиш фазаси</b>	- Сакарш посицияни қайд қилиш ёки депсинувчи оёқни тезда сакраш оёққа ақўйиш
<b>Учиш фазаси</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Чўккалаш ёки ўтириб</li> <li>- Бош орқага эгилган ёки кўкрак устида (пастдаги расмлар)</li> <li>- Оёқ ёйилган ёки бупланган ( пастдаги расмлар)</li> <li>- Очик ёки ёпиқчўзиқкўнишпозицияси</li> </ul>

### Akrobatika mashqlaridan to`ntarilish va tik turish mashqlarini o`rgatish.

**Darsni maqsadi:** akrobatika mashqlarni chapga va o`ngga to`ntarilish o`rgatish kuraklarda, boshda va qo`llarda tik turishni.


**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1. Akrobatika mashqlari - to`ntarilishlar joyidan va yugurib kelib chapga, o`ngga. Kuraklarda, boshda va qo`llarda, bir oyoqni siltab, boshqasi bilan depsinib qo`llarda tik turishlar.

2. Otdan oyoqlarni bukib sakrab o`tish, oyoqlarni kerib sakrab o`tishni mustaxkamlash. Otga tayanib cho`qqayish holatida sakrab chiqib kerishib sakrab tushish.

#### Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib qo`llarda tik turish

*Bajarish texnikasi.* Siltanuvchi oyoqda turib, itariluvchi oldinda oyoq uchida, qo`llar yuqoriga kaftlar oldinga qadam qo`yib tanlanib, tanani oldinga bukib, to`g`ri qo`llarni yelka oralig`ida polga qo`yish va bir oyoqda siltanib, ikkinchi oyoqda itarilib qo`llarda turishga o`tish. Tik turganda oyoqlarni birlashtirib polga qarab, boshni ozgina orqaga egadi.



1. Yordam bilan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib qo`llarda turish.

2. Devordan ikki qadam narida turib, itariluvchi oyoq bilan bir qadam qo`yib ikkinchisida siltanib, tovonlar bilan devorga tayanib qo`llarda turish.

#### Xatolar.

1. Boshning noto`g`ri holati (orqaga egilmagan).

2. Tanani haddan ziyod kerilganligi.

3. Qo`llar juda keng yoki qisqa qo`yilishi.

4. Tananing yelka ko`krak va bel qismalari to`liq to`g`rulanmasa.

*Ehtiyyotlash va yordam.* Siltanuvchi oyoq tomonda turib, bir qo`lni oldinga cho`zib, ikkinchisi bilan o`quvchining siltanuvchi oyoqning sonidan yoki boldiridan ushlab yordam beriladi. Qo`llarni ko`tarilishi mo`ljal bo`lib xizmat qiladi. O`quvchi oyoqqa tegish paytida to`xtaydi.

**Qo'shpoyada tayanish, tebranish, tik turish mashqlarini va yakkacho`pda yurish, burilish, sakrab qo'nish mashqlarni o'rgatish.**

**Darsni maqsadi:** qo'shpoyada tayanish, tebranish mashqlarini, qizlarga yakkacho`pdagi mashqlarni o'rgatish.


**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1. Qo'shpoyada mashqlar - oyoqni kerib o'tirgan holatda oldinga siltab ko'tarish shuning o'zi tayanib, tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko'tarilib oyoqlarni ochib o'tirish mashqlarini o'rgatish.

2. Yakkacho`pdagi mashqlar - muvozanat, turish, ko'priklar, shpagatlar bajarish. Bu mashqlarni texnikasi, polda bajarib o'rgatiladi.

### **Tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko'tarilib oyoqlarni ochib o'tirish**

*Bajarish texnikasi.* Tirsaklarga tayanib tebranishdan vertikaldan o'tib, tos-son bo'g'imidan biroz bukilib, tez oldinga siltanib, oyoq ichlari poya darajasiga etganda, keskin yozilish va qo'llarni bukish bilan bir vaqtida oyoqlarni ajratib, oyoqlarni ochib o'tirishga o'tish.



#### *O'rgatish ketma-ketligi.*

1. Gimnastik devorga orqalab qo'llarni bukib orqadan tayanib o'tirishdan orqada tayanib yotishga o'tish (2-3 marta takrorlash).

2. Tyrcaklarda tebranishdan, oldinga siltanishda oyoq uchlari poya darajasiga etganda, oyoq harakatini to'xtatish va tos-son bo'g'imidan yozilish.

3. Oyoqlarda otga tayanish bilan tirsaklarga larda tayanib yotib, tayanib yotishga o'tish (186-rasm).

4. Tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko'tarilib oyoqlarni ochib o'tirish.

#### *Xatolar.*

1. Oldinga siltanishda oyoq ichlari poya darajasidan o'tib ketsa va tos-son bo'g'imida yozilish sodir bo'lmasa.

2. Oldinga siltanishda yelka va (orasidagi burchak kamaysa).

3. Qo'llarni buqilishi va tayanishga o'tish polga oyoqlarni qo'ygandan so'ng sodir bo'lsa, aksincha emas.

*Straxovka va yordam.* Yonboshda turib, bir qo'l bilan yelkadan ikkinchi qo'l bilan beldan ushlanadi.

Statik mashqlarga: muvozanat, turish, ko'priklar, shpagatlar kiradi. Bu mashqlarning texnikasi, polda bajariladigan mashqlardan unchilik farq qilmaydi.

Muvozanat yuqori turishlardan va o'tirishlardan, ikki yoki bir oyoqda, boshqa oyoq oldinga, orqaga, yon tomonga bajariladi.


Muvozanatni joyda turib va harakatlanish, burilish va sakrashlar bilan uyg'unlashtirib bajarish mumkin. Ularga: oyoq uchida turish; bir oyoqda turish, ikkinchisi

orqaga; bir oyoqda yarim o`tirib, ikkinchisi orqaga; bir oyoqda o`tirib, ikkinchisi oldinga; bir oyoqda turib, ikkinchisi oldinga-yuqoriga, orqaga burilib, qo`llar yon tomonga va boshqalar kiradi.

Yelkalarda, boshda va qo`llarda, ko`krakda, ko`kraklarda va qo`llarda turish oddiy va aralash tayanchda, qo`llar bilan yakkacho`pni yuqori, pastki yoki yonbosh tekisligidan ushlab bajariladi.

Ko`priklar orqaga bukilib qo`llarga tayanib yoki oldinga burilib oyoqlarga tayanib bajariladi. Ko`prik holatida tayanch, bir oyoqqa va ikki qo`lga va aksincha bo`lishi mumkin.

Shpagat va yarim shpagatlar tizzalarga yoki tizzaga tayanib turib, boshqa oyoq orqaga; tayanib o`tirishdan oyoqlarni sirpantirib); burilishlardan keyin yoki yakkacho`pga tayanib yoki tayanmasdan, boshqa elementlarni qo`shib bajariladi.



## BALANDLIKKA SAKRASH

REJA:

1. BALANDLIKKA SAKRASHNING QISQACHA TARIXI.
2. BALANDLIKKA SAKRASHGA TA'RIF.
3. BALANDLIKKA SAKRASH USULLARI.
4. BALANDLIKKA SAKRASH FAZALARI.
5. BALANDLIKKA SAKRASHDA MUSOBAQA  
QOIDALARI.

### 1. BALANDLIKKA SAKRASHNING QISQACHA TARIXI

Balandlikk asakrash bu engil atletikaning murakkab tehnik o`zgarishlari, ko`pincha tehnik revolyutsiyalarga yaqin distsiplinasidir.

Birinchi yugurib kelib oyoqni bukib, keyinroq qaychisimon balandlikka, yumalab, burilib sakrashlar va ohirisida esa yumshoq gilamchaga qo`nishlari mumkin bo`lgan-flop usulida esa yoysimon yugurib kelib qaychisimon yonga sakrashgan. Har tehnika o`zgarishida sakrovchilar gorizontal, yotgan holatlarni qabul qilishgan, planka atrofida ko`proq aylanishgan, shuning natijasida KSP uchish balandligida planka balandga qo`yilishi mumkin bo`lgan, yoki aksincha sakrovchilar uchun uncha yuqori bo`limgan sakrash impulse etarli bo`lgan.

Flop tehnikaning paydo bo`lishi tasodif emas, SHimoliy Amerikada qumli tepaliklar penoplastning bo`yralardan bo`sab, er maydonlari paydo bo`lgan. YUmshoq bo`yralar sakrashda sakrovchilar tana a`zolari (elka, bosh, korpus) bilan birinchi planklardan yumalab o`tishlariga yordam bergen va erga osonroq qo`nishlari mumkin bo`lgan. SHu orqali flop tehnikasini sakrovchilar osonroq va yoqimli bajarishgan, tezroq va jo`shqin ravishda sakrashgan, misol tariqasida yoysimon sakrashda oyoqning siltinishi birinchi plankadan boshlanadi. Sakrash tarixidagi gohi ko`rsatmalar shuni ko`rsatyaptiki, plankalarda flop usulida sakrash qaychisimon sakrashdan ancha oldin rivojlangan. Dik Fosburinig ihtirolari faqatgina shartli ravishda qisqaradi, ihtirolar ko`p hollarda yangi ma'lumotlarni rivojlanishi yuritiladi. O`zining olimpiyada o`yinlaridagi g'alabasi Flop usulini yana qo`shimcha qo`llaydi.

### 2. BALANDLIKKA SAKRASHGA TA'RIF.

**Balandlikka sakrash**—vertical holatdagi engil atletika sakrash turi bo`lib, yugurib kelish orqali, bitta oyoqqa tiralib sakrash va ma'lum bir balandlikka o`rnatalgan plankadan oshib o`tib, maxsus porolondon tayyorlangan gilamga tushishdan iborat harakatdir. Balandlikka sakrash atsiklik tur bo`lib, u sportchidan tezlik-kuch sifatlarini, sakrovchanlikni, chaqqonlikni, egiluvchanlikni namoyon qilishni talab etadi. erkaklarda va ayollarda musobaqalar stadionda va manej (yopiq engil atletika maydoni) da o`tkaziladi<sup>34</sup>.




2.1.rasm. Dik Fosburi, Olimpiada o`yinlarida, uning nomi bilan atalgan Flop texnikasi 1968 Meksikada

<sup>34</sup>Wolfgang Killing, Elke Bartschat, Herbert Czingon. /Jugendleichtathletik – Sprung. 2008, (German).


### 3. BALANDLIKKA SAKRASH USULLARI.

Balandlikka sakrash usullari – sportchilarning depsinishi va plankani zabit etish uchun sakrashning depsinish va uchish fazasidagi ko`rinishidagi farqlanuvchi harakatlaridan tashkil topadi. Uning usullari “fosbyuri-flop”, “hatlab o`tish”, “perikidnoy”, “perakat” va “to`lqin”.


Xorijiy manbaalarga asosan ushbu sakrash turida turli usullar mavjud. Ular biznikilardan nom jihatdan farq qilsada, lekin ko`rinishidan uncha ko`p farqqilmaydi. Ungako`ra:




2.2. rasm. Afrikanchasakrash



2.3. rasm. Qaychisimonsakrash



2.4. rasm. Aylanasakrash.



2.5. rasm. Fosberi-flop usuli.



2.6. rasm. Perekidnoyusuli.



2.7. rasm. Hatlabo`tishusuli.

### 4. BALANDLIKKA SAKRASH FAZALARI.

Balandlikka sakrashning boshqa sakrash turlari kabi o`ziga xos harakatlar ketma-ketligi (fazalari) bo`lib, ular quyidagicha: 1) yugurib kelish; 2) depsinish; 3) planka ustidan oshi bo`tish; 4) qo`nishdan iborat. Sportchilardan har bir fazadan qulay va unumli foydalanishi talab etiladi. Bu ularning mashg`ulot jarayonida qanchalik puxta tayyorgarlik ko`rganiga bog`liq. Optimal yugurib kelish masofasini tanlay olish va yugurib kelishda jismoniy tayyorgarlik holatidan kelib chiqib tezlikka erishishi muhim. CHunki, yugurib kelish masofasini to`g`ri tanlash depsinishning samarali chiqishiga omil bo`ladi. Depsinishda esa sportchi egallagan tezligi hisobiga yuqoriga ntiladi. Bu vaqtida undan gavdasini imkon qadar yuqoriga tortishi talab etiladi. Qanchalik yuqori va qulay depsinishga erishilsa, plankadan o`tish ya`ni havoda uchish jarayoni ko`ngildagidek bo`ladi. Plankada o`tish vaqtida sportchi tanasini nazorat qila olishi uning urinishni muvaffaqiyatli amalga

oshirishiga xizmat qiladi. YA’ni sportchi havodaligida tayanchsiz, muallaq holatda bo`lgani uchun tanani boshqara olish va nazorat qilish muhim sanaladi. Qo`nish esa planka ustidan to`g’ri va yaxshi o’tishga bog’liq. Qo`nish xavfsiz bo`lishi uchun sportchi qo`nish joyiga imkon qadar orqasi yoki elkasi bilan tushishi lozim. SHundagina jarahat olish ehtimoli kamayadi.

## 5. BALANDLIKKA SAKRASHDA MUSOBAQA QOIDALARI.

Sakrashlar bo`yicha musobaqa qatnashchisi yoki taklif qilingan shaxsiy belgilari yordamida o`zining yugurib kelish chizig’ini belgilab olish huquqiga ega, lekinbo`ryokibo`yoqyordamidabelgiqo`yishgaruxsatberilmaydi.

Sakrashlarda sportchi chigal yozdi urinishlari musobaqa boshlanishiga qadar qolgan vaqtida amalga oshirishi mumkin bo`ladi.

Musobaqalar boshlangan paytdan sakrashlar uchun mo`ljallangan sektorlarda badan qizdirish mashqlarini bajarishga ruxsat berilmaydi.

Qatnashchilar hamma urinislarni galma-gal bajaradilar.

Ishtirokchi faqat hakam chaqirganidan keyingina urinishni bajarishga kirishadi. Sakrashlarda urinishga tayyorgarlik ko`rish va uni bajarish uchun 1 min vaqt beriladi. Vaqtini hisobga olish start beruvchi hakam tomonidan urinishni bajarishga chaqirilgan paytdan boshlab amalga oshiriladi. Sportchi urinishlar orasida uch, to`rt minut tanaffus qilish huquqiga ega. Agar ishtirokchi urinishni bajarish vaqtini ataylab cho`zayotgan bo`lsa, u ushbu urinishni bajarish huquqidan mahrum qilinishi mumkin; agar urinishni bajarish paytida qatnashchiga halaqit qilingan bo`lsa, katta hakam bu urinish o`rniga boshqa urinish berish huquqiga ega. Qatnashchi navbatdagi urinishdan voz vechish huquqiga ega, bunda u keying urinislarni bajarish huquqini yo`qotmaydi.

Urinish bajarilgandan keyin hakam, agar qoida buzilishiga yo`l qo`yilmagan bo`lsa, “Ha” buyrug’ini beradi va oq bayroqcha ko`taradi yoki, qoida buzilgan bo`lsa, “Yo`q” buyrug’ini beradi va qizil bayroqcha ko`taradi. Barcha muvaffaqiyatli urinishlar natijalari o`lchanadi va bayonnomaga yoziladi. Muvaffaqiyatsiz urinishlar o`lchanmaydi.

Bayonnomaga quyidagicha yozuvlar kiritiladi:

- urinish e’tiborga olinganda o`lchan natijalari qo`yib chiqiladi, balandlikka sakrashda “O” belgisi qo`yiladi;
- urinish e’tiborga olinmaganda “X” belgisi qo`yiladi;
- urinish o`tkazib yuborilganda “–“ belgisi qo`yiladi.

Agar ob-havo sharoitlari yoki boshqa ob’ektiv sabablarga ko`ra musobaqalar to`xtatilgan bo`lsa, bosh hakam musobaqalarni yangidan o’sha qatnashchilar bilan va to`xtab qolgan urinishdan boshlab o`tkazishga ruxsat berishi mumkin. Musobaqalar ertangi kunga ko`chirilganda ular birinchi urinishdan boshlanadi.

Qatnashchilarning shaxsiy o`rinlari dastlabki va final musobaqalarida ko`rsatilgan eng yaxshi natijaga ko`ra aniqlanadi. Agar ikkita (yoki ko`proq) qatnashchi bir xil natija ko`rsatsa, urinishdan qat’inazar, ikkinchi natija qaraladi, agar u ham bir xil bo`lsa, unda uchinchi natija ko`rib chiqiladi va shutariqa qatnashchilardan birining ustunligi aniqlab olinadi. Agar hamma ko`rsatkichlar ularda bir xil bo`lsa, unda g’olibni aniqlash uchun ularga qo`shimcha urinish beriladi.

Qolgan barcha o`rinlar uchun bu qoida amal qilmaydi.

Qatnashchilarning eng yaxshi natijalari, jumladan, birinchi o`rinni aniqlash uchun berilgan qo`shimcha urinislardagi natijalar ham ularning hisoblariga yoziladi<sup>35</sup>.

<sup>35</sup>Wolfgang Killing, ElkeBartschat, Herbert Czingon. /Jugendleichtathletik – Sprung. 2008, (German).

## УЛОҚТИРИШ ТУРЛАРИ

РЕЖА:

1. УЛОҚТИРИШТУРЛАРИГА УМУМИҮ ТАВСИФ.
2. УЛОҚТИРИШ ТУРЛАРИНИ ҚАМРАБ ОЛУВЧИ АСПЕКТЛАР.
3. УЛОҚТИРИШЛАРДАГИ АСОСИҮ ҚОИДАЛАР.



### 1. УЛОҚТИРИШ ТУРЛАРИГА УМУМИҮ ТАВСИФ<sup>36</sup>.

Енгил атлетика улоқтиришларини қуудаги гурұхларга ажратиш мүмкін:

- 1) түғридан югуриб келиб аеродинамик хусусиятларга эга ва эга бўлмаган снарядларни улоқтириш;
- 2) снарядларни аулана ичидан улоқтириш;
- 3) снарядни аулана ичидан итқитиш.

Боз устига, эътибор қаратиш лозимки, улоқтиришларда техник жиҳатдан ҳар хил югуриб келиш турини бажаришга рухсат берилади, лекин финал кучланиши фақат қоидаларга асосан бажарилади. Масалан, науза, граната, тўпни фақат бош орқасидан, элка устидан улоқтириш керак; дискни фақат ён томондан улоқтириш мүмкін; босқонни фақат ён томондан улоқтириш зарур; ядрони сақраб туриб ва бурилишда итқитиш, лекин албатта итқитиш мүмкін.

### УЛОҚТИРИШ ТУРЛАРИ

6.1. расм.	<b>Науза</b>	ациклик тур, у спортчидан тезлик-куч сифатларини, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни талаб қиласди. Улоқтириш түғридан югуриб келиб бажарилади, эркаклар ва аёлларда, фақат стадионда ўтказилади. Науза аеродинамик хусусиятларга эга.
6.2. расм.	<b>Диск</b>	ациклик турлар, улар спортчидан куч, тезлик-куч сифатларини, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни тақозо этади. Улоқтиришлар аулана ичидан (чекланган жоудан), эркаклар ва аёллар томонидан, фақат стадионда бажарилади. Диск аеродинамик хусусиятларга эга.
6.3. расм.	<b>Босқон</b>	ациклик турлар, улар спортчидан куч, тезлик-куч сифатларини, эгилувчанликни, чаққонликни намоён қилишни тақозо этади. Улоқтиришлар аулана ичидан (чекланган жоудан), эркаклар ва аёллар томонидан, фақат стадионда бажарилади. Диск аеродинамик хусусиятларга эга.

<sup>36</sup>Wolfgang Killing, Maria Ritschel. Mediathek Leichtathletik: Jugendleichtathletik Wurf: Dec. 2011, (German).

	<b>Ядро</b>	ациклик тур, у спортчидан күч, тезлик-күч сифатларини, чаққонликни намоён қилишни тақозо этади. Итқитиш аулана ичидан (чекланган жоудан), эркаклар ва аёллар томонидан, стадионда ва манежда бажарилади.
<b>Изоҳ:</b>	Юқорида келтирилган улоқтиришининг барча турлари Олимпияда ўйинлари дастуридан ўрин олган.	

## 2. УЛОҚТИРИШ ТУРЛАРИНИ ҚАМРАБ ОЛУВЧИ АСПЕКТЛАР<sup>37</sup>. Улоқтириш – бу нима?

<b>Мусобақа снарядларининг оғирлиги (килограммда)</b>					
<b>Улоқтириш тури</b>		<b>Ўсмир.</b>	<b>Б-ёшдаги</b>	<b>А-ёшдаги</b>	<b>Кичик ёшдаги /катта ёшдагилар спортчилар</b>
<b>Еркаклар</b>	Ядро	4	5	6	7,25
	Диск	1	1,5	1,75	2,0
	Науза	0,6	0,7	0,8	0,8
	Босқон	4	5	6	7,25
<b>Улоқтириш тури</b>		<b>Ўсмир.</b>	<b>Б-ёшдаги</b>	<b>А-ёшдаги</b>	<b>Кичик ёшдаги /катта ёшдагилар спортчилар</b>
<b>Аёллар</b>	Ядро	3	4	4	4
	Диск	1	1	1	1
	Науза	0,6	0,6	0,6	0,6
	Босқон	3	3	4	4

**Снарядларни улоқтириш.енгил** атлетикада улоқтириш спортининг мақсади улоқтириш турлари бўуича қоидаларга кўра маълум снаряд турини мумкин қадар узоқ масофага улоқтиришдир. Улоқтириш масофаси физика нуқтаи назаридан олганда, қиялаб итқитишнинг қонуниятларига боғлиқдир. Яъни, снаряднинг катта учиш тезлиги улоқтириш масофаси таъсир ўтказади.

Бундан ташқари албатта ўзга шаклга келтирилган қууидаги омиллар ҳам бевосита ўз таъсирини кўрсатади:

- Учиб чиқиш бурчаги;
  - Учиб чиқиш баландлиги;
  - Науза ва дискнинг аеродинамик хусусиятлари;
- Шунингдек:
- Шамол тезлиги ва уўналиши.

**Учиб чиқиш бурчаги.** Снарядлар улоқтирилганда идеал шарт шароитда учиб чиқиш бурчаги 45 градусни ташкил этади, бу ҳолатни ўқ узишдаги ҳолат билан таққослаш мумкин. Бу ауникиса ўта катта учиб чиқиш тезлиги ва бир хил учиш баландлигига кўринади. энгил атлетикадаги улоқтиришда идеал учиб чиқиш бурчаги ушбу кўрсаткичдан маълум даражада паст бўлади. Чунки бу ҳолат снаряднинг тушишига қиёслаганда юқори бўлган учиб чиқиш нуқтаси билан (ауникиса ядро итқитишда ўта муҳим, чунки бунда баландликдаги фарқ ва улоқтириш масофасининг ўзаро муносабати ўта каттадир), инсоннинг анатомик тузилиши (қўл ва элка мушакларига қараганда кучлироқ бўлган оёқлар ва орқа тос мушаклари) ва


<sup>37</sup>Wolfgang Killing, Maria Ritschel. Mediathek Leichtathletik: Jugendleichtathletik Wurf: Dec. 2011, (German).

шунингдек, улоқтириш снарядларининг аеродинамик ўзига хос жихатларига ҳам боғлиқдир.

**Учиб чиқиш тезлиги.** Учиб чиқиш тезлиги улоқтириш бўуича 2.1. жадвалдаги каби натижани кўрсатадиган энг муҳим таъсир этувчи омилдир. Жадвал бундан ташқари учиб чиқиш тезлигига қарама қарши ўлароқ учиб чиқиш бурчаги фақат маълум хажмда натижани пасаутириши мумкинлигини кўрсатади. Кўпинча спортчилар теккис учиб чиқиш бурчаги остида – харакатланувчи мушаклар учун энг қулау вазият юзага келиши сабабли – энг юқори тезликка эга бўладилар (Хинз, 1991). Ёмон об ҳаво шароити туфаули улоқтириш турига хос, индивидуал оптималь учиб чиқиш бурчаги, яна бир бор ўзгариши мумкин, қарама қарши тезлиқдаги шамол эсаётган паутда мисол учун диск итқитишда ясси учиб чиқиш бурчагининг нафи каттадир (2.1. жадвалга қаралсин). Аммо 1980 уйлдаги мусобақалар вақтида ёмон об ҳаво натижасида науза улоқтириш жараёнида қоидага кўра снаряднинг олдинга чиқиб қолши, наузанинг учиш ва сапчиш хусусиятини шу даражада ёмонлаштириди, бугунги кунда қарама қарши тезлиқдаги шамол эсаётган паутда учиб чиқиш бурчаги қандау бўлиши кераклиги хақида ҳеч қандау умумиу тавсиялар мавжуд эмас.

**Учиб чиқиш баландлиги.** Учиб чиқиш баландлиги спорт снарядларининг парабола шаклидаги учиш траекториясининг 1:1 нисбатидан келиб чиқиб, улоқтириш масофасини белгилауди. Яъни улоқтириш 20 сантиметр баландроқ бўлса, снаряд бундау шароитда 20 сантиметр узоқроққа тушади. Аммо бошқа ўлчамларга нисбатан учиб чиқиш баландлиги улоқтириш масофасига камроқ таъсирга эга, шу сабабдан ҳам у машғулотлар жараёнида биринчи ўриндаги мақсад сифатида кўрилмаслиги лозим.

#### Учиб чиқиш тезлиги ва бурчагига боғлиқ бўлган улоқтириш масофаси



6.5. расм. Учиб чиқиш бурчаги (градусда).

#### Енгилатлетикадаги улоқтириш спортида учиб чиқиш бурчаги

Снаряд	одатиу шарт шароитда	қарамақаршитомондан эсаётган шамол паутида	бир томонга эсаётган уўлдош шамол паутида
ядро	38 - 41°	-	-
диск	32 - 35°	27 - 32°	35 - 42°

науза	37 - 38°	34 - 37°	38 - 41°
босқон	42 - 45°	-	-

**Улоқтириш – ациклик әгилувчанлик машқи.** Улоқтириш бўйича харакатлар идеал ҳолатда ациклик әгилувчанлик машқи сифатида қўрилиши ва Маунел/Шнабел 2007 нинг уч этапли моделига кўра қуудагича бўлиниши мумкин:

**1. Тауёргарлик кўриш фазаси:** Харакатларнинг олға интилиш ва югуриб тезлашишдан (тезликни ошириш, сапчиш, сапчишнинг бошланиши ёки тананинг бурилиши) улоқтириш/итқитишгача бўлган даври.

**2. Асосиу фаза (улоқтириш снарядининг асосиу тезлашиш даври):** улоқтириш/итқитиш вақтидан бошлаб спорт снарядининг учеб чиқишигача бўлган вақт (босқон улоқтиришда тананинг бурилишлари ҳам асосиу фазага киритилади).

**3. Якуниу фаза:** спорт снаядининг учеб чиққанидан кеүин танани тутиб қолиш (аунан мусобақаларда улоқтириш/итқитишнинг ҳисобга олинишида ўта мухим).

**Олдиндан югуриб тезлашиш.** Улоқтиришда спортчилар ўзларининг спорт снаядларига катта учеб чиқиши тезлиги беришади. Бунда албатта оптимал учеб чиқиши бурчаги ва снаяднинг маълум учиш хусусиятларини ҳисобга олиниб, узоқ масофага улоқтиришга харакат қилинади. Шу сабабдан учеб чиқишидаги энг катта туртки энгил атлетикадаги улоқтириш турларининг барчаларига хос бўлган харакатлар мажмууидир. Учеб чиқишига оптимал шароит яратиш учун спортчи даслаб жами атлет – снаяд тизимини тезлашириши лозим. Ушбу тезлашиш асосан оёқлар, науза улоқтиришда югуриб тезлашиш, доира ичидан улоқтиришда эса тананинг бурилиши ёки сапчишнинг бошланиши билан амалга оширилади. Бунда спортчининг мақсади тезликни оширувчи харакатларни узаутиришдир. Бу ҳолатни ау尼克са ядро итқитишда сапчишнинг бошланиш техникасида кузатиш мумкин: бунда ядро итқитувчи энгашган ҳолатдан, итқитиш уйналишига тескари бўлган томондан харакатланишни бошлауди.

**Тананинг бурилиши.** Тананинг юқори қисми оёқларнинг тезлашишига мажбуран бўусунади ва улоқтиришнинг бошланишида қисқа муддатли сусткашлик юзага келади, яъни кўпинча тананинг умуртқа қисмидаги худди бўлт каби бурилиш хосил бўлади: тананинг элка қисми бел томон, пастроқда эса бел қисми оёқларга нисбатан ауланма тарзда бурилади (босқон улоқтириш мисолидаги оёқ учлари орасидаги тўғри чизиқ кўрсатилган 2.2. расмга қаралсин). Спорт снаядининг тезлашиши қисқа муддатга секинлашади, оёқлар ва бел тананинг юқори қисмидан ўтиб кетади. Бу билан катта, тўғри эгилувчан мушаклар билан бир вақтда диагонал мушаклар ҳам харакатга келтирилади: тананинг юқори қисмидаги эгри умуртқа мушаклари, оёқларда эса абдуктор ва аддуктор мушаклар. Тананинг бурилиши орқали барча иштирок этувчи мушакларда реактив ўта юқори тезлик талаб этадиган кескин харакатга тауёргарлик ҳолати юзага келади. Яъни: мушаклар аввалига экссентрик, сўнgra эса концентрик ишлаудилар. Бу ҳолат узауиш қисқариш сикли деб ҳам аталади.

**Тезлик олишнинг асосиу фазаси.** Иккала оёқ ҳам таянч ҳолатига келгач, танадаги энергиянинг оёқдан белнинг итқитишга тауёргарлик қисми томон харакатланиши бошланади. Орқага чўзилган қўл туфаули танада таранг тортилган ёу ҳолати юзага келади. Бу ҳолатни ауникса науза улоқтиришда кузатиш мумкин.

Тос суюги билан сон суюгини туташтирган бўғиннинг улоқтиришга шау томони чўзилаётган, белнинг негизи улоқтириш линиясига мос ҳолатга келтирилган вақтда, элка негизи ҳали орқага тортилган бўлади, тана бурилишда давом этади. Бу билан тананинг элка ва қўл мушакларида ўсиб борувчи таранглик хосил бўлади. У эса ўз навбатида мушакда реактив, экссентрик-концентрик реаксияни келтириб чиқаради ва унинг ўта юқори тезлиқдаги қисқаришига олиб келади.

Қачонки бел тортилиб оптимал таранг ҳолатга келса, тананинг итқитишда иштирок этмаудиган қисми элка негизини эркин қўяди, ва улоқтиришга уйналтирилган куч белдан тананинг юқори қисмига, сўнgra элкага, қўлга (науза улоқтиришда

юқоридан улоқтириш, яни күчнинг элкадан қўлга қараб келиши) ва қўлнинг пастки қисмига, қўл панжаларига шундан сўнггина спорт снарядига ўтади.

Идеал ҳолатда бу эрда тана қисмларининг тезлиги, мунтазам камауборуви умумиу оғирлик туфаули ортиб боради. Бир вақтнинг ўзида қарама-қарши элка харакати тўсилади, бу эса ўз навбатида тананинг улоқтирувчи томонига энергия боришини кучаутиради, ва спорт снаяди улоқтириш олдидан максимал тезликка эришади.

**Тана мувозанатини сақлашжами** энергиянинг итқитилаётган снарядга уйналтирилганлиги боис, тананинг қолган қисми қувватдан сезиларли даражада маҳрум бўлади. Кўп холларда қолдиқ тезлик нолга тенглашади. Бу ҳолат улоқтириш ҳолати деб аталади ва тор дирадан туриб улоқтириш, итқитишдан сўнг аунан тана мувозанатини сақлаб қолишида қўл келади. Агарда улоқтиришдан сўнг танада қолдиқ тезлик сақланиб қолган бўлса, спортчи ауланиб сакраш, бурилишда давом этиш ва бошқа шу каби харакатлар билан ўз танасини доира ичидан, хусусан улоқтириш чегарасидан чиқиб кетмаслигига уринади. Науза улоқтиришда улоқтиришдан олдинги тезлик нисбатан юқорироқ бўлади, шу сабаб науза улоқтирилгач, тана мувозанатини сақлаб қолиш учун, бир ёки бир неча қўшимча қадамлар қўшишга жоу керак бўлади.


### Яхши улоқтирувчининг жисмониу ва руҳиу критериулари

- бақувват, гавдали, қўл мушаклари яхши ривожланган, кенг қулочли,
- тезкор мушак пауларига эга, мушаклари чиниқтиришга моуил,
- спринт тезлик, тезлашишдаги устунлик,
- юқори даражадаги реактивлик (узоққа сакрау олиш, ядрони куч билан итқита олиш, энгил вазнли снарядларни улоқтира олиш)
- харакатда эпчиллик, ауниқса элка кенглигига,
- мувозанат сақлашда меёрдан юқори устунлик, юқори моторик ўрганиш қобилияти,
- соғлиқ, куч сарфлаш билан боғлиқ юкламаларни кўтара олиш, тезда ўзига кела олиш хусусияти,
- бўғинлардаги бенуқсонлик,
- юқори мотивация, интилувчанлик, тиришқоқлик.

## Енгил ва оғир улоқтириш снарядлар.

SHug'ullanuvchilar o`rganilayotgan usulning texnikasi bilan tanishgandan so`ng, depsinishni to`g'ri o`rganishi shart. Asosiy diqqat depsinish uchun oyoqni qo'yilishiga qaratiladi. Keyingi o`quv topshirig'i, depsinishga tayyorlashni o`zlash-tirish bilan bir qatorda, to`liq yugurib kelishdagi oxirgi qadamlarni rejimiga qaratiladi. Bu unsunlarni texnikasiga o`rgatish qisqa yugurib kelishdan, o`rtacha (5-6 yugurish qadam) va to`liqligicha o`rgatiladi. Asosiy vazifasi bo`lib o`rganilayotgan sakrash rejimining bajarilish xarakteriga qarab, yugurish tezligini bir tekisda oshirib borib, yugurishni oxirgi qadamlarida uni yanada oshirishdan iboratdir.

Plankadan o'tishni o`zlashtirish, yugurib kelish, depsinish texnikasni o`zlashtirishdan oldin boshlanadi. Bu erda plankadan "Iqtisodli" o'tishga katta e'tibor beriladi.

Oxirgi yillarda "hatlab" o'tish usuli (asosan, ommaviy o`rgatishda) "fosberi-flop" usuli keng tarqaldi.

## **3. SAKRASHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

Sakrashda sportchilar ko`p yoki uzoq uchush davrini amalgalashiradi. Buni ular balandlikka sakrash va langar cho`p sakrash, gorizontal tezlikda uzunlikka va uch hatlab sakrashda yordam beradi. Katta sakrash impulsi bu engil atletikadagi sakrashning umumiyl bo`limidir, lekin faqatgina sakrovchilar sakrash impulsini teng huquqli obekti hisoblanadi. Bu orqali tananing bazo'r harakatlar ketma-ketligi estetikasi kengaytiradi. SHuning uchun ular kuch tomonlama chegaralanmagan bo`lishlari kerak, aks holda o`z og`irlilik – kuch qoidalarni optimizatsiyalashirishlari zarur bo`ladi. Sakrash burchagini tikholatini ko`proq rivojlantirishlari kerak. SHundagina engil atletika vakili SHmidt Hokening 80 yildan ortiq eski iborasi tushunarli bo`ladi, qaerdaki u "sakrashlar engil atletikaning eng go`zal holatlari hisoblanadi".

Bu zamonaviy muhokama emas, odatda sakrash mashqlari ham zamonaviy, o`rta asrlar, antik va shuningdek arhaik ma'daniyat hisoblanadi:

- yoshlar ham o`zaro boshlaridan sakrashgan, bu bilan ular kattalar qatoriga qabul qilinganlar.
- Antik olimpiyalarida beshhatlab sakrash, ham yugurish va disk uloqtirish qatorida engil atletika turlari deb hisoblangan.
- Ritsarlar o`yinlarida ham, kishilar ustidan o`tib uzoqqa sakrash qo`rqmas tulpor kab ima'noga ega bo`lish imkonini bergen.
- SHimoliy Germaniyada hozirgacha Stak (kichik kanallarni yog'och cho`p bilan hatla bo`tish) xalq sporti deb saqlanib qolgan.

#### 4. SAKRASH TURLARIDA FAZALAR.

Engil atletikada sakrash fazalari quyidagicha:

<b>YUgurib kelish</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- Qisqa, o`rtacha, yokiuzun</li><li>- Keng, tor egri va yarim aylana yugurib kelish</li></ul>
<b>Sakarashni shakllantirish</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- Qisqa sezilarsiz yiqilish va qisqa depsinish elementlari bilan yoki uzun tayyorgarlik va yiqilish bilan</li></ul>
<b>Uchish yo`nalishi</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- To`g`ri yoki xato</li><li>- Planka bilan yoki unga qiyrag`on</li></ul>
<b>Ko`tarilish fazasi</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- Sakrash positsiyani qayd qilish yoki depsinuvchi oyoqni tezda sakrash oyoqq aqo`yish</li></ul>
<b>Uchish fazasi</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- Cho`kkalash yoki o`tirib</li><li>- Bosh orqaga egilgan yoki ko`krak ustida (pastdagи rasmlar)</li><li>- Oyoq yoyilgan yoki buklangan ( pastdagи rasmlar)</li><li>- Ochiq yoki yopiqcho`ziqko`nishpozitsiyasi</li></ul>

## 7-AMALIY MASHG'ULOT UZUNLIKKA SAKRASH



**Uzunlikka sakrash** uchun mo'ljallangan sektor yugurib kelish yo'lkasidan, depsinish taxtachasidan va erga tushish uchun qum to`ldirilgan chuqurchadan iborat.

YUgurib kelish yo'lkasi uzunligi kamida  $40\text{ m}$ , eni  $1,22\text{-}1,25\text{ m}$  ga teng va  $50\text{ mm}$  kenglikdagi chiziqlar bilan chegaralangan bo'lishi kerak.

Depsinish uchun taxtacha yog'ochdan yoki boshqa yaroqli ashyodan tayyorlanishi kerak va uning o'lchamlari quyidagicha, eni –  $198\text{-}202\text{ mm}$ , uzunligi –  $1,21\text{-}1,22\text{ mm}$  va maksimal qalinligi –  $100\text{ mm}$ . U yo'lka yuzasi bilan teppa-teng tuproqqa mustahkam o'rnatiladi va uning sirti oq rangga bo'yagan bo'ladi.



1-rasm. Uzunlikka sakrash.

**Uzunlikka sakrashda** depsinish taxtachasi erga tushish chuqurchasining old chekkasidan  $1\text{ m}$  dan  $3\text{ m}$  gacha etib belgilanadi.

Uzunlikka sakrashda taxtachadan erga tushish chuqurchasining chekkasigacha bo`lgan masofa kamida  $10\text{ m}$  bo'lishi lozim.

O'lchash chizig'i"ga mos keladigan taxtacha orqasida suratga olinadigan cheti indikatorli to`sish (taxtacha bosib olinganligini qayd qiluvchi moslama) o'rnatiladi. Uning uzunligi  $1,21\text{-}1,22\text{ m}$  ga va eni  $98\text{-}102\text{ mm}$  ga teng. Indikator  $0,7\text{sm}$  balandlikda yuzaga chiqib turadi, uning sirti yugurib kelish tomonidan va erga tushish chuqurchasi tomonidan  $30^\circ$  burchak ostidagi qiyalikka ega. Indikatorning chiqib turuvchi yuzasi yupqa qatlama plastilin bilan qoplanadi va unda bosib olingan iz qayd qilinadi.

Taxtachaning ikkala tomonida o'lchash chizig'i bo'ylab sektor yuzasiga eni  $10\text{ mm}$  va uzunligi  $50\text{ sm}$  bo`lgan oq chiziqlar chiziladi,  $10\text{ sm}$  masofa narida ularga taxtachaning

joyini bildirib turuvchi to'g'riburchakli ko'rsatkichlar (oq rangli qora yo'l chiziq bilan  $45^{\circ}$  burchak ostida) belgilanadi.

Uzunlikka sakrashda erga tushish uchun qum to'ldirilgan chuqurcha eni  $2,75m$  dan  $3,00\text{ m}$  gacha bo'lishi va yugurib kelish yo'lkasi o'qiga nisbatan simmetrik tarzda joylashishi lozim.

CHuqurcha qirralar bilan hoshiyalangan bo'ladi, ular yo'lka yuzasidan balandga chiqib turmasligi zarur,depsinish taxtachasiga yaqin bo'lgan qirra yo'lka darajasidan  $3\text{ sm}$  ga past bo'lishi kerak. CHuqurchadagi qum nam, yumshatilgan va yo'lka yuzasi bilan bir xil darajada bo'lishi zarur.

YUgurib kelish yo'lkasining ikkala tomonida va chuqurchaning yon qirralari uzunasi bo'ylab xavfsizlik zonasi nazarda tutilishi kerak – kamida  $1\text{ m}$ , chuqurchaning uzoq qirrasi orqasida esa – kamida  $5\text{ m}$ . Bu zonaning yuzasi yo'lka yuzasi bilan bir xil darajada turishi lozim. YUgurib kelish yo'lkasining qoplamasini yugurish yo'lkalariga qo'yiladigan talablarga javob berishi zarur.

## 2. UZUNLIKKA SAKRASHNING ASOSIY QOIDALARI

Uzunlikka sakrashda depsinish taxtachadan yoki yo'lka yuzasidan bir oyoqda bajariladi. Bunda indikatorni bosib olmaslikliz ozim.

Uzunlikka sakrash natijalari tananing istalgan qismi (yoki qo'l) bilan qoldirilgan izdagi eng yaqin nuqtaga qarab o'lhash chizig'iga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq bo'yab o'lchanadi.

**Sakrovchining natijasi e'tiborga olinmaydi, agar:**

- sakrashni bajarmay, taxtacha ustidan yoki uning yonidagi o'lhash chizig'i ustidan yugurib o'tib ketsa;
- depsinishda o'lhash chizig'idan o'tib ketsa yoki bosib olsa;
- taxtachaning yon tomonidan depsinishni bajarsa;
- erga tushish paytida tananing istalgan qismi bilan chuqurchaning yon chekkasi tashqarisidagi sektor yuzasiga tegib ketsa, bunda erga tushishda qoldirilgan izga qaraganda depsinish taxtachasiga yaqinroq turib qolsa;
- sakrashni bajarib bo'lgandan so'ng erga tushish chuqurchasi orqali orqaga qaytsa;
- sakrashda har qanday shakldagi saltodan foydalangan bo'lsa;
- urinish uchun ajratilgan vaqtini cho'zib yuborsa.

**Uzunlikka sakrash texnikasi.** Uzunlikka sakrash samaradorligi depsinish fazasida, sakrash natija-liligining asosiy omillari hosil bo'ladigan paytda aniqlanadi. Bunday omillarga quyidagilar kiradi: 1) sakrovchi tanasining boshlang'ich uchib chiqish tezligi; 2) sakrovchi tanasi umumiyligi og'irlilik markazi (keyingi o'rnlarda UOM deb yuritiladi)ning uchib chiqish burchagi. UOMning uchish fazasidagi harakat yo'nalishi depsinish xususiyatiga va sakrash turiga bog'liq bo'ladi.

engil atletika sakrashlari o'z tuzilishiga ko'ra aralash turga taalluqlidir, ya'ni bu erda ham siklik, ham atsiklik harakat elementlari mayjud.

Uzunlikka sakrashni yaxlit harakat sifatida tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

- yugurib kelish va depsinishga tayyorlanish – harakat boshlanishidan tortib to depsinadigan oyoqni depsinish joyiga qo'yish paytigacha;
- depsinish (itarilish) – depsinadigan oyoqni qo'ygan paytdan boshlab, to uning depsinish joyidan uzilish paytigacha;
- uchish – depsinadigan oyoq depsinish joyidan uzilgan paytdan boshlab to erga qo'nish joyiga tegish paytigacha;
- erga tushish – erga tushish joyiga tegish paytidan boshlab to tana harakati to'liq to'xtagunga qadar.

### **3. UZUNLIKKA SAKRASH USULLARI.**

Uzunlikka sakrashning ham boshqa sakrash turlari kabi usullari mavjud. Bu usullar uzunlikka sakrashning yillardavomida rivojlanishi va taraqqiy etishi natijasida vujudga kelgan. Uzunlikka sakrashning “oyoqlarni bukib”, “qaychi” va “ko`krak kerib” sakrash usullari bor bo`lib, ular o`zining bajarilish texnikasi vauslubi bilan bir biridan farq qiladi. Demak, bu usullarni navbatil bilan ko`rib chiqish talab etiladi.

“Oyoqlarni bukib” usulida sakrashning uchish fazasi ham ijo etish, ham texnikasini o`rganish uchun oddiy hisoblanadi. Erdan ko`tarilgandan so`ng qadam tashlash holatida depsinuvchi oyoq tizza bo`g`imidan bukiladi va sultanuvchi oyoqqa olib kelinadi, elka muvozanatni saqlash uchun, shuningdek, qorin pressi mushaklari hamda oyoqlarni osilib turgan holatda ushlab turuvchi sonlar old yuzasining ortiqcha zo`riqishini yo`qotish uchun biroz orqaga olinadi. Tirsak bo`g`imlaridan biroz bukilgan qo`llar yuqoriga ko`tariladi. UOM yo`nalishi pastga tusha boshlagan paytda elkalar oldinga chiqariladi, qo`llar oldinga-pastga harakat qilib pastga tushiriladi, oyoqlar tizza bo`g`imidan to`g`rlanib ko`krakka yaqinlashadi. Sakrovchi erga tushishu chun holatni egallaydi.

“Ko`krak kerib” usulida sakrash ancha murakkab bo`lib, uchishda ma`lum bir harakat koordinatsiyasini taqozo etadi. Erdan ko`tarilgandan va qadam tashlashda uchishdan so`ng sultanuvchi oyoq pastga-orqaga depsinuvchi oyoqqa tushiriladi. Oldinda turgan qo`l pastga tushiriladi va boshqa qo`l bilan birlashtiriladi; qo`llar tirsak bo`g`imlaridan to`g`rlanadi; keyin orqaga harakatlangan holda yuqoriga ko`tariladi.

Sakrovchi orqaga egilgan holatga o`tadi va shu holatda uchish fazasining deyarli yarmini bosib o`tgan holda go`yo tanaffus ushlaydi. Keyin ikkala oyoq tos-son va tizza bo`g`imlaridan bukilgan holda oldinga ketadi, elkalar biroz oldingaegiladi, qo`llar oldinga-pastga tushiriladi. Uchishning yakuniy qismida oyoqlar tizza bo`g`imlaridan tekislanadi, qo`llar orqaga uzatiladi. Sakrovchi erga tushish uchun holat egallaydi.

Texnikasi bo`yicha eng murakkab va samarali sakrash usuli – bu “qaychi” usulidir. Uning samaradorligi yugurib kelishdan depsinishga o`tishda va uchishdagi harakatlarda yugurish qadaming muvofiqlashtiruvchi tuzilmasi hisobiga namoyon bo`ladi. Bu usulning aniqroq nomi – “havoda yugurish”, chunki sakrovchi uchishpaytida 2,5-3,5 qadamtashlashlarnibajaradi.

Uchish paytida qadam tashlash holatidan (birinchi qadam) sultanuvchi oyoq tekislanib, pastga-orqaga tushiriladi, depsinuvchi oyoq oldinga chiqariladi. Sultanuvchi oyoq harakatni davom ettirgan holda orqaga harakat qiladi, tizza bo`g`imidan bukiladi, depsinuvchi oyoq esa tizza bo`g`imidan bukilgan holda soni bilan oldinga chiqariladi (ikkinchi qadam). SHundan so`ng tizza bo`g`imidan bukilgan sultanuvchi oyoq oldinga chiqariladi va depsinuvchi oyoqqa biriktiriladi. Keyin ikkala oyoq tizza bo`g`imidan tekislanadi va erga tushishdan oldingi holatni egallaydi. Qo`llar yon tomon orqali aylanma harakatlarni bajaradi. Sultanuvchi oyoq pastga tushirilgan paytda unga teskari bo`lgan qo`l pastga tushiriladi, boshqa qo`l esa yuqoriga ko`tariladi. Depsinuvchi oyoq oldinga chiqarilgan paytda unga teskari bo`lgan qo`l ham oldinga chiqariladi, boshqa qo`l esa orqaga uzatiladi. Sultanuvchi oyoqni depsinuvchi oyoqqa birlashtirishda qo`llar pastga tushiriladi va erga tushishdan oldin orqaga uzatiladi.

### **4. UZUNLIKKA SAKRASH FAZALARI**

**YUgurib kelish va depsinishga tayyorlanish.** Uzunlikka sakrashda yugurib kelish o`ziga xos xususiyatlarga ega, lekin ma`lum bir umumiyl tomonlari ham bor. YUgurib kelishning asosiy vazifasi – sakrovchi tanasiga sakrashga mos bo`lgan optimal yugurib kelish tezligini berish hamda depsinish fazasi uchun optimal sharotlarni yaratish. Deyarli hamma turlarda sakrashlar to`g`ri chiziqli shaklga ega.

YUgurib kelish depsinishga tayyorlanish boshlanishidan oldin siklik harakat tuzilishiga ega.Unda yugurish harakatlari yugurib kelishdagi harakatlardan bir oz farq qiladi. **YUgurib kelish maromi doimiy bo`lishi kerak**, ya`ni uni urinishdan-urinishga

o`zgartirib turish kerak emas. Odatda yugurib kelish sportchida ayni paytda kuzatiladigan uning jismoniy imkoniyatlariga mos keladi. Tabiiyki, jismoniy funksiyalar yaxshilanishi bilan yugurib kelish o`zgaradi, tezlik, qadamlar soni oshadi (ma'lum chegaragacha), lekin yugurish maromi o`zgarmaydi. Bu o`zgarishlar sakrovchining ikkita asosiy jismoniy sifatlariga bog'liq, ularni parallel tarzda rivojlantirish zarur. Bu tezkorlik va kuchdir.

YUgurib kelishning boshlanishi odatiy, har doim bir xil bo`lishi kerak. Sakrovchi yugurib kelishni, go`yoki start olgandek, turgan joyidan yoki yugurib kelish boshlanishining nazorat belgisigacha kelish bilan boshlashi mumkin. YUgurib kelishda sakrovchining vazifasi nafaqat optimal tezlikka erishish, balki dnpesinadigan oyoqnidepsinish joyiga aniq qo`ya bilish lozim, shuning uchun yugurib kelish, uning maromi va hamma harakatlar doimiy bo`lishi kerak.

YUgurib kelishning ikkita variantini ajratish mumkin: 1) bir xil tezlanish bilan yugurib kelish; 2) tezlikni saqlab turishi bilan yugurib kelish. **Bir xil tezlanish bilan yugurib kelishda** sakrovchi asta-sekin tezlik ola boshlaydi, uni yugurib kelishning oxirgi qadamlarida optimal darajagacha etkazadi. **Tezlikni saqlab turish bilanyugurib kelishda** sakrovchi deyarli darrov, birinchi qadamlardanoq optimal tezlikni oladi, uni butun yugurib kelish davomida saqlab turadi, oxirida so`nggi qadamlarda uni bir oz oshiradi. U yoki bu yugurib kelish variantining qo`llanilishi sakrovchining individual xususiyatlariga bog'liq.

YUgurib kelishning oxirgi qismining (depsinishga tayyorlanish) ajralib turuvchi xususiyati sakrash turiga bog'liq. Umumiy ajralib turuvchi xususiyati – yugurib kelish va yugurib kelish bo`lagida tana a`zolari harakatlari tezligining oshishidir.

YUgurib kelib uzunlikka sakrashda va yugurib kelib uch hatlab sakrashda depsinishga tayyorlanishda oxirgi qadamlarning uzunligi bir oz kamayadi va ularning sur'ati oshadi.

Oxirgi qadamlar va depsinish orasida hech qanday to`xtalishlar yoki harakat sekinlashishi, tezlikning yo`qotilishi bo`lmasligi kerak.

YUguri bkelishning oxirgi qismi qancha tezroq va samaraliroq bajarilsa, depsinishshunchasifatliroqbajariladi.

**Depsinish** – harqanday sakrashning asosiy fazasidir. U depsinuvchi oyoqni tayanchga qo`yan paytdan boshlab to u tayanchdan uzilgunga qadar davom etadi. Sakrashlarda bu faza juda qisqa muddatli bo`lib, ayni vaqtida juda muhim sanaladi va faol o`tadi. Biomexanika nuqtai nazaridan depsinishga ma'lum bir kuchlanishlarning tayanch bilan o`zaro ta'sirida sakrovchi tanasi tezligi vektorining o`zgarishi sifatida ta`rif berish mumkin. Depsinish fazasini ikki qismga bo`lish mumkin: 1) hosil qiluvchi va 2) yaratuvchi.

Birinchi qismi tezlik vektorini o`zgartirish uchun sharoitlar yaratadi, ikkinchisi esa bu sharoitlarni amalga oshiradi, ya`ni sakrashning o`zini, uning natijasini yaratadi.

Gorizontal tezlikni vertical tezlikka o`tkazish samaradorligini belgilab beruvchi omillardan biri **depsinuvchi oyoqni qo`yish burchagi** hisoblanadi. Hamma sakrashlarda oyoq depsinish joyiga tez, chaqqon va qattiq qo`yiladi, oyoq kafti tayanchga tegishi bilanoq u tizza bo`g'imidan tekislanishi kerak. Depsinuvchi oyoqni qo`yish burchagi oyoqni qo`yish joyi va UOMni sirt chizig`I bilan bog`lovchi oyoqning uzunasiga o`qi bo`yicha aniqlanadi.

**Uchish.** Sakrashning bu yaxlit bajarilish fazasi tayanchsiz hisoblanadi. SHuni tushunib olish muhimki, uchish fazasida sakrovchi UOMning harakat yo`nalishini hech qachon o`zgartira olmaydi. Bu yo`nalish depsinish fazasida beriladi. Biroq sakrovchi UOMga nisbatan tana a`zolari holatini o`zgartirishi mumkin. Nima uchun sakrovchi qo`llari, oyoqlari yordamida turli xil harakatlarni bajaradi, havoda gavda holatini o`zgartiradi? Uchish texnikasi nima uchun o`rganiladi? Bu savollarga javob mazkur sakrash fazasining maqsadida yotadi. Uzunlikka sakrashda – uchishda muvozanatni saqlash va erga tushish uchun optimal sharoitlar yaratish.

Uchish paytda UOMning harakat yo`nalishini o`zgartirish mumkin emas, lekin tana a`zolari holatini UOMga nisbatan o`zgartirish mumkin. Masalan, gimnastika,

akrobatika, suvgaga sakrash kabi sport turlarida har xil aylanishlar bajariladi, lekin ularning barchasi UOM atrofida bajariladi.

Demak, uchish paytida gavda a'zolarini harakatlantirish orqali biz yoki optimal uchish sharoitlarini yaratishimiz, yoki ularni buzishimiz va shu orqali sakrash natijasini pasaytirib yuborishimiz mumkin. Uzunlikka sakrashda g'olib va sovrindorlarni 1-2 sm ajratib turgan paytlarda uchishda oqilona va samarali harakatlanish texnikasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lishi mumkin.

**Erga tushish (qo`nish).** Har bir sakrash erga tushish fazasi bilan yakunlanadi. Harqanday erga tushishning maqsadi – sportchiga xavf-xatarsiz sharoitlarni yaratish, har xil jarohatlanishlarni oldini olishdir.

erga tushish paytida sakrovchining tanasi kuchli zarb ta'siriga uchraydi. Bu zarb nafaqat er bilan to`qnashadigan tana a'zolariga, balki distal, undan ancha uzoqda turgan a'zolarga ham tushadi. Ichki organlar ham shunday zarb ta'siriga duch keladi. Bu shu organlarning hayot faoliyatining turlixil buzilishlariga va kasallanishlariga olib kelishi mumkin. Bu omilning zararli ta'sirini kamaytirish zarur.

Bu erdai kkita yo`lbor: birinchisi – ergatushishjoyiniyaxshilash; ikkinchisi – ergatushishtexnikasini optimal darajada o`zlashtirib olish. Uzunlikka sakrashda erga tushish joyi qum to`ldirilgan chuqur hisoblanadi. Uzunlikka sakrashda qo`nishni havfsiz amalga oshirish uchun texnikani yaxshi o`zlashtirish talab etiladi. Boshqa sakrash turlaridan farqli ravishda uzunlikka sakrovchilar qumt o`ldirilgan chuqurchaga sakrasalarda, biroq natijalar o'sib bormoqda. Bunings ababi, ikkinchi yo'l – erga tushish uchun optimal sharoitlarni yaratish hamda ergatushishning optimal texnikasi.

## 8-AMALIY MASHG'ULOT BALANDLIKKA SAKRASH



### 1. BALANDLIKKA SAKRASHNING QISQACHA TARIXI

Balandlikka sakrash bu engil atletikaning murakkab tehnik o`zgarishlari, ko`pincha tehnik revolyutsiyalarga yaqin distsiplinasidir. Birinchi yugurib kelib oyoqni bukib, keyinroq qaychisimon balandlikka, yumalab, burilib sakrashlar va ohirisida esa yumshoq gilamchaga qo`nislari mumkin bo`lgan-flop usulida esa yoysimon yugurib kelib qaychisimon yonga sakrashgan. Har tehnika o`zgarishida sakrovchilar gorizontal, yotgan holatlarni qabul qilishgan, planka atrofida ko`proq aylanishgan, shuning natijasida KSP uchish balandligida planka balandga qo`yilishi mumkin bo`lgan, yoki aksincha sakrovchilar uchun uncha yuqori bo`Imagan sakrash impulse etarli bo`lgan.

Flop tehnikaning paydo bo`lishi tasodif emas, SHimoliy Amerikada qumli tepaliklar penoplastning bo`yralardan bo`sab, er maydonlari paydo bo`lgan. YUmshoq bo`yralar sakrashda sakrovchilar tana a`zolari (elka, bosh, korpus) bilan birinchi planklardan yumalab o`tishlariga yordam bergen va erga osonroq qo`nislari mumkin bo`lgan. SHu orqali flop tehnikasini sakrovchilar osonroq va yoqimli bajarishgan, tezroq va jo`shqin ravishda sakrashgan, misol tariqasida yoysimon sakrashda oyoqning siltinishi birinchi plankadan boshlanadi. Sakrash tarixidagi gohi ko`rsatmalar shuni ko`rsatyaptiki, plankalarda flop usulida sakrash qaychisimon sakrashdan ancha oldin rivojlangan. Dik Fosburinig ihtirolari faqatgina shartli ravishda qisqaradi, ihtirolar ko`p hollarda yangi ma'lumotlarni rivojlanishi yuritiladi. O`zining olimpiyada o`yinlaridagi g'alabasi Flop usulini yana qo`shimcha qo`llaydi.


### 2. BALANDLIKKA SAKRASHGA TA'RIF.

Balandlikka sakrash—vertical holatdagi engil atletika sakrash turi bo`lib, yugurib kelish orqali, bitta oyoqqa tiralib sakrash va ma'lum bir balandlikka o`rnatilgan plankadan oshib o`tib, maxsus porolondan tayyorlangan gilamga tushishdan iborat harakatdir. Balandlikka sakrash atsiklik tur bo`lib, u sportchidan tezlik-kuch sifatlarini, sakrovchanlikni, chaqqonlikni, egiluvchanlikni namoyon qilishni talab etadi. erkaklarda va ayollarda musobaqalar stadionda va manej (yopiq engil atletika maydoni) da o`tkaziladi.


### 3. BALANDLIKKA SAKRASH USULLARI.

Balandlikka sakrash usullari— sportchilarningdepsinishi va plankani zabit etish uchun sakrashning depsinish va uchish fazasidagi ko`rinishidagi farqlanuvchi harakatlaridan tashkil topadi. Uning usullari “fosbyuri-flop”, “hatlab o`tish”, “perikidnoy”, “perakat” va “to`lqin”.


Xorijiy manbaalarga asosan ushbu sakrash turida turli usullar mavjud. Ular biznikilardan nom jihatdan farq qilsada, lekin ko`rinishidan uncha ko`p farqqilmaydi. Unga ko`ra:




2-rasm. Afrikancha sakr ash



3-rasm. Qaychisimon sakrash



4-rasm. Aylana sakrash



5-rasm. Fosberi-flop usuli.



6-rasm. Perekidnoy usuli.



7-rasm. Hatlab o'tish usuli.

#### 4. BALANDLIKKA SAKRASH FAZALARI.

Balandlikka sakrashning boshqa sakrash turlari kabi o`ziga xos harakatlar ketma-ketligi (fazalari) bo`lib, ular quydagicha:

- 1) yugurib kelish;
- 2) depsinish;
- 3) planka ustidan oshi bo'tish;
- 4) qo'nishdan iborat.

Sportchilardan har bir fazadan qulay va unumli foydalanishi talab etiladi. Bu ularning mashg'ulot jarayonida qanchalik puxta tayyorgarlik ko'rganiga bog'liq. Optimal yugurib kelish masofasini tanlay olish va yugurib kelishda jismoniy tayyorgarlik holatidan

kelib chiqib tezlikka erishishi muhim. Chunki, yugurib kelish masofasini to`g`ri tanlash depsinishning samarali chiqishiga omil bo`ladi. Depsinishda esa sportchi egallagan tezligi hisobiga yuqoriga ntiladi. Bu vaqtda undan gavdasini imkon qadar yuqoriga tortishi talab etiladi. Qanchalik yuqori va qulay depsinishga erishilsa, plankadan o`tish ya`ni havoda uchish jarayoni ko`ngildagidek bo`ladi. Plankada o`tish vaqtida sportchi tanasini nazorat qila olishi uning urinishni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga xizmat qiladi. YA`ni sportchi havodaligida tayanchsiz, muallaq holatda bo`lgani uchun tanani boshqara olish va nazorat qilish muhim sanaladi. Qo`nish esa planka ustidan to`g`ri va yaxshi o`tishga bog`liq. Qo`nish xavfsiz bo`lishi uchun sportchi qo`nish joyiga imkon qadar orqasi yoki elkasi bilan tushishi lozim. SHundagina jarahat olish ehtimoli kamayadi.

## 5. BALANDLIKKA SAKRASHDA MUSOBAQA QOIDALARI.

Sakrashlar bo`yicha musobaqa qatnashchisi yoki taklif qilingan shaxsiy belgilari yordamida o`zining yugurib kelish chizig`ini belgilab olish huquqiga ega, lekinbo`ryokibo`yoqyordamidabelgiqo`yishgaruxsatberilmaydi.

Sakrashlarda sportchi chigal yozdi urinishlari musobaqa boshlanishiga qadar qolgan vaqtda amalga oshirishi mumkin bo`ladi.

Musobaqalar boshlangan paytdan sakrashlar uchun mo`ljallangan sektorlarda badan qizdirish mashqlarini bajarishga ruxsat berilmaydi.

Qatnashchilar hamma urinishlarni galma-gal bajaradilar.

Ishtirokchi faqat hakam chaqirganidan keyingina urinishni bajarishga kirishadi. Sakrashlarda urinishga tayyorgarlik ko`rish va uni bajarish uchun 1 min vaqt beriladi. Vaqtini hisobga olish start beruvchi hakam tomonidan urinishni bajarishga chaqirilgan paytdan boshlab amalga oshiriladi. Sportchi urinishlar orasida uch, to`rt minut tanaffus qilish huquqiga ega. Agar ishtirokchi urinishni bajarish vaqtini ataylab cho`zayotgan bo`lsa, u ushbu urinishni bajarish huquqidan mahrum qilinishi mumkin; agar urinishni bajarish paytida qatnashchiga halaqit qilingan bo`lsa, katta hakam bu urinish o`rniga boshqa urinish berish huquqiga ega. Qatnashchi navbatdagi urinishdan voz vechish huquqiga ega, bunda u keyingi urinishlarni bajarish huquqini yo`qotmaydi.

Urinish bajarilgandan keyin hakam, agar qoida buzilishiga yo`l qo`yilmagan bo`lsa, “Ha” buyrug`ini beradi va oq bayroqcha ko`taradi yoki, qoida buzilgan bo`lsa, “Yo`q” buyrug`ini beradi va qizil bayroqcha ko`taradi. Barcha muvaffaqiyatli urinishlar natijalari o`lchanadi va bayonnomaga yoziladi. Muvaffaqiyatsiz urinishlar o`lchanmaydi.

Bayonnomaga quyidagicha yozuvlar kiritiladi:

- urinish e`tiborga olinganda o`lchan natijalari qo`yib chiqiladi, balandlikka sakrashda “O” belgisi qo`yiladi;
- urinish e`tiborga olinmaganda “X” belgisi qo`yiladi;
- urinish o`tkazib yuborilganda “–” belgisi qo`yiladi.

Agar ob-havo sharoitlari yoki boshqa ob`ektiv sabablarga ko`ra musobaqalar to`xtatilgan bo`lsa, bosh hakam musobaqalarni yangidan o`sha qatnashchilar bilan va to`xtab qolgan urinishdan boshlab o`tkazishga ruxsat berishi mumkin. Musobaqalar ertangi kunga ko`chirilganda ular birinchi urinishdan boshlanadi.

Qatnashchilarning shaxsiy o`rnlari dastlabki va final musobaqalarida ko`rsatilgan eng yaxshi natijaga ko`ra aniqlanadi. Agar ikkita (yoki ko`proq) qatnashchi bir xil natija ko`rsatsa, urinishdan qat`inazar, ikkinchi natija qaraladi, agar u ham bir xil bo`lsa, unda uchinchi natija ko`rib chiqiladi va shutariqa qatnashchilardan birining ustunligi aniqlab olinadi. Agar hamma ko`rsatkichlar ularda bir xil bo`lsa, unda g`olibni aniqlash uchun ularga qo`shimcha urinish beriladi.

Qolgan barcha o`rnlari uchun bu qoida amal qilmaydi.

Qatnashchilarning eng yaxshi natijalari, jumladan, birinchi o`rinni aniqlash uchun berilgan qo`shimcha urinishlardagi natijalar ham ularning hisoblariga yoziladi.

## 9-AMALIY MASHG'ULOT ULOQTIRISH TURLARI



### 1. ULOQTIRISH TURLARIGA UMUMIY TAVSIF.

**Engil atletika uloqtirishlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:**

- 1) to`g'ridan yugurib kelib aerodinamik xususiyatlarga ega va ega bo`Imagan snaryadlarni uloqtirish;
- 2) snaryadlarni aylana ichidan uloqtirish;
- 3) snaryadni aylana ichidan itqitish.

Boz ustiga, e'tibor qaratish lozimki, uloqtirishlarda texnik jihatdan har xil yugurib kelish turini bajarishga ruxsat beriladi, lekin final kuchlanishi faqat qoidalarga asosan bajariladi. Masalan, nayza, granata, to`pni faqat bosh orqasidan, elka ustidan uloqtirish kerak; diskni faqat yon tomondan uloqtirish mumkin; bosqonni faqat yon tomondan uloqtirish zarur; yadroni sakrab turib va burilishda itqitish, lekin albatta itqitish mumkin.

<b>ULOQTIRISH TURLARI</b>		
 2-rasm.	<b>Nayza</b>	<p>atsiklik tur, u sportchidan tezlik-kuch sifatlarini, egiluvchanlikni, chaqqonlikni namoyon qilishni talab qiladi.</p> <p>Uloqtirish to`g'ridan yugurib kelib bajariladi, erkaklar va ayollarda, faqat stadionda o`tkaziladi. Nayza aerodinamik xususiyatlarga ega.</p>
 3-rasm.	<b>Disk</b>	<p>atsiklik turlar, ular sportchidan kuch, tezlik-kuch sifatlarini, egiluvchanlikni, chaqqonlikni namoyon qilishni taqozo etadi. Uloqtirishlar aylana ichidan (cheklangan joydan), erkaklar va ayollar tomonidan, faqat stadionda bajariladi. Disk aerodinamik xususiyatlarga ega.</p>
 4-rasm.	<b>Bosqon</b>	<p>atsiklik turlar, ular sportchidan kuch, tezlik-kuch sifatlarini, egiluvchanlikni, chaqqonlikni namoyon qilishni taqozo etadi. Uloqtirishlar aylana ichidan (cheklangan joydan), erkaklar va ayollar tomonidan, faqat stadionda bajariladi. Disk aerodinamik xususiyatlarga ega.</p>



5-rasm.

Yadro

atsiklik tur, u sportchidan kuch, tezlik-kuch sifatlarini, chaqqonlikni namoyon qilishni taqozo etadi. Itqitish aylana ichidan (cheklangan joydan), erkaklar va ayollar tomonidan, stadionda va manejda bajariladi.

**Izoh:** *YUqorida keltirilgan uloqtirishning barcha turlari Olimpiyada o`yinlari dasturidan o`rin olgan.*

## 2. ULOQTIRISH TURLARINI QAMRAB OLUVCHI ASPEKTLAR.

### Uloqtirish – bu nima?

#### Musobaqa snaryadlarining og'irligi (kilogrammda)

Uloqtirish turi	O'smir.	B-yoshdag'i	A-yoshdag'i	Kichik yoshdag'i /katta yoshdagilar sportchilar
<b>Erkaklar</b>	YAdro	4	5	6
	Disk	1	1,5	1,75
	Nayza	0,6	0,7	0,8
	Bosqon	4	5	6
<b>Ayollar</b>	YAdro	3	4	4
	Disk	1	1	1
	Nayza	0,6	0,6	0,6
	Bosqon	3	3	4

**Snaryadlarni uloqtirish.** engil atletikada uloqtirish sportining maqsadi uloqtirish turlari bo'yicha qoidalarga ko'ra ma'lum snaryad turini mumkin qadar uzoq masofaga uloqtirishdir. Uloqtirish masofasi fizika nuqtai nazaridan olganda, qiyalab itqitishning qonuniyatlariga bog'liqdir. YA'ni, snaryadning katta uchish tezligi uloqtirish masofasi ta'sir o'tkazadi.

Bundan tashqari albatta o'zga shaklga keltirilgan quyidagi omillar ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi:

- Uchib chiqish burchagi;
  - Uchib chiqish balandligi;
  - Nayza va diskning aerodinamik xususiyatlari;
- SHuningdek:
- Shamol tezligi va yo'nalishi.

**Uchib chiqish burchagi.** Snaryadlar uloqtirilganda ideal shart sharoitda uchib chiqish burchagi 45 gradusni tashkil etadi, bu holatni o'q uzishdagi holat bilan taqqoslash mumkin. Bu aynilsa o'ta katta uchib chiqish tezligi va bir xil uchish balandligida ko'rindi. engil atletikadagi uloqtirishda ideal uchib chiqish burchagi ushbu ko'rsatkichdan ma'lum darajada past bo'ladi. CHunki bu holat snaryadning tushishiga qiyoslaganda yuqori bo'lgan uchib chiqish nuqtasi bilan (aynilsa yadro itqitishda o'ta muhim, chunki bunda balandlikdagi farq va uloqtirish masofasining o'zaro munosabati o'ta kattadir), insonning

anatomik tuzilishi (qo'l va elka mushaklariga qaraganda kuchliroq bo'lgan oyoqlar va orqa tos mushaklari) va shuningdek, uloqtirish snaryadlarining aerodinamik o'ziga xos jixatlariga ham bog'liqdir.

**Uchib chiqish tezligi.** Uchib chiqish tezligi uloqtirish bo'yicha 2.1. jadvaldagagi kabi natijani ko'rsatadigan eng muhim ta'sir etuvchi omildir. Jadval bundan tashqari uchib chiqish tezligiga qarama qarshi o'laroq uchib chiqish burchagi faqat ma'lum xajmda natijani pasaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Ko'pincha sportchilar tekkis uchib chiqish burchagi ostida – xarakatlanuvchi mushaklar uchun eng qulay vaziyat yuzaga kelishi sababli – eng yuqori tezlikka ega bo'ladilar (Hinz, 1991). YOmon ob havo sharoiti tufayli uloqtirish turiga xos, individual optimal uchib chiqish burchagi, yana bir bor o'zgarishi mumkin, qarama qarshi tezlikdagi shamol esayotgan paytda misol uchun disk itqitishda yassi uchib chiqish burchagini nafi kattadir (2.1. jadvalga qaralsin). Ammo 1980 yildagi musobaqalar vaqtida yomon ob havo natijasida nayza uloqtirish jarayonida qoidaga ko'ra snaryadning oldinga chiqib qolshi, nayzaning uchish va sapchish xususiyatini shu darajada yomonlashtirdiki, bugungi kunda qarama qarshi tezlikdagi shamol esayotgan paytda uchib chiqish burchagi qanday bo'lishi kerakligi xaqida hech qanday umumiylar tavsiyalar mavjud emas.

**Uchib chiqish balandligi.** Uchib chiqish balandligi sport snaryadlarining parabola shaklidagi uchish traektoriyasining 1:1 nisbatidan kelib chiqib, uloqtirish masofasini belgilaydi. YA'ni uloqtirish 20 santimetr balandroq bo'lsa, snaryad bunday sharoitda 20 santimetr uzoqroqqa tushadi. Ammo boshqa o'lchamlarga nisbatan uchib chiqish balandligi uloqtirish masofasiga kamroq ta'sirga ega, shu sababdan ham u mashg'ulotlar jarayonida birinchi o'rindagi maqsad sifatida ko'rilmasligi lozim.

Engil atletikadagi uloqtirish sportida uchib chiqish burchagi			
Snaryad	odatiy shart sharoitda	qaramaqrashitomondan esayotgan shamol paytda	bir tomoniga esayotgan yo'ldosh shamol paytda
yadro	38 - 41°	-	-
disk	32 - 35°	27 - 32°	35 - 42°
nayza	37 - 38°	34 - 37°	38 - 41°
bosqon	42 - 45°	-	-

**Uloqtirish – atsiklik egiluvchanlik mashqi.** Uloqtirish bo'yicha xarakatlar ideal holatda atsiklik egiluvchanlik mashqi sifatida ko'riliши va Maynel/SNabel 2007 ning uch etapli modeliga ko'ra quyidagicha bo'linishi mumkin:

1. **Tayyorgarlik ko'rish fazasi:** Xarakatlarning olg'a intilish va yugurib tezlashishdan (tezlikni oshirish, sapchish, sapchishning boshlanishi yoki tananing burilishi) uloqtirish/itqitishgacha bo'lgan davri.

2. **Asosiy faz (uloqtirish snaryadining asosiy tezlashish davri):** uloqtirish/itqitish vaqtidan boshlab sport snaryadining uchib chiqishigacha bo'lgan vaqt (bosqon uloqtirishda tananing burilishlari ham asosiy fazaga kiritiladi).

3. **YAkuniy faz:** sport snaryadining uchib chiqqanidan keyin tanani tutib qolish (aynan musobaqalarda uloqtirish/itqitishning hisobga olinishida o'ta muxim).

**Oldindan yugurib tezlashish.** Uloqtirishda sportchilar o'zlarining sport snaryadlariga katta uchib chiqish tezligi berishadi. Bunda albatta optimal uchib chiqish

burchagi va snaryadning ma'lum uchish xususiyatlarini hisobga olinib, uzoq masofaga uloqtirishga xarakat qilinadi. SHu sababdan uchib chiqishdagi eng katta turtki engil atletikadagi uloqtirish turlarining barchalariga xos bo`lgan xarakatlar majmuyidir. Uchib chiqishga optimal sharoit yaratish uchun sportchi daslab jami atlet – snaryad tizimini tezlashtirishi lozim. Ushbu tezlashish asosan oyoqlar, nayza uloqtirishda yugurib tezlashish, doira ichidan uloqtirishda esa tananning burilishi yoki sapchishning boshlanishi bilan amalga oshiriladi. Bunda sportchining maqsadi tezlikni oshiruvchi xarakatlarni uzaytirishdir. Bu holatni ayniqsa yadro itqitishda sapchishning boshlanish texnikasida kuzatish mumkin: bunda yadro itqituvchi engashgan holatdan, itqitish yo`nalishiga teskari bo`lgan tomondan xarakatlanishni boshlaydi.

**Tananing burilishi.** Tananing yuqori qismi oyoqlarning tezlashishiga majburan bo`ysunadi va uloqtirishning boshlanishida qisqa muddatli sustkashlik yuzaga keladi, ya`ni ko`pincha tananing umurtqa qismida xuddi bo`lt kabi burilish xosil bo`ladi: tananing elka qismi bel tomon, pastroqda esa bel qismi oyoqlarga nisbatan aylanma tarzda buriladi (bosqon uloqtirish misolidagi oyoq uchlari orasidagi to`g`ri chiziq ko`rsatilgan 2.2. rasmga qaralsin). Sport snaryadining tezlashishi qisqa muddatga sekinlashadi, oyoyoqlar va bel tananing yuqori qismidan o`tib ketadi. Bu bilan katta, to`g`ri egiluvchan mushaklar bilan bir vaqtida diagonal mushaklar ham xarakatga keltiriladi: tananing yuqori qismida egri umurtqa mushaklari, oyoqlarda esa abduktor va adduktor mushaklar. Tananing burilishi orqali barcha ishtirok etuvchi mushaklarda reaktiv o`ta yuqori tezlik talab etadigan keskin xarakatga tayyorgarlik holati yuzaga keladi. YA`ni: mushaklar avvaliga eksentrik, so`ngra esa konsentrik ishlaydilar. Bu holat uzayish qisqarish sikli deb ham ataladi.

**Tezlik olishning asosiy fazasi.** Ikkala oyoq ham tayanch holatiga kelgach, tanadagi energiyaning oyoqdan belning itqitishga tayyor qismi tomon xarakatlanishi boshlanadi. Orqaga cho`zilgan qo`l tufayli tanada tarang tortilgan yoy holati yuzaga keladi. Bu holatni ayniqsa nayza uloqtirishda kuzatish mumkin.

Tos suyagi bilan son suyagini tutashtirgan bo`g`inning uloqtirishga shay tomoni cho`zilayotgan, belning negizi uloqtirish liniyasiga mos holatga keltirilgan vaqtda, elka negizi hali orqaga tortilgan bo`ladi, tana burilishda davom etadi. Bu bilan tananing elka va qo`l mushaklarda o`sib boruvchi taranglik xosil bo`ladi. U esa o`z navbatida mushakda reaktiv, eksentrik-konsentrik reaksiyani keltirib chiqaradi va uning o`ta yuqori tezlikdagi qisqarishiga olib keladi.

Qachonki bel tortilib optimal tarang holatga kelsa, tananing itqitishda ishtirok etmaydigan qismi elka negizini erkin qo`yadi, va uloqtirishga yo`naltirilgan kuch beldan tananing yuqori qismiga, so`ngra elkaga, qo`lga (nayza uloqtirishda yuqoridan uloqtirish, yani kuchning elkadan qo`lga qarab kelishi) va qo`lning pastki qismiga, qo`l panjalariga shundan so`nggina sport snaryadiga o`tadi.

Ideal holatda bu erda tana qismlarining tezligi, muntazam kamayib boruvchi umumiyligi og`irlilik tufayli ortib boradi. Bir vaqtning o`zida qarama-qarshi elka xarakati to`siladi, bu esa o`z navbatida tananing uloqtiruvchi tomoniga energiya borishini kuchaytiradi, va sport snaryadi uloqtirish oldidan maksimal tezlikka erishadi.

**Tana muvozanatini saqlash.** Jami energiyaning itqitilayotgan snaryadga yo`naltirilganligi bois, tananing qolgan qismi quvvatdan sezilarli darajada maxrum bo`ladi. Ko`p xollarda qoldiq tezlik nolga tenglashadi. Bu holat uloqtirish holati deb ataladi va tor diradan turib uloqtirish, itqitishdan so`ng aynan tana muvozanatini saqlab qolishda qo`l keladi. Agarda uloqtirishdan so`ng tanada qoldiq tezlik saqlanib qolgan bo`lsa, sportchi aylanib sakrash, burilishda davom etish va boshqa shu kabi xarakatlar bilan o`z tanasini doira ichidan, xususan uloqtirish chegarasidan chiqib ketmasligiga urinadi. Nayza uloqtirishda uloqtirishdan oldindi tezlik nisbatan yuqoriroq bo`ladi, shu sabab nayza uloqtirilgach, tana muvozanatini saqlab qolish uchun, bir yoki bir necha qo`shimcha qadamlar qo`yishga joy kerak bo`ladi.

## YAXSHI ULOQTIRUVCHINING JISMONIY VA RUHIY KRITERIYLARI


- baquvvat, gavdali, qo'l mushaklari yaxshi rivojlangan, keng qulochli,
- tezkor mushak paylariga ega, mushaklari chiniqtirishga moyil,
- sprint tezlik, tezlashishdagi ustunlik,
- yuqori darajadagi reaktivlik (uzoqqa sakray olish, yadroni kuch bilan itqita olish, engil vaznli snaryadlarni uloqtira olish)
- xarakatda epchillik, ayniqsa elka kengligida,
- muvozanat saqlashda meyordan yuqori ustunlik, yuqori motorik o'rganish qobiliyati,
- sog'liq, kuch sarflash bilan bog'liq yuklamalarni ko'tara olish, tezda o'ziga kela olish xususiyati,
- bo'g'inlardagi benuqsonlik,
- yuqori motivatsiya, intiluvchanlik, tirishqoqlik.

### Engil va og'ir uloqtirish snaryadlar.

**Engil snaryadlar.** Hozircha kichik hajmdagi maksimal kuchga ega bo'lgan yosh sportchilarga uloqtirish turlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish maqsadida, har bir yosh toifasi uchun engil vazndagi sport snaryadlari tavsiya etiladi. Bu bilan yosh sportchilarga sport snaryadlaridan yaxshiroq foydalana olish imkoniyati yaratiladi. Buning qo'shimcha samarasi ham mavjud: yosh, tez kuchga to'lib borayotgan sportchi, katta yoshdagagi sportchilarning masofadagi ko'rsatkichlarini takrorlay oladilar. 6 kilogrammligina yadroni 22,56 metr masofaga uloqtira olgan David Storl, bunga yaxshi misol bo'la oladi. Disk uloqtirish va yadro uloqtirish bo'yicha yosh erkaklar o'rtasidagi xalqaro musobaqalarda ham engil snaryadlar qo'llana boshlagandan beri, ushbu turlar bo'yicha ko'rsatkichlar juda ham yuqorilab ketdi, xattoki katta yoshdagagi sportchilarning bu boradagi yutuqlariga ham etib olindi. Mashg'ulotlar uchun bu quyidagi ahamiyatga ega: engil snaryadlar bilan rejalshtirilgan yuqori tezlikka dastlabki, asosiy ayniqsa esa so'ngi tezlashish fazasida oson etishish mumkin. Bunda murabbiy o'ta yuqori tezliklarda ham xarakatlanish sifati yuqori darajada qolayotganligiga albatta ishonch xosil qilishi kerak.

**Izoh:** Ayollar o'rtasida snaryadlar massasi kamdan kam holatlarda o'zgaradi. A-yoshda barcha turlar bo'yicha eng so'nggi massa ko'rsatilgan. Bu bilan ayollarning erta balog'atga etishi hisobga olinganligini ko'rishimiz mumkin. Ayollar o'rtacha hisobda erkaklar maksimal kuchining 70 foiziga etishlari mumkin, shu sababdan uloqtirish bo'yicha sport snaryadlarida ham bu holat hisobga olinishi va ayollar musobaqalarida og'ir sport snaryadlaridan ham foydalanish lozim (g'ovlar osha sprint va ko'p kurashda ham o'xshash munozaralar mavjud). Buning albatta foydali tomonlari ham mavjud, xususan, ayollar o'rtasida ham yangi jehon rekordlari o'matilishi mumkin. Ayni damda esa, musobaqalarga o'zgartirishlar kiritish rejalshtirilmagan.

Bu samaradan ayniqsa sportchilarning yosh, o'spirinlik davrida foydalanish kerak, sportchilar yosh bo'yicha o'zlaridan oldingi toifaning engil snaryadlari bilan ishlaydilar va shu tariqa yoshlarga mos maxsus mashg'ulotlar tashkil etiladi. Meyordagi snaryadlarga yaqinligi sababli, engil snaryadlar test sinov o'tkazish, oldindan prognoz berish uchun juda qo'l keladi.



**6-rasm. Bosqon uloqtirish bo`yicha mashg'ulotlar uchun tanlab olingan snaryadlar.**

**Og'ir snaryadlar.** Og'ir snaryadlardan foydalanish o`ziga xos jihatga ega. YUqori qarshi qarshilik, kuchni ham yuqori darajada qo'llashga undaydi, ishtirok etayotgan barcha mushaklarni yuqori darajada faollashishiga olib keladi, va bu bilan mushaklardagi o'sish jarayoniga katta rag'batlantiruvchi omil bo'ladi. Bu borada gap kuch ishlatalishga qaratilgan mashg'ulotlar xaqida bormoqda. Tana qarshiligi tinimsiz kuchaytirilishi mumkin emas, chunki bunda xarakatlanish jarayoniga, xususan uloqtirish texnikasiga katta putur etadi.

Harakatlanish jarayoning uzilib qolishi va uchib chiqish burchagini yassiliqi sport snaryadi o'ta og'irligining belgisidir. Bu ayniqsa xarakatlar ketma ketligini hali yaxshi o'zlashtirmagan yosh sportchilarga ko'proq tegishlidir. Ular avvaliga meyorl va engilroq snaryadlar bilan uloqtirish texnikasining nozik tomonlarini o'rganib chiqishlari lozim.

Umuman olganda, og'ir snaryadlaryordamidagi texnika mashg'uloti, shuningdek, kuch talab qiluvchi maxsus mashqlar ham, birinchi navbatda sportda ilgarilab ketgan uloqtiruvchilar uchun mo'ljallangan. Kichik yoshdag'i sportchilarda nisbatan og'ir snaryadlar foydalanilishi mumkin, ammo ular qoidaga ko'ra sportchilarning keyingi yosh toifasida foydalaniladigan snaryadlar bo'lishi mumkin. "Og'ir snaryadli uloqtirishlar" esa katta yoshdag'i sporchlarga qoldirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.


**Snaryadlarning aerodinamik xususiyatlari.** Doira shaklidagi snaryadlar (yadro, bosqon, shuningdek, zarb beruvchi va to'ldirma to'plar) uloqtirilganda, uloqtirish masofasi uchib chiqish tezligi va burchagi bilan belgilanadi; musoid shamol (bir tomonlama yo'ldosh shamol) vaqtida esa snaryadning uchish masofasi uzayadi, muxolif shamol (qarshidan esayotgan shamol) vaqtida esa snaryadning uchish masofasi qisqaradi. Ulardan farqli o'laroq disk va nayza uchish va sapchish xususiyatiga ega. Bu holat uloqtirish jarayonida, ayniqsa uchib chiqish burchagi va uchib chiqish nuqtasiga nisbatan albatta hisobga olinishi zarur.

**SHamol ta'siri xaqida muloxaza.** YAdro uloqtirishda natijaga shamolning ta'siri deyarli sezilmaydi, ammo bosqon uloqtirishda orqadan esayotgan shamol, bosqonning uzoqroq va balandroqda uchganligi sabab, kuchli shamol ta'sirida taxminan yarim metr uzoqroq masofaga tushishi mumkin.

*Izoh: Xavfsizlik nuqtai nazaridan agar imkon bo'lsa barcha aylanib uloqtirishlar mashg'ulotlar jarayonida maxsus uloqtirish sektorida amalga oshirilishi lozim.*

**Xavfsizlik.** Uloqtirishning yana bir etibordan chetda qolmasligi lozim bo'lgan jixati, uzoq masofaga uchuvchi snaryadning atrofdagi, uloqtirishda ishtirok etmayotgan shaxsga nisbatan xavf tug'dirishidir. Uloqtirish mashg'ulotlari vaqtida, ayniqsa mashg'ulotlar guruhda o'tkazilayotganda, murabbiy albatta etarlicha xavfsizlik choralarini ko'rishi lozim.

Bu birinchi navbatda uloqtirishni mashq qilayotgan va uloqtirishda ishtirok etmayotgan shaxsga (masalan boshqa sportchilar) tegishli bo`lib, ikkalalari orasidagi taxminiy uloqtirish masofasi va plus xavfsizlik masofasi saqlanishi kerak. Qoidaga ko`ra uloqtirishda ishtirok etishi kerak bo`lgan boshqa sportchilar, xavfsiz zonada, ya`ni uloqtiruvchining ortida turadilar. Ammo ayrim holatlarda uloqtirish snaryadlari nazoratdan chiqib ketishi mumkin, shu sababdan uloqtiruvchi doimo xushyor bo`lishi kerak.



**7-rasm. Sporthilarning uloqirish bo'yicha mashg'ulotlarda joylashtirish**

Aylana ichidan amalga oshiriladigan hamma turdag'i uloqtirishlarda va yadro itqitishda urinishlar statik holatdan bajarilishi hamda statik holatda aylana ichidan chiqib ketish bilan yakunlanishi kerak.

**Qatnashchilarga quyidagilar taqiqlanadi:** ikkita yoki bir nechta barmoqlarni birga bog'lash yoki bint bilan o'rab chiqish, qo'l kaftlarini bint bilan o'rash (bint va plastirdan faqat musobaqa shifokorining ruxsati bilan foydalanish mumkin, bunda jarohat musobaqalarda qatnashish imkoniyatidan mahrum qilmasa bo`ldi); snaryadga surkovchi ashyo surtishga ruxsat berilmaydi; oyoq kiyim tagining aylana sirti bilan yopishqoqligini yaxshilovchi modda-larni qo'llashga ruxsat berilmaydi.

Snaryadni yaxshiroq ushlab olish uchun qo'llarga surkovchi ashyo surtishga ruxsat beriladi. Bosqon uloqtiruvchilarga kaft tomoni silliq bo`lgan qo'lqoplardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Urinish vaqtida snaryad sinib qolganda qatnashchiga takroriy urinish beriladi.

**Urinish hisoblanmaydi, agar:**

- qatnashchi, urinishni bajarayotib (snaryadni qo'sidan chiqarib yuborishdan to turg'un holatni egallagunga qadar), tanasi, kiyimi, oyoq kiyimining istalgan qismi bilan aylana tashqarisidagi (to'sin oldidagi) erga tegib ketsa yoki halqa, taxtacha, to'sinni bosib olsa yoxud ularga yuqorida tegib o'tsa (bunda halqa yoki taxtachaning ichki qismiga tayanishga ruxsat beriladi), yoki snaryadni chiqarib yuborganda u halqa yoki to'sin orqasiga qulasa;

- snaryad uloqtirish sektorini cheklovchi chiziq tashqarisiga qulasa yoki snaryad izi sektor chegaralari chizig'ida turib qolsa;

- qatnashchi uloqtirishni bajargandan keyin to'sin ustidan yoki aylananing oldingi qismidan oldinga yoxud aylanani ikkiga ajratib turuvchi belgisidan tashqariga chiqib ketsa (ya`ni qatnash-chi urinishni tugallagandan so'ng aylanadan uning sektorga nisbatan orqadagi yarmidan chiqib ketishi kerak);

- qatnashchi snaryadni chiqarib yuborgandan keyin statik holatni egallamay turib aylanadan chiqib ketsa;

- qatnashchi snaryad erga tushguniga qadar aylanadan (yugurib kelish yo`lkasidan) chiqib ketsa;
- har bir uloqtirish turlari uchun xususiy qoidalarni buzsa.

Snaryad izi tayoqcha (qoziqcha) bilan belgilanadi. O`Ichashlar har xil urinishdan keyin amalga oshiriladi, keyin qoziq olib tashlanadi. O`Ichagichning nolda turgan belgisi har doim sektorda (maydonda) turadi va snaryad izining yaqin chetiga qo`yiladi. O`Ichagich o`qi aylana markazi yoki payza, granata uloqtirish uchun belgilangan segment markazidan o`tishi kerak.

Uchinchi darajali yoki yomon ob-havo sharoitlarida o`tkazilayot-gan musobaqlarda ketma-ket uchta urinishni bajarishga ruxsat beriladi, shundan so`ng eng yaxshi natija o`lchanadi. Agar maydondagi hakam eng yaxshi natijani aniqlashga qiyalsa, ikkita o`lchash o`tkaziladi.

### 3. ULOQIRISHLARDAGI ASOSIY QOIDALAR

**Nayza uloqtirish** turgan joyidan yoki yugurib kelib (burilishlarsiz) uloqtiruvchi qo`l elkasi yoki bilagi ustidan bajariladi. Nayzani o`ralgan joyidan ushlash lozim. Nayza uloqtirish usulida hech qanday o`zgartirishlarga ruxsat berilmaydi. Final kuchlanishi fazasida qatnashchiga sektorga orqasi bilan burilishga ruxsat berilmaydi. Nayza erga borib tushmasdan yo`lkani tashlab chiqib ketishga ruxsat berilmaydi. Agar nayza erga tushish vaqtida boshqa qandaydir qismi bilan emas, uchi bilan erga tegsa, uloqtirish to`g`ri bajarilgan hisoblanadi. Granata va koptok uloqtiruvchilar yugurib kelish yo`lkasi cheti bo`ylab o`zlarining yugurib kelish joylarini belgilab olishlari mumkin, lekin yo`lkaga belgilar qo`yish man qilinadi. Qatnashchi belgi qo`yish uchun musobaqa tashkilotchilari taqdim qilgan yopishqoq tasmadan yoki fishkadan foydalanishlari mumkin.

**Disk uloqtirish** aylana ichidan, qatnashchi statik holatni egallab olgandan so`ng turgan joyidan yoki burilib (bir yoki bir necha marta), bir qo`lda bajarilishi kerak. Qatnashchi snaryad erga tushmagunga qadar aylanadan chiqib ketmasligi lozim. Qo`lqoplardan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

**Bosqon uloqtirish** qatnashchi statik holatni egallagandan so`ng aylana ichidan turgan joyida yoki burilib (bir yoki bir necha marta), ikkala qo`lda bajariladi. Barmoqlari ochiq qo`lqoplardan foydalanishga ruxsat beriladi. Agar qatnashchi bosqonni aylantirayotganda aylana tashqarisidagi erni bosib olsa va otishni bajarmay turib aylanishni to`xtatsa, urinish inobatga olinmaydi; agarda u uloqtirishni bajarsa, urinish hisobga olinadi. Harakat-larni boshlashdan oldin qatnashchi bosqonni aylana tashqarisiga yoki ichiga qo`yish huquqiga ega. Bosqon uloqtirishda natija shar qoldirgan izning yaqin nuqtasi bo`yicha o`lchanadi.

**Yadro itqitish** qatnashchi statik holatni egallab olgandan so`ng aylana ichidan turgan joyidan yoki harakatlanib bir qo`lda elkadan oshirib bajarilishi kerak. Yadro ushlab turgan qo`l elka darajasidan pastroq tushirib yuborilmasligi lozim. Agar yadro elka chizig`idan yon tomonga yoki orqaga chiqarib yuborilsa, urinish inobatga olinmaydi.

**10-11 AMALIY MASHG'ULOT**  
**2-MODUL. SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH FANI ISHLAB**  
**CHIQARISH JISMONIY TARBIYASINI TASHKIL ETISH**  
**VA JORIY ETISH USULIYATI**

**RE J A :**

5. Jismoniy tarbiya va sportning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati.
6. Jismoniy tarbiyaning umumiy asoslari.
7. Jismoniy tarbiya dan foydalanishning tipik yo`nalishlari va shakllarining tasnifi.
8. Jismoniy tarbiyadan inson hayotining turli davrlarda foydalanishning ilmiy amaliy asoslari.

**JISMOIIY TARBIYA VA SPORTNING JAMIYATDAGI  
IJTIMOIY AHAMIYATI**

Jahon hamjamaiyatida tobora mustahkam o`rin egallay boshlagan respublikamizda boshqa sohalar qatori jismoniy tarbiya va sportga ham alohida e'tibor berilmoqda. Qadim-qadimdan mamlakatimiz jahonga mashhur polvonlari, barchani lol qoldirgan chavandozlari, sheryurak yigit-qizlari bilan dong taratib kelgan. Ular haqida ulug' bobomiz Alisher Navoiydan tortib, barcha adibu shoirlarimiz, olimu faylasuflarimiz ajoyib va o`lmas asarlar yaratganlar, she'ru dostonlar bitganlar, qo'shiqlar kuylaganlar. - **Alisher Navoiyning** jahon adabiyoti xazinasidan o`rin olgan beqiyos kuch-qudratga ega Farhod timsolining o`zini eslash kifoya. Yana xalq og'zaki ijodi durdonalarining qaxramonlari Go`ro`g'li, Alpomish, Avazxon, SHeralilarni eslashning o`ziyoq Turonzamin qadimdan sherbilak va sheryuraklar mamlakati bo`lib kelganligini bildirib turadi.

Respublikamiz ilk bor mustaqillik maqomiga ega boigan tarixiy kundan boshlab jamiyat taraqqiyotining muhim omillardan hisoblangan jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor berila boshlandi. Respublikamizda birinchi bo`lib "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etilganligining o`ziyoq mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning kelajagi porloq ekanligidan dalolat beradi. CHunki aholisi sog'lom mamlakatning taraqqiyoti ham rivojlanishi ham sog'lom bo`ladi.

Sport harakati bilan birlashgan turli mamlakatlardan kelgan kishilarning tinchlik uchun kurashchilari ekanliklarini tarix juda yaxshi biladi. CHunki sport o`z tabiatiga ko`ra jahon miqyosida tinchlik elchisi vazifasini o`tab kelmoqda.

**Xalqaro sport aloqalari** rivojlangan sari davlatlar va xalqlar o`rtasidagi o`zaro ishonch, do`stona munosabatlar ham mustahkamlanib boradi.

Jismoniy tarbiya va sportni har tomonlama taraqqiy ettirish bevosita iqtisodiy sharoitlarga bog'liq.

Bugungi kunda mustaqil respublikamiz uchun aqliy etuk, jismonan sog'lom va baquvvat yigit va qizlar zarur. Mamlakatimiz ilk bor mustaqil qadam tashlay boshlagan dastlabki kezlardan oq bu muhim ishga alohida e'tibor berila boshlandi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Jamoat, guruh va shaxsdagи jismoniy komillik tarbiya sub'ekti bilan bevosita bog'liq bo`lib, bu sub'ektning jismoniy kamolotga bo`lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Har tomonlama rivojlangan jismonan barkamol, jismoniy kuch va jismoniy sifatlarning namoyon bo`lishi talabaning shaxsiy ehtiyoji hisoblanadi.

Jamoatchilik ehtiyoji O`zbekiston Respublikasining har tomonlama etuk, jismonan sog'lom avlodini tarbiyalab, voyaga etkazishdek ulug' vazifaga qaratilgandir.

Hozirgi kunda bu ehtiyojlar mahkama va idoralarning ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyot rejalarida ko`zda tutilmoqda. SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, jismoniy tarbiya vositalariga

bo`lgan shaxsiy ehtiyoj asosiy hisoblanib, uning negizida jismoniy kamolotning taraqqiy etishi hamma ishlab chiqarish tarmoqlarida shakllangan.

Sport inson organizmiga foydali ta`siri bilan bir qatorda "mushaklar quvonchi hissiyotini" ro`yobga chiqaradi, Sog`lom dam olishni tashkil etishda muhim o`rin egallaydi, shaxsning o`zligini anglashda qudratli vosita vazifasini bajaradi.<sup>45</sup>

Sport har doim o`zining ommaviyligi bilan odamlar e'tiborini jalb qilib kelgan. Sport tadbirlariga tomoshabinlarni jalb etishda hozirgi zamon axborot vositalarining xizmati katta. SHuning uchun ham yuqori, ko`rsatkichli sport ommaviy sportning yuqori pog'onasi bo`lib, hamisha ijtimoiy hodisalardan hisoblanib kelgan. Tadqiqotchilar ma'lumotiga ko`ra, respublikamiz aholisining 10 %dan ortig'i sport musobaqalarini tomosha qilish uchun bevosita sport mashg'ulotlari o`tkaziladigan sport inshootlariga boradilar, 80 %ga yaqini esa sport ko`rsatuvlarini televizorda tomosha qilishadi. Xullas sport faqat jismoniy kamolot vositasi bo`libgina qolmay, balki u ma'lum darajada o`ziga xos san'at vazifasini ham o`taydi.

### JISMONIY TARBIYANI ASOSLASH.

Eng maqbul salomatlikka erishishda bolalar va yoshlarning doimiy jismoniy faoliyat bilan shug'ullanishlari zarurligi avvaldan ma'xum.YAxshi psixik va jismoniy salomatlik doimiy jismoniy faoliyatning natijasi hisoblanadi. Bunga eng yaxshi xujjalli dalillar ko`rsatiladi:

1. Faol bolalarning muktabga, o`zlariga, jismoniy faoliyatga bo`lgan munosabatlari ijobiy bo`lib, ularning o`zlashtirishi yaxshilanadi.
2. Jismoniy faollikka asoalangan dasturlarda, ayniqsa aerobikada doimiy qatnashib kelgan bolalarning o`zlariga nisbatan hurmati oshadi. Ularning fikrlari jamlangan, intizomlari yaxshi bo`lib, o`zlarini tutishlarida jaxldorlik sezilmaydi.
3. Doimiy jismoniy faollik stress (ruxiy xayajon) xolatini yumshatib, bolalarda stressning oldini olishga yordam beradi.
4. Doimiy jismoniy faollik mushaklarning baquvvat bshlishi, kattaligi va chidamli bo`lishiga ijobiy ta'sir qiladi.
5. Doimiy jismoniy faollik mushaklar xajmi ko`payib, yog' qatlamlarining kamayishiga va bunda tana og'irligi deyarli o`zgarmay qolishida muximdir.
6. Bolalikdan boshlangan doimiy jismoniy faollik hali balog'atga etmagan davrda suyaklar miqdorining o'sish darajasini ko`paytirib, osteoporoz (suyaklar hajmining kamligi) ning oldini oladi.
7. Faol va sog`lom bolalarda triglitseridlар kamroq va (YUZLP - yuqori zichlikdagи lipoprotein) – qondagi xolesterinning umumiy koeffitsentiga nisbatan YUZLP ning kamxarakat bolalarga nisbatan yuqori bo`lishi kuzatiladi.
8. Faol xayottarzi ovqatlanishning yaxshilanishi , chekish va spirtli ichimliklar ichish kabi zararli odatlardan xolos bo`lishda o`ta muxim.
- 9.Jismoniy mashqlar o`rtacha xayot muddatini uzaytirishda ham ahamiyatlidi.

YOshlarning mahsus guruxlardagi qatnashchilarining sakson besh foizi kundalik jismoniy faollikning o`ta muhimligini tan oladi.

O`z jismoniy xayotidan qoniqqan talabalarga nisbatan ishonch ham baland bo`lib, ular o`quv dargoxining boshqa jahbalarida, xususan akademik izlanishlarda ham doim tayyor xolda bo`ladi.<sup>46</sup>

<sup>45</sup> Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excise and social theory.

<sup>46</sup> Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excise and social theory.

Gellapning jismoniy faollikni tadqiqot qilish milliy Dasturiga ko`ra (1989), 94% kanadaliklar maktablarda jismoniy tarbiya muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. 67% xalq esa jismoniy tarbiya o`ta muhim ahamiyatga ega debhisoblaydi. YArmidan ko`p odamlar esa (51,8%) jismoniy tarbiya ham matematika va o`qish kabi muximdir deb hisoblaydi. Kanada jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi ilmiy tekshirish instituti ta'kidlashicha jismoniy tarbiya sifatiga katta e'tibor berilgani bilan bir qatorda ko`pchilik maktablarda bu predmetga birinchi darajali fan sifatida qaralmayapti. Tadqiqotlar kanadalik bolalar orasida jismoniy tayyorgarlik darajasi ancha pasayganligini ko`rsatmoqda. Kempbellning umumiy salomatlik bo`yicha tadqiqotlari (1988) fakatgina 10% Kanada yoshlarigana jismoniy jixatdan faoldirlar. Axoli sog`ligini mustaxkamlash bo`yicha ma'lumotlarga ko`ra (1990) jismoniy faollik ko`rsatayotganlar orasida Nyufaundlendliklar va Labradorliklar hissasi 1985 yildagi 29% dan 1990 yildagi 22,9% ga tushib ketgan.

Jismoniy faollikning bunday pasayib ketishining qanday qilib oldini olish mumkin?

Ta'lim mahalliy va davlat miqyosidagi axamiyatga ega bo`lganlagi sabab xalq salomatligi va farovonligiga katta e'tibor berilmoqda. Jamiyatimiz salomatlikning qanchalik ahamiyatlilagini his qilgani sari, fuqarolar ham o`z shaxsiy farovonligi bilan bir qatorda sayyoramiz va unda yashayotganlarning sog'lom bo`lishi haqida qayg'urmoqdalar.

Bunday yangicha his qilish va global qayg'urish FAOL HAYOT TARZI kontseptsiyasini ishlab chiqishga olib keldi. Bu kontseptsiya bo`yicha jismoniy faollik qadrlanadi va kundalik hayotga tadbiq etilgan.

Ota- onalar ham farzandlari ham farzandlari barkamol hayotga intilgan sari faol xayot tarzini olib borishini istaydi; bilamizki, jismoniy tarbiya sinfi bolalarning tayyorgarlik darajasidan qat`iy nazar ularga ta'sir o`tkazish mumkin bo`lgan joy .

Maktab sharoitida faol hayot tarzi vasitasi sifatida jismoniy tarbiya insonning borlig'ini egallaydi:

- ✓ jismonan - to`g'ri tanlangan faoliyatda qatnashish darasining yuqoriligi yo`li bilan.
- ✓ aqlan- yangi bilimlar va kontseptsiyalarni o`rganishda intensivlik va aqlni jamlab ish qilish bilan
- ✓ ruhan – inson olgan bilimlaridan foydalanayotganda paydo bo`lgan ishonch orqali...
- ✓ ijtimoiy jihatdan – boshqalar bilan muloqotda va
- ✓ ma'naviy jihatdan – o`zidan qoniqqanlik va ichki osoyishtalik hissiyotlari orqali.

Faol hayot tarzi bilimlar va malaka oshgani sari o`z-o`ziga hurmat hissi uyg'onib, insonning individual sog'lolashishiga imkon yaratadi. Bunday faol hayot tarzida jismoniy faollik kundalik hayotga tadbiq etiladi va qadrlanadi.

Faol hayot tarzi matabda jismoniy tarbiyaning asosiy printsiplari tamon etaklovchi uch aksiomaga asoslangan:<sup>47</sup>

**Alovida (individual) yondashish:** bunda inson faolligi barcha sabablarga: ish faoliyati, o`yinlar, topshiriqlar va erishilgan yutuqlar, shaxsning sog'lomligi va rivojlanishi, o`zligini ijodiy va madaniy jihatdan ifodalashi, ijtimoiy xamjihatlik kabilarga bog'liqligini nazarda tutadi.

**Ijtimoiy jihat :** Bu jihat xar bir shaxsda alovida o`z aksini topadi, lekin bunda ijtimoiy normalar va qadriyatlar, resurslar, e'tiborga molik o`quvchilar kabi omillar bizning tanlovimizga ta'sir ko`rsatadi. O`z navbatida tanlovimiz ham shu omillarga ta'sir etadi.

TSiklyuziv jihat: Bunda biz alohida shaxs yoki gurux sifatida kim ekanligimizni ifodalash usullari nazarda tutiladi. Bunga barcha kanadaliklar jinsi, yoshi, irqi, kelib chiqishi, dini, ijtimoiy-iqtisodiy mavqeい va ma'lumotidan qat'iy nazar huquqlidirlar.

Isklyuziv jixat: Bunda biz aloxida shaxs yoki gurux sifatida kim ekanligimizni ifodalash usullari nazarda tutiladi. Bunga barcha kanadaliklar jinsi, yoshi, irqi, kelib chiqishi, dini, ijtimoiy – iqtisodiy mavqeい va ma'lumotidan qat'iy nazar huquqlidir.

## **FAOL TURMUSH TARZI – SHAXSIY FAROVONLIK DAN HAM KO`PROQ JIHATLAR DEMAKDIR.**

Faol turmush tarzi falsafasi talabalarga o`zaro bog'liq dunyoda kompleks shaxslar sifatida qarash kerakligini ta'kidlaydi. O`z negizi bilan faol turmush tarzi aksiomalariga bog'lanib ketgan jismoniy tarbiya asoslari talabalarga ijtimoiy va ekologik kontekstda yondoshishni nazarda tutadi, bu kontseptsiya shaxsiy sog'lik bilan jamiyat sog'lomligi, qolaversaatrof- muxit va ekologik sog'lomlik orasida bog'liqlikka alohida urg'u beradi. Individual miqyosda jismoniy tarbiya salomatlik va yaxshi kayfiyat garovi sifatida faol turmush tarzini olib borishda o`z- o`zini nazorat qilib, unga ma'suliyatlari yondoshishni talab qiladi. Biroq, faol turmush tarzini olib borishda ijtimoiy muxitni ham hisobga olish lozimligini jismoniy tarbiya vositasi bilan o`quvchilarga etkazish lozim.

Jismoniy tarbiyaning vazifasi talabalar faol va sog'lom turmush tarzini olib borishda shaxsiy mas'uliyatni xis etishi barobarida jamiyat va atrof – muxit salomatlikka ijobiy yoki salbiy ta'sir ko`rsatayotganliklarini ham hisobga olishlari lozimligini uqtirishdan iborat. Misol tariqasida maktab xovlisida ochiq havodagi o`yinlarni tashkil etish va shu ritmik harakatlari o`yinlar orqali o`quvchilarni faol turmush tarzi olib borishga undash kabi usullarni aytib o'tish mumkin. O`quv muassasasi ma'muriyati va talabalar jismoniy faoliykkka ijobiy yoki salbiy ta'sir ko`rsatayotgan ijtimoiy va ekologik omillarni o`rganib, tahlil qilishlari lozim.

Jismoniy faoliyknинг ijtimoiylashishi ayollarda ham, erkaklarda ham juda yosh paytidan munosabatlarning differentialsallashishi ya'ni tabaqalashtirilganiga duch kelishganida boshlanadi. Jismoniy tarbiya sohasidagi tadqiqotlar vositasida o`qituvchilar talabalarni jamiyatda jismoniy faoliykkka nisbatan adolatsiz munosabatda bo`lish yoki umuman loqayd bo`lish hollariga qarshi bo`lishga undaydi.

Jismoniy tarbiya sohasida biz talabalarga faol turmush tarzini qanday yo'llar bilan olib borish amallarini ishlab chiqishda jamiyatning barcha qatlamlaridagi odamlar kundalik asosda jalb qilinmog'i kerakligini uqtirishimiz kerak.

YOsh kanadaliklarning ancha qismi faol emas - 10-14 yoshdagilar orasida 15% erkaklar va 23% ayollar; 15-19 yoshlilar ichida 10% erkaklar va 30% ayollar. Bundan tashqari 10-14 yoshdagilar orasida 15% erkaklar va 28% ayollar; 15-19 yoshdagilar orasida 16% erkaklar va 30% ayollar o`rtamiyona faoliykkha ega.<sup>48</sup>

### **Jismoniy tarbiyaning etakchi printsiplari (qoidalari)**

Jamiyatimizda jismoniy tarbiyaning va jismoniy faoliyknинг muhimligi haqida adabiyotlardan kelib chiqib yangi o`quv dasturini tahlil qilishda yordam beradaigan qator etakchi qoidalar ishlab chiqildi. Avvalambor, bizdagi ta'lim tizimida jismoniy tarbiyaga predmet, ya'ni alohida fan sifatida qaraladi.

### **Faol turmush tarziga tadbiq etilgan jismoniy tarbiya.**

❖ Jismoniy faoliykkha qadrlanadigan va undan kundalik hayotda foydalilaniladigan hayot tarzini olib borishga imkon beradi.

- ❖ Talabalarning shahsiy ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan xolda, ularga individual tanlash imkonini bo`lishi printcipini targ'ib qiladi.
- ❖ Talabalarning barcha jixatlarda rivojlanishi, ularning jismoniy, kognitiv (bilim sohasidagi), ijtimoiy, ruxiy va ma`naviy farovonligiga noyob xissa qo`shadi.
- ❖ Talabalarning shahsiy farovonligi va jamoat farovonligida ahamiyatli bo`lgan tanqidiy fikrlashga asoslangan o`qish jarayonlarini osonlashtiradi.
- ❖ Barcha fuqarolar uchun maqbul sharoitlar rivojida va inson huquqlarini asrashda ahamiyatli bo`lgan shahsiy o`z- o`zini anglashni tarbiyalaydi.
- ❖ Talabaga maxalliy, regional va dunyo miqyosida faol hayot kechirishda, dunyonni to`g`ri anglashda yordam beradi.

Fokusni (ravshanlik nuqtasini) tartibga solish:

Nyufaundlend va Labradorda jismoniy tarbiyaning asl moxiyatini to`g`ri anglashda o`quv dasturlari maqsadga erishish yo`lida sifatli, kundalik jismoniy tarbiya asosiy vosita ekanligini aytib o`tish lozim. Sifatli, kundalik jismoniy tarbiya sharofati bilan maktablarda faol turmush tarzi real voqelikka aylandi. Kundalik jismoniy tarbiya hayot tarzini sog'lomlashtirishdagi yo`nalish va bilimlarni kengaytirishda muxim bo`lgan hayotiy tajribalar asosiga qurilgan. Jamiyatda inson hayotini ijobiy tomonga o`zgartirishda jismoniy tarbiya etakchi rol o`ynaydi va shu sabab jamiyat salomatlik va hayot sifatini yaxshilashda jismoniy faoliyka alohida ahamiyat bermoqda.

Kundalik sifatli jismoniy tarbiya (QDPE) talabalar uchun butun o`quv yili davomida kundalik asosdagi jismoniy faoliy va va o`quv bo`yicha rejalashtirilgan dasturdir.<sup>49</sup>

Sifatli kundalik jismoniy – ta`limiy dasturlar:

- Butun o`quv yili davomida talabalarga rejalashtirilgan, muvozanatlashtirilgan holda bilim beradi va ta`lim jarayonining ajralmas, muhim qismi hisoblanadi.
- O`z kasbining fidokorlari bo`lganadolatli, bilimli jismoniy tarbiya o`qituvchilar mazkur dasturlar yordamida ish olib boradi. Faol turmush tarzi maktabini rivojlantirishda jismoniy tarbiya mutahassislari<sup>3</sup> metodist hisoblanadi. O`qituvchilarni kasbiy tayyorlash, malakasini oshirish, o`quv dasturlarini moslashtirish va modifikatsiya qilish yo`llari bilan barcha o`qituvchilar harakatning uch jihatli borasida mustahkam bilimlar oladi:
  - talabaga yo`naltirilgan individual pedagogika;
  - barcha talabalarning qobiliyati, qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishda bilimlarning keng ko`lamligi;
  - harakat bilan bog`langan fitnes va sog'lomlashtirish fitnesi;
  - qoidalari turli o`yinlar, ijobiy natija;
  - qoidalari turli o`yinlar, ijobiy natija;
  - kunduzgi va sirtqi dasturlar yordamida dam olish, raqobat imkoniyatlari;
  - ekologik va ijtimoiy ma`lumotli bo`lish;
  - o`quv yilidan so`ng va kelajakda jismoniy faoliyki olib borishda talabalarning imkoniyatlari;
  - ota-onalar va ma`muriyatning yordami;
  - haftalik jadval bo`yicha 150 minut yoki ko`proq o`quv vaqt;
  - jixozlar va mehnat sharoitining meyorda bo`lishi;

Talabalarning faol turmush tarzida jismoniy tarbiya o`z maqsadiga erishishida, bilim oluvchilar ongli ravishdagi ta`limga jalb qilinishlari kerak. Agar faol turmush tarzi

<sup>49</sup>

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.

maktablari talabalar uchun bo`lsa, ularning o`zini ham bunday maktablarni yaratishga jalg qilinishi va talabalarning kelajak hayotida bu xol qo`l kelishi kerak.

Maxsus tayyorlangan jismoniy tarbiya o`qituvchisi, odatda jismoniy tarbiya sohasida "mutahassis" deyiladi.

Biz eski, oddiy usulda emas, balki yangicha zamonaviy, ishonarli usulda dars berishlari tarafidormiz.

Kanada kunduzgi dam olish assotsiatsiyasi (CIRA) tomonidan tadbiq qilingan talabaning etakchilik hususiyatlarini rivojlantirish dasturida ham samarador usullarni topishimiz mukin.

Bu dastur Kanada Salomatlik, Jismoniy tarbiya, Hordiq va raqs assotsiatsiyasi (CAHPERD) tomonidan kiritilgan sifatli kundalik jismoniy tarbiyani to`ldiradi. QDPE ni aniqlashtirishda, bizning maktablar CAHPERD – CIRA ni boshqa faol hayot maktablari bilan hamkorlikka chaqirishlari lozim.<sup>50</sup>

### Faol turmush tarzi maktablari va uyushmalari tashkil etish.

Faol turmush tarzi maktablari sog'lomlikni tadbiq etuvchi uyushmalarning bir qismi bo`lib ularning tarkibiga:

- jismoniy faoliyk shaxsiy va ijtimoiy farovonligi yaxshilanayotganini ta'kidlayotgan maktab va jamoat a'zolari.
- faol turmush tarzini mакtab va jamoat faoliyatining barcha jixatlariga tadbiq etuvchi mакtab yoki jamoat a'zolari
- faol, sog'lom ta'lim va ishchi muxitni yaratishda birlashgan va hamkor bhlgan mакtab va jamoat a'zolari.
- Barcha mакtab va jamoalarda faol turmush tarzini madaniy belgi sifatida yaratishga harakat qilayotgan soha.
- Akademik, iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni qadrlaydigan, sifatli kundalik jismoniy tarbiya va faol turmush tarzini bog'langan xolda olib boradigan Nъyufaundlend va Labrador modelъ sifatida.

### Bitiruvchilarning asosiy tayyorgarligida jismoniy tarbiyaning hissasi.

Bitiruvchilarga ta'lim berish o`quv dasturining barcha sohalarini o`z ichiga oladi:

#### 1) Badiiy ifoda

Bitiruvchilar san'atning har xil turlariga tanqidiy fikrda bo`lish imkoniyatiga ega bo`lgan holda o`zligini san'at orqali ifoda qila oladilar.

#### 2) Fuqarolarning huquq va majburiyatlari

Bitiruvchilar mahalliy va global miyosda ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va ekologik jixatlarning o`zaro bog'liqligini baholash imkoniyatiga ega.

#### 3) Kommunikatsiya (aloqa)lar

Bitiruvchilar eshitish, ko`rish rejimlaridan, og`zaki nutq, ma'lum tilda va tillarda o`qish va yozishdan, matematik belgi, ilmiy kontseptsiyalardan fikrlash, o`qish va muomala qilishda foydalanish imkoniyatiga ega.

#### 4) SHaxs sifatida rivojlanish

Bitiruvchilarning o`qishni davom ettirish bilan birga faol, sog'lom turmush tarzini olib borishga imkoniyatlari bor.

#### 5) Muammolarni hal qilish.

50

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory. 16-bet

Bitiruvchilar keng ko`lamdagi muammolarni hal qilishda zarur bo`lgan strategiya va jarayonlardan tilshunoslik, matematik va ilmiy kontseptsiyalarga asoslangan holda faydalinish imkoniyatiga ega.

#### **6) Ma'naviy va ruhan rivojlanish.**

Bitiruvchilar ma'naviy qadriyatlar va etika normalarining vujudga kelishiga ishonchlarini ko`rsatish imkoniyatiga ega.

Jismoniy tarbiya harakat ichida, harakat haqida va harakat vositasida olib boriladigan fan sifatida bitiruvchilarning tayyorgarligiga kuyidagicha ta'sir o'tkazadi:

#### **SHaxs sifatida rivojlanish.**

Bitiruvchilar kuydagi imkoniyatlarga ega, misol uchun :

- jismoniy faollikka nisbatan qat'iy qarorda bo`lish va bu qarorlar uchun mas`ul bo`lish;
- harakatni mustaqil ravishdv va guruhlarda izchillik bilan o`rganish;
- inson salomatligi va faol turmush tarzi o`rtasidagi o`zaro bog'liqlilikni anglashni namoyon qilish;
- faol turmush tarzining inson mavqeい oshishidagi turli imkoniyatlarni ko`ra bilish;
- shaxslararo munosabatlarda etakchilik hususiyatlarini faol turmush tarzi dasturlari bilan bog'liq holda ko`rsatish;
- faol turmush tarziga nisbatan shaxsiy global muammolarga tanqidiy yondashish.

## **Fuqaroning huquq va majburiyatlari.**

### **Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- o`yin vaziyatlarida qo'llaniladigan adolatli qoida va printsiplarni qo'llagan holda jamiyatda ham qonun – qoidalarning muhimligini tushunib etganlikni namoyon qilish;
- barqaror rivojlanish va uning atrof- muhitga ta'sirini anglaganlikni namoyon etish;
- guruxda hamkorlik bilimlarini ko`rsatish;
- ijtimoiy o`zaro bog'liqlikning zarurligini anglash va ko`rsatish;

## **Kommunikatsiya (aloqa yo'llari)**

### **Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- harakatga nisbatan o`z g'oyalari, bilimlari, qarashlari va hissiyotlarini ko`rsatish, tahlil qilish, o`rganish;
- gurux tadbirdari va o`yinlarda so`zlar, raqamlar, belgilar, jadval va diagrammalar vositasida ko`rsatilgan fakt va bog'liqlikni anglashni namoyon etish;
- salomatlik va faol turmush tarzi haqida ma'lumotga ega bo`lish, ishlab chiqish, baholash,ma'lumot almashish imkonii;
- turli auditoriyalar uchun axborot va qo'llanmalarni aniq, matiqan lo`nda, ravshan holda ko`rsatish;
- ma'lumotlarni kundalik tushunarli tilda izohlash va baxolash, turli ommaviy axborot vositalari vositasida olinayotgan ma'lumotlarga tahliliy- tanqidiy munosabatda bo`lish;

## **Muammolarni xal etish.**

### **Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- harakat muammolarini aniqlash, ta'riflash va ifodalash;
- harakat muammolarini hal qilishda avvaldan g'oya va fikrlarni individual yoki hamkorlikda ta'riflash;
- faol turmushga taaluqli qarorlarning asosli bo`lishi uchun barcha ma'lumotlarni olish va ishlab chiqishda tanqidiy yondoshish;
- muammolarni xal qilishda turli strategiyalardan ijodiy yondashgan holda foydalanish;
- tahmin va farazlarni tekshirish;
- savollar berish, shaxslararo munosabatlarga amal qilish, hulosalar chiqarish;
- faol turmushga taaluqli turli nuqtai- nazarlarni aniqlab, ta'riflab berish, faktlarni fikrlardan ajrata olish.

## **Badiiy ifoda**

### **Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- g'oyalari, qarashlar va xissiyotlarni ifoda qilishvositasi sifatida turli xarakatlardan foydalanish;
- kundalik hayotdagи rang- baranglik , madaniy o`ziga hoslik va iqtisodda harakatning muhimligini tushunib etishni ko`rsatish.
- Boshqa insonlarning hoyalari, qarashlari va xissiyotlarini harakatning turli ko`rinishlarida anglash;
- Sport zallari,ochiq havodagi dam olish olish ob'ektlari kabi madaniy resurslarning axamiyatini tushunishni namoyon etish;

### **Texnologik savodxonlik Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- Salomatlik va faol turmush tarziga ishlab chiqilayotgan va mavjud bo`lgan texnologiyalarni tushunib chiqish va ulardan foydalana bilishni namoyon etish;
- Turli manbaalar va texnologiyalardan foydalangan holda faol turmushga taaluqli bo`lgan ahborotlarni topish, baholash, moslashtirish va vujudga keltirish;
- Texnologiyalarning sog'lom va faol turmushga ta'sirini anglashni namoyon etish;
- Mahalliy va shaxsiy - global jihatlarda texnologiyalardan foydalanishda etika masalalarini tushuna bilish;

### **Ma'naviy va ruhan rivojlanish.**

#### **Bitiruvchilar imkoniyatlari:**

- O`yin vaziyatida etika qoidalariga rioya qilish- jamiyat uchun ijobiy holatligini anglash;
- Faol turmushning dunyoda tinchlik bo`lishiga, ijtimoiy adolat, inson hayotining muqaddsligini va unda inson qadr- qimmatini hurmat qilish kabi jihatlar bilan bog'liq ekanligini anglash;
- O`z manfaatlaridan tashqari boshqalar manfaatini ham o`ylashlozimligini tushunishni namoyon etish;

Mazkur dastur talabalar dunyoga tanqidiy nuqtai- nazarda qarashga o`rgatadigan ta`lim asoslari tayangan holda tayyorgarlik ko`rishlariga qaratilgan. Talabalar shuni tushunishlari lozimki, ijtimoiy dunyo tarixiy, madaniy bilimlar asosida qurilgan bo`lib, ularning hayotdagi shaxsiy tajribalari bilan uzviy bog`langan. SHahs sifatida o`sish jarayonida talabalar shaxsiy global miqyosda o`z hayotlaridagi ijtimoiy sharoitlarni yaratish va o`zgartirishlarda faol ishtirokchilarga aylanadilar. Ta`lim metodikasi muloqot va fikr yuritishga undaydi va harakat imkonini beradi.

Mazkur kontekstda ko`rib chiqilayotgan rasmiy ta`limning maqsadi yanada yaxshiroq jamiyat qurishda talabalarning<sup>4</sup> o`zlariga va atrofga tanqidiy nuqtai – nazar bilan qarashlariga yordam berish.

Jismoniy tarbiya ijtimoiy kontseptsiya bo`lib, unda “madaniy tanlov maqsad va vazifalarning aniq va noaniq ma`nolarini o`z ichiga oladi.<sup>51</sup>

## **JISMONIY TARBIYADAN INSON HAYOTINING TURLI DAVRLARDA FOYDALANISHNING ILMIY AMALIY ASOSLARI.**

Mazkur bo`limda Jismoniy tarbiyani maqsadga muvofiq ravishda qo`llash masalasi “yosh jihatidan” ko`riladi. SHu bilan birga insonning faoliyat davomida shart-sharoitlarining o`zgarishi bilan bog'liq bo`lgan xususiyatlari xarakterlanadi.

SHunday qilib, Sport pedagogik mahoratini oshirish kursi jismoniy tarbiya va sport bo`yicha mutaxassislarni kasb ta`limotining bazasiga kiruvchi kengaytirilgan bilimlar majmuasini o`z ichiga oladi. U bo`lg`usi jismoniy tarbiya sohasidagi mutaxassisiga kasb faoliyati mazmunini to`liq tushunishga imkoniyat yaratadi, dunyo qarashini kengaytiradi, jismoniy tarbiya sohasidagi boshqa ishchilarini umumiyl ishlari bilan bog`laydi va shu bilan birga mutaxassis egallashi zarur bo`lgan keng kasbga yo`naltirilgan dunyo qarashni shakllantirishga yordam beradi.

51

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.

U yoki bu kasb egalari o`zaro muloqot davomida o`z kasbi va hunariga oid ma'lum tushunchalar va iboralardan foydalanadilar. Fanning ma'lum sohasini o'rganish va uni o`zlashtirish ana shu etakchi tushunchalarning mazmuniga bog'liq. Ularning mazmuni vahajmini aniqlamay turib, jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining ko`pdan-ko`p hodisalari va masalalarini to`g'ri tushunib olish qiyinlashadi, jismoniy tarbiya nazariyasi fanini muvaffaqiyatli egallah murakkablashadi.

**Jismoniy rivojlanish** - inson organizmining asta-sekinlik bilan tabiiy sharoitda shakllanishi – tashqi ko`rinishini va xarakat faoliyatining o`zgarishi jarayonidir.

Rivojlanish davri uch fazaga ajratiladi: uning yuqori darajasi, nisbatan stabillashgan (barqarorlik) va inson jismi imkoniyatlarining asta-sekinlik bilan pasayishi. U tabiatning oboektiv qonunlariga – organizm, uning yashash sharoitlari birligi qonuniga, xizmati, tuzilishining o`zgarishlarni bir-birini taqozo etish qonuniga, organizmda asta-sekinlik bilan miqdor va sifat o`zgarishlari qonuniga va boshqa qonunlarga bo`ysunadi. Boshqacha aytganda jismoniy rivojlanish oboektiv va biologik qonuniyatlar majmuasidan iborat. Bulardan eng muhimi, muhit va organizm rivojlanishining bir butunligi qonunidir.

YUqoridagilarni o`quvchilarga qo`llaganimizda, o`qish sharoiti, mehnat va mustaqil ishlash, dam olishni hisobga olishga to`g'ri keladi. Bularning barchasi bolalarning jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko`rsatadi.

Nasldan-nasnga o`tadigan tabiiy hayotiy kuchlar, inson jismining qobiliyatilari ham jismoniy rivojlanishning muhim zamini ekanligi, shuningdek yuqori natijalarga erishish har qaysi shug'ullanuvchi (individ) uchun nasib bo`lavermasligini, ammo har qanday shaxs o`z organizmining jismonan rivojlanishiga sidqidildan tizimli maqsadga muvofiq ravishda muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish orqali ijobjiy ta'sir eta olishligini eotirof etish lozim.

Jismoniy rivojlanishning shiddatli (keskin) davri, maktabgacha yoshdag'i va kichik mактаб yoshidagi davrga to`g'ri keladi va butun mактаб yoshi davri davomida davom etadi.

Amaliyotda jismoniy rivojlanganlik ko`rsatkichlari degan iboraga duch kelamiz. Bu inson badanining a'zolarini bichimini o`lchami bo`lib, shug'ullanuvchilarni yoki individning jismoniy rivojlanishi haqidagi antropometrik ma'lumotlar tarzida ro`yxatga olinadi.

Jismoniy rivojlanishning yo`nalishi, xarakteri, darajasi, shuningdek, inson o`zida kamol toptiradigan fazilatlari va qobiliyatlari turmush sharoiti va tarbiyaga ko`p jihatdan bog'liqdir. Jismoniy rivojlanish qonunlarini egallah, ulardan o`z jismi tarbiyasi maqsadlarida foydalanish – jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining muhim vazifasidir.

Jamiyatdagi ijtimoiy sharoit jismoniy rivojlanishini hal qiluvchi omilidir. Omillar orasida mehnat bilan tarbiya jarayonining roli, ayniqsa jismoniy tarbiyaning roli muhimdir.

Jismoniy rivojlanishga erishish uchun «**jismoniy tarbiya**» deb atalmish maxsus yo`naltirilgan va tashkil qilingan faoliyatdan foydalana boshlandi.

**Jismoniy tarbiya** – pedagogik jarayon bo`lib, inson organizmini morfologik va funktsional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo`lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog'liq bo`lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan. Mana shu ta'rifda jismoniy tarbiyaning insonni tarbiyalashning mustaqil turi sifatidagi o`ziga xosligi ta'kidlab o`tilgan.

Jismoniy tarbiyaga oid bo`lgan o`ziga xoslikning tarkibida ikkita alohida maonoga ega bo`lgan «jismoniy bilim (o`rgatish, tushuntirish, ko`rsatish, takrorlash, mustaxkamlash)» va «jismoniy sifatlarni rivojlanirish (kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik)» deb atalgan tushuncha yotadi.

«**Jismoniy bilim**» termini yangi davrdagi jismoniy tarbiyaning eng avvalgi tizimlarida uchraydi. Masalan, Fit «o`z vujudini tarbiya» qilish maqsadida jismoniy mashqlar zarurligi haqida gapirgan edi.

Jismoniy bilim jismoniy mashqlarni bajarishga oid maxsus nazariy tushunchalar va ularni lozim bo`lganda turmushda qo`llash mahorati va ko`nikmalarini o`z ichiga oladi.

Pestalotsii bolalarning «vujudini tarbiyalash»ni astoydil yoqlab chiqqan P.F.Lesgaft jismoniy bilim berishni, jismoniy tarbiyaning kengaytirilgan maonosi deb tushuntirgan. Lekin Lesgaftning jismoniy tarbiya haqidagi taolimotning asosiy g'oyasi tom maonodagi jismoniy ta'lif g'oyasi edi.

P.F.Lesgaft jismoniy tarbiya jarayonida bolalar «ayrim harakatlarni ajratib olishlari va ularni o'zaro taqqoslashni, ularni ongli ravishda boshqarishni, to'siqlarga moslashtirishni, bu to'siqlarni iloji boricha chaqqonlik va qat'iyat bilan o'tishni (engishni), boshqacha qilib aytganda, iloji boricha kamroq vaqt mobaynida oz mehnat sarflangan holda, ongli ravishda eng ko'p jismoniy ish qilishni, yohud ko'rkmak va g'ayrat bilan harakat qilishni o'rghanishlari kerak, deb hisoblardi. Bu erda gap, bir tomonidan, to'g'ri harakat ko'nikmalarini hosil qilish haqida, ikkinchi tomonidan, harakatlarni bajarishga ongli munosabatda, ko'nikmalardan hayotiy vaziyatning tasavvur hamda mahoratni qaror toptirish haqida bormoqda.

**Jismoniy sifatlarni tarbiyalash** jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bu tushuncha kuch, tezkorlik chidamlilik, egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Bir butun jarayonning shu tomonlari bir-biri bilan mustahkam bog'langan. Masalan, agarda o'quvchilar yugurish mashqlarini ko'p marotaba bajarib uning bajarilish texnikasini o'zlashtirish maqsadida takrorlayversalar, shu vaqtning o'zida ham kuch, ham chidamlilik va ayrim hollarda tezkorlik ham tarbiyalanadi. Boshqa tomonidan, o'sha yugurish mashqlarini katta tezlik bilan takrorlansa (tezkorlikni tarbiyalash uchun), u holda mashq texnikasi mustahkamlanadi va takomillashadi, shu vaqtning o'zida esa ta'lif, bilim berish vazifalari ham hal qilinadi.

Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida, hattoki shug'ullanuvchilarning ruhiy holatiga, ularning emotsiyasiga (his tuyg'usiga), irodasiga, axloqining namoyon bo`lishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ana shular hisobiga tarbiyaviy vazifalarning hal qilinishi uchun kerak bo`lgan sharoit yuzaga keldi.

Jismoniy tarbiya jarayonida tarbiyaviy, ta'limi vazifalarning mavjudligi uni bir butun pedagogik jarayon deb qarashga olib keladi. Qo'yilgan vazifaga qarab, har biri alohida ko'rinishda namoyon bo`ladi.

Jismoniy tarbiyada jismoniy rivojlanish qonunlari, jismoniy tarbiyaning ijtimoiy qonunlari ham aks etadi. Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy qonunlaridan foydalanishi, xarakteri va usuli aslida jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tuzumidan kelib chiqadi.

Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu asosan jamiyatda inson jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qila olishligi va ayni paytda uning ma'naviy kamolotiga ham kuchli ta'sir ko'rsata olishlidadir.

**Jismoniy tayyorgarlik** – erishilgan va birlashgan ishchanlikni, amaliy harakatdagagi ko'nikma va malakalarni maqsadli faoliyatning samaradorligiga ta'sir ko'rsatish bo'yicha tashkil topgan jismoniy tayyorgarlik natijasidir.

Jismoniy tarbiyada uchta asosiy yo'nalish mavjud bo'lib, inson jismoniy tarbiyasi ana shu yo'nalish asosida amalga oshiriladi. Ular umumiyl jismoniy tayyorgarlik, kasb-hunar jismoniy tayyorgarligi, sport tayyor-garligidir.

**Umumiyl jismoniy tayyorgarlik** sog'liqni mustahkamlashga, keng doirada harakat malakalari va ko'nikmalariga ega bo`lishiga, o'zidan keyingi maxsus tayyorgarlikka zamin bo`lishi uchun xizmat qiladigan asosiyharakat sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Umumiyl jismoniy tayyorgarlik maqsadida jismoniy tarbiyaning barcha turdag'i vositalaridan, xilma-xil jismoniy mashqlardan, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va gigienik omillardan foydalaniladi. Umumiyl jismoniy tayyorgarlik jismoniy tarbiyaning barcha bosqichlarida ko'proq maktab jismoniy tarbiya tizimida, ommaviy sog'lomlashtirish ishlarida va jismoniy mashqlar bilan individual shug'ullanish shakllari orqali amalga oshiriladi.

**Kasb-hunar jismoniy tayyorgarligi** – bu jismoniy tarbiyaning mutaxassislashtirilgan, aniq mehnat turi va mudofaa faoliyatiga tayyorlashga yo`naltirilgan jarayondir. Bunda asosan, jismoniy mashqlarning hunar yoki kasbga yaqin bo`lgan turlaridan foydalaniladi. Kasbga yo`naltirilgan jismoniy tayyorgarlik vositalarining qo`llanishi mehnat harakat malakalarining shakllanishini egallash jarayonini tezlashtiradi, mehnat unumdorligini oshiradi, organizmning, tashqi muhit ta`sirining zararli omillariga qarshilik ko`rsatishni yaxshilaydi.

Umumiylar va kasb jismoniy tayyorgarligi deb ajratish ma'lum darajada shartli bo`lib, ikkala yo`nalishi ham bir-birini to`ldiradi.

**Sport tayyorgarligi** jismoniy tarbiyada maxsus yo`nalishni ifoda etadi. Buning vazifasi insonni tanlab olingan biror sport turida yuqori natijalarga erishishni ta'minlashdir.

Jismoniy tarbiyada sport tayyorgarligi, organizmning funktional imkoniyatlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo`lgan, yuqori sport natijasi kishilarning jismoniy tayyorgarligini baholash kriteriyasiga aylanadi. Jismoniy tarbiyaga mo`jal sifatida juda keng qo`lamda qo`llaniladi.<sup>52</sup>

**Jismoniy tarbiya harakati** – ijtimoiy yo`nalish bo`lib, buning oqimida kishilarni birgalikda, Jismoniy tarbiya boyliklarini ishlatish va ko`paytirishga qaratilgan faoliyatadir.

**Jismoniy kamolot** – bu har tomonlama jismoniy tayyorgarlik va garmonik jismoniy rivojlangan, mehnat va boshqa sohalardagi talablarga javob bera oladgan individual talantining yuqori darajada rivojlanganligini ko`rsatadi, shaxsni har tomonlama rivojlanish va uzoq yillar sog'ligini mustahkamlash qonuni bilan murosada bo`ladi.

### © Adabiyotlar

10. Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.
11. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliysi. A.Abdullaev va b. T.2005 y.
12. R.S.Salomov va b. "Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligiga kirish". T. 1990 y.

<sup>52</sup>

Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.

## 12-AMALIY MASHG'ULOT

### TAYANIB SAKRASH MASHQLARI, YAKKACHO`PDA MASHQLARINI O`RGATISH.

**Darsni maqsadi:** sakrash oyoqlarni bukib va kerib, yakkacho`pda burilish va muvozanat mashqlarini o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.


1. Otdan oyoqlarni kerib sakrab o'tish; o'zunasiga qo'yilgan ot ustidan bir oyoqda depsinib burchak hosil qilib sakrash.

2. Yakkacho`pda – oyoq uchida yurish, burilib muvozanat saqlash, sakrab tushish.

3. O'tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

#### **Otdan yoki sakrash stolidan oyoqlarni kerib sakrash**

**Bajarish texnikasi.** Berilgan sakrashni bajarish texnikasi, ko`ndalang otdan oyoqlarni kerib sakrashni bajarish texnikasidan ozgina farq qiladi. Ammo, o'zun otdan oyoqlarni ochib sakrashni bajarish uchun tez yugurish, ko`priordan o`yoqlarda va asbobdan qo'llarda kuchli itarilish talab qilinadi. Agar oyoq panjalari yelka darajasidan yuqori ko`tarilsa, bu mashq yaxshi bajarilgan hisoblanadi.



#### **O`rgatish ketma-ketligi.**

Sakrashni o`zlashtirish uchun, ko`ndalang xaridan oyoqlarni ochib sakrashni o`rganish paytidagi hamma yordamchi mashqlarni qo'llash mumkin, keyin quyidagi mashqlarni takrorlash lozim.

1. Ko`ndalang xaridan oyoqlarni ochib sakrash, ko`priordan xarigacha masofani asta-sekin ko`paytirib.

2. O'zun qo'yilgan xaridan oyoqlarni ochib sakrash.

3. Shuning o`zi, faqat ko`prikni xarida 1 m masofaga surib bajarish.

4. Shuning o`zi, faqat ko`prik va xari orasidan arqon tortish.

5. O'zun otdan oyoqlarni ochib sakrash.

Ayrim o`quvchilar uchun, o'zun otdan oshib o'tish biroz qiyinchilik tug`diradi: otning o'zoqdagi qismidan oshib o`ta olmaslikdan, qo'llarda itarilgandan so`ng otga tegib ketish yoki unga yiqilib tushishdan qo'rqaqilar. Bunday ruhiy to'siqni yo'qotish maqsadida quyidagi vazifalarni qo'llash mumkin:

1. 1-2 qadamdan yugurib otga yoki sakrash stoliga sakrab chiqib oyoqlarni ochib tayanish (to`g`ri va tarang qo'llarga tayanib, o'tirmasdan oyoqlarni ochib turish). Biroz tayanchda ushlanib qolib, oyoqlarni ochib yumshoq o'tirishga o'tish.

2. Asta-sekin yugurish tezligini va o'zunligini oshirib, otning o'zoq qismidan 20-25 sm gacha masofaga etguncha, qo'llarni qo'yib, sakrab chiqib oyoqlarni ochib tayanish. O`quvchini yelka tagidan ikki tomonlama ushlab yordam berish ham mumkin. O`quvchi oyoqlarini ochib tayanishni bajarishni o`rganib olgandan so`ng keyingi vazifa beriladi.

3. Otning oldi qismida o'tirishdan, so'ng yarim o'tiridan, otning o'zoq qismiga oyoqlarni ochib sakrab tushishni bajarish. Oldin qo'llar otning eng qirra qismiga qo'yib, asta-sekin qirradan 15-20 sm masofaga qo'llarda itarilishni o'rganish lozim. Bu mashqlarni ishonchli bajarishga o'rganilgandan keyin butunlay oyoqlarni ochib sakrashga o'tish mumkin.

#### Xatolar.

1. Nisbatan past siltanish (ko'priordan ko'tarilgandan so'ng oyoqlar ot tanasidan yuqori ko'tarilmasa).

2. O'z ostiga qo'llarda itarilish (qo'llarda to'xtatuvchi itarilish o'rniga egiluvchi itarilish hosil bo'ladi).

3. Qo'llarda itarilgandan so'ng uchish paytida tananing tos-son bo'g'imlarida yoyilish yo'qligi.

4. Tos-son bo'g'imlarida yoyilish faqatgina yelkani ko'tarilishi hisobiga amalga oshirilishi, oyoqlar esa oldinga harakatlanishdan to'xtamasligi qo'nish paytida yelkalarni orqaga tushib ketishiga olib keladi.

5. Yaqin qo'nish (1,5 m kam bo'lmasligi kerak).

**Extiyotlash va yordam.** Qo'nish joyini yon tomonida turib, bir qo'l bilan tirsakdan balandroqdan, ikkinchisi bilan zaruriyat bo'lganda ko'krakdan ushlab yordam beriladi. To'liq o'rganilguncha o'qituvchining o'zi yordam berib turishi maqsadaga muvofiq.

### **Yon tomondan yugurib kelib otdan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib burchak sakrash**

**Bajarish texnikasi.** Bunday sakrashni amalga oshirish uchun ko'prikanotning yaqin qismiga biroz burchak ostida (salkam parallel) yonboshiga qo'yiladi.

Qisqa masofadan yugurib kelib, o'ngga burchak sakrashni bajarishda o'ng oyoqda siltanib, o'ng qo'lda otning tanasiga tayanish va chap oyoqda ko'priordan itariladi. Asbob ustida oyoqlarni birlashtirish va chap qo'l o'ng qo'lning yoniga qo'yiladi. SHundan keyin o'ng qo'lni qo'yib yuborib, chap qo'lga tayanishni davom ettirib otga chap yon bilan qo'nish. Chapga sakrashni amalga oshirish uchun hammasini aksinchabajariladi.

#### O'rnatish ketma-ketligi.

1. Gimnastika o'rindig'idan qdamlab oshib o'tish usulida sakrash.

2. Otning ustida o'ng songa o'tirib qo'llar bilan orqadan tayanish va oyoqlarda oldinga-o'ngga siltanib, asbobdan sakrab tushish, otga chap yon bilan qo'nish.

3. Oyoqlarni ochib otga ko'ndalang o'tirib, qo'llar bilan uning tanasiga tayanish va oyoqlarda siltanib o'ngga burchak sakrab tushish, otga chap yon bilan qo'nish.

4. Otga o'ng yon bilan ko'prika turishdan o'ng oyoqda siltanib va chap oyoqda itarilib otning ustiga orqadan tayanib o'tirish, o'ng tomoniga oyoqlarni tushirib sakrab tushish, otga chap yon bilan qo'nish.

5. Qisqa masofadan yugurib kelib, bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib o'ngga (chapga) burchak sakrash.

#### Xatolar.

1. Asbob ustida oyoqlar birlashmaydi.

2. Asbob ustidagi tosning juda past holati.

3. Qo'llar tayanchga parallel qo'yilmasa.

**Extiyotlash va yordam.** Qo'nish joyida asbobning yon tomonida turib, bir qo'lda yelka orqasidan, ikkinchisi bilan beldan ushlab yordam beriladi.

**13-AMALIY MASHG'ULOT**  
**QO`SHPOYADA TEBRANISH MASHQLARINI, TAYANIB SAKRASHDA OYOQLARNI**  
**BUKIB VA KERIB SAKRASH MASHQLARINI O`RGATISH.**

**Darsni maqsadi:** qo`shpoyada tebranish mashqlarini tayanib sakrashda oyoqlarni bukib va kerib sakrashni o`rgatish.


**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1.Qo`shpoyada bilaklarga tayanib tebranishlar, qo`llarga tayanib tebranish; tayanib tebranishdan sakrab qo`nish, qo`shpoyada burchakli tayanish.

2.Otdan oyoqlarni bukib sakrab o`tish; oyoqlarni kerib sakrab o`tish; o`zunasiga qo`yilgan ot ustidan bir oyoqda depsinib burchak hosil qilib sakrash.

**Qo`shpoyada burchakli tayanish**

**Bajarish texnikasi.** Qo`llar to`g`rilangan, bel to`g`ri, bosh tikka, oyoqlar poyalarga parallel.



**O`rgatish ketma-ketligi.**

Burchak tayanish – bu statistik holat bo`lib, (podvzdoshno-poyasnicchnyix) bel mushaklari, qorin, sonning oldingi va orqa mushaklarini yaxshi rivojlangan kuchini talab qiladi. Shuning uchun qo`l va qorin mushaklarini rivojlantririshga yo`naltirilgan ko`pgina mashqlar (o`tgan bosqichlardagi materiallarga qarang), asosan gimnastik devorda osilib to`g`ri oyoqlarni ko`tarish, burchak osilish, kuch bilan ko`tarilib to`ntarilish kabi mashqlarni bajarish, berilgan mashqni o`zlashtirishga yordam beradi.

**Ko`ndalang otdan oyoqlarni bukib tayanib sakrash**

**Bajarish texnikasi.** Ko`prikkdan oyoqlar bilan depsinib qo`llarni asbobga qo`yish va tos-son bo`g`imlarida hamda tizza bo`g`imida buqilish boshlanib, tizzalar ko`krakka tortiladi. Qo`llar itarilish yakunida yelka, qo`l ko`tarilishi va oyoqlar pastga-orqaga o`zatilishi hisobiga tana tez yoziladi. Qo`nishdan oldin, qo`nishni yumshoqlashtirish maqsadida tos-son bo`g`imlarini biroz bukiladi.

## 14-AMALIY MASHG'ULOT

### TURNIKDA, AKROBATIKA, YAKKACHO`PDA MASHQLAR O`RGATISH.

**Darsni maqsadi:** turnikda, akrobatika, yakkacho`pda mashqlarni bajarish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1. Turnikda - to`ntarilib ko`tarilish, tebranib sakrab tushish. Osilib tebranish, oldinga siltanib qo`nish.


2. Akrobatika mashqlari - to`ntarilishlar joyidan va yugurib kelib chapga, o`ngga.

Kuraklarda, boshda va qo`llarda, bir oyoqni siltab, boshqasi bilan depsinib qo`llarda tik turishlar.

3. Yakkacho`pda - qo`llarni harakatlantirib yurish, oyoqlar uchida burilishlar, bir oyoqda muvozanat saqlash.

#### **O`ng (chap) bilan oyoqlarni ochib tayanishdan chap (o`ng) oyoqni oldinga o`tkazib orqaga burilib tayanish**

**Bajarish texnikasi.** O`ng (chap) qo`lni o`tkazib pastdan ushslash va tana og`irligini shu qo`lga o`tkazish. Ketma-ket boshni, yelkani, tana va oyoqni burilish tomonga burib, songa va qo`llarga tayanib, chap (o`ng) qo`lni chap (o`ng) oyoqda oldinga siltanib o`tish bilan bir vaqtida tushirib, orqaga burilib tayanishni yakunlash.



#### **O`rgatish ketma-ketligi.**

1. Gimnastika tayog`ida burilishni aks ettirish.
2. Gimnastik o`rindiqda o`ng bilan oyoqlarni ochib tayanishdan, chapga oldinga siltanib o`tish bilan orqaga burilib tayanib yotish (qo`llar o`rindiqda, oyoqlar polda).
3. Past turnikda, o`ng bilan oyoqlarni ochib tayanishdan, chapda siltanib o`tish bilan orqaga burilib tayanish.
4. Shuning o`zi o`rta va baland turnikda.

#### **Xatolar.**

1. Burilishni bajarishda oyoqlarni bo`shashishi va tushib ketishi.
2. Oldinga siltanib o`tishni bajaruvchi oyoqning buqilishi.

**Extiyotlash va yordam.** Atrofida orqaga burilish bajariladigan oyoq panjalaridan ushlab yordam beradi.


#### **Nazorat darsi uchun kombinatsiya.**

1. Osilishdan kuch bilan ko`tarilib tayanish – 3,0 b.
2. O`ngda siltanib o`tib o`ng bilan oyoqlarni ochib tayanish – 0,5 b.
3. Chap oyoqda oldinga siltanib o`tish bilan o`ngga aylanib orqaga burilib tayanish – 1,0 b.
4. Osilishga tushish va kuch bilan ko`tarilib to`ntarilib tayanish – 3,0 b.
5. Oldinga bukilib osilishga tushish va orqaga siltanish – 0,5 b.
6. Oldinga siltanish va orqaga siltanish bilan  $90^{\circ}$  ga burilib sakrab tushish – 2,0 b.

Bukilib-yozilib tebranish va yoy shaklida siltanish — yetarli ko`lamda tebranishni ta`minlaydigan harakatlardir.

### Balandligi 90 sm bo`lgan to`sinqdan sakrab o`mbaloq oshish

**Bajarish texnikasi.** O`mbaloq oshish, uch qadamdan yugurib o`mbaloq oshishni bajarishga o`xhash, lekin uchish fazasi balandligi asta-sekin oshib boradi, shu bilan birga yugurish tezligi va o`zunligi ham oshadi.



#### O`rgatish ketma-ketligi.

1. Tayanib cho`qqayishdan, oldinga o`zun o`mbaloq oshishni takrorlash.
2. Joydan sakrab o`mbaloq oshish.
3. Asta-sekin balandlikni 50-70 sm gacha ko`tarib, 2-3 qadam yugurib sakrab o`mbaloq oshish.
4. Yugurib balandligi 90 sm to`sinqdan sakrab o`mbaloq oshish (to`sinq sifatida tortilgan arqon va ag`darilgan matdan foydalanish mumkin).

#### Xatolar.

To`sinqlarsiz sakrab o`mbaloq oshishdagi kabi xatolar. Bu elementni bajarish xavfiliyi va o`quvchi-talabalar jarohat olishlari mumkinligini hisobga olib, joyda sakrab o`mbaloq oshishni o`zlashtirmaganlar, bu mashqni bajarishlariga yo`l qo`yilmaydi.

**15-AMALIY MASHG'ULOT**  
**AKROBATIKA MASHQLARIDAN TO'NTARILISH VA**  
**TIK TURISH MASHQLARINI O'RGATISH.**

**Darsni maqsadi:** akrobatika mashqlarni chapga va o'ngga to'ntarilish o'rgatish kuraklarda, boshda va qo'llarda tik turishni.


**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1. Akrobatika mashqlari - to'ntarilishlar joyidan va yugurib kelib chapga, o'ngga. Kuraklarda, boshda va qo'llarda, bir oyoqni siltab, boshqasi bilandepsinib qo'llarda tik turishlar.

2. Otdan oyoqlarni bukib sakrab o'tish, oyoqlarni kerib sakrab o'tishni mustaxkamlash. Otga tayanib cho'qqayish holatida sakrab chiqib kerishib sakrab tushish.

**Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib qo'llarda tik turish**

**Bajarish texnikasi.** Siltanuvchi oyoqda turib, itariluvchi oldinda oyoq uchida, qo'llar yuqoriga kaftlar oldinga qadam qo'yib tanlanib, tanani oldinga bukib, to'g'ri qo'llarni yelka oralig'ida polga qo'yish va bir oyoqda siltanib, ikkinchi oyoqda itarilib qo'llarda turishga o'tish. Tik turganda oyoqlarni birlashtirib polga qarab, boshni ozgina orqaga egadi.



**O'rgatish ketma-ketligi.**

1. Yordam bilan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib qo'llarda turish.
2. Devordan ikki qadam narida turib, itariluvchi oyoq bilan bir qadam qo'yib ikkinchisida siltanib, tovonlar bilan devorga tayanib qo'llarda turish.

**Xatolar.**

1. Boshning noto'g'ri holati (orqaga egilmagan).
2. Tanani haddan ziyod kerilganligi.
3. Qo'llar juda keng yoki qisqa qo'yilishi.
4. Tananing yelka ko'krak va bel qismlari to'liq to'g'rulanmasa.

**Ehtiyyotlash va yordam.** Siltanuvchi oyoq tomonda turib, bir qo'lni oldinga cho'zib, ikkinchisi bilan o'quvchining siltanuvchi oyoqning sonidan yoki boldiridan ushlab yordam beriladi. Qo'llarni ko'tarilishi mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi oyoqqa tegish paytida to'xtaydi.

**16-AMALIY MASHG'ULOT**  
**QO`SHPOYADA TAYANISH, TEBRANISH, TIK TURISH MASHQLARINI VA**  
**YAKKACHO`PDA YURISH, BURILISH, SAKRAB QO`NISH MASHQLARNI**  
**O`RGATISH.**

**Darsni maqsadi:** qo`shpoyada tayanish, tebranish mashqlarini, qizlarga yakkacho`pdagi mashqlarni o`rgatish.


**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1. Qo`shpoyada mashqlar - oyoqni kerib o`tirgan holatda oldinga siltab ko`tarish shuning o`zi tayanib, tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko`tarilib oyoqlarni ochib o`tirish mashqlarini o`rgatish.

2. Yakkacho`pdagi mashqlar - muvozanat, turish, ko`priklar, shpagatlar bajarish. Bu mashqlarni texnikasi, polda bajarib o`rgatiladi.

**Tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko`tarilib oyoqlarni ochib o`tirish**

**Bajarish texnikasi.** Tirsaklarga tayanib tebranishdan vertikaldan o`tib, tos-son bo`g`imidan biroz bukilib, tez oldinga siltanib, oyoq ichlari poya darajasiga etganda, keskin yozilish va qo`llarni bukish bilan bir vaqtida oyoqlarni ajratib, oyoqlarni ochib o`tirishga o`tish.



**O`rgatish ketma-ketligi.**

1. Gimnastik devorga orqalab qo`llarni bukib orqadan tayanib o`tirishdan orqada tayanib yotishga o`tish (2-3 marta takrorlash).

2. Tirsaklarda tebranishdan, oldinga siltanishda oyoq uchlari poya darajasiga etganda, oyoq harakatini to`xtatish va tos-son bo`g`imidan yozilish.

3. Oyoqlarda otga tayanish bilan tirsaklarga larda tayanib yotib, tayanib yotishga o`tish.

4. Tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko`tarilib oyoqlarni ochib o`tirish.

**Xatolar.**

1. Oldinga siltanishda oyoq ichlari poya darajasidan o`tib ketsa va tos-son bo`g`imida yozilish sodir bo`lmasa.

2. Oldinga siltanishda yelka va ( orasidagi burchak kamaysa.

3. Qo`llarni buqilishi va tayanishga o`tish polga oyoqlarni qo`ygandan so`ng sodir bo`lsa, aksincha emas.

**Straxovka va yordam.** Yonboshda turib, bir qo`l bilan yelkadan ikkinchi qo`l bilan beldan ushlanadi.

**Statik mashqlarga:** muvozanat, turish, ko`priklar, shpagatlar kiradi. Bu mashqlarning texnikasi, polda bajariladigan mashqlardan unchalik farq qilmaydi.


Muvozanat yuqori turishlardan va o'tirishlardan, ikki yoki bir oyoqda, boshqa oyoq oldinga, orqaga, yon tomonga bajariladi.

Muvozanatni joyda turib va harakatlanish, burilish va sakrashlar bilan uyg'unlashtirib bajarish mumkin. Ularga: oyoq uchida turish; bir oyoqda turish, ikkinchisi orqaga; bir oyoqda yarim o'tirib, ikkinchisi orqaga; bir oyoqda o'tirib, ikkinchisi oldinga; bir oyoqda turib, ikkinchisi oldinga-yuqoriga, orqaga burilib, qo'llar yon tomonga va boshqalar kiradi.

Yelkalarda, boshda va qo'llarda, ko'krakda, ko'kraklarda va qo'llarda turish oddiy va aralash tayanchda, qo'llar bilan yakkacho'pni yuqori, pastki yoki yonbosh tekisligidan ushlab bajariladi.

Ko'priklar orqaga bukilib qo'llarga tayanib yoki oldinga burilib oyoqlarga tayanib bajariladi. Ko'pri holatida tayanch, bir oyoqqa va ikki qo'lga va aksincha bo'lishi mumkin.

Shpagat va yarim shpagatlar tizzalarga yoki tizzaga tayanib turib, boshqa oyoq orqaga; tayanib o'tirishdan oyoqlarni sirpantirib); burilishlardan keyin yoki yakkacho'pga tayanib yoki tayanmasdan, boshqa elementlarni qo'shib bajariladi.



**17-AMALIY MASHG'ULOT**  
**TURNIKDA VA BALAND PAST QO`SHPOYADA BAJARILADIGAN**  
**MASHQLARNI O`RGATISH.**

**Darsni maqsadi:** turnikda osilish va tayanish, tebranish mashqlarini, qizlarga baland past qo`shpoyadagi mashqlarni o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

1. Turnikda - to`ntarilib ko`tarilish, tebranib sakrab tushish. Osilib tebranish, oldinga siltanib qo`nishni o`rgatish.

2. Baland past qo`shpoyada - ko`tarilishlar va tushishlar: cho`qqayib osilish holatidan baland poyaga tayanish, oldinga tushib osilib yotish.

**Gimnastikachi osilish** holatidan qorin pressi va son oldi muskullarini taranlatancha oyoqlarini burchak hosil qilgunga qadar ko`taradi (gorizontal holatgacha ko`tarish shart emas, o`tmas burchak qilib ko`tarish ham mumkin). Keyin keskin, qisqa harakat bilan oyoqlarini pastga yo`naltiradi va bel qismidan kerilgunga kadar orqaga siltaydi. Bunday harakatlar tananing old yo`zalikdagi muskullarini cho`zadi va keyinchalik tos-son va yelka bo`g`inidan (bu anatomik jihatdan yelka bo`g`ini uchun yozilish bo`ladi) shunindek, umurtqa pog`onasining bel qismidan tez buqilish uchun yordam beradi.


Yozilish tugashi bilan buqilishni boshlash zarur (shug`ullanishni ya`ni boshlovchilarda eng ko`p uchraydigan xato—orqaga siltangancha to`xtab qolishdir). Bukila borib, gimnastikachi imkoniyati boricha tezroq oyoqlarini turnik rifiga tizzadan boldir o`rtasidan bo`lsa, yana ham yaqshi) yaqinlashtirishga harakat qiladi va butun tana oldinga qadar oyoqlarni shu holatda ushlab turadi, tos-son va yelka bo`g`inidan to`g`rilanib, oyoqlarni oldinga va yuqoriga keskin yo`naltiradi. Bunda butun tana oldinga tebranishning so`nggi nuqtasi holatida bo`lishi kerak. Bunda kerishish yaramaydi. Kerishishga yo`l qo`ymaslikning yaxshi uslubiy usuli— shug`ullanuvchilarga oyoq uchlariga qarashni tavsiya qilishdir.

**Bir oyoqda ko`tarilish** (tebrangandan keyin) oldingi holatning oxiriga bir oz etmasdan gimnastikachi tos-son va yelka -bo`g`inlaridan keskin bukiladi va ikkala oyoqlarini tovon- boldir bo`g`ini to`g`risidan turnikka olib keladi, keyinchalik o`ng oyoq`ini turnik ostidan o`tkazadi (o`ng oyoq tizzadan buqilishi mumkin). Bu harakatlar bukilib osilish holatidan orqaga siltanish boshlanishidan oldin tugashi zarur. Orqaga siltanish boshlanishi bilan bir bo`g`inidan buqilish davom etadi (ya`ni yelka-tana burchagi kamayib boradi), tos-son bo`g`inidan esa to`g`rilanish boshlanadi va o`ng oyoq tayanish holatida tugallanadi. Shuni ta`kidlash muximki, tos-son bo`g`inidan to`g`rilanish davomida chap oyoqning oldingi yo`zasi turnikdan o`zoqlashtirilmay, balki tegar-temas turishi kerak. O`rgatish (kichik turnikda):

- a) oyoqlarni yozib bukilib osilish (rif boldir-tovon bo`g`ini to`g`risida);
- b) oyoqlarni yozib bukilib osilish holatidan oyoqlarni kerib, kerishib osilish holatigacha keskin to`g`rilanish va bukilib osilish holatiga qaytish;
- v) bukilib osilish holatidan majburiy (murabbiy yordamida) tebranish;
- g) bukilib osilish holatidan orqaga siltanganda oyoqlarni yozib kerishib osilish— oldinga tebranganda bukilib osilish;
- d) yordam bilan ikki - uch tebranishdan keyin o`ng oyoq bilan tayanishga ko`tarilish;
- e) o`ng oyoq bilan minib tayanish qolatidan orkaa to`shib, oyoqlarni kergan holda osilib qolish;
- j) yordam bilan o`ng oyoqda tayanishdan orkaga tushib, o`ng oyoq; bilan tayanib ko`tarilish.

Ko`tarilishni bir necha bor mustaqil bajargandan keyin katta turnikka o`tish mumkin. Asosiy e`tiborni osilish holatidan bukilib osilish holatiga o`tishga qaratish zarur.

**Gavdani siltab ko`tarilish (tebranishdan keyin).**



Orqaga tebranishdan keyin, vertikal holatni o'tayotib, tos-son bo'g'inidan keskin to'g'rilanish va shu bilan birga qo'llarni bosh orqasiga (xuddi oldinga tebranib sakrab tushishdagi kabi, biroq bir oz ilgariroq) o'zatish kerak. Turilgan holatda to'xtamasdan tos-son va yelka bo'g'inlaridan keskin bukilib, boldir o'rtasini turnikka olib kelinadi (barcha harakatlar bukilib osilish holatidan orqaga tebranish boshlanishidan oldin tugashi zarur). Orqaga tebranish boshlanishi bilan yelka bo'yndan buqilishni davom ettirib, tos-son bo'g'inidan kerak. Bu harakatlar natijasida tos turnikka yaqinlashadi va o'q atrofida butun tana aylanishining burchak tezligi oshadi, shuning hisobiga u tayanish holatiga keladi.

**O'rgatish (o'cta turnikda):**

a) burchak yasab osilishdan oyoqlar bilan to'shaklarga tiralib, oyoqlarni tizzadan bukkancha boshni orqaga tashlamay kerishish. To'g'ri qo'llarni bosh orqasiga oxirigacha o'zatilishiga e'tibor berish zarur. Keyin dastlabki holatga qaytish. Bir yo'la bir necha marta takrorlanadi. Kerishish tez bajarilishi kerak, toki uning oxirida tovonlar to'shakdan o'zilsin;

b) kerishishdan keyin imkoniyat boricha tezrok; to'g'ri oyoqlarni (boldir o'rtasini) turnikka olib kelish;

v) chap tomonda turgan trener yoki sherikning yordamida gavdani yozib ko'tarilish. Bunda yordamlashuvchi chap qo'li bilan oyoqlarni turnikka tez olib kelish uchun yordam beradi va o'ng qo'li bilan esa o'quvchini belidan tayanish holatigacha ko'taradi.

Baland turnikda trener osilib turgan gimnastikachidan chap tomonda va bir qancha oldinda turib chanoq suyaklari qismidan ushlab, o'kuvchini muvozanat holatidan orqaga yo'naltiradi va uni shu holatda ushlab turadi. Gimnastikachi tos-son bo'g'inidan bukilib, tovonlarini rif proekqiyasi tomon to'shaklara yo'naltiradi (shu chiziqqa chizimcha yoki gimnastika tayoqchasi qo'yilsa yanada qulay bo'ladi). So'ngra trener qo'llarini olib, gimnastikachiga oldinga erkin harakatlanib muvozanat holatiga, ya'ni osilishning dastlabki holatiga qaytishga imkon beradi. Shu holatdan o'tayotib gimnastika tos-son bo'g'inidan keskin yozilishi va qo'llarini bosh orqasiga yo'naltirishi kerak. So'ngra gimnastikachi va trener «b» va «v» moddalarida tavsiya qilinganidek harakat qiladilar;

d) turnikdan 1 m. masofada turgan tramplindan burchak hosil qilib osilish holatiga sakrash va turnik ostida to'g'rilanish. Navbatdagi harakatlar «b» va «v» moddalarida bayon etilganidek bajariladi;

e) o`rtacha tebranishdan (ko`lami  $90^{\circ}$  dan oshmagan bo`lmasin) orqaga siltanib tos-son bo`g`inidan buqilish, turnik ostida to`g`rilanib, trener yordamida gavdani yozib ko`tarilish.

### **Yuqori poya (YU/P) ga tovonlar bilan tayanib Pastki poya (P/P) ga kerilib osilish va to`ntarilib P/P ga tayanish**

**Bajarish texnikasi.** Tashqaridan **P/P** ga osilib turishdan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib tovonlarni navbatma-navbat **YU/P** ga qo`yish va kerilib, **P/P** ga sonlar bilan yopishish. Kerilib osilish holatini egallagandan so`ng, **YU/P** lardan navbatma-navbat itarilib, to`ntarilib **P/P** ga tayanishni bajarish.

#### **O`rgatish ketma-ketligi.**

1. Gimnastik devorda orqadan bukilib osilishdan oyoqlarda itarilib, kerilib osilish va D.H. ga qaytish.

2. **P/P** ga osilib turishdan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib ko`tarilib to`ntarilish.

3. **P/P** ga osilib turishdan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib **YU/P** ga tovonlarda tayanib p/p ga kerilib osilish va to`ntarilib p/p ga tayanish.

#### **Xatolar.**

1. Kerilib osilish holatida bosh oldinga egilgan, rana biroz bukilgan.

2. To`ntarilishni bajarishda, bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib ko`tarilib to`ntarilishning ikkinchi qismiga xos bo`lgan xatolar paydo bo`lishi mumkin.

**Extiyotlash va yordam.** Poyalar orasida turib, bir qo`lda yelkadan, ikkinchisida sondan ushlanadi. To`ntarilishni bajarish vaqtida ko`tarilib to`ntarilishni bajarishdagi kabi.

#### **Takomillashtirish va nazorat darsi uchun kombinatsiya.**

1. **YU/P** ga yo`zlanib **P/P** ni tashqarisidan bukilgan qo`llarga osilib turishdan bir oyoqda siltanib va ikkinchisida itarilib, **YU/P** ga tovonlar bilan tayanib **P/P** ga kerilib osilish – 2,0 b.

2. To`ntarilib **P/P** ga tayanish – 2,0 b.

3. O`ng bilan siltanib o`tib, o`ngda oyoqlarni ochib tayanish – 1,5 b.

4. **YU/P** ga o`ng qo`lni o`tkazib ushlab, o`ngda siltanib o`tish bilan chapga aylanib orqaga burilib **P/P** ga osilib yotish – 2,0 b.

5. Chapga burilib chap songa o`tirish, o`ng qo`l bilan yon tomonga – 0,5 b.

6. O`ng qo`lni orqaga o`tkazib ushlab o`ngga aylanib burilib sakrab tushish – 2,0 b.

**18-AMALIY MASHG'ULOT**  
**TURNIKDA VA BALAND PAST QO`SHPOYADA BAJARILADIGAN**  
**MASHQLARNI O`RGATISH.**

**Darsni maqsadi:** turnikda osilish va tayanish, tebranish mashqlarini, qizlarga baland past qo`shpoyadagi mashqlarni o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zal, gimnastika matlari va snaryadlari.


1. Turnikda bajariladigan osilish va tayanishlar; tebranib osilib burilish: o`ng (chap) oyoqni kerib tayangan holatdan oldinga aylanish.

2. Baland past qo`shpoyada - osilish va tayanish; baland poyada tebranib poyaga cho`qqayib osilib burilish: past poyada osilib yotib, burilib sonda o`tirish.

**Oyoqlarni ochib bir oyoqda tayanish va ikkinchisida siltanib o`tib**

**90° ga burilib sakrab tushish**

**Bajarish texnikasi.** Tayanishdan bir oyoqda siltanib o`tib, oyoqlarni ochib tayanish. Tana to`g`rilangan, qo`llar to`g`ri, bosh tikka, oyoqlar keng ochilgan; bir oyoq oldinda, ikkinchisi orqada polga nisbatan bir xil burchak ostida. Qaysi oyoq oldindaligiga qarab, tayanish shunga xos nomlanadi. Masalan, o`ng oyoqni ochib tayanish, agar o`ng oyoq oldinda bo`lsa. Siltanib o`tib 90° ga burilib sakrab tushishni bajarish uchun, dastlab bir qo`lni burilish bilan bir vaqtida pastdan ushslash zarur. Atrofida burilish bajariladigan oyoqni tushirmaslik va bukmashlik kerak.



**O`rgatish ketma-ketligi.**

Past turnikda tayanishdan, siltanib o`tib o`ng (chap) tashqaridan oyoqlarni ochib tayanish – bir oyoq bilan siltanib o`tib o`ng (chap) oyoqlarni ochib tayanish – boshqasida siltanib o`tib 90° ga burilib sakrab tushish.

**Xatolar.**

1. Tayanishdan oldinga siltanib o`tishni bajarishning birinchi yarmida oyoqlarni bukish.

2. Oyoqlarni ochib tayanishda oyoqlar kam ochilgan, tana bukilgan, bosh tushib ketgan.

3. Sakrab tushish bajarilayotganda atrofida burilish bajariladigan oyoq tushib ketishi; siltanib o`tish bukilgan oyoqlarda amalga oshirilsa, tayanch oyoq bukilganda. Siltanib o`tishni o`tishni bajarayotgan oyoqning qarama-qarshi tomonda yonbosh turib, ikki qo`l bilan qo`llarning tirsakdan yuqorisidan ushlanadi.

**Extiyotlash va yordam.** 1 m balandlikdagi xodadan oshib o`tishda yordam, siltanib o`tishni bajarayotgan oyoqning qarama-qarshi tomonda yonbosh turib, ikki qo`l bilan qo`llarning tirsakdan yuqorisidan ushlanadi.

**Baland past qo`shpoyada “Songa o`tirish”**

**Bajarish texnikasi.** Oyoqlarni ochib osilib o`tirishdan bir oyoqda siltanib o`tib, songa o`tirish. Oyoqlar tashqarida joylashgan. Bir oyoq tizzadan bukilgan, sonning pastki qismining hammasi bilan poyaga tayanadi. Bukilgan oyoqning boldiri to`g`ri oyoq bilan parallel ravishda orqaga yo`naltirilgan, tana va bosh to`g`ri ushlanadi. Poyaga tayanishni ikkala qo`lda yoki bitta qo`lda, ikkinchisi yon tomonda bajarish mumkin.

**19-20 AMALIY MASHG'ULOT**  
**3-MODUL. "ISHLAB CHIQARISH JISMONIY TARBIYASINING TASHKIL ETISH**  
**VA JORIY ETISH USULLARI**

**R E J A:**

3. Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishda jismoniy tarbiyaning o'rni.
4. Kadrlarni tayyorlash, ishchi-xodimlarning madaniy-texnik tayyorgarligi va uni yuqori darajaga ko'tarish.

**MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL QILISH TIZIMIDA JISMONIY  
TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI**

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab hozirgi zamon iqtisodiyotiga o'tish davrida korxona, zavod va tashkilotlarni birin-ketin kompyuter bilan jihozlab kelayotgan bir paytda ishchilar, olimlar, idora xodimlarida jismoniy tarbiya va sportga, uning elementlariga ehtiyoj o'sib boryapti. Taraqqiy etgan mamlakatlar (AQSH, Xitoy, Yaponiya)ning sotsiologlari to'plagan ma'lumotlarga binoan ishlab chiqarish gimnastikasi muntazam o'tkazilib turiladigan, sport inshootlari zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan muassasa, zavod, korxona, firmalarda ishlab chiqarish unumdorligi boshqa korxona-firmalarga nisbatan **12-17 %** yuqori, ishchilarning, xodimlarning kasallikka chalinishi va kasallik varaqasi **15-22 %** ham kam.

**Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish MIAT** muntazam ravishda ishlab chiqarishga tatbiq qilinadigan zamonaviy fan yutuqlariga va ilg'or tajribaga asoslanadi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish zamonaniy texnikani va odamlarni yagona ishlab chiqarish jarayonida birlashtirishga imkoniyat tug'diradi.

Moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ishlab chiqarish unumdorligini doimiy ravishda oshirishni va shu vaqtning o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini tushirishni ta'minlaydi.

Afsuski, amalda ko'pgina ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya tadbirlari sust tashkil qilinadi va mehnatkashlarning mehnat qilish va dam olish sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlari kengaytirilmaydi.

**MIAT** tarmog'idagi jismoniy tarbiya ikki nuqtai nazarni o'z ichiga oladi:

**Birinchidan:** MIAT tizimidagi jismoniy tarbiya mehnatni ilmiy asosda uyushtirish jarayonida odamlarning har tomonlama, ya'ni ham jismonan, ham aqliy rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi. Etarli va kerakli tayyorgarlik, shu bilan birga mehnatga muntazam tayyorgarlikni saqlash, ishlab chiqarish jamoasida mehnatkashlarni tarbiyalash va mehnat unumdorligini oshirish maqsad qilib olinadi.

**Ikkinchidan:** MIAT o'zining moddiy-texnika manbaiga, nazariy dasturiga ega bo'lib, maxsus tibbiy-biologik xizmat imkoniyatlarini ham ishlab chiqarishni rivojlantirishga, uning barcha tarmog'idagi ishlarni yana ham yaxshilashga qaratadi. Jismoniy tarbiya vositalarining ishlab chiqarishga va mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish shakllariga umumiyligi ta'siri kattadir. Jismoniy tarbiya vositalari ish jarayonida, dam olishda oqilona qo'llansa, odam organizmini zo'r g'ayrat qilib ishlashga tayyorlaydi, uning zo'riqishga chidamliligini oshirib, shu bilan birga ishchanlik va mehnat unumdorligining tiklanishini tezlashtiradi, toliqishning oldini oladi, umumiyligi qobiliyatini o'stiradi, ijtimoiy va mehnat faoliyatining o'sishiga yordam beradi.

Mehnat va dam olish sharoitlarining yaxshi tashkil qilinishi jismoniy tarbiya vositalarini ishga solish imkonini beradi.

Bunda jismniy tarbiya vositalari odamga ikki xil gimnastika mashg'ulotlari orqali ta'sir ko'rsatadi.

**Birinchisi** - shiddatli, tez, asosan ishlab chiqarish gimnastikasi vositalari tufayli, yuqori darajali ish unumdorligini kun bo'yli saqlab qolish, toliqishni engish omilidir.

**Ikkinchisi** - odam organizmiga tiklanish davomida paydo bo`ladigan jismoniy va ruhiy kuchlarning rivojlanishi va takomillashishi bo`lib, u sarf qilingan kuchni faol dam olish orqali tiklaydi va mashg`ulotlarni odam organizmiga jismoniy tarbiya vositalari orqali ta'sir qilishini ta'minlaydi.

Ushbu yo`nalishning amalga oshirilishi psixik-asab qisqarishini o`z ichiga oladi, boshlangan harakatlarning davom etishini, uning sonini oshirib, ayrim mehnat turlariga sarflanadigan kuchni tejab borishni nazarda tutadi.

SHunday qilib, jismoniy tarbiya odamning ish jarayonida to`g`ri fikr yuritishini, harakatlarini ongli ravishda boshqarishini ta'minlaydi. Jismoniy mashqlar bir me'yorda bajarilganda odamning harakat faoliyatiga sarflanadigan kuch-quvvatini tejaydi.

### **Kadrlarni tayyorlash, ishchi-xodimlarning madaniy-texnik tayyorgarligi va uni yuqori darajaga ko`tarish**

Jismoniy madaniyatning mehnatni ilmiy asosda tashkil etish bilan o`zaro aloqasini ikki tomonlama, ya`ni odamning mehnat faoliyatiga tayyorligi nospesifik (o`ziga xos bo`Imagan) va spesifik (o`ziga xos boigan) yo`nalishlarda amalga oshiradi.

Nospesifik omil sifatidagi tayyorgarlik jismoniy tarbiyaga quyidagicha faol va samarali yordam beradi:

- odamni shaxs sifatida har tomonlama va uyg`un rivojlanishiga, shakllanishiga, tarbiyasiga, kerakli ruhiy va jismoniy sifat va xususiyatlarini rivojlantirishga va takomillashtirishga;
- sog`liqni mustahkamlashga, umuman og`ir va tez-tez o`zgarib turadigan sharoitda shu faoliyatni o`ziga xos bo`Imagan ish qobiliyatining o`sishiga, chidamlilikka, biologik jarayon va mexanizmlarni boshqarishni takomillashtirishga;
- umumiylar maxsus ta`limni o`rgatishda samaraliroq jismoniy tarbiya tadbirlari orqali amaliy-kasbiy maqsadlar amalga oshiriladi.
- Mehnat manbalaridan to`g`ri foydalanish orqali spesifik yo`nalish maqsadlari amalga oshiriladi. Bunda MIAT ijobiylar roli o`ynaydi:
- odamning ijtimoiy safarbarligini, yangi mehnat topshiriqlarini bajarishga tayyorligini va uning ijtimoiy faolligini, yangi kasb egallashiga, har xil kasblarni birga qo`shib olib borishga, mehnat sharoitini o`zgartirishga tayyorgarligini o`stiradi. Har bir kishining ish bajarish qobiliyatini va uning o`z kasbiga qizqishini oshiradi, kasbiga oid faoliyatga puxta tayyorlanishiga ko`maklashadi;
- omillardan biri sifatida mehnat imkoniyatlarini o`zgartirishni boshqaradi, ishlab chiqarish xodimlari ishining unumdarligini ko`paytiradi hamda ularning sanoat va boshqa xalq xo`jaligi ishlarida faol qatnashishiga ko`maklashadi;
- jismoniy tarbiya va sport, jamoadagi tashkiliy mashg`ulotlar ishlab chiqarishning rivojlanishiga, odamlar bir-birlarini tushunishiga va do`stlikka, axloqiy va ijtimoiy-ruhiy sharoitga o`rganishiga hamda, birgalikda ijodiy faoliyat ko`rsatib, jamoada mehnat unumdarligining o`sishiga ko`maklashadi.

### **Mehnatni bir me'yorda tashkil qilish**

Jismoniy tarbiya bilan muntazam shug`ullanib kelayotgan kishilar boshqalarga qaraganda chidamliroq, intizomliroq bo`lib, kun davomida ko`p va sifatli mahsulot ishlab chiqaradi.

Mehnatni ilmiy tashkil qilishda va unumdarligini oshirishda jismoniy tarbiya vositalaridan to`g`ri va muntazam foydalanilsa, (korxona va muassasalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifati va miqdori ortadi, ishchi-xizmatchilarning ish faoliyat samaradorliroq bo`ladi).

Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning bu elementiga jismoniy, tarbiyaning ta'siri insonni ijobiylar o`zgarishlarga olib keladi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishda jismoniy tarbiya jihozlaridan foydalanish ish unumiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda qisqa dam olish davrlari, ish joylarida ishni to'g'ri tashkil qilish ham katta rol o'ynaydi. Bu ko'proq sport anjomlaridan qanday foydalanish bilan bog'liqdir.

### Ishlab chiqarishda jismoniy madaniyat, uning maqsadi va vazifalari

Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya vositalari samarali tanlangan va amalga oshiriladigan jismoniy mashqlar majmuasi bo`lib, insonning mehnat qilish qobiliyatini o'stirishga va uni ma'lum doirada saqlab qolishga yo`naltirilgandir.

Ishchi-xizmatchilarning salomatligini mustahkamlash va ularning mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishdagi jismoniy tarbiyaning maqsadidir. U asosan korxona, tashkilotlar, uyushma hududida ish paytida va ishdan tashqari vaqtida o'tkaziladi. SHaklan u uyushgan va mustaqil, guruhlarga bo`lingan va ikkala aralash holda o'tkazilishi mumkin, Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya va umum salomatlik mashg'ulotlarining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar korxona rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan yaratib berilishi shart. Ishlab chiqarish jismoniy tarbiyasi umumiyo sog'lomlashtirishdan tashqari maxsus masalalarni: insonni mehnatga tayyorlash, ish vaqtida va undan so`ng ishchanlik qobiliyatini tiklash, faol mehnat qilish va boshqa masalalarni hal qilishga qaratilgandir.

### Ishlab chiqarish gimnastikasi

- Ishlab chiqarish gimnastikasining asosiy vazifasi - charchoqni chiqarish hisobiga ishchanlik qobiliyatini oshirish, kuch-quvvatni tiklash jarayonlarini jadallashtirish.
- Ish kuni tugashi bilanoq tiklanish jarayonlarini jadallashtiruvchi, mehnat faoliyatini tugatgandan keyingi tiklanish.
- Odam organizmining mehnat jarayonidagi nomaqbul omillarga qarshilik ko'rsatishi (profilaktikasi).
- Jismoniy va ruhiy ko`nikma, qobiliyatlarini ma'lum darajada saqlashga yoki o'stirishga qaratilgan kasbiy amaliy tayyorgarlik.

Agar ishchilarning faoliyatida jismoniy yuksalish sezilarli darajada katta bo`lsa, ish kunidan keyingi tiklash tadbirlariga kiritiladigan gimnastik mashqlar to`plami mushaklarni bo`shashtirishga yo`naltirilishi kerak. Bu mashqlar tez va to`la dam olishga, charchoqning tiklanishiga imkon beradi.

Agar mehnat katta **jismoniy yuklanishni** talab qilmasa, unda jismoniy mashqlar katta mushaklar guruhini nafas olish va qon aylanish tarmog'i faoliyatini faollashtirishga qaratiladi. Ishlab chiqarish gimnastikasining shakli va mazmunini tanlashda mehnatning aqliy yuksalishi ham hisobga olinadi, bu oliy asab faoliyatini va ruhiy jarayonlarni ishga kirishish pog'onasini ifodalaydi.

Bu vazifani hal qilishda jismoniy mashg'ulotlarni nomiga o'tkazish ham foya keltiradi. Uni jonli, ko'tarinki ruhda o'tkazilsa, natija juda yaxshi bo`ladi. Jismoniy mashg'ulotlarda boshqa ma'lum usullardan suv bilan davolash, musiqa jo'r bo`lishidan foydalanish katta natija beradi. Ishlab chiqarish gimnastikasi mashqlarining shakl va mazmunini tuzishda ishchi-xizmatchining ish paytidagi gavda vaziyatini ko'proq to'g'ri tutishini e'tiborga olish kerak. Ishchi tik turib ishlasa, tiklanish hamda charchoqning oldini olish mashg'ulotlarini o'tirgan holda bajarish tavsiya qilinadi. O'tirib ishlaydigan ishchilar uchun faol dam olish, mehnat jarayonida va ishdan keyin hamda toliqishning oldini olish mashg'ulotlari turgan holda bajarilsa yaxshi bo`ladi. Majburan noqulay vaziyatda bajariladigan ishdan so`ng mashg'ulotlar o'tirib yoki turli holda bajariladi. Bunda mashqlarni shunday tanlash kerakki, ular ish holatida yuklanishda bo`lgan mushaklarni iloji boricha bo`shashtirib turishi kerak.

Ish jarayonida **jismoniy yuklanish** ta'siri mushaklarga bir me'yorda taqsimlanmaydi. Ayrim mushaklarga asosiy og'irlilik tushsa, boshqalariga kamroq va ayrimlariga umuman og'irlilik tushmaydi. Jismoniy tarbiya mashqlarini tanlashda bularni e'tiborga olish zarur. Ish kuni davomida uzluksiz jismoniy yuklanish jismoniy harakatga sarflanganda jismoniy tarbiya mashqlariga chuqur nafas olish bilan badanni bo'shashtirish mashqlarini kiritish tavsiya etiladi.

Mehnat sharoiti va uning tashkil etilishi ko`pincha toliqishning tasnifi va darajasini belgilab beradi. Toliqish turli xilda namoyon bo`lishi mumkin. Dastlab loqaydlik, mudroq bosish hollari, ishni davom ettirishni xohlamaslik bo`lsa, keyinchalik odam hayajonlangan holda va serjahl holda harakat qilishi mumkin. SHuning uchun tiklanish mashqlari ham turli xil bo`lishi kerak. Birinchi bo`lib charchoqning oldini olishda o`cta va yuqori tezlikda bajariladigan badanni bo'shashtiruvchi mashqlar bilan keng amplitudali harakatli dinamik mashqlar yordam beradi.

Jismoniy tarbiya mashqlarini tanlashda **ishlab chiqarish** xususiyatlарини hisobga olish zarur. Ular turli xildagi ishlab chiqarish gimnastikasi va maxsus mashqlar ta'siriga berilish mezonlarini belgilab beradi.

Ishlab chiqarish korxonalari uchun jismoniy tarbiya mashqlari ro`yxatini tuzishda shugullanuvchilarning jismoniy holati va rivojlanishiga ham e'tibor berish kerak, bunda jismoniy mashqlarni shunday tanlash kerakki, ularni hamma shug'ullanuvchilar ham bajara oladigan bo`lsinlar.

Ishlab chiqarish muassasalarida jismoniy mashg'ulotlarni **rejalashtirishda** shug'ullanuvchilarning jinsiga e'tibor berish kerak. Bu shak-shubhaisiz mash'ulot o'tkazish uslubini yanada to`g'ri tanlashga yordam beradi. Ayollar uchun ba'zi bir raqs elementlari kiritilgan harakatlar maqsadga muvofiqdir. erkaklarga esa kuchli, keskin harakatli mashqlarni tavsiya etish afzalroqdir. Bundan tashqari, shug'ullanuvchilarning yoshlariga ham alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. Katta yoshdagi odamlarga nisbatan yosh ishchi xizmatchilarga birmuncha ko`proq jismoniy kuch sarflanadigan mashqlar tanlanishi kerak.

### **Ishlab chiqarish muassasalarida jismoniy tarbiya vositalarining turlari va tadbir o'tkazish usullari**

Ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya mashqlarining bajarilishi mehnatni ilmiy tashkil etishning ajralmas bir qismi hisoblanadi.

YUqori malakali mehnat layoqatini saqlash shartlaridan biri, ish faoliyatining bir turidan boshqa turiga o'tish mezonlarini hosil qilishdir. Ishlab chiqarish muassasalarida . Uning ilmiy asosi - I.M.Sechenov tomonidan ochilgan - faol dam olish natijasi va I.Pavlov tomonidan ta'rif etilgan mehnat layoqatining eng muvofiq sharoitlarini saqlovchi markaziy asab tomirlaridagi qo'zgalish va tormozlanishning muntazam almashinuv jarayonidir.

Bir ish kuni davomida ishchi bir xil harakatlarni bir necha bor takrorlaydi. Bu ish faoliyati bosh miya qo'zg'aluvchanligini va mushaklar harakatini avtomat holatiga olib keladi. Bu bosh miya katta yarim pallasi pustlog'idagi asab markazlarining davomiy ko'zg'alishidir.

Kun bo`yi insonning ishchanlik qobiliyati bir xil bo`lmaydi. Kun boshida organizmning hamma tarmog'i va faoliyati mehnat maromiga moslasha boshlaydi, natijada asta-sekin ishchanlik qobiliyati oshib boradi (kunduzi soat **12gacha**). YUksak darajaga etib, u ancha vaqtgacha yuqori bo`ladi (soat **14gacha**), so`ngra toliqish natijasida pasayib boradi. Kun davomida ishchanlik ikki marta o`zgaradi.

CHarchab qolish bilan kurashish va yuqori ishchanlik qobiliyatini saqlab qolish maqsadida mufassal ravishda ma'lum vaqtidan so`ng ishni to`xtatib, maxsus tanlangan gimnastika mashqlarini bajarish lozim. Ish paytidagi gimnastika bir qator xususiyatlarga ega bo`lib, ularni ish paytidai jismoniy tarbiya vositalarini tanlashga katta e'tibor berish kerak.

Bu xususiyatlar quyidagilar: vaqtning cheklanganligi, mashqlar bevosita ish joyida bajarilishi, ish kiyimida bajarilishi.

Ish vaqtidagi gimnastika uslubini ikkiga bo`lish mumkin: tuzish uslubi va o`tkazish uslubi.

Agar jismoniy mashqlar to`plami to`g`ri tuzilgan bo`lib, o`z vaqtida bajarilmasa, uning foydasi kam bo`ladi. Ishlab chiqarish gimnastikasi **4** shaklga ega.

**Kirish gimnastikasi.** Odam tanasidagi biologik jarayonlarni jadallashtiradi. Maxsus tanlangan gimnastika mashqlarini bajarish natijasida ishga kirishish davri ikki marta qisqaradi. Kirish gimnastikasi ishchanlik qobiliyati davrini ham uzaytiradi. Kirish gimnastikasi majmuasi ish kuni boshida **5-7** daqiqa davomida bajariladigan, mashhqdan iborat bo`ladi. Kirish gimnastikasi majmuasi turli ishlab chiqarish korxonalarida maxsus mashqlar majmuasi va mashg`ulot jarayonida kuchlanishning taqsimlanishi bilan farqlanadi. Kirish gimnastikasining odatdagи tartibi quyidagicha:

6. Uyushtiruvchi mashqlar.
7. Badan, qo`l va oyoq mushaklari uchun mashqlar.
8. Umumiy hamma mushaklarga ta`sir qiluvchi mashqlar.
9. Badan (tana), qo`l va oyoq mushaklari uchun mashqlar. 6 - 8 ta maxsus mashqlar.

10. Og`ir jismoniy ish bilan shug`ullanuvchi odamlar uchun bajarilishi oson bo`lgan kirish gimnastikasi.

Ular har xil mushaklarning faol harakatlarini birin-ketin qizdirishga yordam beradi. Jismoniy harakat faoliyati mashqlar majmuasining oxirgi choragiga borib ko`payadi.

O`rtacha og`irlikdagi mehnat bilan shug`ullanuvchilar (masalan, turli xil stanoklarda ishlovchilar uchun mashqlar) kirish gimnastikasi sifatida ish vaqtida band boimaydigan bir guruh mushaklarga dinamik amplitudali mashqlar kiritiladi. eng og`ir mashqlar to`plamning o`rtasiga, ya`ni **4**-mashqqa to`g`ri kelishi kerak. Zo`riqish talab qilmaydigan, ko`proq qulqoq, ko`z va hokazo a`zolar ishlaydigan kasb egalarining kirish gimnastikasi ga har xil mushaklar guruhi uchun, maxsus harakatli mashqlar tanlanadi. eng ko`proq mashq, jismoniy og`irlik to`plamning birinchi qismiga to`g`ri kelishi mo`ljallanadi Mehnatni tashkil qilishda ish sharoiti organizmga salbiy ta`sir qiladigan bo`lsa, shu ish tufayli kelib chiqadigan kasallikning oldini olish mashqlarini tanlash tavsiya qilinadi. Masalan, ip yigiruvchilar, stanokda ishlovchilar va hokazo - kun bo`yi oyoqda turib ishlaydiganlar yassi oyoqlik, umurtqa pog`onaning qiyshiq rivojlanishi kasalliklariga ducher bo`ladilar. SHuning uchun kirish gimnastikasi mashqlari to`plami an; shu kasalliklarning oldini olishga qaratilgan bo`lishi kerak. Kirish gimnastika to`plamining oxirida ish jarayoniga yaxshi tayyorianish uchun maxsus mashqlar bajariladi. Ular o`z turkumi va maqomi bilan ish harakatlariga o`xhashi, ba`zida eesa shu harakatni aynan takrorlashi mumkin. Maxsus mashqlar ishchining ish vaqtida asosiy og`irlik tushadigan mushaklari uchun tanlanadi. Masalan, to`qimachilar. yigiruvchilar uchun suyak mushaklari mashqlari qo`llaniladi. Bu mashqlar barmoqlarning ip bog`lash unumdorligini oshiradigan bo`lishi kerak. Tikuvchilar, mayda detallarni yig`uvchilar, chizmakashlar va boshqa shu kabi kasb egalarining ishlari etiborni, diqqatni bir nuqtaga to`plashni talab qiladi, bu vaziyatda ishchilar kayfiyatini ko`tarish uchun maxsus mashqlar yordam beradi.

Jismoniy tarbiya mashqlari ish jarayonida paydo bo`lgan toliqishni yo`qotish uchun qo`llanilib, **5-7** mashqlardan tashkil topib, toliqish davrida 5-7 daqiqa davomida bajariladi.

Gimnastik mashqlar to`plamini o`tkazish vaqtি ish kunining rejasiga, uning faoliyati turiga, mutaxassis qobiliyatiga bog`liq. Og`ir jismoniy mehnat qiladiganlarga jismoniy tarbiya lahzasi ish boshlanganidan **1,5 soatdan** so`ng, aqliy mehnat bilan shu`ullanuvchilar uchun ish boshlanganidan **3 soatdan** so`ng o`tkazish mumkin. Jismoniy tarbiya lahzasi gimnastika mashqlari mehnat jarayonining turiga qarab tanlanadi. Jismoniy og`irlik, aqliy mehnat yuklanishni e`tiborga olib, ishlab chiqarish gimnastikasining tasnifi belgilangan. Mehnat faoliyati turlari 4 guruhga bo`linib, har qaysi guruh uchun sakkiztadan jismoniy

mashqlar namunashi tuzilgan, ular jismoniy gimnastika mashqlari to`plamini ishlab chiqishda katta yordam beradi, har xil kasb guruhlari uchun tuzilgan gimnastika mashqlar to`plami bir necha umumiylikka ega. Qaysi bir mehnat faoliyatining turi bo`lmasin, toliqishning birinchhi alomati paydo bo`lishi bilan organizmning tabiiy talabi: chuqr nafas olish, kerilish, elkani orqaga tashlab, qo`llarni yuqoriga ko`tarish va hokazo mashqlarni bajarishdir. Biz jismoniy tarbiya lahzasida o`tkazadigan gimnastika mashqlarining boshida va oxiridagi mashqlarni sekin va chuqr nafas olish bilan bajarilishini tavsiya qilamiz. Jismoniy tarbiya lahzasidan so`ng ish jarayoni davom etadi, shuning uchun jismoniy mashqlarni bajarish, mehnat unumdorligini oshirishga, uni yuqori kayfiyat bilan davom ttirishga sharoit yaratib berishi kerak. Kuzatishlarning ko`rsatishicha, yuqorida aytib o`tilgan holatga diqqatni bir joyga to`playdigan mashqlar yordamida erishish mumkin ekan. Hamma guruhlar uchun (og`ir jismoniy mehnat guruhidan tashqari) umumiysi shuki, to`plamning o`rtasidagi mashqlar organizmga eng kuchli ta`sir qilishi kerak.

**Birinchi guruhdagi kasb** mehnatkashlariga juda og`ir bo`lмаган jismoniy yuklanish bilan bog`liq mehnat bilan shug`ullanuvchilar kiradi (bir me`yordagi bir xil ish qonveerda ishslash, diqqatni talab qiladigan ishlar, tikuvchilar, saralovchilar, mayda detallarni qoliplovchilar va boshqalar).

Bu guruh ishchilar uchun jismoniy tarbiya lahzasida hamma guruh mushaklari faoliyatini o`z ichiga oladigan gimnastika mashqlari, harakatchan mashqlar tanlanadi. Mashqlar gavdani to`g`ri tutishga, yurak-tomir va nafas olish tarmoqlari faoliyatiga, modda almashinuviga ko`maklashadi, eng muhimi tos va qo`l-oyoqlarda qon aylanishini kuchaytiradi. Buning uchun o`tirib-turishning har xil usullari tavsiya qilinadi, organizmga katta zo`riqish bermaslik uchun sakrash va yugurish mashqlari tavsiya qilinmaydi.

Bu kasb guruhlari uchun o`tkaziladigan jismoniy tarbiya daqiqalari quyidagicha:

8. Qo`llar kuchi bilan tortilish mashqlari.
9. Gavda, oyoq va qo`l mushaklari uchun (burilish, engashish) mashqlar.
10. Tana, qo`l, oyoq mushaklari uchun tez sur`at va katta amplituda bilan bajariladigan mashqlar.
11. Umumiya ta`sir ko`rsatuvchi mashqlar (o`tirib-turish tez yurish, o`tirib-turish bilan engashish, biriktirilgan qo`l-oyoq harakatlari).
12. Tana, qo`l, oyoq mushaklari uchun silkinish (siltash) mashqlari.
13. Qo`l mushaklarini bo`shashtiruvchi mashqlar.
14. Harakatlarni muvofiqlashtiruvchi va aniqlik mashqlari.

**Ikkinchi guruhdagi kasb** mehnatkashlariga aqliy va jismoniy mehnat bilan shu`ullanuvchilar kiradi. Ishlab chiqarish korxonalarida bu guruhga tokarlar, frezerchilar, tikuvchilar, yigiruvchilar, gilam to`quvchilar kiradi.

Bu guruhdagilar uchun jismoniy tarbiya laxzasidagi mashqlar to`plami bo`shashtirish belgilari bo`lgan xilma-xil dinamik mashqlarni o`z ichiga olishi kerak Ushbu guruhga tegishli kasbiy ishlarning asosiy qismi ishchilar turgan holda bajargani uchun mashqlar bajarish paytida oyoq mushaklarini dam oldirish kerak.

Jismoniy tarbiya daqiqasida bu guruh kasbi uchun tanlangan mashqlar har xil guruh mushaklarini zo`riqishini kamaytirishga, nafas olish va qon aylanish faoliyatini yaxshilashga, tovon mushaklarini mustahkamlashga imkon tug`dirishi kerak.

Bu guruh uchun namunali jismoniy tarbiya daqiqasidagi mashqlar to`plami quyidagilar:

9. Qo`llar kuchi bilan tortilish mashqlari.
10. Tana mushaklari uchun mo`ljallangan bo`shashtirish belgilari bo`lgan mashqlar.
11. Qo`l va oyoq mushaklari uchun mashqlar.
12. Umumiya ta`sir etish mashqlari - yugurish, sakrash, o`tirib-turish.
13. turish.
14. Siltash turidagi mashqlar.

15. Bo'shashtirish mashqlari.

16. Diqqatni muvofiqlashtirish mashqlari.

**Uchinchi guruh kasb egalari** og'ir jismoniy zo'riqish ishi bilan shugullanuvchilardir. Bular qoliplovchilar, metall quyuvchilar quruvchilar, temirchilar, shaxtada ishlovchilar va boshqalar. Bu guruh uchun jismoniy tarbiya lahzasidagi gimnastika mashqlari to`plami asosan chuqur nafas olish va nafasni bo'shashtirish mashqlaridan iborat bo`lishi lozim. Ular qon aylanishini yaxshilaydi, organizmda tiklanish jarayonini tezlashtirishga imkn yaratadi. Gimnastika mashqlari odatda o`rtacha va sekin tezlikda bajariladi. Jismoniy tarbiya mashqlari sust faol dam olish bilan birgalikda olib boriladi.

Jismoniy tarbiya lahzasidagi mashqlarni bir guruh kishilar o'tirgan holda bajarganlari afzalroqdir, agar maxsus xonalar bo`lsa, ayrim mashqlarni yotgan holda bajarish mumkin.

Bu guruh uchun bajariladigan mashqlar organizmdagi zo'riqishni pasaytiradi, ishlab to`rgan mushaklarda qon aylanishini, nafas olishni yaxshilaydi, umurtqa va tovon suyaklarini mustahkamlaydi.

Og'ir mehnat qiluvchilar uchun jismoniy tarbiya tanaffusida quyidagi mashqlar bajarish tavsiya qilinadi:

6. CHuqr nafas olib, qo'l va elka mushaklarini bo'shashtirish.

7. CHuqr nafas olib, har xil mushaklarni bo'shashtirish mashqlari.

8. CHuqr nafash olib, qo'l, oyoq va gavda mushaklari uchun o'tirib yoki yotib mashqlar bajarish.

9. Mushaklarni bo'shashtirish va harakatni engillashtirish mashqlari.

10. Gavda, qo'l va oyoq mushaklarini bo'shashtirish mashqlarini harakatni engillashtirish mashqlari bilan birgalikda olib borish.

**To`rtinchi guruh aqliy mehnat** bilan shug'ullanuvchilar, harakat qilish asab tarmog'iga ko`p og'irlik beruvchi kasb egalari kiradi. Ularga muhandis, kotib, o`qituvchilar, operatorlar, hisobchilar, ilmiy xodimlar, tarjimonlar va boshqalar kiradi.

Bu guruhdagilar uchun gimnastika mashqlarida har xil jismoniy harakatlar keng ko`lamda foydalaniadi, jismoniy tarbiya vositalari ularning harakatlarini engillashtirish, ish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda organizmni chiniqtirish, baquvvatlashtirish va qon aylanishini yaxshilashga qaratiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya tanaffusida oyoq mushaklari uchun bajariladigan mashqlarni albatta qo'shish kerak. Bu organizmdagi hujayralardan tomirlar orqali butun tanaga qon yurishini ta'minlaydi, bosh miya qon tomirlarida qon yurishini tezlashtiradi, pastki va kichik tos suyaklarida qon qotib qolishining oldini oladi. Jismoniy tarbiya tanaffusidagi mashqlarni yaxshisi tik turib bajarish ma'qui. Bu guruhdagilarga quyidagi tartibda mashq bajarish tavsiya qilinadi:

8. Tortilish mashqi.

9. Gavda, oyoq va qo'l mushaklari uchun mashqlar.

10. Gavda, oyoq va qo'l mushaklari uchun yuk bilan tez harakat qilish mashqlari.

11. Umumiy ta'sir qilish mashqlari: o'tirib-turish,yugurish - sakrash.

12. Oyoq, qo'l va gavda mushaklari uchun mashqlar, ko`proq oyoq harakatlari bilan birga olib boriladi.

13. Qo'l mushaklarini bo'shashtirish mashqlari.

14. Diqqatni harakatga moslab olib borish mashqi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari vaqtida 1, 2, 3-nchi guruhdagilar o'z harakatlarini sekin-asta tezlashtirib borib, mashqlarning o`rtasida, ya'ni yarmida esa harakatlarni sekinlashtirib, mashqlarning oxirida o`rtacha harakat bilan bajarish tavsiya qilinadi.

**3-nchi** guruhga kiradiganlarga harakat tezligini bir xilda oshirish teskari ta'sir ko'rsatadi, chunki ish jarayonida jismoniy harakatning organizmga ta'siri katta, mashqlar

to`plamining o`rtasiga kelib mashqlarning ta'siri kamayadi. Mashqlarning oxiriga kelib og`irlik ko`payadi. Bu esa mehnatni davom etirishga yangi kuch bagishlaydi.

Umumiy jismoniy kuchlanish dam olish vaqtida ish vaqtidagiga nisbatan oshib ketmasligi kerak. Ish vaqtida kam harakat qiluvchilarga korxonalardagi jismoniy tarbiya tanaffusini bir necha marta takrorlashi, ish vaqtidan keyin ko`proq mashq qilishlari tavsiya etiladi.

**3-nchi** guruhdagilar uchun jismoniy mashqlar 35 - 40% qisqartirilishi kerak.

Odam organizmiga ta'siri katta boiadigan mashqlarni o`zgartirish yo`li bilan ularning samarasini yanada oshirish mumkin. Mashq bajarish tezligini oshirib, sonini kamaytirib, uning ta'sirini ko`paytirish mumkin. Masalan, tortilish doim sekin-asta harakat orqali bajariladi, sakrash mashqi esa tez harakatga bog'liq engashish, burilish va quloch yozishni har xil tezlikda bajarish kerak. Bu o`z navbatida gimnastika mashqlarinnng bajarilishi qiyinligini ko`paytirishi va kamaytirishi mumkin.

Jismoniy tarbiya daqiqalariga faol dam olish ham kiradi. Bu mashqlar **1-2** lahzada **2-3 xil** harakatlarni tashkil qiladi. Bu lahzalar umumiyligi yoki alohida mashqlardan foydalangan holda bir ish kunida 5 martagacha qo'llanilishi mumkin. Jismoniy tarbiya lahzalarida umumiyligi harakatlarga **Birinchi gimnastika**-mashqi alohida ta'sir ko`rsatadi, odatda gavdani to`g'ri tutish va elkalarni orqaga burish asosiy harakat hisoblanadi. Bu hamma vaqt chuqur nafas olish bilan birga olib borilmaydi, chunki xonalar ta'siri, uy harorati va tibbiy-tozalik, gigiena hamisha ham talabga javob beravermaydi.

**Ikkinci mashq** - engashish va gavda bilan burilish, qo'l va oyoqlar tana atrofida birga aylanishdan iborat bo`ladi. Buni doim, istagan paytda bajarish mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya tanaffuslari va lahzalari ish vaqtida atrof-muhit holatlardan qat'i nazar, foya foyda keltiradi. Ba`zi bir joylarda tozalik-gigiena holatlari yomonligi tufayli jismoniy tarbiya tanaffuslarini o`tkazishga sharoit bo`lmaydi. Bunday sharoitda ham **4-5 gimnastika** mashqlaridan iborat jismoniy tarbiya lahzasi o`tkazilsa, charchoq tarqaladi va mushaklarda quvvat paydo bo`ladi.

Jismoniy tarbiya lahzalari jismoniy tarbiya tanaffuslari yoki umumiyligi dam olish imkoniyati bo`lmagan vaqtida katta foya foyda keltiradi. Bunday joylarda stanoklarni o`chirmasdan, ishlayotganlarni ishdan qoldirmasdan alohida tartibda jismoniy tarbiya lahzalaridan foydalinishda **4-6 gimnastika** mashqlarini bajarish ko`proq foya foyda keltiradi. Bunda mehnat qilayotgan odam, o`z imkoniyatlaridan foydalangan holda jismoniy tarbiya lahzalaridan unumli foydalinish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya lahzalaridan unumli foydalinish ko`pchilik ishchilarga charchoqni tarqatish va o`z jismoniy holatini yaxshilashda katta yordam bera oladi. Lahzalik tanaffusning maqsadi bosh miya, asab tarmog'i qo`zg'aluvchanligini ko`tarish yoki pasaytirish orqali toliqishni susaytirish, bosh miya va boshqa a`zolarda qon aylanishi, ayrim sezgi tarmg'idagi toliqishni susaytirishdir. Lahzali tanaffusda ko`proq harakatsiz, mushaklarni bo`sh qo'yish, ko`zlar, bosh bilan harakat qilish, nafas olish mashqlari, o`z-o`zini uqalash usullari, binoda yurish kabi mashqlar bajariladi.

Ish kuni davomida bunday mashqlar ko`p marta qo'llanishi mumkin, lekin albatta, jismoniy tarbiya tanaffuslarida ishlab chiqarish gimnastika mashqlari bilan birga qushib olib borilishi kerak.

Jismoniy tarbiya mashqlari mehnatni tashkil qilish va ish vaqtiga qarab tanlanishi lozim. Umumiyligi dam olish mashqlari ish vaqtining uzoqligiga qarab tanlanadi. SHuningdek, mashqlarni ish kuni vaqtiga (ertalabki, kunduzgi yoki kechki) qarab tanlash tavsiya qilinadi. ertalabki ish kuni dagilarga gimnastik mashqlar, kechkilarga tez-tez umumiyligi mashqlar tavsiya qilinadi. Ish vaqtida yoki dam olish paytidagi mashqlar to`g'ri taqsimlanishi katta muvaffaqiyat keltiradi. Awalo ish vaqtida umumiyligi dam olish gimnastika mashqlarini to`g'ri taqsimlash kerak. Odam organizmida charchoqning boshlanishi bilan jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish ijobji ta'sir qilishi isbotlangan. Agar og'ir mehnat qiladiganlarda dam

olishga ehtiyoj **1,5 soatdan so`ng** tug'ilsa, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilarda toliqish belgisi **3,5 soatdan so`ng** boshlanadi.

Bundan kelib chiqadiki, har xil kasb egalari uchun dam olish vaqtini bir vaqtda belgilash noto`g`ridir. Jismoniy tarbiya mash'ulotida mashqlarning erta bajarilishi ham zarar keltirishi mumkin. Mashqlarning bajarilishi oldin tushuntirilib, keyin bajariladi. U jismoniy mashg'ultlar o`tkazishda tajribasi bo`Imagan shaxslar uchun juda qulaydir.

Ishlab chiqarish gymnastikasi to`plamini **4-5** hafitada 'zgartirib turish kerak. Bir xil mashqlarni uzlusiz uzoq vaqt bajarganda mashg'ulotlarga bo`lgan qiziqish pasayib, uning foydasi kamayadi, ammo mashqlar to`plamini tez-tez o`zgartirib turish ham notug'ri bo`ladi. CHunki shug'ullanuvchilar ularni (mashqlarni) 'zlashtirishga ulgurmaydilar.

Agar gimnastika to`plami va jismoniy tanaffus radio orqai; amalga oshirilsa, jamoatchi yo`riqchi yki mashg'ulotlarni tashkii qiluvchi mashqlarning bajarilishini ko`rsatish va ularning bajaiilis v davomida kamchiliklarni to`g`rilash vazifasini o`taydi, Agar ishiab chiqarish gymnastikasiga musiqa jo`r bo`lmasa, jamoatchi yo`riqchi yoki uslubchining vazifasi mashg'ulotlarni tashkil qilish, mashqlarnir bajarilishini to`g`ri tushuntirish, topshiriq berib turish, mashqlar bajarilishi davomida tanbeh berib turish va hokazo bo`ladi. eng muhimmi, mashqlarning bajarilishini to`g`ri ko`rsatish va vaqt cheklangani uchun qisqa hamda aniq qilib tushuntirishdir.<sup>53</sup>

Gimnastika atamasidan to`g`ri foydalanish shart, lekin shug'ullanuvchilarning ko`pi ularni bilmagani uchun yangi atamalarni asta-sekin kiritish kerak. Odatda gimnastika mashqlarini to`g`ri bajarish uchun bir vaqtning o`zida ham ko`rsatish, ham tushuntirish kerak bo`ladi. Bu ikki usul bir-birini to`ldiradi.

Jamoatchi - yo`riqchi yoki uslubiyatchi shug'ullanuvchilarga yaxshi ko`rinadigan joyda turib, mashqlarning bajarilishini to`g`ri ko`rsatishi lozim.

?

- ✓ Bevosita mexnat jarayonidagi jismoniy madaniyat.
- ✓ Ishlab chiqarishda, mexnat jarayonidan tashqarida bajariladigan jismoniy madaniyat.
- ✓ Jismoniy madaniyatni ishlab chiqarish va boshqa shakllari bilan bog`liqligi.

## © Adabiyotlar

7. Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.
8. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. A.Abdullaev va b. T.2005 y.
9. R.S.Salomov va b. "Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligiga kirish". T. 1990 y.

53


Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.

**21-AMALIY MASHG'ULOT**  
**SAF MASHQLARI, URM, TURNIK, YAKKACHO`PDA**  
**BAJARILADIGAN MASHQLAR**

Darsning maqsadi:Saf mashqlarini qaytarish, URM, turnikda sakrab tushish mashqlari va yakkacho`pda burilish mashqlarini takrorlash va mustaxkamlash

Kerakli anjom va uskunalar: sport zal, gimnastika matlari, gimnastika asboblari

1. Saf mashqlarining barcha buyruqlarini takrorlash
2. **URM - uzluksiz usulda mashqlarni takrorlash**
3. **Turnik - yoysimonholatda sakrab tushish .**



4. **Yakkacho`p – burilishlar bir oyoqda  $360^{\circ}$  ga shuning o`zini muvozanat saqlash holatida. Sakrashlar bir oyoqda ikkinchisini siltab, oyoqni oyoqqa urib**

## 22-AMALIY MASHG'ULOT TO`NTARILISH, TURNIKDA BAJARILADIGAN MASHQLARNI O`RGATISH.

**Darsni maqsadi:** to`ntarilish mashqlarini va turnikda bajariladigan mashqlarni o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari, turnik


1. To`ntarilishlar - joyidan va yugurib kelib chapga, o`ngga.
2. Turnikda mashqlar - aralash va oddiy osilishlar: osilib turgan holatda qo`llarni bukish va yozish, qomatni bukish va kerish, gavdani burishlar, o`tirishlar va bir oyoqda ikkala oyoqda osilib o`tirish, osilib turgan holatda ortga burilish, shuning o`zi orqadan osilib turgan holatda.
3. Dastakli otta mashqlar - oldinda, orqada tayanishlar, tayanish holatidan chapga, o`nag, oyoqlarni siltashlar.
4. 4.O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

### Yon tomonga to`ntarilish

**Bajarish texnikasi.** Harakat yo`nalishiga yo`zlanib turib qo`llar yuqorida kaftlar oldinga qaratilgan, to`ntarilish bajariladigan tomonga bir qadam qo`yib, keyin oldinga bukilib, itariluvchi oyoqdan bir qadam oralig`ida polga qo`lni qo`yish va bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib, qo`lda turishga o`tish. Keyin navbatma-navbat qo`llar bilan itarilib qo`llar yonga, oyoqlar ochiq turish.

**O`rgatish ketma-ketligi.**

1. Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib qo`llarda turish, yordam bilan qo`llarda tik turgandan keyin bajaruvchi oyoqlarni ochadi, straxovkachi esa orqa tomondan tizzalar yonidan ushlab turadi.
2. Oyoqlarni ochib qo`llarda turishdan, oyoqlarga qaytish. Boshida o`tgan mashq kabi yordam beriladi, keyin qo`llarni tez navbatma-navbat harakatlantirib: bir qo`lni belga (tushish tomonga) boshqasini yelka ostiga qo`yib, oyoqqa tushishga yordam berish – qo`llar yonga oyoqlarni ochib turish (bu mashq to`ntarilishning ikkinchi yarmini o`rganishda yordam beradi).



3. Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib oyoqlarni ochib burilib qo`llarda turish (bu mashq to`ntarilishning birinchi yarmini o`zlashtirish bilan bog`liq). Turgandan so`ng 1-mashqdagi kabi yordam ko`rsatiladi.

4. Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib yon tomonga to`ntarilish.

**Xatolar.**

1. Qo`l va oyoqlar bir chiziqqa qo`yilmasa.
2. Qo`lda turish orqali to`ntarilish bajarilmasa.
3. Bosh orqaga egilmagan bo`lsa va o`quvchi qo`llarni qo`yishda o`zini boshqara olmasa.
4. Qo`llarda turish orqali to`ntarilish bajarilmasa, hamda tana vertikal chiziq bo`ylab emas, balki yon tomonga egilib bajarilsa.

**Ehtiyyotlash va yordam.** Amaliyotda uchta asosiy yordam qo`llaniladi:

1. Bir qo`lda beldan, ikkinchisida yelkadan ushlab.
2. Ikkala qo`l krest holatida beldan ushlab.
3. Ikkala qo`l bilan beldan ushlab.

### Turnikda bajariladigan mashqlar

Sport gimnastikasida turnik shunday snaryadki, unda faqat tebranma siltanma mashqlar ijob etiladi. SHuning uchun gimnas-tikachining mahorati muskul quvvatini kam sarf qilib, inertsiya kuchidan oqilona foydalanishdan iborat bo`ladi. Biroq panja-larni bukish uchun ancha yuqori bo`lishi kerak, chunki katta ko`lam-dagi tebranma mashqlarni bajarishda hosil bo`ladigan va gim-nastikachini turnikdan o`zishga intiladigan markazdan qochuvchi inerqiya kuchi hosil bo`ladi.

Hozirgi davrda turnikda bajariladigan mashqlar kishini hayratda qoldiradi, chunki ular hech to`xtalmasdan, qaltis vaziyatda ijob etiladi. Bu hol, xatto, sport gimnastikasini yaxshi tu-shunmaydigan kishiga ham, yaxshi gimnastikachiga ham xatosiz qara-katlar uyg`unligini, dadillikni, ko`ra olish imkonini beradi. Turnikda bajariladigan asosiy mashqlar quyidagilardan iborat:

**Osilish.** Baland turnikdan bu holat beistisno hamma mashq-larni boshlash uchun dastlabki holatdir. Osilishda tananing to`g`ri holati yetarli ko`lamda tebranishni boshlash va keyinchalik siltanish uchun ayniqsa muhimdir. Osilish holatida gimnastikachining tanasi maksimal to`g`rilangan bo`lishi kerak. Bunga ko`krak-o`mrov va yelka bo`g`imidan cho`zilish, shuningdek, bel qismidagi muskullarni bo`sashtirish orqali erishiladi. Tirsak bo`g`inlari ham to`g`rilangan lekin, taranglashmagan bo`lishi kerak. Oyoqlar tos-son va tizza bo`g`inlaridan to`g`rilangan, oyoq uchlari cho`zilgan va juftlashtirilgan bo`ladi. Osilish holatiga quyida bayon etiladigan ko`rsatmalarga riosa qilgan holda, yaxlit o`rgatish uslubi bilan o`rgatish kerak.


Tana pastki qismlarining turli holati zarur bo`lgan muskul guruhlarini taranglatish orqali erishiladi, bu esa tebranishlar davomida kam saqlanadi. Osilish holatida buqilish yoki yozilish (kerishish) taqiqlanadi. Ko`pincha boshning noto`g`ri holati: orqaga yoki oldinga tashlash, ko`krakka engashtirish bu hatoliklarga sabab bo`ladi. To`g`ri holatda bosh ham to`g`ri tutiladi va u qo`llar orasida bo`ladi.

### Osilish turlari

**Bukilib osilish** – turnikda, qo`shpoyada, halqalarda bajariladi. Tana tos-son bo`g`imidan taxminan  $50^{\circ}$ - $70^{\circ}$  burchak ostida bukiladi, bel aylana shaklida, bosh biroz ko`krakka egilgan, qo`llar to`g`ri. Mashqni orqadan osilib turish yoki tosni tushirib osilib o`tirishga o`tish bilan yakunlash mumkin.

Burchak osilish– gimnastika devorida, turniklarda, halqalarda, qo`shpoyalarda bajariladi. Osilib turishdan to`g`ri oyoqlarni gorizontal holatgacha ko`tarish. Quyidagicha bajarish ham mumkin: osilishdan oyoqlarni bukib osilish holatini egallash va shundan keyin oyoqlarni yozib burchak osilish.

Kerilib osilish– gimnastika devorida, turnikda, hisoblanadi



Turnikda bajariladigan murakkab elementlardan biri, kerilib osilish

**Bajarish texnikasi.** Orqadan bukilib osilib turishdan, oyoqlarda itarilib bukilib osilish holatini egallahash, tos-son bo`g`imidan yozilib, kerilib osilish. Tana kerilgan va bosh pastda vertikal holatda bo`ladi. Qo`llar yelka kengligida yuqoridan ushlab , oyoqlar birga, oyoq uchiga tortilgan, bosh orqaga egilgan.

#### O`rgatish ketma-ketligi.

1. Orqadan osilib turishdan, bukilib osilishni takrorlash.
2. Gimnastika devoriga orqada bukilib osilib turishdan, oyoqlarda itarilib, kerilib osilish (IV gurux).
3. Orqadan osilib turishdan, ikki oyoqda itarilib turnikda bukilib osilish va kerilib osilish, oyoqlarni orqaga tushirib, orqadan osilib turish va oldinga qadam qo`yib A.T.

#### Xatolar.


1. Haddan ziyod tanani kerilishi.
2. Kerilib osilishni bajarish vaqtida qo`llarni buqilishi.
3. Bosh oldinga egilish.

**Ehtiyotlash va yordam.** Yonboshdan turib, bir qo`lda oyoqdan, boshqasida bilakdan ushlab yordam beriladi.

Kerilib osilishni gimnastika devoridan o`rgatishni boshlash maqsadga muvofiq. Gimnastika devoriga orqadan bukilib osilishdan oyoqlarda itarilib kerilib osilishga o`tish. Kerilib osilish holatida qo`llar to`g`ri bo`lishi shart (tortilmasdan). Ensa, bel, oyoqlar va tovonlar devorga tegib turishi, bosh biroz orqaga egilgan. Yordam bilan bajariladi. Yonboshda turib yelka ostidan va oyoqlarda ushlab yordam beriladi.

#### Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib ko`tarilib to`ntarilish

**Bajarish texnikasi.** Bukilgan qo`llarga osilib turishdan, bir oyoqda yuqoriga-orqaga siltanish (turnikdan) va ikki oyoqda itarilib, tos-son bo`g`imidan bukilib, tortilib, to`g`ri oyoqlarni turnikdan o`tkazish. Keyin, turnikka qo`llar va sonlar bilan tayanib, qo`llarni yozish, boshni orqaga ko`tarib, to`g`rulanib, tayanch holatini egallahash.



#### O`rgatish ketma-ketligi.

1. Gimnastika devoriga osilishdan, to`g`ri oyoqlarni balandroq ko`tarish (2-3 marta).
2. Gimnastika devoriga orqalab osilib turishdan bir oyoqda itarilib, ikkinchisida siltanib oyoqlarni balandroq ko`tarish; oyoqlarni tushirib, D.H. ga qaytish. 3-4 marta takrorlash.
3. Bukilgan qo`llarda osilib turib bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib ko`tarilib to`ntarilish, tayanish va orqaga siltanib sakrab tushish (yordam bilan va mustaqil).

#### Xatolar.


1. D.H. da mashq boshlanishida tos orqada joylashsa, oyoqlar **turnik** ostida bo`lmasa, bularning hammasi oldinga siltanishda harakat koordinatsiyasini bo`zilishiga olib keladi va ko`tarilishni bajarishda qiyinchilik tug`diradi.

2. Oyoqda siltanish yuqoriga-orqaga bajarilmay, balki oldinga-yuqoriga qo'llarni bukish bilan bajarilsa va vaqtidan oldin boshning orqaga egilishi.

3. Boshni orqaga egish ko'tarilishning birinchi yarmida sodir bo'lsa. Bu to'ntarilishni bajarishdagi asosiy xos xatolardan biri hisoblanadi.

**Ehtiyotlash va yordam.** To'ntarilish boshida siltanuvchi oyoqning ushlab, qo'llarni keyinchalik belga o'tkazib. Tayanishga chiqish vaqtida oyoqlardan va ko'krakdan ushlab yordam beriladi .

Bukilgan oyoqlarda va qo'llarda osilish – **turnikda** yoki baland past qo'shpoyada bajariladi. Osilib turishdan ikki oyoqda itarilib, ularni bukib, ikkalasida siltanib o'tib bukilgan oyoqlarda va qo'llarda osilish holatini egallash/ Boshqa usullarni ham bajarish mumkin: orqadan osilib turishdan oldinga egilib ikki oyoqda itarilib, bukilib osilish orqali bukilgan oyoqlarda va qo'llarda osilish.



Bir oyoqda osilish – **turnikda** yelka kengligida ushlab bitta oyoq tizzadan bukilib **turnikka**, poyaga qo'yiladi, ikkinchi oyoq to'g'ri va biroz pastga tushgan, tana birmuncha kerilgan, bosh biroz orqaga egilgan. Yonboshda turib bir qo'lda bilakdan, boshqasi bilan boldirdan ushlab osilishni bajaruvchiga yordam bo'ladi. Orqadan osilib turishdan, ikki oyoqda itarilib, orqadan bukilib osilish orqali, bir oyoqda siltanib o'tib bajariladi.

Tashqarida bir oyoqda osilish – bir oyoqda osilish kabi bajariladi, faqat bukilgan oyoq qo'llar orasida emas, balki tashqarida bo'ladi.

**Bukilgan oyoqlarda osilish** – turnikda va qo'shpoyada bajariladi. Oyoqlar birga, tizzadan bukilgan, tana to'g'rangan, biroz kerilgan, bosh orqaga egilgan. Yonboshda turib oyoqlar tizza bo'g'imidan yozilib ketmasligi uchun boldirdan ushlab straxovka qilinadi. Mashqni bukilgan oyoqlarda va qo'llarda osilishdan, qo'llarni tushirib va to'g'rilib bajariladi. Boshida qo'llarni navbatma-navbat tushirilib, keyin esa bir vaqtda tushiraladi. Bukilgan oyoqlar va qo'llarda osilishdan bukilgan oyoqlarda osilishga o'tishda bir qo'lda boldir ustidan, boshqasi bilan beldan ushlab yordam qilinadi.

## 23-AMALIY MASHG'ULOT

### HALQADA VA TAYANIB SAKRASHDA BAJARILADIGAN MASHQLARNI O`RGATISH.

**Darsni maqsadi:** talabalarga halqada: kuch bilan chiqish, tebranish mashqlari va tayanib sakrashda oyoqlarni bukib, kerib sakrashni o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari

1. Osilish holatida tebranish, bukilib osilish, kerishib osilish, osilgan holatdan kuch bilan tayanishga ko`tarilishni bajarish.

2. O`zunasiga qo`yilgan otdan oyoqlarni bukib sakrab o`tish; oyoqlarni kerib sakrab o`tish; o`zunasiga qo`yilgan ot ustidan bir oyoqda depsinib burchak hosil qilib sakrash.

3.O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

#### **Tayanib sakrashlar**

**Bajarish texnikasi.** Sport gimnastikasida 200 dan ortiq tayanib sakrashlar mavjud. Ular qo`l va oyoq mushaklari kuchini rivojlantirishga yordam beradi, bog`lam va bo`g`imlarni mustahkamlaydi hamda sakrovchanlik va chaqqonlikni rivojlantiradi. SHug`ullanuvchilarda mashg`ulotlar mobaynida qat`iylik, jasurlik, maqsadga intilish kabi hislatlar tarbiyalanadi. Xilma-xilligi va o`ziga xosligi jihatidan, tayanib sakrashlar o`quvchilarda katta qiziqish va ruhiy ko`tarinkilikni oshiradi. Turli to`sinqlardan oson va tez sakrab o`tishni bilish, o`quvchilarni amaliy tayyorgarligi yaxshiligidan darak beradi. Bundan kelib chiqib shuni ayтиб o`tish kerakki, majmua dasturida amaliyat tavsifidagi mashqlar (yonbosh, burchak sakrash), hamda sport gimnastikasi "B" toifasi bo`yicha (oyoqlarni bukib, oyoqlarni ochib sakrashlar) malakaviy dasturlar kabi alohida qiziqishga ega bo`lgan, nisbatan murakkab bo`Imagan tayanib sakrashlar ko`rsatilgan. Tayanib sakrash texnikasini asosini o`rganish va tahlil qilishni engillashtirish uchun quyidagi fazalarga ajratiladi: yugurish, ko`prikchaga sakrash, oyoqlarda depsinish, qo`llarda itarilishgacha bo`lgan uchish, qo`llarda itarilish, qo`llarda itarilgandan so`nggi uchish va qo`nish. Tayanib sakrashga o`rgatish boshlanishida, tayanib sakrashlarni muvaffaqiyatlri o`zlashtirib olish uchun zarur bo`lgan jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi va alohida ko`nikmalarni shakllantiruvchi dastlabki tayyorgarlikni mustahkamlash lozim.

**Tayanib sakrashlarni o`zlashtirish** uchun, avvalo mustahkam qo`nishga o`rgatish, keyin yugurish texnikasi, ko`prikka sakrash, ko`prikdan oyoqlarda depsinish, so`ng qo`llarda itarilishgacha uchish, oxirida qo`llarda itarilishni o`rgatish tavsiya qilinadi. Mana shu harakatlarni o`zlashtirib olingandan keyingina, alohida tayanib sakrashlarni o`rgatish mumkin.

#### **Qo`nish**

**Bajarish texnikasi.** Qo`nish sakrashni yakunlaydi va uning sifatini aniqlaydi. Tarang va to`g`ri oyoqlarning uchiga qo`nib, shu zahoti to`liq oyoq panjalariga tushish zarur, engil oyoqlarni buqilish hisobiga tashqi kuchlar ta`sirini ishlatalish. Bu holatda tovonlar birga, oyoq kuchi va tizzalar ochilgan, qo`llar oldinga-tashqariga ko`tarilgan, tana birmuncha oldinga egilgan va bosh to`g`ri turadi.

**O`rgatish ketma-ketligi.**


1. O`quvchilari uchun berilgan to`g`ri qo`nishga o`rgatuvchi mashqlarni takrorlash.

2. To`g`ri qo`nish holatini egallash va 5 soniya saqlash.

3. Joydan yarim o`tirib oyoq uchida yuqoriga sakrash va tezda to`liq oyoq panjalarida qo`nish holatiga o`tish.

4. Orqaga burilib sakrash.

5. Gimnastik devordan, oyoqlarni turli holatida sakrash (oyoqlarni ochib, oyoqlarni bukib).



### **Yugurish**

**Bajarish texnikasi.** Yugurish tezligi va o'zunligi sakrash xarakteriga, asbob balandligi va o'zunligi shug'ullanuvchining jismoniy tayyorgarligiga bog'liq. Odatda yonbosh sakrashlarni (yonbosh, burchak) bajarishga qaraganda, to'g'ri sakrashlarni (oyoqlarni bukib, oyoqlar ochiq) bajarish uchun katta o'zunlik va tezlik talab qilinadi. Majmua dasturida nazarda tutilgan tayanib sakrashlarni bajarish uchun o'quvchilarning yugurish o'zunligi odatda 8-12 m dan oshmaydi, yonbosh sakrashlarni bajarish uchun 5-6 m. Yugurish bir tekisda tezlashib, uning tezkorligi sekin-asta ko'tarilib boradi va dastlabki bir oyoqda depsinishdan avval juda yuqori darajaga etadi.


#### **O'rgatish ketma-ketligi.**

1. O'ng (chap) oyoqqa oldinga tashlanib oyoqlarni almashtirib sakrash, qo'llar erkin pastga tushgan.
2. Gimnastik devorga tosning darajasidagi pog'onasiga oyoq uchida, o'ng oyoqda turib oyoqlarni almashtirib pastga sakrash.
3. Tezlanishli yugurish (qadamlar qulay o'zunlikda).
4. Belgilar bo'yicha to'g'ri yugurish. Belgilar (bo'r bilan chizilgan chiziqlar yoki aylanalar, yon tomonga qo'yilgan gimnastik cho'pi) bir-biridan 100-120 sm masofa o'zoqlikda.
5. Masofa va tezlikni o'zgartirib predmetlar osha yugurish (to'ldirma to'p, gimnastik cho'plari).

### **Ko`prikka sakrash**

**Bajarish texnikasi.** Yugurish va oyoqlarda depsinishbir butun harakat. Ko`prikka sakrash ular orasida bog`lovchi qism hisoblanadi. Jami sakrash va oyoqlarda depsinish samaradorligi to'g'ri sakrashga bog`liq. Ko`prikka sakrash kuchli (depsinuvchi) oyoqlar bilan bajariladi. Sakrashdan oldin tana oldinga (5-250) egiladi, qo'llar oxirigacha orqaga ko'tariladi, siltanuvchi oyoq sondan maksimal darajada oldinga bukiladi. Uchish paytida depsinuvchi oyoq siltanuvchi oyoqqa tortiladi. Ko`prikka sakrash joyiga etish paytida oyoqlar birlashtiriladi va to'g'rlanib tana harakatini ilgarilab oldinga o'tkaziladi va shu bilan ko`prikka sakrashni ta'minlaydi. Depsinishda itarilish tayanch maydoni ustidan tana vertikal holatda o'tishidan oldin boshlanadi. To'g'ri oyoqlarda tana bir muncha oldinga egilgan, qo'llar sakrash vaqtida vertikaldan ancha oldinda joylashgan holatda ko`prikka oyoq uchida sakrab tushiladi.

Ko`prikdan depsinishda oyoqlar ko`prikning o'zoq qirrasidan 12-15 sm parallelb oyoq panjalarining oldingi qismiga qo'yiladi. Depsinish, ozgina bukilgan oyoqlar keyinchalik yozilishiga oyoqlar ko`prikdan o'zilish paytigacha yakunlanishiga e'tibor berib bajariladi. Oyoqlarda depsinish samaradorligi ko'p jihatdan qo'l ishiga bog`liqdir. Qo'llar bilan kuchli siltanish va keyinchalik ularni tez to'xtatish hamda bir vaqtida yelkalar bilan yuqoriga otish uchish balandligini ko'tarilishiga yordam beradi. Depsinish paytida tana va oyoqlarning holatini, qo'llarning yo'naliishi hamda o'z vaqtida ishlashni tayanchsiz faza traektoriyasi aniqlaydi.



### O`rgatish ketma-ketlik.

1. Tovondan oyoq uchiga baland ko`tarilib yurish.
2. Gimnastik devor pog`onasiga qo`llar bilan tayanib oyoqlarni birlashtirib sakrash.
3. Hamkor bilan bir-birini oyog`idan, tovondan yuqoriroq tayanib, oyoqlarni oldinga cho`zib joyda bir oyoqda sakrash.
4. Joyda turib, siltanish paytda to`g`ri oyoqlar uchiga ko`tarilib qo`llar bilan siltanishni aks ettirish.
5. O`rindiqa ko`ndalang oyoqlarni ochib turib, to`g`ri oyoqlarda qo`llar bilan siltanib o`rindiq ustiga sakrash.
6. 2-3 qadamdan bir oyoqda depsinib ikki oyoqqa qo`nish.
7. Bir qadamdan ikki oyoqda depsinib, qo`llarni kuchli harakatlantirib yuqoriga sakrash.
8. 2-3 qadamdan yugurib bir oyoqda siltanib ikkinchisida depsinib ikki oyoqda yuqoriga sakrash.

### Qo`lda itarilish

**Bajarish texnikasi.** Qo`llar qirrasiz burchak ostida asbob ustiga tanadan oldin qo`yiladi. Shunga muvofiq depsinishdan keyingi uchish balandligini ko`tarish uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Qo`l panjalari itarilish joyiga parallel qo`yiladi. Itarilish qo`lning panja bo`g`imi buqilishi va yelka, tirsak bo`g`imlarining yozilishi hisobiga, tana harakatiga qarshi bajariladi. Itarilish, qisqa va kuchli bo`lib yelkalar tayanch maydoni kesib o`tib, qo`llar tayanchdan bir vaqtida o`zilgan paytda yakunlanadi.



### O`rgatish ketma-ketligi.

1. Oyoqlar gimnastika o`rindig`ida, tayanib yotib tez qo`llarni bukish va yozish.
2. Devordan 1 m masofada turib, devorga to`g`ri tana bilan yiqilib, tez qo`llar bilan itarilish va D.H. qaytish. Itarilishi butun kaftidan boshlanib barmoqlar uchida tugatiladi.
3. Tayanib yotib (tana kerilgan) ikki qo`lda orada qarsak chalib itarilish. Tanani to`g`rilash va belni ko`tarish hisobiga qo`llarda itarilish.
4. Polda tayanib yotib, qo`llar gimnastik cho`pning oldida, qo`llarda itarilib cho`pdan o`tib tayanib yotish va D.H. qaytish.
5. Tayanib yotib bir vaqtning o`zida qo`llar va oyoqlar bilan itarilish.

Qo`llarda itarilishiga uchish, yugurish va ko`priдан depsinish samaradorligiga bog`liq. Bu fazada tos-son bo`g`imlarini yozilish hisobiga dastlabki oyoqlarni orqaga siltanishni bajariladi va qo`llarda itarilish paytda tanani keskin buqilishi uchun sharoit yaratiladi. Qo`llarda itarilishdan keyingi uchish sakrash turini aniqlaydi: oyoqlarni bukib, oyoqlarni ochib.

**24-AMALIY MASHG'ULOT**  
**HALQADA VA TAYANIB SAKRASHDA BAJARILADIGAN**  
**MASHQLARNI O`RGATISH.**

**Darsni maqsadi:** talabalarga halqada: kuch bilan chiqish, tebranish mashqlari va tayanib sakrashda oyoqlarni bukib, kerib sakrashni o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari


1. Kuch bilan tayanishga ko`tarilish, kerishib osilib aylanib sakrab tushish.

2. O`zunasiga qo`yilgan otdan oyoqlarni bukib sakrab o`tish; oyoqlarni kerib sakrab o`tish; o`zunasiga qo`yilgan ot ustidan bir oyoqda depsinib burchak hosil qilib sakrash.

3.O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

**O`rgatishini 1-bosqichi**

**Bajarish texnikasi.** O`rgatishni 80-100 sm balandlikdagi xari, ot, matlar uyumiga sakrab chiqib tizzalarga tayanib turishini va oldinga qo`llar bilan siltanib sakrab tushishni o`zlashtirishlari lozim. Bu mashq sakrab chiqib tayanib o`tirish va oldinga kerilib sakrab tushishni o`rganishi uchun yordamchi mashqlar hisoblanadi.



**O`rgatish ketma-ketligi.**

1. Matga tizzalarda tayanib turishdan, qo`llarda siltanib va oyoqlarda depsinib tayanib o`tirish.

2. Mat bilan yopilgan gimnastik o`rindig`iga tizzalarda tayanib o`tirishdan qo`llarda siltanib va oyoqlarda depsinib sakrab tayanib o`tirish.

3. Mat bilan yopilgan gimnastik o`rindig`iga qo`llarni qo`yib, oyoqlar polda tayanib yotishdan sakrab chiqib tizzalarga tayanib turish va qo`llarda siltanib, oyoqlarda depsinib sakrab tushish.

4. Ko`ndalang ot, xari yoki matlar uyumi oldidagi ko`prikka tayanib turishdan joyda 2-3 ta sakrash va sakrab chiqib tizzalarga tayanib turish. Qo`llarda siltanib va oyoqlarda depsinib yordam bilan sakrab tushish.

5. Qisqa masofadan yugurib, ko`ndalang ot yoki xariga sakrab chiqib tizzalarga tayanib turish va qo`llar bilan siltanib oldinga sakrab tushish.

**Xatolar.**

1. Yetarli kuchga ega bo`lмаган qo`llarda siltanish.

2. Oyoqlarda depsinish Yetarli bo`lmasa.

**Extiyotlash va yordam.** Oldinda – yon boshda turib, birinchi qismda bir qo`lda yelka ostidan, ikkinchisi bilan qorindan ushlab, sakrab tushishda bir qo`l bilan tirsakdan yuqori, boshqasida beldan ushlab, qo`llar bilan siltanishga imkon yaratib yordam beriladi.

## 25-AMALIY MASHG'ULOT AKROBATIKA MASHQLARI O'RGATISH

**Darsni maqsadi:** g`ujanak holatlarini, umbaloq oshish mashqlarini o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari.

1. G`ujanak o`tirgan holatdan, yotgan holatdan; g`ujanak holatida ag`anashlar, cho`qqayib tayanib o`tirgan holatdan tayanish holatidan kuraklarda tik turish, shuning o`zi bosh ustidan oyoqlar uchini polga tekkazib, yonga aganab tayanib o`tirish, tizzalarda tik turgan holatdan oldinga ag`anash (qo'llarga tayanib), shuning o`zi tayanmay, oyoqlarni kerib o`tirgan holatdan aylanma ag`anash.


2. Umbaloq oshishlar - oldinga, orqaga, oldinga tayanib o`tirgan holatdan, oyoqlarni kerib turgan holatdan; qadam bosib o'zun umboloq oshish, bir nechta umboloq oshishlarni ketma-ket bajarish, orqaga umboloq oshish.

3. Tayanishlar: cho`qqayib tayanib o`tirish, sonlarga yotib, orqaga tayanib yotish, yon bilan, tizzalarga tayanib bajariladigan mashqlarni o`rgatish.

4. O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

### **G`ujanak holatida orqaga o`mbaloq oshish**

**Bajarish texnikasi.** Tayanib o`tirishdan, qo'llar bir munkha oldinda, tana og`irligini qo'llarga o`tkazib qo'llar bilan itarilib tez orqaga dumalash, aylanish vaqtini g`ujanak holati zinchligi hisobiga ko`paytiriladi: kuraklar tayanchga tekkan vaqtida kaftni yelka orqasiga qo'yiladi va ularga tayanib bosh orqali aylanib (oyoqlarni bukmasdan) tayanib o`tirishga o'tish.



#### **O`rgatish ketma-ketligi.**

1. Oldinga o`mbaloq oshish.

2. Tayanib o`tirishdan, g`ujanak holatida orqaga dumalash, qo'llar bosh orqasiga tayangan.

3. Tayanib o`tirishdan, g`ujanak holatida orqaga dumalab tayanib o`tirish.

#### **Xatolar.**

1. Qo'llar aniq joylashmaganligi (mushtda, kaftning orqa tomonida, tirsak va kaftlarni parallel qo'yilmaganda).

2. Qo'llarni qo'yish vaqtida oyoqlarni yozish va boshdan aylanish.

3. Zich bo`limgan g`ujanak holati.

4. Boshdan aylanish vaqtida tayanch yo`qligi va qo'llarni bukib-yozish.

5. Sekin aylanish.

**Ehtiyyotlash va yordam.** Yonboshda turib, bir qo`lda yelkadan, ikkinchisida zaruriyat bo`lganda beldan turtib yuborish.

### **Orqaga o`mbaloq oshish va orqaga dumalab kuraklarda turish**

Bu bog`lm ilgari o`rganilgan elementlardan iborat. SHuning uchun ularni alohida takrorlab, keyin bog`lash mumkin. Bajarish texnikasiga talab, straxovka va yordam o`sha-o`sha.

#### **Takomillashtirish va nazorat darsi uchun majmua**

Tayanib cho`qqayish xolatidan orqaga o`mbaloq oshish va orqaga dumalab kuraklarda turish – oldinga dumalab yotish va “ko`prik” – chalqancha yotish holatiga tushib – o`tirish, qo`llar yonga – chapga tayanib burilib, tayanib cho`qqayish – yuqoriga kerilib sakrash va A.T.

#### **Takomillashtirish va nazorat darsi uchun majmua.**

1. Oldinga o`mbaloq oshib, o`ng oyoq, chap oyoq oldidan chalishtirib, orqaga burilib tayanib cho`qqayish – 2,5 b.
2. Orqaga o`mbaloq oshish – 3,0 b.
3. Orqaga dumalab kuraklarda turish – 3,0 b.
4. Oldinga dumalab tayanib cho`qqayish va A.T. – 1,5 b.

## 26-AMALIY MASHG'ULOT

### HALQADA VA TAYANIB SAKRASHDA BAJARILADIGAN MASHQLARNI O`RGATISH.

**Darsni maqsadi:** talabalarga halqada: kuch bilan chiqish, tebranish mashqlari va tayanib sakrashda oyoqlarni bukib, kerib sakrashni o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari


1. Kuch bilan chiqib burchak ushslash, orqaga bukilib osilish mashqlarini o`rgatish.
2. Otga tayanib tizzalarga sakrab chiqish va qo'llarni siltab oldinga sakrab tushish, shuning o`zi oyoqlarni kerib; tayanib cho`qqayish holatiga sakrab chiqib kerishib tushish, shuning o`zi oyoqlarni kerib; shuning o`zi burilib tushish; oyoqlarni kerib otdan sakrab tushish.

3. O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

#### O`rgatishini 2-bosqichi

O`quvchilar oyoqlarni bukib tayanib sakrashlarni o`rganish uchun yordamchi mashqlaridan biri hisoblanadi, 80-100 sm balandlikdagi ko`ndalang xariga sakrab chiqib tayanib o`tirish va kerilib sakrab tushishni o`zlashtiradilar.

**Bajarish texnikasi.** Qisqa masofadan yugurish va ko`prikdan depsinishdan so`ng qo'llarni oldinga cho`zib, yelkalarni oldinga chiqarib ularni xari ustiga qo`yiladi. Belni ko`tarib tos-son va tizza bo`g`imlaridan oyoqlarni bukib, ularni ko`krakka tortib xariga qo`yiladi. Muhimi, o`quvchilar tayanib o`tirish holatida ushlanib qolmasliklari kerak. To`g`ri qo'llar yuqoriga ko`tarilib yelka darajasigacha etganda, oyoqlarni xariga qo`yib, tana buqilishi paytida qo'llarda itarilishni boshlash lozim. O`quvchi shu harakatlarni davom ettirib to`g`rilanadi va oyoqlardadepsinadi.



#### O`rgatish ketma-ketligi.

1. Polga tayanib yotishdan oyoqlarda depsinib tayanib o`tirish va yuqoriga kerilib sakrash.
2. Mat bilan yopilgan o`rindiqqa tayanib yotishdan, oyoqlar polda, oyoqlarda depsinib tayanib o`tirish va kerilib sakrab tushish.
3. Qisqa masofadan yugurib xariga yoki ko`ndalang otga sakrab chiqib tizzalarga tayanib o`tirib, tayanib o`tirish va kerilib sakrab tushish.
4. Ko`ndalang ot yoki xarining oldidagi ko`prikka tayanib turishdan, joyda 2-3 ta sakrab, belni baland ko`tarib, sakrab chiqib tayanib o`tirish va yordam bilan kerilib sakrab tushish.
5. Qisqa masofada yugurib sakrab chiqib tayanib o`tirish va yordam bilan va mustaqil kerilib sakrab tushish.

#### Xatolar.

1. Sakrab chiqishning birinchi yarmida bel Yetarli darajada faol ko`tarilmasligi.
2. Tayanib o`tirish paytida ushlanib qolish.
3. Uchish paytida tos-son bo`g`imlari yoki tizzadan orqaga bukilgan oyoqlar to`liq yoyilmasa.

**Straxovka va yordam.** Asbob oldida yon tomondan turib tayanib o`tirishga o`tish paytida bir qo'l bilan yelka orqasidan, ikkinchisi bilan qorindan, qo`nish paytida esa beldan va qo`ldan ushlab yordam beriladi.

## 27-AMALIY MASHG'ULOT AKROBATIKA MASHQLARI O'RGATISH

**Darsni maqsadi:** g`ujanak holatlarini, umbaloq oshish mashqlarini o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari.

**5.** G`ujanak o`tirgan holatdan, yotgan holatdan; g`ujanak holatida ag`anashlar, cho`qqayib tayanib o`tirgan holatdan tayanish holatidan kuraklarda tik turish, shuning o`zi bosh ustidan oyoqlar uchini polga tekkazib, yonga aganab tayanib o`tirish, tizzalarda tik turgan holatdan oldinga ag`anash (qo'llarga tayanib), shuning o`zi tayanmay, oyoqlarni kerib o`tirgan holatdan aylanma ag`anash.


**6.** Umbaloq oshishlar - oldinga, orqaga, oldinga tayanib o`tirgan holatdan, oyoqlarni kerib turgan holatdan; qadam bosib o'zun umboloq oshish, bir nechta umboloq oshishlarni ketma-ket bajarish, orqaga umboloq oshish.

**7.** Tayanishlar: cho`qqayib tayanib o`tirish, sonlarga yotib, orqaga tayanib yotish, yon bilan, tizzalarga tayanib bajariladigan mashqlarni o`rgatish.

**8.** O`tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

### **G`ujanak holatida orqaga o`mbaloq oshish**

**Bajarish texnikasi.** Tayanib o`tirishdan, qo'llar bir munkha oldinda, tana og`irligini qo'llarga o'tkazib qo'llar bilan itarilib tez orqaga dumalash, aylanish vaqtini g`ujanak holati zinchligi hisobiga ko`paytiriladi: kuraklar tayanchga tekkan vaqtida kaftni yelka orqasiga qo'yiladi va ularga tayanib bosh orqali aylanib (oyoqlarni bukmasdan) tayanib o`tirishga o'tish.



#### **O`rgatish ketma-ketligi.**

**4.** Oldinga o`mbaloq oshish.

**5.** Tayanib o`tirishdan, g`ujanak holatida orqaga dumalash, qo'llar bosh orqasiga tayangan.

**6.** Tayanib o`tirishdan, g`ujanak holatida orqaga dumalab tayanib o`tirish.

#### **Xatolar.**

**6.** Qo'llar aniq joylashmaganligi (mushtda, kaftning orqa tomonida, tirsak va kaftlarni parallel qo'yilmaganda).

**7.** Qo'llarni qo'yish vaqtida oyoqlarni yozish va boshdan aylanish.

**8.** Zich bo`limgan g`ujanak holati.

**9.** Boshdan aylanish vaqtida tayanch yo`qligi va qo'llarni bukib-yozish.

**10.** Sekin aylanish.

**Ehtiyyotlash va yordam.** Yonboshda turib, bir qo`lda yelkadan, ikkinchisida zaruriyat bo`lganda beldan turtib yuborish.

### **Orqaga o`mbaloq oshish va orqaga dumalab kuraklarda turish**

Bu bog`lm ilgari o`rganilgan elementlardan iborat. SHuning uchun ularni alohida takrorlab, keyin bog`lash mumkin. Bajarish texnikasiga talab, straxovka va yordam o`sha-o`sha.

#### **Takomillashtirish va nazorat darsi uchun majmua**

Tayanib cho`qqayish xolatidan orqaga o`mbaloq oshish va orqaga dumalab kuraklarda turish – oldinga dumalab yotish va “ko`prik” – chalqancha yotish holatiga tushib – o`tirish, qo`llar yonga – chapga tayanib burilib, tayanib cho`qqayish – yuqoriga kerilib sakrash va A.T.

#### **Takomillashtirish va nazorat darsi uchun majmua.**

5. Oldinga o`mbaloq oshib, o`ng oyoq, chap oyoq oldidan chalishtirib, orqaga burilib tayanib cho`qqayish – 2,5 b.
6. Orqaga o`mbaloq oshish – 3,0 b.
7. Orqaga dumalab kuraklarda turish – 3,0 b.
8. Oldinga dumalab tayanib cho`qqayish va A.T. – 1,5 b.

## 28-29 AMALIY MASHG'ULOT UMUMRIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR

### Buyumlar bilan mashqlar

Umum takomllashgan mashqlarni yaxshi o'zlashtirish uchun buyumlar bilan bog'liq mashqlarni tezkorlikda bajarish talab etiladi. Bu bolalarda mashg'ulotga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, ulardag'i chidamlilik, epchillik, tezkorlik, dadillik, sabru bardoshlilik qobiliyatlarining shakllanishida juda katta ta'sir o'tkazadi. Jarayonda buyumlar bilan faol xarakatlar qilish vaznni, formani bir maromda saqlashga ko'maklashadi. Buyumlar bilan xarakatlanish aniq xarakatlar bajarishni talab etadi, qaysiki turli sezgi va ishtiyoq asosida bo'lzin.

Harakatlarning shamoyilu dinamikasini kuzatish orqali idrok etiladi, munosabatlarga oid qarashlarni jonlatiriladi. Buyumlarni xuddi tomoshabinlar nigoxi qarshisida bajarayotgandek mas'uiyat bilan xarakatlantirish orqali gavdaning xarakatlari koordinatsiyasi ajoyib darajaga ko'tariladi.

Eshitish qobiliyati esa belgilangan ritm va tempga tushishda asqotadi. Aksariyat buyumlar (masalan, sakramachoq, koptok) o'zlashtirishni muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi.

Muskullar sezgisi gavda qismlarining xolatidan, muskullarning shijoatidan belgi beradi, murakkab jarayonlarda boshqa muskullar guruxiga xam murojaat qilinadi.

Xox u bilan, xox bu bilan bo'lzin, mashqlarning deyarli xammasi qo'llarning barmoqlari yordamida amalga oshiriladi, uni analizator tizim faollashtiradi, barmoqlar xarakati koordinatsiyasini ta'minlaydi, bular bolalarning o'quv faoliyatida juda xam muximdir.

Buyumlar bilan mashqlar bajarayotgan vaqtida, mashqlar orqali toblanayotganda: bolalar bolalarni intizomlilikka o'rgatish kerak, ular bilan extiyotkorona munosabatda bo'lishga, buyumlarni olgach, joy-joyiga qo'yishga, murabbiya ko'maklashishga odatlantirish lozim.


Har bir buyum bo'yicha berilgan vazifa jismoniy jixatdan kamolotga etishishda o'z ta'sirini ko'rsatishi kerak — xarakatlarda mayinlik va shiddat, aniqlik va kuch sezilib turishi zarur va xokazolar.<sup>54</sup>

**To'p bilan mashqlar**, chaqqonlikni rivojlantirishga, reaksiya tezligini oshirishga hamda harakatlarni engil va yumshoq bajarishni shakllantirishga yordam beradi. To'p bilan mashq bajarilayotgan vaqtida tana muskullariga yaxshigina og'irlik tushadi, oyoq, qo'l, kaftlar, shuningdek, balalar turli ko'rinishdagi xarakatlarni, tezlik bilan xarakatni boshqasiga o'zgartirishni faol tarzda amalga oshiradi. To'p bilan mashq olib borilayotgan vaqtida qad qomatni ravon tutishga e'tibor qaratish kerak, to'pning gavda va boshga ko'chishini boshqarish kerak, xarakatchanlik ko'lamini asta-sekin oshirib borish lozim. To'p bilan mashq bajarishni o'rganishda quyidagilarni puxta egallashi talab etiladi: to'pni ushlab olish, uzatish, tashlanish, tutish, koptokni urish, yumalatish va aylantirish mashqlari.

5-8 yoshdag'i bolalarni dastlabki tayyorlash davrida diametri 8-12 sm bo'lgan rezina to'plar ishlatiladi.

**To'pni ushslash yoki ushlab turish**. To'pni erkin holatda kaftga qo'yiladi, barmoqlar ochiladi va to'pni shakli bo'yicha hiyol bukiladi, biroq to'pni siqish kerak emas. Elka oldiga to'p tegishi kerak.

Ushlashlar bo'ladi: asosiy (**1-a rasm**), ikkala qo'l bilan (**1-b rasm**), kaftning orqa tomoni bilan banlansirovka, bilaklar orasida, qo'llarni chalishdirib.



**1-rasm. To'pni ushslash yoki ushlab turish**

To'pni ushlab turish, alohida tanaa'zolari bilan ham amalga oshirilishi mumkin.


Siltash mashqlari barcha tekisliklarda bajarilishi mumkin. Odatda oyoyqlarni prujinasimon harakatlari bilan birgalikda bajariladi. Siltash mashqlari to'pni otganda, to'pni ushlab olganda, predmetsiz mashqlarni bajarishdagi ba'zi bir elementlari bilan birgalikda bajariladi (qadamlarda, yugurishda, muvozanat saqlashda).

Siltash vaqtida to'pni to'g'ri ushslashga mashqning boshlang'ich va tugallanish fazasidagi mushaklarni zo'riqtirmay bajaradigan harakatlarni bajarishgaahamiyat berish kerak.

Aylanma harakatlarga o'rgatish katta va o'rtaaylanma harakatlarni o'rgatishdan boshlanadi. Ular turli yo'nalishdayurgan holda, yugurgan holda, egilgan holda, muvozanatni ushlab turgan holda bajariladi.

Chap tizzada tik turib, chap qo'l bilagiga tayanib, o'ng qo'l dagi to'p bilan oldinga-chapga harakatlantiriladi. Katta gorizontal aylanma harakatni o'ngga-orqaga-yuqoriga, qo'llar hiyol bukilgan holda bajariladi (bajarish vaqtida to'pni to'g'ri ushlab olishgaahamiyat berish kerak, to'pni siqish kerak emas, aylanma harakat aniq gorizontal bo'lishi zarur vaamplitudasi bo'yicha maksimal bo'lishi kerak). Tayyorlov mashqlari sifatida predmetsiz aylanma harakatlardan foydalanish mumkin.

**To'pni uzatish asosiy bog'lovchi element bo'lib, u xoh chap, xoh o'ng qo'l bilan o'ziga ishongan holda bajarishni talab etadi.** To'pni uzatish kaftdan-kaftga o'tkazish orqali bajarilib, turli ushslashlardan, ya'ni tananing turli a'zolari yordamida dumalatish yo'li bilan otish, ushlab olish va qaytaotishlar bilan amalgaoshiriladi.



**To'pni uzatish va urish turlari**

Turgan holda qo'llar yonda, to'p o'ng qo'lda, o'ng qo'l bilan chap tomonga (siltash mashqi) bajariladi, to'pni chap qo'l bo'ylab dumalatib, yana chap qo'l bilan ushlab olish.

Uslubiy tavsiyalar: to'pni uzatish harakat mutanosibligini buzmasligi lozim.

**To'pni urish** – bu mashq bu predmet uchun o'ziga xos bo'lib kelgan. Ular ayniqsa musiqa jo'rligida bajarilganda ayniqsa samara beradi. To'pni to'g'ri urish texnikasi **2-3-**

**rasmlarda** ko'rsatilgan. Prujinasimon harakatlар kaft bilan bajarilib, to'p erga uriladi. Urishlar bir yoki ikki qo'l bilan, bir yoki bir necha marta vertikal yoki burchak UOMida bajariladi (**4-5-rasmlar**). Urishlar tananing turli a'zolari bilan bajarilishi mumkin.


To'pni urish vaqtida butun tana prujinasimon harakat bajarishi kerak. Bilak, iloji boricha to'pni uzoqroq ushlab qolishi kerak, bu bilan uning harakatini aniq bajarishni ta'minlaydi. Birinchi mashg'ulotlarda to'pni turli ritmlarda urishni egallash tavsiya etiladi (qattiq va sekin, tez va sekinoq va h.k.), to'pni zo'riqishsiz kaftda ushlab olish kerak.

**Otish va ushlab olish**– bu mashqlar bir yoki ikki qo'l bilan vertikal yoki parabola bo'yicha turli yo'nalishlarda bajariladi. Otish mashqi oyoq va gavdaning prujinasimon harakatlari yordamida bajariladi. Otishning aniqligi va amplitudasi kaftlarni siltash harakatining oxirgi fazasidagi keskin harakatlari orqali amalga oshiriladi. To'pni ushlab olish vaqtida to'p avval cho'zilgan qo'llar uchiga tegib, kaftlar orqali dumalab, keyingi harakatga ulanib ketadi.

Dastlabki vaqtdanoq aniq otishlarni musiqa jo'rligida bajarishga erishish zarur. Bunda otish vaqtidagi barmoqlarning oxirgi harakatiga otish yo'nalishiga qarab qo'llarni tutishga, qo'llarni bir tekis pastga tushirishga ahamiyat berish zarur. To'pni ilish vaqtida to'p avval barmoq uchiga tegishi kerak. SHunda to'pni olish aniq va tovushsiz sodir bo'ladi (**6-rasm**). To'pni dumalatish pol ustida ayrim a'zolarda bajariladi (**7-rasm**).

To'p qo'l uchining engil harakati bilan dumalatiladi. To'p barmoq uchi bilan ilib olinadi.

Dumalatish vaqtida diqqatni asosan bir tekis dumalatishga qaratish zarur.



a                  b                  c

**6-rasm. To'pni aniq dumalatish va otish**



**7-rasm. To'pni aniq ilib olish**

**Arqon bilan mashqlar**, bu mashqlar dinamikani, intensivlikni rivojlantirishga yordam beradi. Mashqlarning intensivligi tufayli ularni bajarishda (ayniqsa, yosh bolalarda) me'yorni to'g'ri belgilash lozim.


Ushbu sport jixozida utiladigan mashqlar jismoniy tayyorgarlik kurishda muhum ahamiyatga ega: chaqqonlik, chidamlilik, tezkorlikda. Ular koordinatsiyaviy va rejimli xarakatlar bajarishda samarali hisoblanadi. Umumkomillashgan arqon mashqlari bilan shug'ullanish tana a'zolarining tetikligini, chidamlilikni ta'minlaydi. Arqon bilan shug'ullanishning uziga xos jixati shundaki, u oyoq panjalari va tuxtashni shakllantiradi. SHuning uchun xam arqondan faqatgina badiiy gimnastikada emas, boshqa sport turlarida xam tez-tez foydalaniлади. Arqonlar (sakralmachoq) ruchkali, arqonli yoki kapronli bulishi mumkin. Arqon bilan mashq qilayotganda mustaqil ravishda sport formasini saqlashga xarakat qilish kerak, aylantirish va chalishtirib aylantirishda. Arqon bilan turli mashq bajarayotganda, gavadani to'g'ri tutish muxim, shunda barmoqlarga ortiqcha yuk tushmaydi, bu tezlikni oshirishda xam qulay.

Oldindan tayyorlash bosqichida, dastaksiz arqonlar ishlatiladi. Uning uzunligi shug'illanuvchining bo'yidan kelib chiqishi zarur. Buning uchun qiz bola arqonni ustiga turib oyoqlarini hiyal ochib, arqon uchini qo'ltilqlariga tortib ko'rishi kerak. Agar to'g'ri kelsa,

arqon to'g'ri tanlangan bo'ladi. Agar u me'yordan uzun yoki kalta bulsa, bu bolaning shakllanishiga biroz salbiy ta'sir o'tkazadi

Arqonni uchta barmoq bilan oldinda ushslash kerak. Ikki uchinining o'rtasini yoki bir uchini va o'rtasini olish kerak. Arqonni qo'lga yig'ib olish mumkin.

**Chayqalish yoki siltashlar** turli tekislikda va yo'nalishda bir yoki ikki qo'l bilan bajariladi.




8-rasm

**Namunaviy mashlar.** Ikki qator turib olinadi: birinchi qatordagi qizlar arqonni olib, tebrantiradi, ikkinchi qatordagilar undan sakraydi (**8-rasm**), turgan holda, arqon orqada, arqonni oldinga-orqaga, undan  $45^{\circ}$  ga burilib sakrash kerak, turgan holdan arqon oldinda, orqaga siltab, oldinga- orqaga qadam tashlanadi.

Siltashlarni avval bir qo'lda bajarishni o'rganib, keyin baravar ikkala qo'lda bajarishga o'rganiladi: aylanma harakat ochilgan yoki taxlangan arqonda qadamlar, sakrashlar va boshqa harakatlar bilan bajariladi. Katta aylanma harakatlardan o'rta va kichik aylanma harakatlarga o'ng qo'lda o'tiladi.

**Namunaviy mashqlar.** Turgan holda, arqon ikkiga taxlanadi, oldi tomonidan 4 marta aylanma harakat o'ng tomonga va chap tomonga qarab bajariladi (**9-rasm**). Turgan holda arqon ikkala qo'lda  $360^{\circ}$  ga bir necha aylanma harakatlar bajariladi (**10-rasm**). Turgan holda arqon ikkiga buklangan bo'lib, o'ng qo'lda arqon bilan pastda katta aylanalar qilib, arqondan sakrash mashqi bajariladi (**11-rasm**).



9-rasm

Turgan holda arqon ikkiga buklangan o'ng qo'lda, pastda va tepada gorizontal aylanalar bajariladi (**12-rasm**). Turgan holda arqon ikkiga buklangan o'ng qo'lda tepada gorizontal katta aylana, pastda gorizontal aylana qilib undan sakrab o'tiladi.



10-rasm



11-rasm



a



b

12-rasm

Sakkizlik – aylanma harakat turi. Harakat bilaklar yordamida barcha tekisliklarda bajariladi.

**Arqondan sakrash mashqi** – bu predmet uchun oddiy bo'lib, yaxshi koordinatsiyani talab etadi. U mashq yuqori intensivlikka ega. Uni me'yorini belgilashda ehtiyoj bo'lish kerak. U arqonni oldinga, orqaga aylantirish orqali bajariladi.



a



b



c



d

13-rasm. Arqon aylanishi bilan galop qadamini yonga bajarish

**Arqon aylanishi bilan galop qadamini yonga bajarish (13-rasm).** Turgan holda qo'llar yondaarqon oldinda, arqonni yuqoriga-orqaga kuch bilan aylantirish. Prujinasimon yarim cho'qqayib o'tirishdan ikkalaoyoqda sakrash, bundaoyoq uchi cho'zilib gavda to'g'ri nigohlar oldinda bo'lishi zarur.

Uslubiy tavsiyalar: tayyorlov mashqlarini bajarganda sakrashdan oldin arqon pastda bo'lishi zarur. Birinchi sinovlardagina arqon polga tegishi kerak. Keyinchalik arqonni tekkizishga yo'l qo'yilmaydi. Dastlabki davrda sakrashga o'rgatish ikki oyoqda davriy sakrash orqali amalgaoshiriladi. Ancha murakkabroq mashqlarga (orqaga aylantirish, ikkilasma sarkash, oyoqni chalishtirib sakrash va h.k.) arqonni bir marta aylantirgandagi sakrashlar to'g'ri bajargandagina o'tiladi (ya'ni katta amplituda bilan, bilakdan harakat boshlanganda to'g'ri qomat va cho'zilgan oyoq uchlarida).

**Otish va ilish** – bu murakkab mashqlar bo'lib, yaxshi reaksiyani, tezlikni, fazoviy yo'nalishni to'g'ri tushunishni talab qiladi. Barmoqlar asta-sekinlik bilan predmetni chiqarar ekan, ungaxohlagan yo'nalishni beraoladi va bundaarqon traektoriyasi buzilmaydi. Ushlab olish ham barmoqlar bilan engil bajarilib, arqonning harakat rasmini buzmaydi va keyingi harakatga qo'shiladi.

Otish mashqlari, arqonni yig'ilgan holda, yoki yozilgan holda amalgaoshiriladi, bunda mashq bir yoki ikki qo'lda turli yo'nalishda bajariladi.

**Arqonni ulash vaechish** – bu predmet uchun o'zigaxos mashq bo'lib, turli xil bo'ladi. Arqonni odatda alohida tanaa'zolariga o'rriadilar. Bundaarqon taxlangan yoki to'la yozilgan bir uchi erkin bo'lishi mumkin.

Arqonni tanaga o'rash mashqini bajarganda uning chizig'ini buzadigan keskin harakatlar bilan amalgaoshirilmasligi kerak. Bunda tempga, ritmikaga, musiqa bilan jo'rligigaahamiyat berish kerak.

Arqonni uzatish turli yo'nalishda va tekisliklarda, siltash vaaylanish vaqtida bajariladi. Arqon bir qo'ldan boshqa qo'lga yoki qandaydir tanaa'zosi oldida bajariladi.

"Melnitsa" tegirmon – bu o'zigaxos arqon bilan bajariladigan dinamik, original harakat. Bu o'tadan olingen arqon bilan bajariladigan aylanalar. Oyoqlar bilan prujinasimon harakatlar bajarilganidan so'ng arqonning ikki uchi bilan ketma-ket aylanalar yasaladi.

**Xalqa bilan mashqlar.** Xalqada qilinadigan mashqlar — bu qiziqarli predmetlardan biri, badiiy gimnastikada foydalaniladi. Bu ajoyib vosita koordinatsiya saqlashda, tezlikda, xarakat reaksiya, aniqlik, yaxshi muljal olishda asqotadi. Xalqada mashg'ulot utkazish barcha katta panjalar guruxiga jismoniy og'irlilik tushiradi, quldagi kuchni oshiradi, barmoqlar va kaftdagi kuchni oshiradi, bu to'g'ri qad rostlashni shakkantirishda xam yordam beradi. Bolalarni shug'ullantiriayotganda, xalqa turli xajmdagi plasmassaligi yoki yog'ochdan yasalganidan foydalanish kerak. Xalqa (aylana) yog'ochdan yoki plastmassadan, 80-90 sm diametri bo'lishi mumkin. Oldindan tayyorlash bosqichida kichik diametrlı xalqalardan foydalanish kerak. Xalqa bilan bog'liq barcha mashqlar bir yoki ikki qulda, turli xildagi og'ishda, qul va oyoqda bajarilishi mumkin. Xalqa erga nisbatan yassitekislik xosil qilish, vertikal, gorizontal va diagonal kurinishda bulishi mumkin. Xalqa tana bilan aloqasini yuz qismida, yonaki va oraliq tekislikda kurish mumkin.

Bolalarga xalqada mashq utishni boshlash uni tutish va turli uslublarda uzgartirish mumkinligini kursatish orqali buladi.

Xalqa bilan turli xarakterdagи mashqlarni bajarish mumkin: plavniy, dinamik, xafvli, ayniqsa tana harakati va musiqa jo'rligidagi sinxron harakatlar yaxshi samara beradi. Xalqa erga nisbatan vertikal holatda gorizontal yoki diagonal holatda bo'lishi mumkin.

Quyidagi ushplashlardan foydalaniladi: bir yoki ikki qo'l bilan tepadan yoki pastdan, aralash, kesishgan hamda tashqaridan hamda ichkaridan bo'lishi mumkin. Siltash harakatlari turli yo'nalishda va tekislikda bir yoki ikki qo'llar bilan bajariladi. Xalqa go'yo qo'Ining davomi kabi bo'lib, osilib turmasligi kerak. Siltashlar odatda mashqlarni bir-biriga ulaydigan element sifatida ishlatiladi. Xilma-xillik va predmet bilan bajariladigan harakatlarni bir-biriga qo'shilib ketishini ta'minlaydi.

**Aylana turlari** – bu xalqani qo'l bilan tekislikdaaylantirishga qarab bo'linadi. Burilishga taxminiy mashqlar. Turgan holdaxalqa oldinda, qo'llar yonda, yuqoridan ushlab olingen. Turgan holdaxalqa yonda, vertikal holatdayuqoridan ushlab olinadi. Oyoq uchiga turib, xalqani burish bilan orqaga egilish kerak. O'ng oyoqda tizzalab turib, chap oyoq oldinda, xalqani burish bilan orqaga chuqur egilish kerak. O'ng tovonda o'tirgan holda, chap oyoq oldinda, hiyol bukilgan. Egilish bajarilib, xalqa aylantiriladi. Turgan holdaxalqa bo'ksa darajasida vertikal holatdayuqoridan ichidan ushlash. Bosh uzra gorizontal holatdaxalqa ko'tarilib, uni o'ngga, chapga buramiz. Burish vaqtida gavda ham hiyol bukiladi. Aylanma xarakatlarni o'rganishning boshidanoq aniq saqlab qolishga harakat qilish kerak. mashqni katta razsiltash bilan chegaralangan amplitudada bajarish lozim. Xalqani aylantirish mashqlariga: dinamiklik va o'zigaxoslikni ta'minlaydi.


Xalqa aylantirilganda katta va ko'rsatkich barmoqlar o'tasida ushlab olinadi. Aylantirish bilakning engil harakati yordamida amalgaoshiriladi. Tirsak hiyol bukilib, bilakning engil holatiga yordam beradi. SHunga ko'raayylanayotgan xalqaning vibratsiyasi bartaraf etiladi. Xalqani oyoq va gavdaatfida ham aylantirish mumkin.

**Vertushka** – xalqani aylantirish turi. Bu xalqaning o'qi bo'ylab tezkor aylanish bo'lib, uning diametridan o'tadi. Mashq bir yoki ikki qo'l bilan bajariladi. Aylanish polda yoki gavdaning yuqori qismida otliganda fazoda sodir bo'lishi mumkin.

**Dumalatishlar** – engil, ammo qo'lning keskin harakati orqali amalgaoshiriladi. Xalqaga kerakli yo'nalish barmoqlarning harakati bilan amalgaoshiriladi. Qo'l predmetni qo'l bilan itarib, uni engil sakrashsiz va vibratsiyasiz harakat bilan ta'minlaydi.


Polda bajariladigan dumalatishlar to'g'ri chiziqli, egri vaaylana bo'ylab yo'nalishlarga ega bo'lishi mumkin. Xalqani tanaa'zolari ustida ham dumalatish mumkin va poldagi dumalatishlar bilan birga ham bajarish mumkin.

**Namunaviy mashqlar** – turgan holda tana og'irligi o'ng oyoqda, chap oyoq oldinda, oyoq uchida, xalqa polda, ikkala qo'l bilan ustidan ushlab olish kerak. Bilak bilan hiyol itarib, uni xohlagan yo'nalishda dumalatish mumkin (**14-rasm**).



14-rasm. Xalqani xohlagan yo'nalishda dumalaish.


**Variantlar:** dumalayotgan xalqani quvlab o'tib, dumalab o'tib, ungayuzlanish kerak va yarim o'tirgan holda ushlab olinadi, xalqani quvlayotganda sakrab, chap oyoq bilan xalqa ustidan siltash qilinadi, uni chap qo'l bilan ilib olinadi. Polucho'qqayib o'tirish holatdaxalqa o'ng qo'lida ustidan ushlab olinib, orqaga o'tkaziladi, qo'l bilan oldinga tezkor harakat qilinadi. Xalqani orqaga aylantiramiz va oldinga aylantiramiz. Bir oz turib xalqa orqaga harakatlanadi (**15-rasm**). Xalqani tekis tebranishiga erishish kerak.



15-rasm. Xalqani orqaga va oldinga aylantirish



16-rasm



17-rasm

**Ko'krak dumalatish** – o'tirgan holatda engil harakatlarni xalqaga o'tkazib, xalqa elkadan oshiriladi va chap qo'l bilan ilib olinadi (**16-rasm**).

**Plechivoy poyas** bo'yicha dumalatish oyoq uchida turgan holda bajariladi. Xalqa o'ng qo'lida o'ng tomongayuqoriga ko'tariladi. Engil itarib, xalqa chap tomonga yo'naltiriladi.

Bosh ham pastga tushiriladi. Xalqa chap qo'l bilan ilib olinadi. Xalqani to'g'ri otish va ilish texnikasi asosida boshqa predmetlarga tegishli prinsiplar yotadi. Otish texnikasining o'zigaxos xususiyatlari predmetning shakli vaxarakteri bilan aniqlanadi.

Har doim ham xalqaning harakat yo'naliшини saqlab qolish imkonи bo'lavermaydi hamda gavda muvozanatini ham. Shuning uchun xalqani otish va ilishga о'rgatishga ba'zi-bir tayyorlov mashqlarini berish zarur.

Tana muvozanati buzmagan holdaotish mashqining uch fazasi о'rganilganidan keyin bu mashqni boshqa mashqlar bilan bog'lash kerak. Xalqadan sakrash mashqlari xuddi arqondan sakrash mashqlari kabi. Xalqa yaqin tomondan bir yoki ikki qo'l bilan ushlab olinadi, sakrashlar va kichik sakrashlar bir yoki ikki oyoqda bajarilishi mumkin. Sakrashlar oldinga yoki olrqagaxalqaning birlamchi yoki ikkilamchi aylanishi bilan bajariladi.

**Namunaviy mashlar** turgan holdaxalqa bosh uzra vertikal holatda oyoqlar bukilib xalqaga sakraladi (**17-rasm**).



18-rasm

Xalqadan hatlab o'tish predmet tinch yoki harakat holatida bo'lishi kerak. (poldan dumalasa). Hatlaganda predmetni ushlashni о'zgartirish mumkin. Murabbiyining xohshiga ko'ra dasturga dumalayotgan xalqadan o'tish mashqini kiritish mumkin (**19-rasm**). Siltash va aylana mashqlarda xalqani uzatish quyidagilardan so'ng bajariladi. Otish va dumalatishdan keyin bir joyda yoki harakat vaqtida, bir qo'ldan ikkinchi qo'lga, ba'zi-bir tana a'zolari yonida bajariladi. Bu ikkala qo'lning baravar qatnashuvini talab qiladi va ba'zi elementlarni ortasida xilma-xillikni kiritadi.



19-rasm


**Tasma bilan mashqlar:** Tasma mashq qilish foydali, ajoyib va turli kurinishlidir. Ular bolalardagi ritmni xis qilish, aniq xarakat koordinatsiyasini olish, chaqqonlik va boshqa

jismoniy sifatlarni shakllantiradi. Tasma yordamida xarakatlanishning asosiy tavsiflari shuki, turli sur'atlarni amalga oshirishda bular uziga xos quvvat beradi. Buni bajarish uchun kuchni to'g'ri taqsimlash, qulni to'g'ri tutish lozim. Tasmani aylantirayotganda butun tanadagi xarakatni nazorat qilish, qul va oyoqlarning ajoyib ritmini yuzaga chiqarish lozim buladi.

Kichik yoshdagi qizlar uchun atlasdan qilingan tasma, uzunligi 3 metrgacha, uning qalinligi 2,5-4 sm. buladi. tasma shoyidan bo'lishi, kengligi 4-6 sm, uzunligi 3,5 m, bukilishi 0,5 m ni tashkil qilishi zarur. Yog'ochi 40-60 sm uzunlikda bo'lib, qalinligi 1-1,8 sm ni tashlik qilishi kerak. Tasma yog'ochga biriktirilib, birikish uzunligi 3-7 sm dan iborat bo'ladi. Tasma bilan bajariladigan mashqlar umumiyo koordinatsiyaga va ritmni his qilishga ta'sir qiladi. Badiiy gimnastikaning ana shu mashqlarida, unga xos bo'lgan o'zaro bog'liqlik, egiluvchanlik, mutanosiblik namoyon bo'ladi.

Tasma Mashg'ulot bajarish quyidagi ketma-ketlikda urganiladi: silkish, aylantirish, ilonizi, spiral qilib va sakkiz soni kurnishida xarakatlantirish.

Tasmani ushslash turlicha bo'lishi mumkin: tepadan, pastdan, aralash va h.k. (20-rasm). U quldan chiqib ketmaydigan, siljimaydigan tarzda engil ushlanishi kerak.



20-rasm. Tasmani ushslash turlari

Siltashlar, aylanalar, vosmyorkalar – bu mashqlarda tasma bilan harakatlar eng yaxshi namoyon bo'ladi. Ular katta, o'rtacha va kichik turlarga bo'linadi. Turli tekisliklarda va turli yo'naliishlarda.

Tasmani bir quldan boshqasiga utkazib, kombinatsiya xosil qilish lozim. Tayoqchani tezkorlik bilan uzatish kerakki, natijada sur'atda buzilish bulmasin, buningg uchun maxsus tayyorgarlik kerak. Bir kaft ikkinchisiga uzatilayotganda tayyor turishi lozim.

**Tasmani silkish.** Bu tasma xarakatlanish texnikasini to'g'ri uzlashdirishda muximdir. Silkish turli tekislikda va yunalishda, tengliklarda va erkin xarakatlarda buladi. Kaft qismi qulning davomi sanaladi. Tasma yunalishini uzgartirayotgan vaqtida kaftni birdan uzgartirish yaramaydi, balki uziga xos nazokat bilan, tasma yunalishiga mos ravishda uzgartirish kerak, shunda ritm uzilmaydi. Gavda va bosh tasmaning uchishini boshqaradi va tasmaning yassitekisligini ta'minlashda yordam beradi. YOnaki va yuzaki jixatdan tasma silkitayotganda bilak tirsagi bukimasligi kerak. Bolalar esa gorizontal silkiyotganda, bilak-qul soxasidagi tirsakni xiyol bukadi, qaysiki tasmaning xarakati ulkan radius olishi uchun.

**Namunaviy harakatlar.** Turgan holda tasma o'ng qo'lida yonga ko'tarilgan. CHap qo'l yonda, chap oyoq oldinda, tasma bilan gorizontal siltashlar bajariladi. Xuddi shu mashq boshqa qo'l bilan bajariladi. Turgan holda, tasmani ichki qo'l bilan oldinda ushslash kerak. O'ng oyoqdaoldinga qadam tashlab, chap oyoq uchida o'ng qo'lni yuqorigan pastga ko'tarib, chap qo'l yonda turadi. Turgan holda qadam tashlab, sakrab, chap yoki o'ng qo'l bilan yuqoriga vertikal aylanalar hosil qilinadi.

Turgan holda, tasma chap qo'lida, ikkala qo'l yonda. O'ng oyoq bilan orqaga qadam tashlab, chuqur orqaga egilib, gorizontal aylanalar o'ng qo'l bilan bajariladi. Xuddi shu mashq boshqa qo'l bilan bajariladi. Tizzalab turib, yonlamaaylanalar o'ng qo'l bilan o'ng tomonda va chap tomonda bajariladi. Turgan holda tasma o'ng qo'lida ikkala qo'l yonda, ikkilangan qadam bilan sakrab, bukilgan oyoqlarni oldindaalmashtirgan holda bosh

uzra gorizontal aylanalar qilinadi. Turgan holda tasma o'ng qo'l da oyoq uchida turib, old tarafda vertikal vosmyorkalar hosil qilinadi.

Turgan holda tasma o'ng qo'l da, qo'llar yonda, vertikal vosmyorkaold tomonda hosil qilinadi.

Turgan holda tasma o'ng qo'l da, qo'llar yonda gorizontal vosmyorkalar hosil qilinadi. Muvozanat o'ng qo'l da, o'ng qo'l oldinda, chap qo'l da tasma yonlama tekislikda o'ng qo'l ustida vosmyorka hosil qilish.

**Zmeyka** – bu predmet uchun hosil bo'lgan mashq. Bu mashq mushaklarni minimal zo'riqtirib, hiyol egilgan qo'l bilan panjalarni harakatga keltirish asosida bajariladi. Amplituda tishlari 30-35 sm dan oshmashligi zarur.

Zmeykalar vertikal (ko'tariladigan va pasayadigan) va gorizontal (vertikal va gorizontal tishli) bo'ladi.


Vertikal zmeykalarni bajarishda qo'l pastdan yuqoriga vaaksinchcha bajariladi. Gorizontal zmeykalarda bo'lsa chapdan o'ngga qarab harakatlanadi. Zmeykalar uchta tekislikda bajariladi.

**Namunaviy mashqlar:** tasma o'ng qo'l da, chap qo'l yonda, orqagaengil yugirib gorizontal zmeyka hosil qilinadi.

YArimcho'qqayib o'tirish holatda, tasma o'ng qo'l da, chap qo'l yonda, asta-sekinlik bilan rostlanib, gorizontal zmeyka hosil qilinadi. Turgan holatda tasma o'ng qo'l da, chap qo'l yuqorida 360° ga burilib, tana atrofida zmeyka hosil qilish. Turgan holatda tasma chap qo'l da, ikkala qo'l yonda, ikkala oyoqda sakrab, bosh uzra qo'lni ko'tarib siltash bajariladi va pasayadigan zmeykani polucho'qqayib o'tirish holatigacha bajariladi.

**Spiral** – original bo'lgan va shu predmet uchun xos mashq hisoblanadi. Spirallar kichik bo'lib, ular panja harakatlari bilan bajariladi. O'rtacha va katta spirallar tirsak bo'g'ini orqali amalga oshiriladi. Konussimon spirallar kichik aylanalar asta-sekinlik bilan kattalashganda hosil bo'ladi. Agar yog'och gorizontal bo'lsa. spiral vertikal hosil bo'ladi. Agar aksinchcha bo'lsa, gorizontal spiral hosil bo'ladi.

**Namunaviy mashqlar:** turgan holda, qo'llar yonda, tasma o'ng qo'l da, qo'l oldinga cho'zilib gorizontal siltash bajariladi, engil egilib, orqaga yugurishlar kerak va o'ng qo'l bilan vertikal spiral bajariladi (**21-rasm**). Turgan holda o'ng qo'l oldinda, tasma bilan oyoq uchiga ko'tarilib, gorizontal spiral bajariladi (**22-rasm**).



21-rasm



22-rasm

### Cho'qmor (Bulava) bilan mashqlar

Cho'qmorlar asosan yog'ochdan yoki plastmassadan tayyorlanadi. Uning uzunligi 40-50 sm bo'lib, uning og'irligi 50 g ni tashkil qiladi. Rangi foydalanuvchining ixtiyorida. Cho'qmor – tanasidan bo'yin qismidan va ruchkasidan iborat. Dastlabki mashg'ulotlardacho'qmorlar qo'shimcha vosita sifatida, umumiy koordinatsiyani rivojlantirish, ritmni tushinish va qo'l kuchi va hartakatchanlikni oshirish uchun ishlataliladi. Cho'qmor bilan bajarilayotgan mashq texnikasini, avval bir predmet bilan o'ng qo'lni, keyin chap qo'lni mashq qilinadi. Siltash vaaylanalarni cho'qmor bilan bajarganda uni bosh orqasida o'ng qo'l pelditida erkin ushlash lozim. Ko'rsatish barmog'i cho'qmorning bo'yin qismida qo'yiladi, go'yoki predmet qo'lni davom ettirayotgandek. Cho'qmorlarning osilishi faqat ba'zi-bir mashqlarda ruxsat etiladi. <<Melnitsa>> mashqini

bajarayotgandacho'qmorning boshi bosh va ko'rsatkich barmoqlari bilan ushlab olinadi, siqilmaydi. Cho'qmorni turli xil ushlash mumkin. Yuqoridan, pastdan, boshidan yoki tanasidan bir qo'l bilan yoki ikkala qo'l bilan ushlash mumkin. Siltashlar kichik, o'ttacha va katta bo'lishi mumkin. Barcha tekisliklarda bajariladi.

**Namunaviy mashqlar:** polucho'qqayib o'tirish holatdan, oyoq uchida sekin turib, baravariga ikititacho'qmor bilan siltash bajariladi. Turgan holatda qo'llar yonda, o'ttacha siltashlar bajariladi. Harakatlar faqat tirsak bo'g'imiralarida bajarilib, cho'qmorlar elka qismini davom ettiradi. Engil yugirish, qo'llar oldinda, yuza tekisligida kichik siltashlar bajariladi (harakatlar faqat panja qismida bajariladi). Aylanalar asosan kichik, o'ttacha va katta bo'lib, ular turli tekisliklarda turli yo'nalishlarda bajariladi. Dastlabki o'rganish davrida kattaaylanalardan o'rganishni boshlaydilar, keyin o'ttachalariga o'tadilar. Kichik aylanalar koordinatsiyasi bo'yicha eng murakkab bo'lib, murabbiyning taklifi bilan dasturga kiritiladi.

**Namunaviy mashqlar:** Turgan holda qo'llar tana bo'ylab joylashadi. Kattaaylanalar oyoqlar bilan prujinasimon harakatlar bajarish orqali amalgaoshiriladi. Faqat o'ng qo'l bilan, faqat chap qo'l bilan, keyin ketma-ket bajarish orqali bajariladi.

Turgan holda qo'llar yonda, o'ng qo'l bilan bosh orqasida o'ttachaaylanalar bajariladi, keyin chap qo'l bilan va ikkala qo'l bilan.

Turgan holatda, qo'llar pastda, cho'qmorlar – qo'l davomi, oyoqlarning engil prujinasimon harakatlari bilan vertikal kichik aylanalar bajariladi.

Turgan holatda, qo'llar oldindida, cho'qmorlar qo'llarning davomi chap oyoq bilan oldinga qadam tashlab o'ng qo'l bilan kichik gorizontal aylanalar bajariladi. Xuddi shu mashq boshqaoyeqda bajariladi. O'ng oyoqdaoldinga qadam tashlanib, yon tekislikda katta va kichik aylanalar bajariladi. Cho'qmirlarni taqillatish, polga bitta yoki ikkita qo'l bilan, baravar yoki ketma-ket bir-biriga, tanalari bilan bo'yin qismi bilan va h.k. bajariladi. Cho'qmor bilan taqillatish mashqlari shug'llanuvchida ritmni tushinishni shakllantiradi. Shuning uchun ularni uch vozrast guruhda eng dastlabki mashg'ulotlarga kiritish, musiqaviy ritmga o'rgatish uchun mumkin bo'ladi.

Cho'qmirlarni polda dumalatish ham aniq bir ritmda amalga oshiriladi.

### © Adabiyotlar


10. Gyozo Molnar and Jonn Kelly. Sport, excrise and cocial theory.
11. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. A.Abdullaev va b. T.2005 y.
12. R.S.Salomov va b. "Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligiga kirish". T. 1990 y.

**30-AMALIY MASHG'ULOT**  
**SAF MASHQLARI, URM, TURNIK, YAKKACHO`PDA**  
**BAJARILADIGAN MASHQLAR**

Darsning maqsadi:Saf mashqlarini qaytarish, URM, turnikda sakrab tushish mashqlari va yakkacho`pda burilish mashqlarini takrorlash va mustaxkamlash

Kerakli anjom va uskunalar: sport zal, gimnastika matlari, gimnastika asboblari

1. Saf mashqlarining barcha buyruqlarini takrorlash
2. **URM - uzluksiz usulda mashqlarni takrorlash**
3. **Turnik - yoysimonholatda sakrab tushish .**



4. **Yakkacho`p – burilishlar bir oyoqda  $360^{\circ}$  ga shuning o`zini muvozanat saqlash holatida. Sakrashlar bir oyoqda ikkinchisini siltab, oyoqni oyoqqa urib**

**31-AMALIY MASHG'ULOT**  
**TAYANIB SAKRASH MASHQLARI, YAKKACHO`PDA**  
**MASHQLARINI O`RGATISH.**

**Darsni maqsadi:** sakrash oyoqlarni bukib va kerib, yakkacho`pda burilish va muvozanat mashqlarini o`rgatish.

**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.


1. Otdan oyoqlarni kerib sakrab o'tish; o'zunasiga qo'yilgan ot ustidan bir oyoqda depsinib burchak hosil qilib sakrash.

2. Yakkacho`pda – oyoq uchida yurish, burilib muvozanat saqlash, sakrab tushish.

3. O'tilgan mashqlarni amaliy bajarish.

**Otdan yoki sakrash stolidan oyoqlarni kerib sakrash**

**Bajarish texnikasi.** Berilgan sakrashni bajarish texnikasi, ko`ndalang otdan oyoqlarni kerib sakrashni bajarish texnikasidan ozgina farq qiladi. Ammo, o'zun otdan oyoqlarni ochib sakrashni bajarish uchun tez yugurish, ko`priordan o`yoqlarda va asbobdan qo'llarda kuchli itarilish talab qilinadi. Agar oyoq panjalari yelka darajasidan yuqori ko`tarilsa, bu mashq yaxshi bajarilgan hisoblanadi.



**O`rgatish ketma-ketligi.**

Sakrashni o`zlashtirish uchun, ko`ndalang xaridan oyoqlarni ochib sakrashni o`rganish paytidagi hamma yordamchi mashqlarni qo'llash mumkin, keyin quyidagi mashqlarni takrorlash lozim.

1. Ko`ndalang xaridan oyoqlarni ochib sakrash, ko`priordan xarigacha masofani asta-sekin ko`paytirib.

2. O'zun qo'yilgan xaridan oyoqlarni ochib sakrash.

3. Shuning o`zi, faqat ko`priki xarida 1 m masofaga surib bajarish.

4. Shuning o`zi, faqat ko`prik va xari orasidan arqon tortish.

5. O'zun otdan oyoqlarni ochib sakrash.

Ayrim o`quvchilar uchun, o'zun otdan oshib o'tish biroz qiyinchilik tug`diradi: otning o`zoqdagi qismidan oshib o'ta olmaslikdan, qo'llarda itarilgandan so'ng otga tegib ketish yoki unga yiqilib tushishdan qo'rqaqilar. Bunday ruhiy to'siqni yo'qotish maqsadida quyidagi vazifalarni qo'llash mumkin:

1. 1-2 qadamdan yugurib otga yoki sakrash stoliga sakrab chiqib oyoqlarni ochib tayanish (to`g`ri va tarang qo'llarga tayanib, o'tirmasdan oyoqlarni ochib turish). Biroz tayanchda ushlanib qolib, oyoqlarni ochib yumshoq o'tirishga o'tish.

2. Asta-sekin yugurish tezligini va o'zunligini oshirib, otning o`zoq qismidan 20-25 sm gacha masofaga etguncha, qo'llarni qo'yib, sakrab chiqib oyoqlarni ochib tayanish. O`quvchini yelka tagidan ikki tomonlama ushlab yordam berish ham mumkin. O`quvchi oyoqlarini ochib tayanishni bajarishni o`rganib olgandan so'ng keyingi vazifa beriladi.

3. Otning oldi qismida o'tirishdan, so'ng yarim o'tiridan, otning o`zoq qismiga oyoqlarni ochib sakrab tushishni bajarish. Oldin qo'llar otning eng qirra qismiga qo'yib, asta-sekin qirradan 15-20 sm masofaga qo'llarda itarilishni o`rganish lozim. Bu mashqlarni

ishonchli bajarishga o`rganilgandan keyin butunlay oyoqlarni ochib sakrashga o`tish mumkin.

#### Xatolar.

1. Nisbatan past siltanish (ko`priordan ko`tarilgandan so`ng oyoqlar ot tanasidan yuqori ko`tarilmasa).

2. O`z ostiga qo`llarda itarilish (qo`llarda to`xtatuvchi itarilish o`rniga egiluvchi itarilish hosil bo`ladi).

3. Qo`llarda itarilgandan so`ng uchish paytida tananing tos-son bo`g`imlarida yoyilish yo`qligi.

4. Tos-son bo`g`imlarida yoyilish faqatgina yelkani ko`tarilishi hisobiga amalga oshirilishi, oyoqlar esa oldinga harakatlanishdan to`xtamasligi qo`nish paytida yelkalarni orqaga tushib ketishiga olib keladi.


5. Yaqin qo`nish (1,5 m kam bo`lmasligi kerak).

**Extiyotlash va yordam.** Qo`nish joyini yon tomonida turib, bir qo`l bilan tirsakdan balandroqdan, ikkinchisi bilan zaruriyat bo`lganda ko`krakdan ushlab yordam beriladi. To`liq o`rganilguncha o`qituvchining o`zi yordam berib turishi maqsadaga muvofiq.

**Yon tomondan yugurib kelib otdan bir oyoqda siltanib,  
ikkinchisida itarilib burchak sakrash**

**Bajarish texnikasi.** Bunday sakrashni amalga oshirish uchun ko`prikanotning yaqin qismiga biroz burchak ostida (salkam parallel) yonboshiga qo`yiladi.

Qisqa masofadan yugurib kelib, o`ngga burchak sakrashni bajarishda o`ng oyoqda siltanib, o`ng qo`lda otning tanasiga tayanish va chap oyoqda ko`priordan itariladi. Asbob ustida oyoqlarni birlashtirish va chap qo`l o`ng qo`lning yoniga qo`yiladi. SHundan keyin o`ng qo`lni qo`yib yuborib, chap qo`lga tayanishni davom ettirib otga chap yon bilan qo`nish. Chapga sakrashni amalga oshirish uchun hammasini aksincha bajariladi.



#### O`rgatish ketma-ketligi.

1. Gimnastika o`rindig`idan qdamlab oshib o`tish usulida sakrash.

2. Otning ustida o`ng songa o`tirib qo`llar bilan orqadan tayanish va oyoqlarda oldinga-o`ngga siltanib, asbobdan sakrab tushish, otga chap yon bilan qo`nish.

3. Oyoqlarni ochib otga ko`ndalang o`tirib, qo`llar bilan uning tanasiga tayanish va oyoqlarda siltanib o`ngga burchak sakrab tushish, otga chap yon bilan qo`nish.

4. Otga o`ng yon bilan ko`prika turishdan o`ng oyoqda siltanib va chap oyoqda itarilib otning ustiga orqadan tayanib o`tirish, o`ng tomonga oyoqlarni tushirib sakrab tushish, otga chap yon bilan qo`nish.

5. Qisqa masofadan yugurib kelib, bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib o`ngga (chapga) burchak sakrash.

#### Xatolar.


1. Asbob ustida oyoqlar birlashmaydi.

2. Asbob ustidagi tosning juda past holati.

3. Qo`llar tayanchga parallel qo`yilmasa.

**Extiyotlash va yordam.** Qo`nish joyida asbobning yon tomonida turib, bir qo`lda yelka orqasidan, ikkinchisi bilan beldan ushlab yordam beriladi.

## 32-AMALIY MASHG'ULOT SAKRASH TURLARIGA UMUMIY TAVSIF



### 4. SAKRASH TURLARIGA TAVSIF.

Engil atletika turlari orasida sakrash turlari o`ziga xosligi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Sakrash turlari bir-biridan o`ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Engilatletikada sakrashlar ikki guruuhga bo`linadi – **vertikal** (vertical to`siq osha sakrashlar) va **gorizontal** (uzunlikka sakrashlar).

Birinchi guruuhga quyidagilar kiradi:

- yugurib kelib balandlikka sakrashlar;
- yugurib kelib langar cho`pga tayanib sakrashlar.

Ikkinci guruuhga quyidagilar kiradi:

- yugurib kelib uzunlikka sakrash;
- yugurib kelib uch hatlab sakrashlar.

Engil atletika sakrashlarining birinchi guruhi:

**1) YUguri bkelib balandlikka sakrash** (Olimpiyada o`yinlari dasturidan o`rin olgan) – atsiklik tur, u sportchidan tezlik-kuch sifatlarini, sakrovchanlikni, chaqqonlikni, egiluvchanlikni namoyon qilishni talab etadi. erkaklarda va ayollarda stadionda va manejda o`tkaziladi;

**2) YUgurib kelib langar cho`pga tayanib balandlikka sakrash** (Olimpiyada o`yinlari dasturidan o`rin olgan) – atsiklik tur, u sportchidan tezlik-kuch sifatlarini, sakrovchanlikni, egiluvchanlikni, chaqqonlikni namoyon qilishni talab etadi, engil atletikaning eng murakkab texnik turlaridan biri sanaladi. erkaklar va ayollarda, stadionda va manejda o`tkaziladi.

Engilatletika sakrashlarining ikkinchi guruhi:

**1) YUgurib kelib uzunlikka sakrash** (Olimpiyada o`yinlari dasturidan o`rin olgan) – tuzilishiga ko`ra aralash turga kiradi, u sportchidan tezlik-kuch, tezlik sifatlarini, egiluvchanlikni, chaqqonlikni namoyon qilishni taqozo etadi. erkaklarda va ayollarda, stadion va manejda o`tkaziladi:

**2) YUgurib kelib uch hatlab sakrash** (Olimpiyada o`yinlari dasturidan o`rin olgan) – atsiklik tur, u sportchidan tezlik-kuch, tezlik sifatlarini, egiluvchanlikni, chaqqonlikni namoyon qilishni taqozo etadi. erkaklarda va ayollarda, stadion va manejda o`tkaziladi.

## 2. SAKRASH TURLARI TEXNIKASI.

Engil atletikadagi sakrashlar jismoniy qobiliyatlardan kuch, tezkorlik va harakat uyg'unligini rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri bo`lib hisoblanadi. Engil atletika sakrashlari mashg'ulot vositasi sifatida hamma sport turlarida qo'llaniladi. Engil atletikada musobaqalar balandlikka, uzunlikka va yugurib kelib uch hatlash hamda langar cho`p bilan sakrash turlari bo`yicha o`tkaziladi.

Sakrashlar texnikasini o`rganishda ma'lum ketma-ketlikka riosa qilish shart. Oldin balandlikka sakrash texnikasi o`rgatilsa, keyin uzunlikka langar cho`p bilan uch hatlashga o`rgatiladi. Hamma sakrashlar uchun bir xil tuzilish: yugurib kelish - depsinish – uchish – erga tushish xarakterlidir.

Balandlikka sakrash. Sakrovchining hamma faoliyati yugurib kelish, samarador ravishdadepsinish, plankadan o`tish va erga tushishdan tashkil topadi. Sakrashlar plankadan o`tish usuliga qarab hatlab, perekat, fosberi-flop turlari farqlanadi.

SHug'ullanuvchilar o`rganilayotgan usulning texnikasi bilan tanishgandan so`ng, depsinishni to`g'ri o`rganishi shart. Asosiy diqqat depsinish uchun oyoqni qo'yilishiga qaratiladi. Keyingi o`quv topshirig'i, depsinishga tayyorlashni o`zlash-tirish bilan bir qatorda, to`liq yugurib kelishdagi oxirgi qadamlarni rejimiga qaratiladi. Bu unsunlarni texnikasiga o`rgatish qisqa yugurib kelishdan, o`rtacha (5-6 yugurish qadam) va to`liqligicha o`rgatiladi. Asosiy vazifasi bo`lib o`rganilayotgan sakrash rejimining bajarilish xarakteriga qarab, yugurish tezligini bir tekisda oshirib borib, yugurishni oxirgi qadamlarida uni yanada oshirishdan iboratdir.

Plankadan o`tishni o`zlashtirish, yugurib kelish, depsinish texnikasni o`zlashtirishdan oldin boshlanadi. Bu erda plankadan "Iqtisodli" o`tishga katta e'tibor beriladi.

Oxirgi yillarda "hatlab" o`tish usuli (asosan, ommaviy o`rgatishda) "fosberi-flop" usuli keng tarqaldi.

## 3. SAKRASHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Sakrashda sportchilar ko`p yoki uzoq uchush davrini amalga oshiradi. Buni ular balandlikka sakrash va langar cho`p sakrash, gorizontal tezlikda uzunlikka va uch hatlab sakrashda yordam beradi. Katta sakrash impulsi bu engil atletikadagi sakrashning umumiyl bo`limidir, lekin faqatgina sakrovchilar sakrash impulsini teng huquqli obekti hisoblanadi. Bu orqali tananing bazo'r harakatlar ketma-ketligi estetikasi kengaytiradi. SHuning uchun ular kuch tomonlama chegaralanmagan bo`lishlari kerak, aks holda o`z og`irlilik – kuch qoidalarni optimizatsiyalashtirishlari zarur bo`ladi. Sakrash burchagini tikholtini ko`proq rivojlantirishlari kerak. SHundagina engil atletika vakili SHmidt Hokening 80 yildan ortiq eski iborasi tushunarli bo`ladi, qaerdaki u "sakrashlar engil atletikaning eng go`zal holatlari hisoblanadi".

Bu zamonaviy muhokama emas, odatda sakrash mashqlari ham zamonaviy, o`rta asrlar, antik va shuningdek arhaik ma'daniyat hisoblanadi:

- yoshlar ham o`zaro boshlaridan sakrashgan, bu bilan ular kattalar qatoriga qabul qilinganlar.
- Antik olimpiyalarida beshhatlab sakrash, ham yugurish va disk uloqtirish qatorida engil atletika turlari deb hisoblangan.
- Ritsarlar o`yinlarida ham, kishilar ustidan o`tib uzoqqa sakrash qo`rqmas tulpor kab ima'noga ega bo`lish imkonini bergen.
- SHimoliy Germaniyada hozirgacha Stak (kichik kanallarni yog'och cho`p bilan hatla bo`tish) xalq sporti deb saqlanib qolgan.

#### 4. SAKRASH TURLARIDA FAZALAR.

Engil atletikada sakrash fazalari quyidagicha:

<b>YUgurib kelish</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- Qisqa, o`rtacha, yokiuzun</li><li>- Keng, tor egri va yarim aylana yugurib kelish</li></ul>
<b>Sakrashni shakllantirish</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- Qisqa sezilarsiz yiqilish va qisqa depsinish elementlari bilan yoki uzun tayyorgarlik va yiqilish bilan</li></ul>
<b>Uchish yo`nalishi</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- To`g`ri yoki xato</li><li>- Planka bilan yoki unga qiyrag`on</li></ul>
<b>Ko`tarilish fazasi</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- Sakrash positsiyani qayd qilish yoki depsinuvchi oyoqni tezda sakrash oyoqq aqo`yish</li></ul>
<b>Uchish fazasi</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- Cho`kkalash yoki o`tirib</li><li>- Bosh orqaga egilgan yoki ko`krak ustida (pastdag`i rasmlar)</li><li>- Oyoq yoyilgan yoki buklangan ( pastdag`i rasmlar)</li><li>- Ochiq yoki yopiqcho`ziqko`nishpozitsiyasi</li></ul>

**33-AMALIY MASHG'ULOT**  
**AKROBATIKA MASHQLARIDAN TO'NTARILISH VA**  
**TIK TURISH MASHQLARINI O'RGATISH.**

**Darsni maqsadi:** akrobatika mashqlarni chapga va o'ngga to'ntarilish o'rgatish kuraklarda, boshda va qo'llarda tik turishni.


**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

3. Akrobatika mashqlari - to'ntarilishlar joyidan va yugurib kelib chapga, o'ngga. Kuraklarda, boshda va qo'llarda, bir oyoqni siltab, boshqasi bilan depsinib qo'llarda tik turishlar.

4. Otdan oyoqlarni bukib sakrab o'tish, oyoqlarni kerib sakrab o'tishni mustaxkamlash. Otga tayanib cho'qqayish holatida sakrab chiqib kerishib sakrab tushish.

**Bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib qo'llarda tik turish**

**Bajarish texnikasi.** Siltanuvchi oyoqda turib, itariluvchi oldinda oyoq uchida, qo'llar yuqoriga kaftlar oldinga qadam qo'yib tanlanib, tanani oldinga bukib, to'g'ri qo'llarni yelka oralig'ida polga qo'yish va bir oyoqda siltanib, ikkinchi oyoqda itarilib qo'llarda turishga o'tish. Tik turganda oyoqlarni birlashtirib polga qarab, boshni ozgina orqaga egadi.



**O'rgatish ketma-ketligi.**

3. Yordam bilan bir oyoqda siltanib, ikkinchisida itarilib qo'llarda turish.
4. Devordan ikki qadam narida turib, itariluvchi oyoq bilan bir qadam qo'yib ikkinchisida siltanib, tovonlar bilan devorga tayanib qo'llarda turish.

**Xatolar.**

5. Boshning noto'g'ri holati (orqaga egilmagan).
6. Tanani haddan ziyod kerilganligi.
7. Qo'llar juda keng yoki qisqa qo'yilishi.
8. Tananing yelka ko'krak va bel qismlari to'liq to'g'rulanmasa.

**Ehtiyyotlash va yordam.** Siltanuvchi oyoq tomonda turib, bir qo'lni oldinga cho'zib, ikkinchisi bilan o'quvchining siltanuvchi oyoqning sonidan yoki boldiridan ushlab yordam beriladi. Qo'llarni ko'tarilishi mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi oyoqqa tegish paytida to'xtaydi.

**34-AMALIY MASHG'ULOT**  
**QO`SHPOYADA TAYANISH, TEBRANISH, TIK TURISH MASHQLARINI VA**  
**YAKKACHO`PDA YURISH, BURILISH, SAKRAB QO`NISH MASHQLARNI**  
**O`RGATISH.**

**Darsni maqsadi:** qo`shpoyada tayanish, tebranish mashqlarini, qizlarga yakkacho`pdagi mashqlarni o`rgatish.


**Kerakli anjom va uskunalar:** sport zali, gimnastika matlari va snaryadlari.

3. Qo`shpoyada mashqlar - oyoqni kerib o`tirgan holatda oldinga siltab ko`tarish shuning o`zi tayanib, tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko`tarilib oyoqlarni ochib o`tirish mashqlarini o`rgatish.

4. Yakkacho`pdagi mashqlar - muvozanat, turish, ko`priklar, shpagatlar bajarish. Bu mashqlarni texnikasi, polda bajarib o`rgatiladi.

**Tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko`tarilib oyoqlarni ochib o`tirish**

**Bajarish texnikasi.** Tirsaklarga tayanib tebranishdan vertikaldan o`tib, tos-son bo`g`imidan biroz bukilib, tez oldinga siltanib, oyoq ichlari poya darajasiga etganda, keskin yozilish va qo`llarni bukish bilan bir vaqtida oyoqlarni ajratib, oyoqlarni ochib o`tirishga o`tish.



**O`rgatish ketma-ketligi.**

5. Gimnastik devorga orqalab qo`llarni bukib orqadan tayanib o`tirishdan orqada tayanib yotishga o`tish (2-3 marta takrorlash).

6. Tirsaklarda tebranishdan, oldinga siltanishda oyoq uchlari poya darajasiga etganda, oyoq harakatini to`xtatish va tos-son bo`g`imidan yozilish.

7. Oyoqlarda otga tayanish bilan tirsaklarga larda tayanib yotib, tayanib yotishga o`tish.

8. Tirsaklarda tayanib tebranishdan oldinga siltanib ko`tarilib oyoqlarni ochib o`tirish.

**Xatolar.**

4. Oldinga siltanishda oyoq ichlari poya darajasidan o`tib ketsa va tos-son bo`g`imida yozilish sodir bo`lmasa.

5. Oldinga siltanishda yelka va ( orasidagi burchak kamaysa.

6. Qo`llarni buqilishi va tayanishga o`tish polga oyoqlarni qo`ygandan so`ng sodir bo`lsa, aksincha emas.

**Straxovka va yordam.** Yonboshda turib, bir qo`l bilan yelkadan ikkinchi qo`l bilan beldan ushlanadi.

**Statik mashqlarga:** muvozanat, turish, ko`priklar, shpagatlar kiradi. Bu mashqlarning texnikasi, polda bajariladigan mashqlardan unchalik farq qilmaydi.


Muvozanat yuqori turishlardan va o'tirishlardan, ikki yoki bir oyoqda, boshqa oyoq oldinga, orqaga, yon tomonga bajariladi.

Muvozanatni joyda turib va harakatlanish, burilish va sakrashlar bilan uyg'unlashtirib bajarish mumkin. Ularga: oyoq uchida turish; bir oyoqda turish, ikkinchisi orqaga; bir oyoqda yarim o'tirib, ikkinchisi orqaga; bir oyoqda o'tirib, ikkinchisi oldinga; bir oyoqda turib, ikkinchisi oldinga-yuqoriga, orqaga burilib, qo'llar yon tomonga va boshqalar kiradi.

Yelkalarda, boshda va qo'llarda, ko'krakda, ko'kraklarda va qo'llarda turish oddiy va aralash tayanchda, qo'llar bilan yakkacho'pni yuqori, pastki yoki yonbosh tekisligidan ushlab bajariladi.

Ko'priklar orqaga bukilib qo'llarga tayanib yoki oldinga burilib oyoqlarga tayanib bajariladi. Ko'pri holatida tayanch, bir oyoqqa va ikki qo'lga va aksincha bo'lishi mumkin.

Shpagat va yarim shpagatlar tizzalarga yoki tizzaga tayanib turib, boshqa oyoq orqaga; tayanib o'tirishdan oyoqlarni sirpantirib); burilishlardan keyin yoki yakkacho'pga tayanib yoki tayanmasdan, boshqa elementlarni qo'shib bajariladi.



## 35-AMALIY MASHG'ULOT BALANDLIKKA SAKRASH



### 2. BALANDLIKKA SAKRASHNING QISQACHA TARIXI

Balandlikka sakrash bu engil atletikaning murakkab tehnik o`zgarishlari, ko`pincha tehnik revolyutsiyalarga yaqin distsiplinasidir. Birinchi yugurib kelib oyoqni bukib, keyinroq qaychisimon balandlikka, yumalab, burilib sakrashlar va ohirisida esa yumshoq gilamchaga qo`nislari mumkin bo`lgan-flop usulida esa yoysimon yugurib kelib qaychisimon yonga sakrashgan. Har tehnika o`zgarishida sakrovchilar gorizontal, yotgan holatlarni qabul qilishgan, planka atrofida ko`proq aylanishgan, shuning natijasida KSP uchish balandligida planka balandga qo`yilishi mumkin bo`lgan, yoki aksincha sakrovchilar uchun uncha yuqori bo`Imagan sakrash impulse etarli bo`lgan.

Flop tehnikaning paydo bo`lishi tasodif emas, SHimoliy Amerikada qumli tepaliklar penoplastning bo`yralardan bo`sab, er maydonlari paydo bo`lgan. YUmshoq bo`yralar sakrashda sakrovchilar tana a`zolari (elka, bosh, korpus) bilan birinchi planklardan yumalab o`tishlariga yordam bergen va erga osonroq qo`nislari mumkin bo`lgan. SHu orqali flop tehnikasini sakrovchilar osonroq va yoqimli bajarishgan, tezroq va jo`shqin ravishda sakrashgan, misol tariqasida yoysimon sakrashda oyoqning siltinishi birinchi plankadan boshlanadi. Sakrash tarixidagi gohi ko`rsatmalar shuni ko`rsatyaptiki, plankalarda flop usulida sakrash qaychisimon sakrashdan ancha oldin rivojlangan. Dik Fosburinig ihtirolari faqatgina shartli ravishda qisqaradi, ihtirolar ko`p hollarda yangi ma'lumotlarni rivojlanishi yuritiladi. O`zining olimpiyada o`yinlaridagi g'alabasi Flop usulini yana qo`shimcha qo`llaydi.


### 3. BALANDLIKKA SAKRASHGA TA'RIF.

Balandlikka sakrash—vertical holatdagi engil atletika sakrash turi bo`lib, yugurib kelish orqali, bitta oyoqqa tiralib sakrash va ma'lum bir balandlikka o`rnatilgan plankadan oshib o`tib, maxsus porolondan tayyorlangan gilamga tushishdan iborat harakatdir. Balandlikka sakrash atsiklik tur bo`lib, u sportchidan tezlik-kuch sifatlarini, sakrovchanlikni, chaqqonlikni, egiluvchanlikni namoyon qilishni talab etadi. erkaklarda va ayollarda musobaqalar stadionda va manej (yopiq engil atletika maydoni) da o`tkaziladi.


### 3. BALANDLIKKA SAKRASH USULLARI.

Balandlikka sakrash usullari— sportchilarningdepsinishi va plankani zabit etish uchun sakrashning depsinish va uchish fazasidagi ko`rinishidagi farqlanuvchi harakatlaridan tashkil topadi. Uning usullari “fosbyuri-flop”, “hatlab o`tish”, “perikidnoy”, “perakat” va “to`lqin”.


Xorijiy manbaalarga asosan ushbu sakrash turida turli usullar mavjud. Ular biznikilardan nom jihatdan farq qilsada, lekin ko`rinishidan uncha ko`p farqqilmaydi. Unga ko`ra:




2-rasm. Afrikancha sakr ash



3-rasm. Qaychisimon sakrash



4-rasm. Aylana sakrash



5-rasm. Fosberi-flop usuli.



6-rasm. Perekidnoy usuli.



7-rasm. Hatlab o'tish usuli.

#### 4. BALANDLIKKA SAKRASH FAZALARI.

Balandlikka sakrashning boshqa sakrash turlari kabi o`ziga xos harakatlar ketma-ketligi (fazalari) bo`lib, ular quyidagicha:

- 5) yugurib kelish;
- 6) depsinish;
- 7) planka ustidan oshi bo'tish;
- 8) qo'nishdan iborat.

Sportchilardan har bir fazadan qulay va unumli foydalanishi talab etiladi. Bu ularning mashg'ulot jarayonida qanchalik puxta tayyorgarlik ko'rganiga bog'liq. Optimal yugurib kelish masofasini tanlay olish va yugurib kelishda jismoniy tayyorgarlik holatidan

kelib chiqib tezlikka erishishi muhim. Chunki, yugurib kelish masofasini to`g`ri tanlash depsinishning samarali chiqishiga omil bo`ladi. Depsinishda esa sportchi egallagan tezligi hisobiga yuqoriga ntiladi. Bu vaqtda undan gavdasini imkon qadar yuqoriga tortishi talab etiladi. Qanchalik yuqori va qulay depsinishga erishilsa, plankadan o`tish ya`ni havoda uchish jarayoni ko`ngildagidek bo`ladi. Plankada o`tish vaqtida sportchi tanasini nazorat qila olishi uning urinishni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga xizmat qiladi. YA`ni sportchi havodaligida tayanchsiz, muallaq holatda bo`lgani uchun tanani boshqara olish va nazorat qilish muhim sanaladi. Qo`nish esa planka ustidan to`g`ri va yaxshi o`tishga bog`liq. Qo`nish xavfsiz bo`lishi uchun sportchi qo`nish joyiga imkon qadar orqasi yoki elkasi bilan tushishi lozim. SHundagina jarahat olish ehtimoli kamayadi.

## 5. BALANDLIKKA SAKRASHDA MUSOBAQA QOIDALARI.

Sakrashlar bo`yicha musobaqa qatnashchisi yoki taklif qilingan shaxsiy belgilari yordamida o`zining yugurib kelish chizig`ini belgilab olish huquqiga ega, lekinbo`ryokibo`yoqyordamidabelgiqo`yishgaruxsatberilmaydi.

Sakrashlarda sportchi chigal yozdi urinishlari musobaqa boshlanishiga qadar qolgan vaqtda amalga oshirishi mumkin bo`ladi.

Musobaqalar boshlangan paytdan sakrashlar uchun mo`ljallangan sektorlarda badan qizdirish mashqlarini bajarishga ruxsat berilmaydi.

Qatnashchilar hamma urinishlarni galma-gal bajaradilar.

Ishtirokchi faqat hakam chaqirganidan keyingina urinishni bajarishga kirishadi. Sakrashlarda urinishga tayyorgarlik ko`rish va uni bajarish uchun 1 min vaqt beriladi. Vaqtini hisobga olish start beruvchi hakam tomonidan urinishni bajarishga chaqirilgan paytdan boshlab amalga oshiriladi. Sportchi urinishlar orasida uch, to`rt minut tanaffus qilish huquqiga ega. Agar ishtirokchi urinishni bajarish vaqtini ataylab cho`zayotgan bo`lsa, u ushbu urinishni bajarish huquqidan mahrum qilinishi mumkin; agar urinishni bajarish paytida qatnashchiga halaqit qilingan bo`lsa, katta hakam bu urinish o`rniga boshqa urinish berish huquqiga ega. Qatnashchi navbatdagi urinishdan voz vechish huquqiga ega, bunda u keyingi urinishlarni bajarish huquqini yo`qotmaydi.

Urinish bajarilgandan keyin hakam, agar qoida buzilishiga yo`l qo`yilmagan bo`lsa, “Ha” buyrug`ini beradi va oq bayroqcha ko`taradi yoki, qoida buzilgan bo`lsa, “Yo`q” buyrug`ini beradi va qizil bayroqcha ko`taradi. Barcha muvaffaqiyatli urinishlar natijalari o`lchanadi va bayonnomaga yoziladi. Muvaffaqiyatsiz urinishlar o`lchanmaydi.

Bayonnomaga quyidagicha yozuvlar kiritiladi:

- urinish e`tiborga olinganda o`lchan natijalari qo`yib chiqiladi, balandlikka sakrashda “O” belgisi qo`yiladi;
- urinish e`tiborga olinmaganda “X” belgisi qo`yiladi;
- urinish o`tkazib yuborilganda “–” belgisi qo`yiladi.

Agar ob-havo sharoitlari yoki boshqa ob`ektiv sabablarga ko`ra musobaqalar to`xtatilgan bo`lsa, bosh hakam musobaqalarni yangidan o`sha qatnashchilar bilan va to`xtab qolgan urinishdan boshlab o`tkazishga ruxsat berishi mumkin. Musobaqalar ertangi kunga ko`chirilganda ular birinchi urinishdan boshlanadi.

Qatnashchilarning shaxsiy o`rinlari dastlabki va final musobaqalarida ko`rsatilgan eng yaxshi natijaga ko`ra aniqlanadi. Agar ikkita (yoki ko`proq) qatnashchi bir xil natija ko`rsatsa, urinishdan qat`inazar, ikkinchi natija qaraladi, agar u ham bir xil bo`lsa, unda uchinchi natija ko`rib chiqiladi va shutariqa qatnashchilardan birining ustunligi aniqlab olinadi. Agar hamma ko`rsatkichlar ularda bir xil bo`lsa, unda g`olibni aniqlash uchun ularga qo`shimcha urinish beriladi.

Qolgan barcha o`rinlar uchun bu qoida amal qilmaydi.

Qatnashchilarning eng yaxshi natijalari, jumladan, birinchi o`rinni aniqlash uchun berilgan qo`shimcha urinishlardagi natijalar ham ularning hisoblariga yoziladi.

## 36-AMALIY MASHG'ULOT ULOQTIRISH TURLARI



### 1. ULOQTIRISH TURLARIGA UMUMIY TAVSIF.

**Engil atletika uloqtirishlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:**

- 1) to`g'ridan yugurib kelib aerodinamik xususiyatlarga ega va ega bo`Imagan snaryadlarni uloqtirish;
- 2) snaryadlarni aylana ichidan uloqtirish;
- 3) snaryadni aylana ichidan itqitish.

Boz ustiga, e'tibor qaratish lozimki, uloqtirishlarda texnik jihatdan har xil yugurib kelish turini bajarishga ruxsat beriladi, lekin final kuchlanishi faqat qoidalarga asosan bajariladi. Masalan, nayza, granata, to`pni faqat bosh orqasidan, elka ustidan uloqtirish kerak; diskni faqat yon tomonidan uloqtirish mumkin; bosqonni faqat yon tomonidan uloqtirish zarur; yadroni sakrab turib va burilishda itqitish, lekin albatta itqitish mumkin.

<b>ULOQTIRISH TURLARI</b>		
 2-rasm.	<b>Nayza</b>	<p>atsiklik tur, u sportchidan tezlik-kuch sifatlarini, egiluvchanlikni, chaqqonlikni namoyon qilishni talab qiladi.</p> <p>Uloqtirish to`g'ridan yugurib kelib bajariladi, erkaklar va ayollarda, faqat stadionda o`tkaziladi. Nayza aerodinamik xususiyatlarga ega.</p>
 3-rasm.	<b>Disk</b>	<p>atsiklik turlar, ular sportchidan kuch, tezlik-kuch sifatlarini, egiluvchanlikni, chaqqonlikni namoyon qilishni taqozo etadi. Uloqtirishlar aylana ichidan (cheklangan joydan), erkaklar va ayollar tomonidan, faqat stadionda bajariladi. Disk aerodinamik xususiyatlarga ega.</p>
 4-rasm.	<b>Bosqon</b>	<p>atsiklik turlar, ular sportchidan kuch, tezlik-kuch sifatlarini, egiluvchanlikni, chaqqonlikni namoyon qilishni taqozo etadi. Uloqtirishlar aylana ichidan (cheklangan joydan), erkaklar va ayollar tomonidan, faqat stadionda bajariladi. Disk aerodinamik xususiyatlarga ega.</p>



5-rasm.

Yadro

atsiklik tur, u sportchidan kuch, tezlik-kuch sifatlarini, chaqqonlikni namoyon qilishni taqozo etadi. Itqitish aylana ichidan (cheklangan joydan), erkaklar va ayollar tomonidan, stadionda va manejda bajariladi.

**Izoh:** *YUqorida keltirilgan uloqtirishning barcha turlari Olimpiyada o`yinlari dasturidan o`rin olgan.*

## 2. ULOQTIRISH TURLARINI QAMRAB OLUVCHI ASPEKTLAR.

### Uloqtirish – bu nima?

#### Musobaqa snaryadlarining og`irligi (kilogrammda)

Uloqtirish turi	O`smir.	B-yoshdagি	A-yoshdagি	Kichik yoshdagи /katta yoshdagilar sportchilar
Erkaklar	YAdro	4	5	6
	Disk	1	1,5	1,75
	Nayza	0,6	0,7	0,8
	Bosqon	4	5	6
Ayollar	YAdro	3	4	4
	Disk	1	1	1
	Nayza	0,6	0,6	0,6
	Bosqon	3	3	4

**Snaryadlarni uloqtirish.** engil atletikada uloqtirish sportining maqsadi uloqtirish turlari bo`yicha qoidalarga ko`ra ma'lum snaryad turini mumkin qadar uzoq masofaga uloqtirishdir. Uloqtirish masofasi fizika nuqtai nazaridan olganda, qiyalab itqitishning qonuniyatlariga bog'liqdir. YA`ni, snaryadning katta uchish tezligi uloqtirish masofasi ta'sir o'tkazadi.

Bundan tashqari albatta o`zga shaklga keltirilgan quyidagi omillar ham bevosita o`z ta'sirini ko`rsatadi:

- Uchib chiqish burchagi;
  - Uchib chiqish balandligi;
  - Nayza va diskning aerodinamik xususiyatlari;
- SHuningdek:
- Shamol tezligi va yo`nalishi.

**Uchib chiqish burchagi.** Snaryadlar uloqtirilganda ideal shart sharoitda uchib chiqish burchagi 45 gradusni tashkil etadi, bu holatni o`q uzishdagi holat bilan taqqoslash mumkin. Bu ayniqlsa o`ta katta uchib chiqish tezligi va bir xil uchish balandligida ko`rinadi. engil atletikadagi uloqtirishda ideal uchib chiqish burchagi ushbu ko`rsatkichdan ma'lum darajada past bo`ladi. CHunki bu holat snaryadning tushishiga qiyoslaganda yuqori bo`lgan uchib chiqish nuqtasi bilan (ayniqlsa yadro itqitishda o`ta muhim, chunki bunda balandlikdagi farq va uloqtirish masofasining o`zaro munosabati o`ta kattadir), insonning

anatomik tuzilishi (qo'l va elka mushaklariga qaraganda kuchliroq bo'lgan oyoqlar va orqa tos mushaklari) va shuningdek, uloqtirish snaryadlarining aerodinamik o'ziga xos jixatlariga ham bog'liqdir.

**Uchib chiqish tezligi.** Uchib chiqish tezligi uloqtirish bo'yicha 2.1. jadvaldagi kabi natijani ko'rsatadigan eng muhim ta'sir etuvchi omildir. Jadval bundan tashqari uchib chiqish tezligiga qarama qarshi o'laroq uchib chiqish burchagi faqat ma'lum xajmda natijani pasaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Ko'pincha sportchilar tekkis uchib chiqish burchagi ostida – xarakatlanuvchi mushaklar uchun eng qulay vaziyat yuzaga kelishi sababli – eng yuqori tezlikka ega bo'ladilar (Hinz, 1991). YOmon ob havo sharoiti tufayli uloqtirish turiga xos, individual optimal uchib chiqish burchagi, yana bir bor o'zgarishi mumkin, qarama qarshi tezlikdagi shamol esayotgan paytda misol uchun disk itqitishda yassi uchib chiqish burchagini nafi kattadir (2.1. jadvalga qaralsin). Ammo 1980 yildagi musobaqalar vaqtida yomon ob havo natijasida nayza uloqtirish jarayonida qoidaga ko'ra snaryadning oldinga chiqib qolshi, nayzaning uchish va sapchish xususiyatini shu darajada yomonlashtirdiki, bugungi kunda qarama qarshi tezlikdagi shamol esayotgan paytda uchib chiqish burchagi qanday bo'lishi kerakligi xaqida hech qanday umumiylar tavsiyalar mavjud emas.

**Uchib chiqish balandligi.** Uchib chiqish balandligi sport snaryadlarining parabola shaklidagi uchish traektoriyasining 1:1 nisbatidan kelib chiqib, uloqtirish masofasini belgilaydi. YA'ni uloqtirish 20 santimetr balandroq bo'lsa, snaryad bunday sharoitda 20 santimetr uzoqroqqa tushadi. Ammo boshqa o'lchamlarga nisbatan uchib chiqish balandligi uloqtirish masofasiga kamroq ta'sirga ega, shu sababdan ham u mashg'ulotlar jarayonida birinchi o'rindagi maqsad sifatida ko'rilmasligi lozim.

Engil atletikadagi uloqtirish sportida uchib chiqish burchagi			
Snaryad	odatiy shart sharoitda	qaramaqrashitomondan esayotgan shamol paytda	bir tomoniga esayotgan yo'ldosh shamol paytda
yadro	38 - 41°	-	-
disk	32 - 35°	27 - 32°	35 - 42°
nayza	37 - 38°	34 - 37°	38 - 41°
bosqon	42 - 45°	-	-

**Uloqtirish – atsiklik egiluvchanlik mashqi.** Uloqtirish bo'yicha xarakatlar ideal holatda atsiklik egiluvchanlik mashqi sifatida ko'riliши va Maynel/SNabel 2007 ning uch etapli modeliga ko'ra quyidagicha bo'linishi mumkin:

1. **Tayyorgarlik ko'rish fazasi:** Xarakatlarning olg'a intilish va yugurib tezlashishdan (tezlikni oshirish, sapchish, sapchishning boshlanishi yoki tananing burilishi) uloqtirish/itqitishgacha bo'lgan davri.

2. **Asosiy faz (uloqtirish snaryadining asosiy tezlashish davri):** uloqtirish/itqitish vaqtidan boshlab sport snaryadining uchib chiqishigacha bo'lgan vaqt (bosqon uloqtirishda tananing burilishlari ham asosiy fazaga kiritiladi).

3. **YAkuniy faz:** sport snaryadining uchib chiqqanidan keyin tanani tutib qolish (aynan musobaqalarda uloqtirish/itqitishning hisobga olinishida o'ta muxim).

**Oldindan yugurib tezlashish.** Uloqtirishda sportchilar o'zlarining sport snaryadlariga katta uchib chiqish tezligi berishadi. Bunda albatta optimal uchib chiqish burchagi va snaryadning ma'lum uchish xususiyatlarini hisobga olinib, uzoq masofaga

uloqtirishga xarakat qilinadi. SHu sababdan uchib chiqishdagi eng katta turtki engil atletikadagi uloqtirish turlarining barchalariga xos bo`lgan xarakatlar majmuyidir. Uchib chiqishga optimal sharoit yaratish uchun sportchi daslab jami atlet – snaryad tizimini tezlashtirishi lozim. Ushbu tezlashish asosan oyoqlar, nayza uloqtirishda yugurib tezlashish, doira ichidan uloqtirishda esa tananning burilishi yoki sapchishning boshlanishi bilan amalga oshiriladi. Bunda sportchining maqsadi tezlikni oshiruvchi xarakatlarni uzaytirishdir. Bu holatni ayniqsa yadro itqitishda sapchishning boshlanish texnikasida kuzatish mumkin: bunda yadro itqituvchi engashgan holatdan, itqitish yo`nalishiga teskari bo`lgan tomondan xarakatlanishni boshlaydi.

**Tananing burilishi.** Tananing yuqori qismi oyoqlarning tezlashishiga majburan bo`ysunadi va uloqtirishning boshlanishida qisqa muddatli sustkashlik yuzaga keladi, ya`ni ko`pincha tananing umurtqa qismida xuddi bo`lt kabi burilish xosil bo`ladi: tananing elka qismi bel tomon, pastroqda esa bel qismi oyoqlarga nisbatan aylanma tarzda buriladi (bosqon uloqtirish misolidagi oyoq uchlari orasidagi to`g`ri chiziq ko`rsatilgan 2.2. rasmga qaralsin). Sport snaryadining tezlashishi qisqa muddatga sekinlashadi, oyoyoqlar va bel tananing yuqori qismidan o`tib ketadi. Bu bilan katta, to`g`ri egiluvchan mushaklar bilan bir vaqtda diagonal mushaklar ham xarakatga keltiriladi: tananing yuqori qismida egri umurtqa mushaklari, oyoqlarda esa abduktor va adduktor mushaklar. Tananing burilishi orqali barcha ishtirok etuvchi mushaklarda reaktiv o`ta yuqori tezlik talab etadigan keskin xarakatga tayyorgarlik holati yuzaga keladi. YA`ni: mushaklar avvaliga eksentrik, so`ngra esa konsentrik ishlaydilar. Bu holat uzayish qisqarish sikli deb ham ataladi.

**Tezlik olishning asosiy fazasi.** Ikkala oyoq ham tayanch holatiga kelgach, tanadagi energiyaning oyoqdan belning itqitishga tayyor qismi tomon xarakatlanishi boshlanadi. Orqaga cho`zilgan qo`l tufayli tanada tarang tortilgan yoy holati yuzaga keladi. Bu holatni ayniqsa nayza uloqtirishda kuzatish mumkin.

Tos suyagi bilan son suyagini tutashtirgan bo`g`inning uloqtirishga shay tomoni cho`zilayotgan, belning negizi uloqtirish liniyasiga mos holatga keltirilgan vaqtda, elka negizi hali orqaga tortilgan bo`ladi, tana burilishda davom etadi. Bu bilan tananing elka va qo`l mushaklarida o`sib boruvchi taranglik xosil bo`ladi. U esa o`z navbatida mushakda reaktiv, eksentrik-konsentrik reaksiyani keltirib chiqaradi va uning o`ta yuqori tezlikdagi qisqarishiga olib keladi.

Qachonki bel tortilib optimal tarang holatga kelsa, tananing itqitishda ishtirok etmaydigan qismi elka negizini erkin qo`yadi, va uloqtirishga yo`naltirilgan kuch beldan tananing yuqori qismiga, so`ngra elkaga, qo`lga (nayza uloqtirishda yuqoridan uloqtirish, yani kuchning elkadan qo`lga qarab kelishi) va qo`lning pastki qismiga, qo`l panjalariga shundan so`nggina sport snaryadiga o`tadi.

Ideal holatda bu erda tana qismlarining tezligi, muntazam kamayib boruvchi umumiyl og`irlilik tufayli ortib boradi. Bir vaqtning o`zida qarama-qarshi elka xarakati to`siladi, bu esa o`z navbatida tananing uloqtiruvchi tomoniga energiya borishini kuchaytiradi, va sport snaryadi uloqtirish oldidan maksimal tezlikka erishadi.

**Tana muvozanatini saqlash.** Jami energiyaning itqitilayotgan snaryadga yo`naltirilganligi bois, tananing qolgan qismi quvvatdan sezilarli darajada maxrum bo`ladi. Ko`p xollarda qoldiq tezlik nolga tenglashadi. Bu holat uloqtirish holati deb ataladi va tor diradan turib uloqtirish, itqitishdan so`ng aynan tana muvozanatini saqlab qolishda qo`l keladi. Agarda uloqtirishdan so`ng tanada qoldiq tezlik saqlanib qolgan bo`lsa, sportchi aylanib sakrash, burilishda davom etish va boshqa shu kabi xarakatlar bilan o`z tanasini doira ichidan, xususan uloqtirish chegarasidan chiqib ketmasligiga urinadi. Nayza uloqtirishda uloqtirishdan oldingi tezlik nisbatan yuqoriroq bo`ladi, shu sabab nayza uloqtirilgach, tana muvozanatini saqlab qolish uchun, bir yoki bir necha qo`shimcha qadamlar qo`yishga joy kerak bo`ladi.

## YAXSHI ULOQTIRUVCHINING JISMONIY VA RUHIY KRITERIYLARI


- baquvvat, gavdali, qo'l mushaklari yaxshi rivojlangan, keng qulochli,
- tezkor mushak paylariga ega, mushaklari chiniqtirishga moyil,
- sprint tezlik, tezlashishdagi ustunlik,
- yuqori darajadagi reaktivlik (uzoqqa sakray olish, yadroni kuch bilan itqita olish, engil vaznli snaryadlarni uloqtira olish)
- xarakatda epchillik, ayniqsa elka kengligida,
- muvozanat saqlashda meyordan yuqori ustunlik, yuqori motorik o'rganish qobiliyati,
  - sog'liq, kuch sarflash bilan bog'liq yuklamalarni ko'tara olish, tezda o'ziga kela olish xususiyati,
  - bo`g'inlardagi benuqsonlik,
  - yuqori motivatsiya, intiluvchanlik, tirishqoqlik.

### Engil va og'ir uloqtirish snaryadlar.

**Engil snaryadlar.** Hozircha kichik hajmdagi maksimal kuchga ega bo`lgan yosh sportchilarga uloqtirish turlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish maqsadida, har bir yosh toifasi uchun engil vazndagi sport snaryadlari tavsiya etiladi. Bu bilan yosh sportchilarga sport snaryadlaridan yaxshiroq foydalana olish imkoniyati yaratiladi. Buning qo'shimcha samarasi ham mavjud: yosh, tez kuchga to'lib borayotgan sportchi, katta yoshdagi sportchilarning masofadagi ko'rsatkichlarini takrorlay oladilar. 6 kilogrammli yadroni 22,56 metr masofaga uloqtira olgan David Storl, bunga yaxshi misol bo'la oladi. Disk uloqtirish va yadro uloqtirish bo'yicha yosh erkaklar o'rtasidagi xalqaro musobaqalarda ham engil snaryadlar qo'llana boshlagandan beri, ushbu turlar bo'yicha ko'rsatkichlar juda ham yuqorilab ketdi, xattoki katta yoshdagi sportchilarning bu boradagi yutuqlariga ham etib olindi. Mashg'ulotlar uchun bu quyidagi ahamiyatga ega: engil snaryadlar bilan rejalshtirilgan yuqori tezlikka dastlabki, asosiy ayniqsa esa so'ngi tezlashish fazasida oson etishish mumkin. Bunda murabbbiy o'ta yuqori tezliklarda ham xarakatlanish sifati yuqori darajada qolayotganligiga albatta ishonch xosil qilishi kerak.

*Izoh: Ayollar o'rtasida snaryadlar massasi kamdan kam holatlarda o'zgaradi. A-yoshda barcha turlar bo'yicha eng so'nggi massa ko'rsatilgan. Bu bilan ayollarning erta balog'atga etishi hisobga olinganligini ko'rishimiz mumkin. Ayollar o'rtacha hisobda erkaklar maksimal kuchining 70 foiziga etishlari mumkin, shu sababdan uloqtirish bo'yicha sport snaryadlarida ham bu holat hisobga olinishi va ayollar musobaqalarida og'ir sport snaryadlaridan ham foydalanish lozim (g'ovlar osha sprint va ko'p kurashda ham o'xshash munozaralar mavjud). Buning albatta foydali tomonlari ham mavjud, xususan, ayollar o'rtasida ham yangi jehon rekordlari o'rnatilishi mumkin. Ayni damda esa, musobaqalarga o'zgartirishlar kiritish rejalshtirilmagan.*

Bu samaradan ayniqsa sportchilarning yosh, o'spirinlik davrida foydalanish kerak, sportchilar yosh bo'yicha o'zlaridan oldingi toifaning engil snaryadlari bilan ishlaydilar va shu tariqa yoshlarga mos maxsus mashg'ulotlar tashkil etiladi. Meyordagi snaryadlarga yaqinligi sababli, engil snaryadlar test sinov o'tkazish, oldindan prognoz berish uchun juda qo'l keladi.



**6-rasm. Bosqon uloqtirish bo`yicha mashg`ulotlar uchun tanlab olingan snaryadlar.**

**Og`ir snaryadlar.** Og`ir snaryadlardan foydalanish o`ziga xos jihatga ega. YUqori qarshi qarshilik, kuchni ham yuqori darajada qo`llashga undaydi, ishtirok etayotgan barcha mushaklarni yuqori darajada faollashishiga olib keladi, va bu bilan mushaklardagi o`sish jarayoniga katta rag`batlantiruvchi omil bo`ladi. Bu borada gap kuch ishlatalishga qaratilgan mashg`ulotlar xaqida bormoqda. Tana qarshiligi tinimsiz kuchaytirilishi mumkin emas, chunki bunda xarakatlanish jarayoniga, xususan uloqtirish texnikasiga katta putur etadi.

Harakatlanish jarayoning uzilib qolishi va uchib chiqish burchagini yassiliqi sport snaryadi o`ta og`irligining belgisidir. Bu ayniqsa xarakatlar ketma ketligini hali yaxshi o`zlashtirmagan yosh sportchilarga ko`proq tegishlidir. Ular avvaliga meyorl va engilroq snaryadlar bilan uloqtirish texnikasining nozik tomonlarini o`rganib chiqishlari lozim.

Umuman olganda, og`ir snaryadlaryordamidagi texnika mashg`uloti, shuningdek, kuch talab qiluvchi maxsus mashqlar ham, birinchi navbatda sportda ilgarilab ketgan uloqtiruvchilar uchun mo`ljallangan. Kichik yoshdagি sportchilarda nisbatan og`ir snaryadlar foydalanilishi mumkin, ammo ular qoidaga ko`ra sportchilarning keyingi yosh toifasida foydalaniladigan snaryadlar bo`lishi mumkin. “Og`ir snaryadli uloqtirishlar” esa katta yoshdagи sporchilarga qoldirilsa, maqsadga muvofiq bo`ladi.


**Snaryadlarning aerodinamik xususiyatlari.** Doira shaklidagi snaryadlar (yadro, bosqon, shuningdek, zarb beruvchi va to`ldirma to`plar) uloqtirilganda, uloqtirish masofasi uchib chiqish tezligi va burchagi bilan belgilanadi; musoid shamol (bir tomonlama yo`ldosh shamol) vaqtida esa snaryadning uchish masofasi uzayadi, muxolif shamol (qarshidan esayotgan shamol) vaqtida esa snaryadning uchish masofasi qisqaradi. Ulardan farqli o`laroq disk va nayza uchish va sapchish xususiyatiga ega. Bu holat uloqtirish jarayonida, ayniqsa uchib chiqish burchagi va uchib chiqish nuqtasiga nisbatan albatta hisobga olinishi zarur.

**SHamol ta`siri xaqida muloxaza.** YAdro uloqtirishda natijaga shamolning ta`siri deyarli sezilmaydi, ammo bosqon uloqtirishda orqadan esayotgan shamol, bosqonning uzoqroq va balandroqda uchganligi sabab, kuchli shamol ta`sirida taxminan yarim metr uzoqroq masofaga tushishi mumkin.

*Izoh: Xavfsizlik nuqtai nazaridan agar imkon bo`lsa barcha aylanib uloqtirishlar mashg`ulotlar jarayonida maxsus uloqtirish sektorida amalga oshirilishi lozim.*

**Xavfsizlik.** Uloqtirishning yana bir etibordan chetda qolmasligi lozim bo`lgan jixati, uzoq masofaga uchuvchi snaryadning atrofdagi, uloqtirishda ishtirok etmayotgan shaxsga nisbatan xavf tug`dirishidir. Uloqtirish mashg`ulotlari vaqtida, ayniqsa mashg`ulotlar guruhda o`tkazilayotganda, murabbiy albatta etarlicha xavfsizlik choralarini ko`rishi lozim.

Bu birinchi navbatda uloqtirishni mashq qilayotgan va uloqtirishda ishtirok etmayotgan shaxsga (masalan boshqa sportchilar) tegishli bo`lib, ikkalalari orasidagi taxminiy uloqtirish masofasi va plus xavfsizlik masofasi saqlanishi kerak. Qoidaga ko`ra uloqtirishda ishtirok etishi kerak bo`lgan boshqa sportchilar, xavfsiz zonada, ya`ni uloqtiruvchining ortida turadilar. Ammo ayrim holatlarda uloqtirish snaryadlari nazoratdan chiqib ketishi mumkin, shu sababdan uloqtiruvchi doimo xushyor bo`lishi kerak.



7-rasm. Sporthilarning uloqirish bo'yicha mashg'ulotlarda joylashtirish

Aylana ichidan amalga oshiriladigan hamma turdag'i uloqtirishlarda va yadro itqitishda urinishlar statik holatdan bajarilishi hamda statik holatda aylana ichidan chiqib ketish bilan yakunlanishi kerak.

**Qatnashchilarga quyidagilar taqiqlanadi:** ikkita yoki bir nechta barmoqlarni birga bog'lash yoki bint bilan o'rab chiqish, qo'l kaftlarini bint bilan o'rash (bint va plastirdan faqat musobaqa shifokorining ruxsati bilan foydalanish mumkin, bunda jarohat musobaqalarda qatnashish imkoniyatidan mahrum qilmasa bo`ldi); snaryadga surkovchi ashya surtishga ruxsat berilmaydi; oyoq kiyim tagining aylana sirti bilan yopishqoqligini yaxshilovchi modda-larni qo'llashga ruxsat berilmaydi.

Snaryadni yaxshiroq ushlab olish uchun qo'llarga surkovchi ashya surtishga ruxsat beriladi. Bosqon uloqtiruvchilarga kaft tomoni silliq bo`lgan qo'lqoplardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Urinish vaqtida snaryad sinib qolganda qatnashchiga takroriy urinish beriladi.

**Urinish hisoblanmaydi, agar:**

- qatnashchi, urinishni bajarayotib (snaryadni qo'sidan chiqarib yuborishdan to turg'un holatni egallagunga qadar), tanasi, kiyimi, oyoq kiyimining istalgan qismi bilan aylana tashqarisidagi (to'sin oldidagi) erga tegib ketsa yoki halqa, taxtacha, to'sinni bosib olsa yoxud ularga yuqorida tegib o'tsa (bunda halqa yoki taxtachaning ichki qismiga tayanishga ruxsat beriladi), yoki snaryadni chiqarib yuborganda u halqa yoki to'sin orqasiga qulasa;

- snaryad uloqtirish sektorini cheklovchi chiziq tashqarisiga qulasa yoki snaryad izi sektor chegaralari chizig'ida turib qolsa;

- qatnashchi uloqtirishni bajargandan keyin to'sin ustidan yoki aylananing oldingi qismidan oldinga yoxud aylanani ikkiga ajratib turuvchi belgisidan tashqariga chiqib ketsa (ya`ni qatnash-chi urinishni tugallagandan so'ng aylanadan uning sektorga nisbatan orqadagi yarmidan chiqib ketishi kerak);

- qatnashchi snaryadni chiqarib yuborgandan keyin statik holatni egallamay turib aylanadan chiqib ketsa;

- qatnashchi snaryad erga tushguniga qadar aylanadan (yugurib kelish yo`lkasidan) chiqib ketsa;
- har bir uloqtirish turlari uchun xususiy qoidalarni buzsa.

Snaryad izi tayoqcha (qoziqcha) bilan belgilanadi. O`Ichashlar har xil urinishdan keyin amalga oshiriladi, keyin qoziq olib tashlanadi. O`Ichagichning nolda turgan belgisi har doim sektorda (maydonda) turadi va snaryad izining yaqin chetiga qo`yiladi. O`Ichagich o`qi aylana markazi yoki payza, granata uloqtirish uchun belgilangan segment markazidan o`tishi kerak.

Uchinchi darajali yoki yomon ob-havo sharoitlarida o`tkazilayot-gan musobaqlarda ketma-ket uchta urinishni bajarishga ruxsat beriladi, shundan so`ng eng yaxshi natija o`lchanadi. Agar maydondagi hakam eng yaxshi natijani aniqlashga qiyalsalisa, ikkita o`lchash o`tkaziladi.

### 3. ULOQIRISHLARDAGI ASOSIY QOIDALAR

**Nayza uloqtirish** turgan joyidan yoki yugurib kelib (burilishlarsiz) uloqtiruvchi qo`l elkasi yoki bilagi ustidan bajariladi. Nayzani o`ralgan joyidan ushlash lozim. Nayza uloqtirish usulida hech qanday o`zgartirishlarga ruxsat berilmaydi. Final kuchlanishi fazasida qatnashchiga sektorga orqasi bilan burilishga ruxsat berilmaydi. Nayza erga borib tushmasdan yo`lkani tashlab chiqib ketishga ruxsat berilmaydi. Agar nayza erga tushish vaqtida boshqa qandaydir qismi bilan emas, uchi bilan erga tegsa, uloqtirish to`g`ri bajarilgan hisoblanadi. Granata va koptok uloqtirish nayza uloqtirish singari bajariladi. Nayza, koptok, granata uloqtiruvchilar yugurib kelish yo`lkasi cheti bo`ylab o`zlarining yugurib kelish joylarini belgilab olishlari mumkin, lekin yo`lkaga belgilar qo`yish man qilinadi. Qatnashchi belgi qo`yish uchun musobaqa tashkilotchilari taqdim qilgan yopishqoq tasmadan yoki fishkadan foydalanishlari mumkin.

**Disk uloqtirish** aylana ichidan, qatnashchi statik holatni egallab olgandan so`ng turgan joyidan yoki burilib (bir yoki bir necha marta), bir qo`lda bajarilishi kerak. Qatnashchi snaryad erga tushmagunga qadar aylanadan chiqib ketmasligi lozim. Qo`lqoplardan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

**Bosqon uloqtirish** qatnashchi statik holatni egallagandan so`ng aylana ichidan turgan joyida yoki burilib (bir yoki bir necha marta), ikkala qo`lda bajariladi. Barmoqlari ochiq qo`lqoplardan foydalanishga ruxsat beriladi. Agar qatnashchi bosqonni aylantirayotganda aylana tashqarisidagi erni bosib olsa va otishni bajarmay turib aylanishni to`xtatsa, urinish inobatga olinmaydi; agarda u uloqtirishni bajarsa, urinish hisobga olinadi. Harakat-larni boshlashdan oldin qatnashchi bosqonni aylana tashqarisiga yoki ichiga qo`yish huquqiga ega. Bosqon uloqtirishda natija shar qoldirgan izning yaqin nuqtasi bo`yicha o`lchanadi.

**Yadro itqitish** qatnashchi statik holatni egallab olgandan so`ng aylana ichidan turgan joyidan yoki harakatlanib bir qo`lda elkadan oshirib bajarilishi kerak. Yadro ushlab turgan qo`l elka darajasidan pastroq tushirib yuborilmasligi lozim. Agar yadro elka chizig`idan yon tomonga yoki orqaga chiqarib yuborilsa, urinish inobatga olinmaydi.

## GLOSSARIY

<b>Tushunchalar</b>	<b>O'zbek tilida izoh</b>	<b>Rus tilida izoh</b>	<b>Ingliz tilida izoh</b>
Jismoniy tarbiya	pedagogik jarayon bo`lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo`lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog`liq bo`lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan.	сфера социальной деятельности, направленная на сохранение и укрепление здоровья, развитие психофизических способностей человека в процессе осознанной двигательной активности. Это часть культуры, представляющая собой совокупность ценностей и знаний, создаваемых и используемых обществом в целях физического и интеллектуального развития способностей человека, совершенствования его двигательной активности и формирования здорового образа жизни, социальной адаптации путём физического воспитания, физической подготовки и физического развития	is an educational course related to the physique of the human body. It is taken during primary and secondary education and encourages psychomotor learning in a play or movement exploration setting to promote health.
Jismoniy rivojlanish	inson organizmining asta-sekinlik bilan tabiiy sharoitda shakllanishi – tashqi ko`rinishini va xarakat faoliyatining o`zgarishi jarayonidir.	Процесс развития совокупности морфологических и функциональных свойств организма (скорость роста, прирост массы тела, определённая последовательность увеличения различных частей организма и их пропорций, а также созревание различных органов и систем на определённом этапе развития), в основном запрограммированных наследственными механизмами и реализуемых по определённому плану при оптимальных условиях жизнедеятельности	is the process that starts in human infancy and continues into late adolescent concentrating on gross and fine motor skills as well as puberty. Physical development involves developing control over the body, particularly muscles and physical coordination. The peak of physical development happens in childhood and is

			therefore a crucial time for neurological brain development and body coordination to encourage specific activities such as grasping, writing, crawling, and walking.
Jismoniy bilim	atamasini yangi davrdagi jismoniy tarbiyaning eng avvalgi tizimlarida uchraydi. Masalan, Fit «o`z vujudini tarbiya» qilish maqsadida jismoniy mashqlar zarurligi haqida gapirgan edi. Jismoniy bilim jismoniy mashqlarni bajarishga oid maxsus nazariy tushunchalar va ularni lozim bo`lganda turmushda qo`llash mahorati va ko`nikmalarini o`z ichiga oladi.	формирование общих представлений о физической культуре, ее значении в жизни человека, роли в укреплении здоровья, физическом развитии и физической подготовленности	the formation of general ideas about physical culture, its importance in human life, role in promoting health, physical development and physical preparedness.
Jismoniy tayyorgarlik	erishilgan va birlashgan ishchanlikni, amaliy harakatdagi ko`nikma va malakalarni maqsadli faoliyatning samaradorligiga ta`sir ko`rsatish bo`yicha tashkil topgan jismoniy tayyorgarlik natijasidir.	это педагогический процесс, направленный на воспитание физических качеств и развитие функциональных возможностей, создающих благоприятные условия для совершенствования всех сторон подготовки. Она подразделяется на общую и специальную.	is a pedagogical process aimed at education of physical qualities and development of functionalities that create favorable conditions for the improvement of the preparation of the parties. It is divided into general and special.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik	sog'liqni mustahkamlashga, keng doirada harakat malakalari va ko`nikmalariga ega bo`lishiga, o`zidan keyingi maxsus tayyorgarlikka zamin bo`lishi uchun xizmat qiladigan asosiyharakat sifatlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan.	это процесс совершенствования двигательных качеств, направленных на всестороннее и гармоничное физическое развитие человека.	is the process of improving the motor characteristics aimed at the full and harmonious development of the physical person.
Kasb-hunar jismoniy tayyorgarligi	bu jismoniy tarbiyaning mutaxassislashtirilgan, aniq mehnat turi va mudofaa faoliyatiga tayyorlashga yo`naltirilgan jarayondir.	это специально направленное и избирательное использование средств физической культуры и спорта для подготовки человека к определенной профессиональной деятельности.	is specifically targeted and selective use of means of physical culture and sport to prepare the person to a profession.
Sport tayyorgarligi	jismoniy tarbiyada maxsus yo`nalishni ifoda etadi. Buning vazifasi insonni tanlab olingan biror sport turida yuqori natijalarga erishishni ta'minlashdir.	это процесс воспитания физических качеств, обеспечивающий преимущественное развитие тех двигательных способностей, которые необходимы для конкретной спортивной дисциплины (вида спорта) или вида трудовой деятельности.	is the process of education of physical qualities, ensuring the priority development of the motor abilities that are needed for a particular sports discipline (sport) or type of employment.
Jismoniy madaniyat	jamiyat a'zolari jismoniy kamolotga erishishini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun maxsus vositalar, uslublar va sharoitlarni yaratish hamda ulardan ratsional	это вид воспитания, специфическим содержанием которого являются обучение движениям, воспитание физических качеств, овладение специальными физкультурными знаниями и формирование осознанной потребности в физкультурных занятиях.	is a kind of education, the specific content of which is learning the movements, education of physical qualities, the mastery of specific

	foydalaniш bo`yicha erishilgan yutuqlarning majmuasidir.		knowledge of physical culture and the formation of a conscious need for physical education classes.
Jismoniy madaniyat harakati	ijtimoiy yo`nalish bo`lib, buning oqimida kishilarni birgalikda, jismoniy madaniyat boyliklarini ishlatalish va ko`paytirishga qaratilgan faoliyatdir.	в целом представляет собой материальный преобразовательный процесс. В нем преобразованию подвергаются непосредственно взаимодействующие несовместимые материальные элементы. Физическое движение безотносительно, поскольку преобразовательный процесс не имеет ничего общего с относительным перемещением частей материи.	in general, is a material conversion process. It transformation exposed directly interacting incompatible material elements. Physical movement whatever, since conversion process has nothing to do with the relative motion of matter.
Jismoniy kamolot	bu har tomonlama jismoniy tayyorgarlik va garmonik jismoniy rivojlangan, mehnat va boshqa sohalardagi talablarga javob bera oladgan individual talantining yuqori darajada rivojlanganligini ko`rsatadi, shaxsni har tomonlama rivojlanish va uzoq yillar sog'ligini mustahkamlash qonuni bilan murosada bo`ladi.	процесс физического образования и воспитания, выражающий высокую степень развития индивидуальных физических способностей.	the process of physical education and training, expressing a high level of development of individual physical abilities.
Frontal usuli	mashklarni barcha ukuvchilar bir vaktda bajaradilar. Uning ustunligi kuprok ukuvchilarni	упражнения выполняются одновременно всеми учащимися. Его преимущество — большой охват детей, достижение высокой	exercises are performed simultaneously by all students. Its advantage -

	kamrab olishda, darsda yukori zichlikka va katta jismoniy ogirlikka erishilishidadir, ukuvchilar ukituvchi farmoyishi yoki komandasini baravariga bajarsalar, yoppasiga shugullanish usuli mashklarni jamoa xolda bajarishning yaxshi namunasi bula oladi.	плотности урока и большой нагрузки. Фронтальный способ является лучшим для коллективного выполнения упражнений, когда все дети одновременно выполняют распоряжение или команду учителя.	high coverage of children, to achieve high-density and high load lesson. Frontal method is best for the collective exercise, when all the children at the same time carry out the disposal of the teacher or team.
Guruxli usuli	shundan iboratki, unda ukuvchilar guruxlarga bulinadilar, xar bir gurux ukituvchi topshirigiga binoan mustakil shugullanadi.	основываются на активности каждого субъекта образовательного процесса, возможности самостоятельно принимать решения и осуществлять выбор, а также на существовании различных точек зрения и свободном их обсуждении. При групповой работе реализуются основные принципы кооперативного обучения.	based on the activity of each subject of the educational process, the possibility to make their own decisions and choices, as well as the coexistence of different points of view and discuss them freely. When group work implemented the basic principles of cooperative learning.
Aylanma mashg'ulot usuli	darsning ma'lum bir vaktida ukuvchilar 4-8 kishilik bir necha guruxga bulinib, ukituvchi kursatmasiga binoan turli snaryad yoniga yoki mashgulot joyiga boradilar va ukituvchi signali buyicha mashklarni mustakil bajara boshlaydilar.	это <u>высокоинтенсивный</u> метод тренинга, который может применяться для повышения выносливости, а также при <u>сушке</u> . Круговая тренировка мало пригодна для стимуляции <u>роста мышц</u> и увеличения силы, особенно если выполнять на постоянной основе	a high intensity training method that can be used to improve stamina, and drying. Circuit training is of little use to stimulate muscle growth and strength gains, especially when performed on an ongoing basis.

Xronometraj	jismoniy tarbiya darsining umumiyl va motor zichligini aniklash maksadida olib boriladi.	метод изучения затрат времени с помощью фиксации и замеров продолжительности выполняемых действий.	a method of studying the costs-time by capturing and measuring the length of the workflow.
Darsning umumiyl zichligi	deb, pedagog nuktai nazardan tugri foydalanilgan vaktning butun dars davomidagi nisbatiga aytildi.	это отношение педагогически оправданных (рациональных) затрат времени к общей продолжительности урока.	is the ratio of time spent in locomotor activity involved in the total duration of the lesson. To calculate the density of the motor must be the total time spent in the exercise multiplied by 100% and divide by the total time.
Darsning motor zichligi	deb, ukuvchilarning bevosita xarakat faoliyatiga, mashk bajarish uchun sarflangan vaktga aytildi.	это отношение времени, затраченного на двигательную деятельность занимающихся к общей продолжительности урока. Для расчёта моторной плотности необходимо суммарное время, затраченное на выполнение упражнений умножить на 100 % и разделить на общее время.	this ratio pedagogically justified (rational) time-consuming for the total duration of the lesson.
Pulsometriya	jismoniy tarbiya darslarida darsdagi yuklamani ukuvchilarning yoshiga, tayyorgarligiga, mashgulot utkaziladigan joyning sharoitiga muvofikligini aniklash jarayonidir.	измерение частоты пульса. Ее изменение интегрально отражает различные стороны психофизиологического напряжения: мышечного, терморегуляторного, нервно-эмоционального и др.	measurement of heart rate. Its change integrally reflects various aspects of psychophysiological stress: muscle, thermoregulatory, neuro-emotional and other.
Sport	qisqa ma'noda shaxsiy musobaqa faoliyati deyilsa, keng ma'noda	организованная по определённым правилам <u>деятельность</u> людей, состоящая в сопоставлении их	organized according to certain rules of human activities,

	shaxsiy musobaqa faoliyati, shu faoliyat asosidan kelib chiqadigan maxsus tayyorgarlik hamda uning me'yor va yutuqlari tushuniladi.	физических и/или интеллектуальных способностей, а также подготовка к этой деятельности и <u>межличностные отношения</u> , возникающие в её процессе.	which consists in comparing their physical and / or mental abilities, as well as preparation for this activity and interpersonal relations arising in the course of it.
Sport musobaqalar i	ko`rsatish uslubi, sport yutuqlarini baholash va taqqoslash, sport sohasidagi raqobatlarni o`ziga nisbatan boshqarishdir. Sport musobaqalari, boshqalar bilan muloqotda bo`lishni kerakli omili, shaxsni tashkil topishini vositasi, inson imkoniyatlarini anglab etish, etalon ko`rsatkichlarini tuzishga qaratilgan.	форма деятельности, борьба, соперничество за достижение превосходства, лучшего результата (выигрыша, признания и т. п.) или в целях поддержки биологического <u>инстинкта выживания</u> .	form of action, fighting, rivalry for achieving excellence, the best result (win, recognition and so on. P.) or in support of biological survival instinct.
Sport musobaqalar ini maqsadi	kuchli sportchilar va jamoalarni aniqlash, sport mahoratini takomillashtirish, jismoniy madaniyat va sportni targ'ibot qilish, sport tashkilotlari, murabbiylar, sportchilar, hakamlar faoliyatiga ob'ektiv baho berishdir.	популяризация и пропаганда спорта и физической культуры как важного средства укрепления здоровья граждан;	popularization and promotion of sport and physical education as an important means to enhance citizens' health;
Sport harakati	ijtimoiy harakatning maxsus shakli bo`lib, tuzish, rivojlanish, saqlash, sport boyliklarini qabul qilish va	это исторически обусловленный процесс создания ценностей спорта	is historically conditioned value creation process sport

	almashish, shaxsni tashkil topishi uslubi, jamiyatga ishchi kuchi hamda Vatanning faol himoyachilarini tayyorlaydi.		
Sport tayyorgarligi tizimi	bilim, vositalar, uslublar, shakllar va shu muhitda tashkil qilish bilan sportchini eng yaxshi darajada tayyorlashni ta'minlash, shuningdek, sportchini tayyorlashni amaliy faoliyatidir.	это комплекс организационно-методических мероприятий педагогического, медико-биологического, психологического и социального характера, позволяющих определить высокую степень предрасположенности (одаренности) ребенка, подростка, юноши к тому или иному роду спортивной деятельности (спортивной дисциплине).	a complex of organizational and methodological measures pedagogical, medical-biological, psychological and social nature, allowing to define a high degree of predisposition (gifted) child, a teenager, a young man to a particular kind of sports activities (sports discipline).
Sport maktabi	sportchilarni tayyorlashni yagona tizimi bo`lib, bir guruh mutaxassislarni ijobiy izlanishga asoslanadi.	вид образовательного учреждения дополнительного образования детей для подготовки юных спортсменов и приобщения к массовой физической культуре детей и молодёжи от 6 до 18 лет.	kind of educational establishment of additional education of children to prepare young athletes and initiation to the mass physical culture of children and young people from 6 to 18 years.
Sport mashg'ulotlari	bu sport tayyorgarligini bir qismidir. Sport mashg'ulotlari maxsus jarayonni o`z ichiga olib, aniq tanlangan sport turi bo'yicha, sportchini	элементарные движения, составленные из них двигательные действия и их комплексы, систематизированные в целях физического развития. Физические упражнения сформировались на основе	organizations operating in the field of sports, the purpose of which is to prepare athletes, sports events, education or

	yuqori ko`rsatkichlarga erishishida, jismoniy mashqlar orqali organizmni rivojlantirish, jismoniy sifatlar va qibiliyatlarni takomillashtirish uchun foydalanilgan maxsuslashtirilgan jarayondir.	движений и действий, заимствованных из трудовой, бытовой, военной деятельности человека (бег, ходьба, прыжки, метания, поднятие тяжестей, плавание и др.)	other activity related to sports.
Sportchini tayyorlash	kengroq tushuncha bo`lib, u sportda yuksak ko`rsatkichlarga erishishga tayyor bo`lishi va uni amalga oshira borishni ta'minlovchi barcha vositalardan foydalanishni o`z ichiga oladi.	количественный или качественный уровень показателей спортсмена в спортивных соревнованиях. Общим для всех видов положением, определяющим истинность спортивного результата, является его достижение в условиях соревнований при соблюдении соответствующих правил.	basic movement, made up of their physical actions and their complexes, systematized in order to physical development. Exercise is formed on the basis of movements and actions, drawn from labor, consumer, military, human activities (running, walking, jumping, throwing, weight lifting, swimming, etc.)
Sport mashg'ulotlari tizimi	bu sportchilar tayyorlashda beriladigan bilimlarni, tamoyillarni, uslublari va sport ko`rsatkichini, shuningdek, mashg'ulot jarayonini boshqarish va tashkil qilishda amaliy faoliyatini bir butunligidir.	показатель спортивного мастерства и способностей спортсмена, выраженный в конкретных результатах. Спортивные достижения являются одарённости спортсмена, эффективности системы подготовки.	Sports results - quantitative or qualitative indicators of the level of an athlete in a sporting event. Common to all types of situation, defining the truth of sports results, is its achievement in the conditions of competition in compliance with

			relevant regulations.
Sport ko`rsatkichlari	bu sport mahorati va sportchi qobiliyatini qaysi darajada ekanligini ko`rsatib, aniq natijalarda beriladi. Aniq holda, tayyorlash izimini samarali amalga oshirishi mobaynida sport ko`rsatkichlari, sportchini iqtidorigini aniqlaydi.	устойчивая характеристика спортсмена, обобщающая итоги выступлений спортсмена на соревнованиях за определённый отрезок времени (соревновательный период)	Sports achievements - an indicator of sports skills and abilities of the athlete, expressed in concrete results. Sporting achievements are an indication gifted athlete, the effectiveness of training systems.
Sportchining tasnifi	sportchini barqaror tasnifi bo`lib, ma'lum vaqt ichida yoki sport musobaqalarida qatnashishini umumlashgan yakunidir.	показатель спортивного мастерства и способностей спортсмена, выраженный в конкретных результатах. Спортивные достижения являются показателем одарённости спортсмена, эффективности системы подготовки.	Sports skills - resistant characteristics of the athlete, summarizing the results of the athlete performances in the competition for a certain period of time (during the competition)
Mushak kuchi	insonning jismoniy imkoniyatlarini tavsiflovchi ko`rsatkich sifatida - bu mushaklar kuchlanishi oqibatida tashqi qarshilikni engish yoki unga qarshilik ko`rsatish qobiliyatidir.	это то максимальное напряжение, которое она может развить. Определение силы сжатия кисти, производимое с помощью специального прибора — динамометра, широко распространено. Однако только показатели силы неполно отражают работоспособность человека.	Muscle Strength - this is the maximum voltage that it can develop. Definition of hand grip strength, produced by using a special device - a dynamometer, is widespread. However, the only indicators of strength incompletely reflect human performance.
Mutloq kuch	inson kuchi	это сила всей мышечной	Absolute

	potentsialini tavsiflaydi va izometrik tartibda cheklanmagan vaqtida maksimal erkin mushak harakatining kattaligi bilan yoki ko`tarilgan yukning eng yuqori og`irligi bilan o`lchanadi.	массы, которую спортсмен развивает при максимальном усилии.	strength - is the power of the whole muscle mass, which develops an athlete at maximum force.
Nisbiy kuch	mutloq kuch kattiligining jism massasiga nis-batan munosabati bilan, ya`ni jismning bir kilo og`irligiga to`g`ri keladigan kuch kattaligi bilan baholanadi.	это величина силы, приходящаяся на один килограмм веса спортсмена.	Relative strength is the amount of force per one kilogram of body weight of the athlete.
Mushak	anatomik to`qima bo`lib, asab impulsları ta`sirida qisqaradigan, ko`ndalang - chiqish yoki silliq mushak to`qimasi-dan iborat bo`lgan inson tanasining organi.	органы тела животных и человека, состоящие из упругой, эластичной мышечной ткани, способной сокращаться под влиянием нервных импульсов.	Muscles - are organs of animals and human body consisting of elastic, muscle tissue, ability to shrink under the influence of nerve impulses.
Tezlik qobiliyati	bu daqimal vaqt oralig`idagi sharoitda harakatlarning bajarilishini ta`sdiqlovchi inson xususiyatlari-ning funktsional majmuasi.	Быстрота (скоростные способности) - это способность человека выполнить двигательные действия в минимальный для данных условий отрезок времени. Быстрота - это морфофункциональное свойство организма человека, которое определяет быстроту двигательных реакций и движений человека.	Method of circuit training. Sequential execution of exercises that affect different muscle groups and functional systems of the type of continuous or intermittent operation. Usually in the circle turns on 6-10 exercises ("stations") which the athletes are from 1 to 3 times.
CHidamlilik	insonning biron	способность организма	Endurance - the

	harakat faoliyatini uzoq vaqt davomida uning samarasini pasaytirmasdan bajarish qobiliyati.	сопротивляться продолжительному выполнению какой-либо работы без заметного снижения работоспособности. Уровень выносливости определяется временем, в течение которого человек может выполнять заданное физическое упражнение (разновидность деятельности).	body's ability to resist the prolonged execution of any work without a noticeable decrease in performance. endurance level is determined by the time during which a person can perform a specified physical exercise (a type of activity).
Egiluvchanlik	harakat-tayanch apparatining majmuaviy morfologik xususiyati bo`lib, inson gavdasining alohida bo`g`imlaridagi bir-biriga nisbatan bo`lgan harakatdir.	это способность человека выполнять движения с максимальной амплитудой. Она характеризуется степенью подвижности суставов, выражением которой является амплитуда движений (в градусах). Уровень гибкости зависит от эластичности мышц и связочного аппарата, анатомических особенностей суставных поверхностей.	Flexibility - a person's ability to perform the movements with maximum amplitude. It is characterized by the degree of mobility of the joints, which is an expression of the range of motion (in degrees). flexibility level depends on the elasticity of muscles and ligaments, anatomical features of the joint surfaces.